2024-yil. 4-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

Navro‘zi olam muborak bo‘lsin!



2024-YIL 4-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Qodir Oqilov. Umumta'lim maktablari boshqaruvini takomillashtirishning dolzarb masalalari..... 3
Amonkeldi Axmatov. Buxoro adabiy muhiti tarixiga chizgilar.....7

TADQIQOT

Nilufar Ochilova. Metaforaning ingliz va o'zbek ilmiy matnidagi roli.....10
Bahrom Iskandarov. Badiiy tarjima xususiyatlari.....13
Gulmira Zulaypoyeva. Uslub va muallif uslubi (idiostil) tushunchalariga doir qarashlar.....15
Namuna Nazarova. Sirojiddin Sayyid ijodida chopon so'zining badiiy ifodasi.....17
Feruza Qurbonova. XX asr ijodida falsafiy roman taraqqiyoti.....19
Abduvahob Zaripov. Avtobiografik asarlarning gnoseologik tadqiqi.....23
Shohsanam Muhammadiyeva. O'simlik dunyosiga oid iboralarning ingliz tilidagi tasnifi.....26
Fazliddin Sadinov. Anatomik terminlar ishtirokida hosil bo'lgan ayrim veterinariya birikma terminlari xususida.....27
Dilobar Normuminova. Ona tili darslarida og'zaki nutq malakasini rivojlantirish.....30
Rajabboy Abdiyev. "Ot kishnagan oqshom" qissasida qo'llanilgan otlarga doir maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....32
Zuhra Axmedova, Mashxura Saparboyeva, Gulbarchin Batirova. Maktabgacha ta'lim tizimida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga yo'naltirishda oila va ta'lim tashkilotlar hamkorligi.....36
Feruza Atamurodova. Origin of the novel in european literature.....38
Sardor Nazarov. Syntactic and semantic analysis of word combinations in english language.....40
Sarvinoz Kuvandikova. Borrowings from the english language into uzbek banking terminology.....43
Nilufar Turdiyeva, Bobojon Mamatkulov. Types of context and features of expression or non expression i /you- deixis in english.....45
Xilola Maxmudjonova, Gulafro'z Botirova. Importance of artificial intelligence in english language learning.....46
Сурайё Акрамова. Экологические проблемы в романе Чингиза Айтматова «Плаха».....49
Елена Шевченко, Зулайхо Низомитдинова. Основные характеристики лиризма в художественной прозе.....51
Умида Юлбарсова. Использование социальных сетей при обучении русскому языку как иностранному.....53
Шоира Хашимова. Мотив игры в романе Джона Фаулза «Куколка».....55
Гулчехра Мусаджанова. Взгляд на жизнь и деятельность Захириддина

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
https: //oak.uz/pages/4802

Мухаммада Бабура в области литературы....57
Фируза Зоирова. Развитие речевых навыков в обучении русскому языку: индивидуальный подход и эффективные методы....61
Фомина Майдэ. Роль фразеологических выражений в деонтологическом воспитании студентов-медиков..62

TAHLIL

Zulxumor Mirzayeva, Matluba Mallayeva. Adabiyot fani milliy va xorij o‘quv dasturlarining qiyosiy tahlili....65
Nasiba Meyliyeva. Zahiriddin Muhammad Boburning “Etti meni o‘lturgali oxir hijron” ruboiysining tahlili....68
Hasanjon Olimov. Sport xabarlarida polisemantik va monosemantik so‘zlar ishlatilishi va ularning ahamiyati....71
Umida Abdullayeva. Ijodiy xotira – badiiylik asosi....73
Komilxon Bokiyev. “Rohati dil” dostonining nashr matnlari tahlili....75
To‘lqin Mardiyev. O‘zbek tilida “halollik” tushunchasining semantik va etimologik tahlili....76
Munira Nazarova. Tarjima asarlar tahririda adabiy muharrir mas‘uliyati....80
Ro‘ziboy Tangirov. “Bodom qishda gulladi” yoxud ramzda mujassamlashgan xarakter....84
Nigora Muhammedjanova. Margaret Mitchellning yagona va mashhur tarixiy asari....87
Nodira Zikirova. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik tahlili....89
Dilafruz Nazarova. Bahrom Go‘r haqidagi hikoyatning turli talqini....92

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Abduxalil Atamatov. Bo‘lajak mutaxassislarda innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishni aniqlash usullari, mezonlari va ko‘rsatkichlari....95
Shohruh Abdiraimov. O‘qituvchilar etikasining ta’lim natijalariga ta’siri....97
Nigora Hayitova. Ingliz tilidan murakkabligiga ko‘ra darajalangan testlar va ularning asoslari....101
Sanjarbek Sheraliyev, Nag‘ima Jiyenbayeva. Raqamlashtirilgan muhitda muhandislik grafikasi fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni....104
Xolida Hamroyeva. Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik modeli....106
Nigora Rustambekova. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish asoslari....109
Gulbahor Xolmirzayeva. Oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida talabalarning pedagogik tafakkur tamoyillari....110
To‘xtaxon Akramova. Ona tili darslarida o‘yin-topshiriqlarning o‘rni....113
Madina Alimova. Til o‘qitishda zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati....115
Anvar Jabbarov, Nurali Axmedov. Nazariy bilimlar asosida pozitsion va metrik masalalar ishlash....116
Nigora Nematova. Chet til o‘qitishda lingvodidaktik tamoyillar....119
Nargiza Shirinova. Ingliz tili o‘qitishda kursantlarning yozuv ko‘nikmasini shakllantirish....121
Dilso‘z Nigmatova. The importance of educational innovations in improving students' knowledge....123
Gulbahor Jumadullayeva. The role of educational cluster in teaching english....125
Maftuna Ruzmetova. Modern learning technologies in teaching foreign languages....127
Mekhriniso Khusenova. About term and terminology....129
Shokhista Khatamkulova. Didactic foundations for the development of foreign language communicative skills methodological competence of students of a pedagogical university based on credit-module training technology....130
Nodira Salikhova, Nargis Lukmanova. Problems of equivalence in translations and interpretations for special purposes....133

METODIK TAVSIYA

Qobiljon Abdurasulov. O‘zbek tilini o‘qitishda eshitib tushunish malakasini

shakllantirishning metodik tahlili....135
Maxmuda Yuldasheva. Nasriy asarlarni ijodiy o'zlashtirish imkoniyatlari....137
Maftuna Esanova. Tibbiyot oliygohlarida tillarni o'qitish metodlari....140

TILSHUNOSLIK

Durdona Xudoyberganova. Kognitiv va konseptual metaforaning antropotsentrik talqini xususida....144
Gulnoza Ernazarova. Ma'danshunoslik terminlari nomlanishining kognitiv mexanizmlari: metaforik usulda termin hosil bo'lishi....146
Nilufar Muminova. Sohibqiron va Amir leksemalarining lisoniy va nolisoniy xususiyatlari....148
Dildora Boshmanova. Professor Nizomiddin Mahmudovning antropolingvistik qarashlari....150
Nargizaxon Nurdinbayeva. Lingvomadaniyatshunoslik – zamonaviy tilshunoslik maktablaridan biri sifatida....153
Alijon Xushvaqtov, Nigina Sobirova. Tilshunoslikda "ilova qurilma" tushunchasi, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi talqini....155
Marifatxon Anarbayeva. Andijon tip shevalari tarkibiga kiruvchi Marhamat (Mingtepa) shevasi leksikasi....157
Zarrina Muzaffarova. Kognitiv metonimiyaning nazariy asoslari....159
Omadjon Azamov. Chet tillarini o'rgatishda frazeodidaktik masalalar....162
Atadjan Djumashev. Qurilish atamalarining mavzuviy tasnifi....164
N.S Abdullayev. Harbiy ta'lim tizimida kursantlarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish....167
Kamola Shadmanbekova. Concept of economic discourse....170
Shaxlo Maxmudova. Formation of translation competence in a non language educational organization....172
Aytkul Djalilova. An overview of spoken corpora: construction, applications, and future directions....174

KICHIK TADQIQOT

Zilola Nurmatullayeva. Begali Qosimov – millat dardi bilan yashagan olim....177
Vaziraxon Utanova. Ona tili darslarida matn bilan ishlash o'quvchilarda yozish va nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi yechim sifatida....180
Munira Kurbanbayeva. O'zbek va koreys tillarida ot so'z turkumining grammatik farqlari....182
Adolat Qalqonova. Qo'qon adabiy muhitida bayoznavislik....184
Nodira Sadullayeva. Sayyid Poshshoxojaning "Gulzor" asari nusxalari va tavsifi....186
Mohigul Fazliyeva. "Kalila va Dimna" masal va hikoyatlarida hikmatlarning ifodalanishi....190
Aziza Xakimova. "Mahbub ul-qulub" qo'lyozma nusxalarining tasnifi....193
Gulchexraxon Turakulova. Mumtoz adabiyotda gul va bulbul mavzusining o'rganilishi....197
Husniya Jumaboyeva. Alisher Navoiy g'azallari tabdilidagi xilma-xilliklar tahlili....199
Maftuna Sodiqova. Xorazm adabiy muhitida bayozchilikning rivojlanishi....202
Xolidaxon Odilova. Qo'qon adabiy muhitida ayollarning o'rni....206
Munisa Shomurodova. Junaydullo Maxdumi Xiraviy ijodining o'rganilishi....210
Shahrizoda Xoshimova. "Mirzo Hamdamning Sipari G'ami" yoxud "Mavlaviy jomiyning sarguzashtlari" tarjima qissasi haqida....211
Rayhona Sheraliyeva, Hilola Ibragimova. Use of electronic learning materials for the development of language skills and speech skills (grammar, vocabulary, pronunciation listening, reading, writing)....213
Dilobar Davlatova. "Taashshuqnoma" genezisi va uning adabiy manba sifatida o'rganilishi....216
Nurxon Achilova. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ajdarho timsoli talqinlari....218
Hamid Ergashev. Jadidchilikning maydonga kelishi va tadrijiy rivojlanishi....220

Qodir OQILOV,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i

UMUMTA'LIM MAKTABLARI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: boshqaruvga iqtisodiyotdagi mavjud tizim ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Boshqarish jarayoni tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishish uchun, shuningdek, uning elementlari bilan bir qatorda, rivojlanish va faoliyatni soddalashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan faoliyatning ayrim turlarini nazarda tutadi. Maqolada umumta'lim maktablari boshqaruvini modernizatsiyalashning raqamli pedagogik monitoringni takomillashtirishning dolzarb masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *monitoring, samaradorlikka erishish, faoliyatda ishtirok etuvchilar, manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish boshqaruv jarayoni, inson resurslarini boshqarish, tartibga solish.*

Аннотация: на управление также влияет существующая система в экономике. Процесс управления подразумевает определенные виды деятельности, направленные на упрощение и координацию развития и деятельности организации для достижения поставленных перед ней целей, а также ее элементов. В статье освещаются актуальные вопросы модернизации управления общеобразовательными школами, совершенствования цифрового педагогического мониторинга.

Ключевые слова: *мониторинг, достижение эффективности, участники деятельности, защита интересов, стимулирование процесса управления, Управление человеческими ресурсами регулирования в организации.*

Annotation: management is also influenced by the existing system in the economy. The management process refers to certain types of activities aimed at simplifying and coordinating development and activities in order to achieve the goals facing the organization, as well as its elements. The article covers the current parables of the evolution of digital pedagogical monitoring of the modernization of the management of Secondary Schools.

Keywords: *monitoring, achieving efficiency, protecting the interests of those involved in the activity, promotion of the management process, human resource management of regulation in the organization*

Ma'lumki har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Bunda boshqaruvga iqtisodiyotda mavjud tizim ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Mustaqilligimizni qo'lga kiritmasimizdan oldin iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka hamda markaziy rejalashtirishga asoslangan tizim hukmron edi. Faqatgina mulkchilikning davlat mulki va shirkat mulki shakliga ega bo'lgan, markazdan turib belgilangan rejalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, qattiq nazorat qilish, qolaversa, jamiyatda mulkdorlar sinfining shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi iqtisodiy tizim o'zini oqlamaganligi tarixdan ma'lum. O'zbekiston jahon tajribasiga asoslanib, mulkchilikning turli shakllari tengligi ta'minlangan, ishlab chiqarishning zamonaviy milliy manfaatlarga mos tuzilmasini yaratish ko'zda tutilgan, erkin narx-navo va bozor qonunlari asosida boshqariladigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish



yo‘lini tanladi va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidanoq iqtisodiyotning boshqaruv tizimini isloh qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Boshqarish jarayoni tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishish uchun, shuningdek, uning elementlari bilan bir qatorda, rivojlanish va faoliyatni soddalashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan faoliyatning ayrim turlarini nazarda tutadi. Shu bilan birga, u ikkita vazifani hal qiladi: boshqaruv obyekti barcha elementlarining o‘zaro ta’sirining barqarorligi, samaradorligi va uyg‘unligini saqlashdan iborat taktik; shuningdek, uning rivojlanishi va takomillashtirilishini ta’minlaydigan strategik.

Inson resurslarini boshqarish tashkilotdagi tartibga solishning eng murakkab elementlaridan biridir. Axir, xodimlarning o‘z salohiyati, o‘z manfaatlari, his-tuyg‘ulari, mustaqil ravishda qaror qabul qilish yoki rahbariyatning buyruqlarini tanqid qilish qobiliyati bor. Shuning uchun boshqaruv qarorlarining qo‘llanilishiga munosabatni oldindan aytib bo‘lmaydi.

Boshqaruv tizimini loyihalash orqali tashkilotning mavjudligi uzoq bo‘lishi va uning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun to‘g‘ri boshqaruv tizimini yaratish zarur.

Tizim – umumiy maqsadga erishish uchun barcha komponentlar va ularning kombinatsiyasini yagona bir butunga tartiblash. Boshqacha qilib aytganda, bu tartiblilik va asosiy vazifaga bo‘ysunish. Boshqaruv tizimiga e’tibor qaratsak quyidagi funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

– rejalashtirish;
– motivatsiya;
– tashkil etish;
– nazorat qilish.

Ularning yordami bilan belgilangan vazifalarning bajarilishiga erishiladi. Boshqarish tizimlari – bu rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat qilishning tartiblangan jarayonlari hisoblanar ekan ular ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga va tashkilotning mavjudligining asosiy maqsadiga erishishga qaratilgan bo‘ladi.

Bugungi kunda zamonaviy boshqaruv tizimlariga boshqariladigan guruhga moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida ishtirok etuvchi elementlar kiradi. Bular bo‘ysunuvchilardir. Boshqaruv guruhi tashkilotga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha funksiyalarni bajaradi, buning uchun u zarur resurslarga ega bo‘lishi kerak: moddiy, mehnat, moliyaviy. U barcha xodimlarning ishini muvofiqlashtiradi va aloqa, jihozlar kabi barcha texnik vositalarga egalik qiladi, shuningdek, ishlab chiqarish ishi va tashkilotni yanada takomillashtirish jarayoni uchun javobgardir.

Tashkilot tuzilishi va qo‘l ostidagilar soniga qarab, bir nechta menejerlar bo‘lishi mumkin, ularning barchasi bitta bosh menejerga bo‘ysunadi.

Boshqaruv quyi tizimining quyidagi bosqichlari ajratiladi:

- rejalashtirish – qanday natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatadi;
- regulyatsiya – optimal belgilangan ish rejimini saqlash;
- marketing;
- buxgalteriya;
- nazorat.

Boshqaruv tizimlari bu barcha komponentlarni tashkilotning eng yuqori maqsadiga erishish uchun birlashtirgan tizimlardir. Har qanday tushunchaning o‘z predmeti va obyekti bor. Xodimlarni boshqarish tizimida ular qanday ekanligini ko‘rib chiqing.

Obyektlarga quyidagilar kiradi:

- ishchilar;
- xodimlar;
- xodimlar guruhlari;
- ish jamoasi.



Boshqaruv tizimining predmeti boshqaruv xodimlarining turli tuzilmalari bilan ifodalanadi.

Boshqaruv usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkoni boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta’sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p jihatdan boshqaruv usullari mukammalligi va to‘g‘ri shakllanganligi bilan uzviy bog‘liqdir. Boshqaruv usullari boshqaruv fanida muhim o‘rinni egallab, boshqaruv qonun va tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Mehnat jamoasiga ta’sir etish usullari orasida boshqaruv mexanizmi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv obyektiv qonunlari talablariga muvofiq keluvchilarigina eng maqbul va maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, boshqaruv usullari bozor iqtisodiyotiga mansub qonunlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish) — maxsus boshqarish faoliyati. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Menejment boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san’ati sirlarini o‘rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning asosini bir necha yuz yillar davomida to‘plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy g‘oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi — amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo‘riqlash, hisob-kitob, ma’muriy)ga bo‘lib, boshqarishni 6-guruhga kiritadi. Menejment yoki boshqarishning obyekti korxona faoliyati, uning subyekti esa boshqarish ishini



bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo‘g‘inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog‘liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo‘llashga, har bir xodimga va jamoaga ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham menejment bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda Menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV–XV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda “Temur tuzuklari” asarida davlat, qo‘shin va boshqalarni boshqarish san’ati to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy

bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar — yollanma boshqaruvchilar — menejerlar shug‘ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi.

Boshqarish rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni rag‘batlantirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu yerda muvofiqlashtirish barcha funksiyalar jarayonida o‘z aksini topadi. Bu funksiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo‘ladi.

Boshqarish faoliyatining turlariga ko‘ra funksiyalari quyidagicha bo‘ladi:

– boshqarishning iqtisodiy funksiyalari, ya’ni mablag‘larning doiraviy aylanishini amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish,

marketing xizmatini uyushtirish;

– boshqarishning ijtimoiy funksiyalari: mehnat sharoitini yaxshilash, xodimlarning uy-joyga ehtiyotini qondirishga yordam berish, moddiy rag‘batlantirishni ta’minlash, ijtimoiy himoyani ta’minlash kabilar.

– boshqarishning ma’naviy-ma’rifiy funksiyalari: xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o‘zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo‘lish ruhida tarbiyalash va hokazolar.

– boshqarishning tashkiliy funksiyalari, ya’ni ta’lim jarayonini tashkil qilish, o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va muvofiqlashtirish, vazifalar taqsimlash, boshqarish apparati xodimlari o‘rtasida ma’suliyatlarni belgilash kabilar.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog‘liq va ma’lum darajada tartibga solingan ko‘p unsurlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Boshqarishning funksiyalaridan yana biri – bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta’minlashdir.

Har bir korxona qandaydir bir tarmoqqa kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligi jihatdan mahalliy ishlab chiqarish – hududiy majmuaga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funksiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko‘zda tutishi lozim.

Tarmoqqa doir bo‘lgan boshqaruv funksiyalari bugungi kunda juda zarur. Busiz tarmoq yo‘qoladi, yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taalluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo‘lishi mumkin Boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funksiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tuman tarmoqlarga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o‘rnatishni ta’minlaydi. Qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o‘ziga xos aniq funksiyalari ham bor.

Boshqarishning o‘ziga xos aniq funksiyalari deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga aniq biriktirilgan ishlar, mas’uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmui tushunilardi.

Tegishli funksiyalarni to‘la-to‘kis va sifatli bajarilishga umumiy rahbarlar direktor, uning o‘rinbosarlari bo‘g‘in va bo‘limlar boshliqlari, shuningdek, xizmat ko‘rsatish bo‘limlari rahbarlari va boshqalar mas’uldirlar.

Xulosa qilib aytganda, inson resurslarini boshqarish har qanday korporatsiya yoki korxona muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. U strategik rejalashtirish, samarali yollash va tanlash, doimiy o‘qitish va rivojlantirish, samaradorlikni boshqarish, kompensatsiya va imtiyozlar hamda xodimlar bilan munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi qonuni. — T.: «Adolat», 1998.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O‘zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1995.
5. Y.Abdullayev. «Bozor iqtisodiyoti». 1996.
6. M.Rasulov. «Bozor iqtisodiyoti asoslari». — Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
7. M.Sharifxo‘jayev, Y.Abdullayev. Menejment. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
8. Ismailov A., Axmedov X. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda xalqaro PIRLS dasturining ahamiyati // PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. 131–137-b.
9. Ergasheva M. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 167-b.
10. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. 74-b.

Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.

Amonkeldi AXMATOV,
Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD

BUXORO ADABIY MUHITI TARIXIGA CHIZGILAR (XX asr boshlari)

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro adabiy muhiti tarixining eng ziddiyatli va mashaqqatli davri bo‘lmish XX asr boshlari haqida fikr yuritiladi. Ko‘p ming yillik tarixga ega adabiy muhitda transformatsion o‘zgarishlarning yuzaga kelishi o‘rganiladi. Jadid adabiyotining mumtoz adabiyot o‘rnini egallash jarayoni tahlil qilinadi. Adabiy muhit tarixi haqida arxiv materiallari asosida to‘plangan ma’lumotlar qisman e’lon qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: *Buxoro adabiy muhiti, matbuot, jadid, she’riyat, saroy adabiyoti, Ayniy, Fitrat, Munzim, Mirzo Siroj.*

Аннотация: в данной статье размышляется начало XX века, самый противоречивый и сложный период в истории литературной среды Бухары. Исследуется возникновение трансформационных изменений в литературной среде с многотысячелетней историей. Анализируется процесс вытеснения современной литературы классической. Частично публикуются сведения, собранные на основе архивных материалов по истории литературной среды.

Ключевые слова: *Бухарская литературная среда, пресса, Джадид, поэзия, дворцовая литература, Айний, Фитрат, Мунзим, Мирзо Сиродж.*

Annotation: this article reflects on the beginning of the 20th century, the most controversial and difficult period in the history of the literary environment of Bukhara. The emergence of transformational changes in a literary environment with a multi-thousand-year history is explored. The process of displacement of modern classical literature is analyzed. Information collected on the basis of archival materials on the history of the literary environment is partially published.

Keywords: *literary environment of Bukhara, press, Jadid, poetry, palace literature, Ainiy, Fitrat, Munzim, Mirzo Siroj.*

Kirish. Buxoroda uch mingdan ziyod turfa darajadagi iste’dodli qalamkashlar yashab, badiiy ijod bilan shug‘ullanganliklari ilmiy-tarixiy manbalardan ma’lum. Ular orasida fors-tojik adabiyotining asoschisi, malik ul-shuoro Abu Abdulloh Rudakiy, Jaloliddin Muhammad Avfiy Buxoroy, Xoja Ismat Buxoriy, Am’aq Buxoriy, Abdurahmon Mushfiqiy, Ubaydullaxon Qul Ubaydiy, Hasanxoja Nisoriy, Turdiy Farog‘iy-Buxoriy, Mujrim-Obid, Ahmad Donish, mirza Abdulqodir Savdo, Shamsiddin Shohin singari nomi tazkiralarda, adabiyot kitoblarida keltirilgan Markaziy Osiyoda taniqli bo‘lgan so‘z san’atkorlari bor.



Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Amirlikning turli nuqtalarida o‘ziga xos adabiy muhitlar shakllangan. Muhammad Ali Baljuvoniy “Tarixi nafoye” asarida shunday yozadi: “Buxoro maxdumzodalaridan Mulla Muin maxzum, mulla Muhiddin maxzum Buxoriy, Mulla Mukommil maxzum, Muhiddin qozi Abdulhakim Boysuniyning o‘g‘li, Qori Yo‘ldosh Karkigi maxzum, Mulla Rafiq maxzum, Mulla Abdurauf maxdum Fitrat, Muzahhar maxdum Buxoriy, Sadriddin – Ko‘kaldosh masjidining imomi – taxallusi Ayniy Xojai Jahoniy – bular Buxoroning maxdumzodalari va olimlaridan bo‘lib, sonlari taxminan 222 nafarga yetardi”[3,28]. Nomlari turli tazkiralarda keltirilgan Buxoro adabiy muhiti vakillarining aksariyati Buxoro markazida faoliyat yuritgan adiblar bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida birdek ijod qila olganlar. Ularning ilmiy merosi o‘zbek adabiyotchiligi tarixida alohida tadqiqini

kutayotgan mavzular toifasiga kiradi.

Yangicha mavzu va mazmun bilan boyigan she'riyatga zamonaviy janrlar kirib keladi. Jamiyat hayotidagi illatlar, saroy amaldorlarining zolimligi, munofiqlikni fosh qiluvchi asarlar yaratila boshlanadi. Ilm marifatning jamiyat rivojiga ijobiy ta'siri haqida targ'ibot qilinadi. Ushbu kichik tadqiqotdan maqsad esa shu davr manbalaridan foydalangan holda adabiy muhitni adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan o'rganishdir.



Shoirlarning o'zaro muxammas bog'lashlari, she'riy maktublari, marsiya, ta'rix bag'ishlovlari adabiy muhitning uyushganligidan guvohlik beradi. Adabiy muhitdagi qizg'in jarayon olimlarning adabiyotga, ilm fanga bo'lgan munosabati ularning intellektual salohiyatidan darak beradi[2,447]. Amir Abdulahadxon saroyida shakllangan adabiy muhitda hamon nazmiy yozish ustuvorlik qilar edi. Ayniqsa, yuqori mansab egalari iqtidorlariga qaramasdan shoirlikka da'vo ham qilar edilar[1,356]. Shoirlikdan xabardorligi bo'lmasa-da, taxallus tanlab ijod qilishga harakat qilgan ko'plab vakillarning nomlari Afzal Maxdum Pirmastiyning "Afzali tazkor" tazkirasida keltirilgan. Hatto, amir Abdulahadxon ham "Ojiz" taxallusida g'azallar bitar, she'riy bahslarga qiziqar edi. Saroyda turli lavozimlarda faoliyat yuritgan Mirzo Sahbo, qozikalon Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo, Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Muhammad Sodiqxo'ja Gulshaniy, Afzal Pirmastiy, Homidbek Homidlar aslida saroy adabiy muhitining vakillari bo'lganlar.

Saroy kishisi bo‘lsa-da, haqiqatni yoza olgan Ahmad Donish singari ma’rifatparvarlarning sa’y-harakati tufayli adabiyotning shakli va mazmuni o‘zgaradi. Uning asarlari ta’sirida keyingi avlod Sadr Ziyo, Mirzo Sahbo, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Burhonov Munzim, Mirsiddiq Hayrat singari adiblar yetishib chiqadi. Adabiyotda yangi qirralar namoyon bo‘ladi. Mirzo Siroj Hakimiy, Abdurauf Fitratning asarlari ko‘plab adabiy muhit vakillarining she’r-u g‘azallari, publitsistik maqolalarining mavzu va muammo doirasi mutlaqo yangicha ko‘rinishda yuzaga keladi. Millatni qoloqlik botqog‘idan qutqarishda ma’rifatni xaloskor, she’riyat va nasrni qurol deb biladilar. XX asr boshlarida saroy adabiy muhiti ham, saroy adabiy muhitidan tashqaridagi adabiy muhitda ham jarayonlar shiddat bilan jonlanadi. Aslida saroy adabiy muhitida ham XX asrga kelib vaziyat o‘zgarganligini aytib o‘tish lozim. Jumladan, ma’rifatparvarlik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Donish, Sadr Ziyo, Mirzo Somiy Bo‘stoniy, Mirzo Hayit Sahbolar avvalo saroy muhitidan yetishib chiqqan adiblar edilar. Ular saroy muhitidan bo‘lsalar-da, atrofdagi adolatsizliklarga ko‘z yuma olmadilar va o‘zlarining demokratik qarashlari bilan xalqni ruhlantirib turadilar. Oqibatda, 1918-yil xunrezliklarida amir hukumati hatto, saroy a’yonlariga ham shafqat qilmadi; o‘ldirilganlar orasida yettita mulla, jazolanganlar orasida esa atoqli ulamolardan domlo Ikrom, qozikalon Sadr Ziyodek zotlar ham bor edi.

Buxoro adabiy muhiti o‘zbek milliy adabiyotining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib kelgan. Shuning uchun, har bir davrdagi umumiy xususiyat va tamoyillar muayyan darajada voha adabiyotida aks etgan. Tabiiyki, bundan milliy uyg‘onish hodisasi hisoblangan jadidchilik ham mustasno emas. Buxoro vohasida saroy adabiy muhiti bilan birgalikda, jadidchilik va uning adabiy yo‘nalishi o‘z tarixiga ega. Bu tarix Ahmad Donish ijodidan boshlanib, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniylar ijodida yuqori cho‘qqiga va boshqa ma’rifatparvarlar tomonidan yangi darajalarga ko‘tariladi.

Natijalar va ularning tahlili. Hurfikrlilik uchun kurashlar Buxoro adabiy muhiti bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan. Adabiyotning xalq ichiga tobora kengroq kirib borishi bilan milliy uyg‘onish adabiyoti ham yuzaga keladi. Xalqparvar milliy ziyolilar yetakchilik qilgan ushbu adabiyot xalqda milliy ongni uyg‘otishda demokratik harakatlarni boshlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi zolim va riyokorlikni ayovsiz fosh qiluvchi ilm-ma’rifatni madaniyatni targ‘ib qiluvchi asarlar bilan millatni uyg‘otishga intildilar. Abdurauf Fitrat asarlarida jamiyatdagi kamchiliklar, ta’lim tizimi, madrasa hayoti tanqid ostiga olinadi.

Nasriy asarlarning soni va turi ko‘payadi. “Munozara” tipidagi asarlar dolzarb masalalarni olib chiqadi. Oldingilaridan farq qiluvchi safarnoma tipidagi asarlar yo‘l mashaqqati, tabiat go‘zalligini emas, xalq hayotini haqiqiy lavhalarda tasvirlashga intiladi va taqqoslaydi. Bu borada Mirzo Siroj Hakimining “Tuhfa ahli Buxoro” nasriy asari Ahmad Donish va Vozehning safarnomalaridan tanqidiy tahlilga asoslanganligi bilan tubdan farqlanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, XX asrga kelib nazm bilan bir qatorda nasriy uslubda ijod qilish ham alohida mavqega ega bo‘la boshladi. “Tuhfa ahli Buxoro”: XX asr boshlaridagi o‘zbek nasrining ajoyib namunasi bo‘lib, an’anaviy uslubdan voz kechilgan holda oddiy muloqot tilida yozilgan[5,114]. Ushbu asar jamiyatda ziyolilar dunyoqarashining o‘zgarishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy jarayonlarning rivojida adabiy muhit vakillarining ta’sirini ham ko‘rishimiz mumkin. Jabr-zulm, soliqlar ko‘pligi, amaldorlar bedodligidan norozilik kayfiyatidagi she’rlar XX asr boshlariga kelib, butun mamlakatga va uning kelajagiga qaratiladi. Islohotlar rejasini ishlab chiqqan ziyolilar bunga qadar bir qator ijobiy o‘zgarishlarga qo‘l uradilar. Bu, avvalo, ta’limda ko‘zga tashlanadi. Amirlikdagi og‘ir ijtimoiy holatga qaramasdan adabiy-madaniy hayot qizg‘in davom ettirilgan. Xalq o‘zining an’anaviy tarixiy taraqqiyotiga sodiq qolgan. Jahon adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo‘shadi. Buxoro adabiy muhitining ushbu davri alohida adabiy tadqiqotni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayniy S. Asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1963. 1-jild. 356-bet.
2. Ayny S. “Namunai adabiyoti tojik”. – Dushanbe: Adib, 2010. 447-bet.
3. Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeiy. – T.: Sharq, 2001. 28-bet.
4. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: Tarix haqiqati (1920-1924). – T.: Ma’naviyat, 2002. 11-bet.
5. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2015. 114-bet.

Nilufar OCHILOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi, v.v.b., dotsenti (PhD)

METAFORANING INGLIZ VA O‘ZBEK ILMIY MATNIDAGI ROLI

Annotatsiya: maqolada tahlil qilingan tabiiy va gumanitar fanlarga oid ishlarning sahifalarida ekspessivlikni ifodalovchi vositalar orasida takror hodisasi yetakchilik qiladi, undan keyingi o‘rinda boshqa sintaktik va leksik vositalar turadi. Sintaktik hodisalar qatoridan esa so‘roq gaplar va inversiyaning faolligini qayd etish lozim.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, metafora, konseptuallashuv, kognitolog, lisoniy, emotsional, diskurs, sintaktik, valentlik, maydon, kategorial, lisoniy.*

Аннотация: на страницах анализируемых в статье произведений по естественным и гуманитарным наукам среди средств выражения выразительности лидирует явление повтора, за которым следуют другие синтаксические и лексические средства. Среди синтаксических явлений необходимо отметить активность вопросительных предложений и инверсию.

Ключевые слова: *мышление, метафора, концептуализация, когнитолог, лингвистическое, эмоциональное, дискурсивное, синтаксическое, валентное, полевое, категориальное, лингвистическое.*

Annotation: on the pages of the works on the natural sciences and humanities analyzed in the article, among the means of expressing expressiveness, the phenomenon of repetition is in the lead, followed by other syntactic and lexical means. Among syntactic phenomena, it is necessary to note the activity of interrogative sentences and inversion.

Key words: *thinking, metaphor, conceptualization, cognitive scientist, linguistic, emotional, discursive, syntactic, valence, field, categorical, linguistic.*

Ma’lumki, “metafora” tushunchasi ikki ma’noda, ya’ni natija va jarayon ma’nolarida qo‘llaniladi. Metaforaning aynan ikkinchi jihati ongning kognitiv faoliyatini aks ettiradi. So‘ngi yillar davomida metafora hodisasining tadqiqida asosiy e’tibor insonning konseptual faoliyati, uning olamni idrok etish qobiliyati bilan bog‘liq hodisalarga qaratilmoqda. Metafora tahlilida tafakkur sirlari, milliy-madaniy dunyoqarash hamda olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi omillarni aniqlash maqsadi qo‘yilmoqda.

Metaforaning tabiati, uning lisoniy muloqotda tutgan o‘rni muammosi ko‘plab xorijlik olimlar va vatandoshlarimiz tomonidan o‘rganilgan. Olimlar



taklif qilayotgan nazariyada metafora voqelikning idroki, konseptuallashuvi natijasi sifatida talqin qilinadi. Eslatilgan kitobning ilk sahifalaridayoq metaforaning inson hayotining barcha jabhalarida unga hamroh ekanligi va uning nafaqat tilda, balki tafakkur va faoliyat turlarida aks topishi qayd etiladi. Inson tafakkurini harakatga tushiruvchi tushunchalar uning faoliyatini izmga solishi bois, ular voqelik idrokini tartiblashtiradi, bizning xatti-harakatimiz va boshqalar bilan munosabatimizni nazoratga oladi. Voqelikni metaforik idrok etish uchun tushunchalarni qiyoslash, ularni bir-biriga o‘xshatish lozim bo‘ladi. “O‘xshatish – ikkita nomutanosib narsani qiyoslashdan iboratdir”.

Narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni aks ettiruvchi lisoniy birlik – metaforadir. Xullas, metaforaning “o‘xshash va yaqinlikni his etish” zamirida voqelikning tipik obrazini shakllantirishi va boshqa biror bir realiya haqida obrazli – assotsiativ tasavvurning tug‘ilishiga turtki berishi ma’lum bo‘ladi. Olimlarning fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda biz ham o‘xshashlik va yaqinlikni metaforalashuvning asosiy omili ekanligini e’tirof etamiz.

Tadqiqotchilar metafora hodisasining narsa-hodisalarning yangi xususiyatlari, belgilarining kashf etilishida yuzaga keladigan hissiy, emotsional holati bilan bog‘lab tavsiflashni ma’qul ko‘rishadi. Inson ongida metafora shakllanishi muhitida hosil bo‘ladigan emotsional keskinlik

tilning ekspressiv vazifasi voqelanishida namoyon bo‘ladi hamda lisoniy ko‘rinish oladi. Ko‘p yillar davomida tilshunoslar metaforani ilmiy diskurs hududidan chetlatishga harakat qilib keldilar, biroq endilikda metafora oddiygina poetik ifoda emas, balki tafakkur vositasi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ilmiy konseptual tizimning ham tabiatan metaforik tabiatga egaligi hozir hech kimda gumon tug‘dirmasa kerak.

Metafora, an’anaga binoan, badiiy tafakkur unsuri sifatida qaralib, uning badiiy matnda faollashuvi keng ko‘lamda tadqiq etildi. Lekin ilmiy matnlar kuzatuvi ilmiy nutqning, ilmiy tafakkur kabi, metaforalashuv harakatidan xoli emasligidan guvohlik beradi. Olimga yangi ilmiy g‘oyani shakllantirishda, muammo yechimini izlashda, borliq predmet hodisalari o‘rtasidagi aloqalarni tasvirlashda metafora yordam beradi. Bu yordam nafaqat voqelik aloqa, munosabatlarini kashf etishda, balki ularga nisbatan subyektiv baho munosabatini bildirishda ham ko‘zga tashlanadi. Metafora tadqiqotchini obyektni bilishga undaydi, uning lisoniy tafakkur faoliyatini harakatga keltiradi, ijodiy tasavvurini boyitadi.

Metafora vositasida bir paytning o‘zida obrazlilik yaralishi bilan birgalikda, fikr ifodasidagi qisqalik, tejamkorlikka erishiladi. Asosiy va ko‘chma ma’nolar munosabati negizida ikki mazmuniy asos turgan metaforani hosil qiladi. Voqelikni o‘rganayotgan va unga kuzatuv obyekti sifatida qarayotgan tadqiqotchi ushbu obyekt tavsifini to‘ldiradigan faktlarni tanlab oladi. Shu sababli metaforik ibora asosida predmetning shakli, rangi, hajmi, makon va zamondagi o‘rni kabi belgilari tanlanishi mumkin.

Ilmiy muloqot matni, tahlil qilinayotgan obyektning yuqorida qayd etilgan belgi va xususiyatlaridan tashqari, olimning tadqiq obyektiga nisbatan munosabatini ham aks ettirishi tabiiydir. Matnda uchraydigan ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni tahlil qilish jarayonida ulardan foydalanishning ratsional xususiyatini e’tiborga olish lozim. Metafora – lisoniy faoliyatning ratsional ko‘rsatkichidir.

Tafakkurning metaforik manzarasi, tabiiyki, ilmiy matnda o‘z aksini topadi. Lekin metaforaning mazkur kontekstda bajaradigan vazifalari bir xil emas. To‘plangan material tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, ilmiy diskursda metaforaning umumiy qo‘llanish uchun moslashgan turi ko‘proq uchraydi.

Qo‘llanayotgan metaforalar muallifga ilmiy fikrni ishonchli bayon qilishga yordam qilgan. Ushbu metaforalashuv usuliga murojaat qilmaganida o‘quvchining mazmunni anglashi qiyinlashgan bo‘lar edi. Metafora ilmiy axborotni aniq, tushunarli yetkazishning muhim vositasidir. Hatto, ko‘p va uzoq qo‘llanishi natijasida badiiy nutqda obrazlilikni ifodalash kuchini yo‘qotgan metafora ham ilmiy matnda ekspressivlikni ifodalovchi element sifatida faollashadi.

Mazkur nutqiy tuzilmada ekspressivlikning voqelanishi metaforaning kontekstdagi qurshovi – terminologik birliklar hamrohligida kelishi bilan bog‘liq.

Metaforaning ilmiy diskursdagi o‘ziga xosligi uning favqulotda, noodatiy holatlarda ifoda topishi bilan izohlanadi. Uning oddiy mantiqiy bayon muhitida faollashuvi o‘quvchi tafakkurini harakatga tushishiga, ijod tasavvurini kengayishiga turtki beradi va ilmiy fikrni tezroq hamda aniqroq anglashga zamin hozirlaydi.

Ushbu bayonning emotsionallik xususiyati fikr predmetlari o‘rtasidagi aloqaning ongli ravishda buzilishiga asoslangan. Mualliflar konnotativ bo‘yoqqa ega metaforik iboralarni qo‘llash bilan matnning o‘ziga xos ekspressiv mazmun olishiga erishmoqda. Matnning ekspressivligi unda ishtirok etayotgan lug‘aviy birliklarning emotsional ma’noga ega ekanligi bilan emas, balki alohida so‘zlarning noodatiy, okkazional birikuvi asosida shakllanayotgan metaforaning qo‘llanishi bilan ta’minlanmoqda. Bunday metaforik obraz obyektning xususiyatlarini aniq tasvirlashga imkon beradi.

Matn doirasida shakllanadigan metaforalar yagona bir obrazning tasviridan iborat yig‘iq metafora ko‘rinishida bo‘lish bilan bir qatorda, bir necha obrazlarni voqelantiruvchi yoyiq yoki kengaytirilgan metaforik tuzilma shaklida ham kelishi kuzatilib turiladi.

Matn mantiqiy xabardan boshlanmoqda va bunga in course of time, cooling fragments, simple organisms kabi so‘z birikmalarining qo‘llanishi guvohlik beradi. Ammo keyinroq humble beginnings (simple organisms birikmasi o‘rniga), stream of life kabi birikmalarning paydo bo‘lishi



metaforik ko‘chimni hosil qilmoqda. Shuningdek,

ilmiy diskursda tez-tez uchrab turadigan emerge, advance, culminate, centre qatoridagi so‘zlar yoyiq metaforalar tarkibidan o‘rin olishi natijasida konnotativ sxemaga ega bo‘ladi va matnning ekspressivligini ta’minlay boshlaydi.

Ilmiy matnda metafora bayon qilinayotgan fikr-xulosani izohlash va dalillashtirishning qo‘shimcha vositasi bo‘ladi. Metaforaning bu xilda yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi sababini quyidagicha izohlash mumkin: muallif-tadqiqotchi dastavval o‘z fikrini matniqan shakllantiradi va shundan so‘ng izhor qilingan fikrni tasdiqlash paytida shu fikr bayoniga emotsional-subyektiv baho berish imkoniyatiga ega bo‘lgan metaforaga murojaat qiladi.

Matnning asosiy kategorial belgilaridan biri uning tag ma’noga ega bo‘lishidir. Ushbu belgi, bir tomondan, matnda pragmatik mo‘ljalning voqelanishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, uni tushunish uchun muhit yaratadi. Ilmiy matn ma’lum bir fan sohasi uchun muhim bo‘lgan tushunchalarni muallifning subyektiv qarashlari bilan muqobillashtirish zamirida shakllanadi.

Ilmiy diskursda fe’l metaforalarining keng ko‘lamda qo‘llanishi kuzatiladi: “adolat o‘rnatmoq”, “yoritib bermoq”, “kamchilikni bartaraf etmoq”, “haqiqatni izlamoq” to through light, to bridge a gap, to attack a problem, to crown with success, to do justice, etc. Shuningdek, asosiy bo‘lagi ot bo‘lgan metaforalar ham ko‘p uchraydi: fruit of inheritance, a ray of hope, the key to the question, etc., “umid tug‘iladi”, “muammoning kaliti” kabilar.

Metafora ilmiy bayonda nomutanosib obyektlarni qiyoslash shartli ekanligidan darak berayotib, ma’lum bir ilmiy tushunchani izohlash vositasiga aylanadi. Buning oqibatida botindagi axborotni ifodalaydi, metafora strukturasida aks topgan tushunchaning yangi jihatlarini namoyish qiladi. Metafora termin sifatida aniq va bir ma’noli bo‘lsa, obraz sifatida esa ehtimolli, subyektiv erkin va ko‘p ma’noli hodisadir.

Ko‘pchilik olimlar metaforadan biror-bir hodisaga baho berish uchun foydalanibgina qolmasdan, balki unga tadqiqot obyektini tavsiflash, uning xususiyatlarini aniqlash uchun ham murojaat qiladilar. Ilmiy uslub metafora faollashuviga qarshilik ko‘rsatishi oqibatida u bayon qilinayotgan fikrni ta’kidlash xizmatini ham o‘taydi. Ilmiy fikr aniqligini ta’minlashda fe’lning metaforik mazmun olishi muhim o‘rinni egallaydi. Fe’l metaforasi mundarija jihatdan gap strukturasiga yaqin turadi, chunki predikativlik belgisi aniq namoyon bo‘lib turadigan fe’l birligining osongina metaforik mazmun olishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tahlil qilingan tabiiy va gumanitar fanlarga oid ishlarning sahifalarida ekspressivlikni ifodalovchi vositalar orasida metafora hodisasi yetakchilik qiladi, undan keyingi o‘rinda boshqa sintaktik va leksik vositalar turadi. Sintaktik hodisalar qatoridan esa so‘roq gaplar va inversiyaning faolligini qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сармакешева С.Г. Инглиз тилидан таржиманинг грамматик асослари. Самарканд: СамДЧТИ, 2017.-116 б.

2.Сармакешева С.Г. Инглиз тилидан таржиманинг грамматик асослари. Самарканд: СамДЧТИ, 2017.-116 б.

3.Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. 80- 83 б

4.Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и её экспрессивно – оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988. – С. 220- 224.

5.Телия В.Н. Механизмы экспрессивной окраски языковых единиц // Человеческий фактор в языке: Языковые механизмы экспрессивности. – М.: Наука, 1991. – С. 36-87.

6.Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты. – М.: Наука, 1996. – 288 с

7.Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и её экспрессивно – оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988. – С. 220- 224.

Bahrom ISKANDAROV,
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

BADIIY TARJIMA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada tarjimashunoslik, xususan badiiy tarjimaning xususiyatlari, matnlar yoki asarlarning bir tildan o‘zga tilga tarjima qilinayotgan jarayondagi qiyinchiliklari, e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlari yoritiladi. Shuningdek tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida olimlar fikrlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, tarjima turlari, xususiyat, tarjimon, badiiy matn, badiiy adabiyot.*

Annotation: this article highlights the features of translation studies, especially literary translation, the difficulties in the process of translating texts or works from one language to another, and the aspect that should be paid attention to. Also, attention is paid to the opinions of scientists about the theory and practice of translation.

Key words: *artistic expression, types of translation, feature, translator, artistic text, fiction.*

Аннотатция: в данной статье освещаются особенности переводоведения, особенно художественного перевода, трудности процесса перевода текстов или произведений с одного языка на другой, а также аспект, на который следует обратить внимание. Также уделяется внимание мнениям ученых о теории и практике перевода.

Ключевые слова: *художественное выражение, виды перевода, особенность, переводчик, художественный текст, художественная литература.*

Kirish. Ma’lumki, tarjima nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘ladi, uning barcha muhim tomonlarini o‘ta mufassal ta’rifda tasvirlash juda qiyin, balki imkonsizdir. Avvalo shuni yodda tutish kerakki, tarjima so‘zining o‘zi polisemantikdir va hatto ma’lum bir ilmiy fan doirasida ham kamida ikki xil tushuncha bilan bog‘liq: tarjima intellektual faoliyat turidagi jarayon va bu jarayon natijasida faoliyat mahsuli sifatida tarjima paydo bo‘ladi, boshqacha aytganda, tarjimon tomonidan yaratilgan nutq asaridir.

Asosiy qism. Ishimizda mashhur olimlarga tegishli tarjimaning ba’zi ta’riflarini keltiramiz va ular bizni qiziqtirgan obyektning ayrim tomonlarini qanday aks ettirganini ko‘rib chiqamiz. Rus tilshunos tarjimashunos olimi A.B. Fedorov: “Tarjima, birinchi navbatda, nutq asari sifatida uning asl nusxasi bilan munosabati va ikki tilning xususiyatlari va materialning ma’lum janr toifalariga tegishliligi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi” [1.56.]

Tarjimon olim Shveyser: “Tarjimani quyidagicha ta’riflash mumkin: tillararo va madaniyatlararo muloqotning bir yo‘nalishli va ikki bosqichli jarayoni, bunda maqsadli (“tarjima”) tahlil qilingan asosiy matn asosida ikkinchi darajali matn yaratiladi, birlamchini boshqa til va madaniy muhitda almashtirish... Ikki til, ikki madaniyat va ikki kommunikativ vaziyat o‘rtasidagi tafovutlar bilan qisman o‘zgartirilgan, birlamchi matnning kommunikativ ta’sirini uzatishga qaratilganligi bilan tavsiflangan jarayon” [2. 24].

Tilshunos Vinogradov esa “Tarjima so‘zlashuv san’atining o‘ziga xos va mustaqil turi, degan fikrga qo‘shilishimiz kerak. Bu “ikkinchi darajali” san’at, asl nusxani boshqa til materialida “qayta ifodalash” san’ati. Tarjima san’ati, bir qarashda, musiqachi, aktyor yoki kitobxonning ijrochilik san’atiga o‘xshab ketadi, chunki u mutlaq o‘ziga xoslik yaratishdan ko‘ra, mavjud san’at asarini qayta ishlab chiqaradi, tarjimonning ijodiy erkinligi uning ijodkorligi bilan chegaralanadi, original. Ammo o‘xshashliklar shu yerda tugaydi. Aks holda, tarjima sahna san’atining har qanday turidan keskin farq qiladi va badiiy va ijodiy faoliyatning alohida turini, “ikkinchi darajali” badiiy ijodning o‘ziga xos shaklini tashkil etadi” [3. 17].

Tarjimashunoslikda asl nusxa tili va tarjima tilidagi materialning qay shaklda amalga oshirilishiga qarab tarjimaning turli turlarini ajratish mumkin. Bu birinchi tasniflashtirishga asos bo‘luvchi omildir. Tarjimashunoslikda tarjimaning turlarini ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ajratish ham amalga oshirib kelinmoqda, unda tarjimaga aloqador har ikkala tildagi matnlarning shakli emas, balki ularning mazmuni yoki mohiyatiga tayanib tasniflashtiriladi.

L.S.Barhudarov asl nusxa tili va tarjima tili matnining qanday shaklda berilishiga ko‘ra tarjimaning to‘rt asosiy turini ajratadi: 1) og‘zaki-og‘zaki; 2) yozma-yozma; 3) og‘zaki-yozma; 4) yozma-og‘zaki. Bu tarjima turlari ichida og‘zaki-og‘zaki tarjima ikki turga bo‘linadi: 1) og‘zaki izchil tarjima; 2) og‘zaki sinxron tarjima.

V.N.Komissarovning tarjima tasnifi quyidagicha: 1) badiiy tarjima; 2) informativ tarjima.

G‘.M.Xoshimov tasnifi: 1) badiiy tarjima; 2) nobadiiy tarjima.

R.K.Min’yar-Beloruchev tasnifiga ko‘ra quyidagi tarjima turlari mavjud: 1) yozma tarjima; 2) sinxron tarjima – og‘zaki; 3) izchil tarjima; 4) varaqdan tarjima. U yana nima tarjima qilinayotganligiga qarab tarjimaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1) badiiy tarjima; 2) ijtimoiy-siyosiy tarjima; 3) ilmiy-tarjimaviy tarjima.

Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat svilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko‘rsatadi. Sinxron tarjima: og‘zaki tarjimaning eng qiyin turi bo‘lib, undan tarjimon gapiruvchi notiqdan bir so‘z yoki jumlaga orqada qolib tarjima qiladi, unga tarjima uchun vaqt berilmaydi. Tarjimon bunday paytda ham eshitadi, ham tushunadi, ham tarjima qiladi, ham gapiradi. Mana shu operatsiyalarning barchasini sinxron tarjimon bir vaqtda bajaradi. Bu esa undan chuqur bilim saviyasidan tashqari, tez mulohaza qilish, tez tushunish, tezda to‘g‘ri va to‘laqonli tarjima qilishni talab etadi. Bu tarjima ingliz tilida “simultaneous/ synchronous translation” deb yuritiladi.

Yozma tarjima va og‘zaki tarjima: Og‘zaki izchil tarjima sinxron tarjimadan oraliqdagi tarjima uchun berilgan vaqtlar bilan, qayta tarjima qilish imkoniyati borligi bilan ajralib turadi. Bunday tarjimada tarjimon avvalo notiqni tinglaydi, keyin uni mulohaza qilib, tarjima qiladi. Bu ingliz tilida “consequtive translation” deb ataladi.

Yozma-yozma tarjima: uzoq tarixga ega. U eng ko‘p qo‘llaniladigan tarjima turlaridan bo‘lib, minglab badiiy asarlar, millionlab hujjatlar va undan ham ko‘proq ilmiy texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi hisoblanadi. Bu tarjimani amalga oshirish unchalik murakkab ekstralingvistik shart-sharoitlarni talab qilmaydi, chunki tarjimonga to‘laqonli tarjima berish uchun barcha imkoniyatlar berilgan, yetarli vaqt, istalgan sharoit, qayta-qayta tarjima qilish, kim bilandir kengashish, maslahatlashish kabi katta imkoniyatlar berilgan.

Yozma-og‘zaki tarjima: yozma matnning og‘zaki tarjimasi demakdir. Bunday tarjima hayotda ko‘p uchrab turadi. Bunga telegrammalar, yo‘l-yo‘riqlar, xatlar, hujjatlar va hokazolarning tarjimalari misol bo‘lishi mumkin. Og‘zaki-yozma tarjima: ham tez-tez qo‘llanib turadi, masalan, qandaydir og‘zaki nutqning yozma tarjimasi, og‘zaki suhbatning (muloqotning) yozma tarjimasi misol bo‘la oladi. Har bir tarjima turi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ketma-ket (izchil) tarjima: ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og‘zaki axborot berilgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so‘zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va so‘ng tinglash chog‘ida yozib olingan eslatmalar (note-taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.

Aynan madaniyatlararo munosabatlarda asosiy o‘rinda turuvchi badiiy tarjima jarayoni esa o‘z salmog‘i bilan tarjimaning boshqa turlaridan ajralib turadi. Umuman olganda, badiiy tarjima nasriy, she’riy, dramatik asarlar tarjimasini o‘z ichiga oladigan tarjima turi hisoblanadi. Har bir janr tarjimondan o‘ziga xos yondashuvni (ritmni his qilish, qofiyadosh so‘zlar topish, turli qochirimlarni to‘g‘ri ifodalash, boblar o‘rtasidagi muvofiqlikni uzmaslik kabi) talab qiladi.

Badiiy tarjima, odatda, badiiy adabiyotning tarjimasidir. Ushbu turdagi tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon badiiy adabiyotning asosiy maqsadi – ma’lum bir estetik ta’sir ko‘rsatishga erishishga yordam beradigan turli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Yoki tarjima nazariyasi tilida gapiradigan bo‘lsak, tarjimani oluvchiga tegishli pragmatik effekt berilishi kerak.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan biri bu xalqlar madaniyati o‘rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so‘z boyligi talab qilinadi. Badiiy tarjimaning yana bir asosiy muammolaridan biri asl asarga sodiq qolish va asar asliyatidan olinuvchi his-tuyg‘u va kechinmalarni tarjimani o‘quvchi kitobxonga aynan yetkazish, shakl va mazmun birligini saqlab qolish sanaladi. Bu she’riy asar tarjimasida, ayniqsa, qiyin va dolzarb hisoblanadi. Bir qarashda bunday ko‘rinmasa-da, tarjimaning bu sohasi juda murakkab va badiiy tarjimonga juda ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi: ritorik vositalar va so‘z o‘yinlari. Ular she’riyatda ko‘proq uchraydi, lekin har qanday matnda uchrashi mumkin. Ba’zida tarjima tilida haqiqiy ekvivalent mavjud emas va shuning uchun tarjimon eng yaxshi alternativni topa bilishi kerak.

Atoqli otlar. Joylar yoki odamlarning nomlari ba’zan asl tilda biror narsani angla tishi va alohida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holda, tarjimon nomlarni tarjima qilish yoki tarjima qilmaslik haqida o‘ylashi kerak.

Terminologiya. Ilmiy fantastika kabi ba’zi janrlarda tarjimon asarni tushunish va to‘g‘ri tarjima qilish uchun bilishi kerak bo‘lgan juda aniq va murakkab terminologiyadan foydalanadi. Bu o‘rinda sohaga oid atamalarni bilishning ahamiyati yaqqol yuzaga chiqadi.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san’at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida “badiiy voqelik” unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma’noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o‘tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san’at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an’analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hamma vaqt o‘z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, badiiy tarjimani jahon adabiyoti taraqqiyoti tomon yo‘naltiruvchi kuch sifatida

baholash mumkin. Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo‘lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo‘lib, tarjima qiluvchi kishi, ya’ni tarjimondan ongli mehnatni talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima san’at jumlasiga kiradi. Adabiyot rivojida bir bo‘g‘in bo‘lgan badiiy tarjima tarjimashunoslikning oldingi o‘rinlarida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Федоров А.В. Основы общей теории перевода. М., «Высшая школа», 1968.
2. Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. М., «Воениздат», 1973.
3. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. М., «Международные отношения", 1973.
4. Бархударов Л. С. Б 24 Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). М., «Междунар. отношения», 1975. 240 с
5. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2005.
6. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – T., 2012.
7. G‘ofurov I., M o‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012. 216-b.
8. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари, Т.: Укитувчи, 1983. - 320 б.

Gulmira ZULAYPOYEVA
Farg‘ona viloyati, Farg‘ona politexnika instituti
o‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi o‘qituvchisi

USLUB VA MUALLIF USLUBI (IDIOSTIL) TUSHUNCHALARIGA DOIR QARASHLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida muallifning individual uslubiga oid nazariyalar va ularning o‘rganilishi xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, har ikkala tushuncha tahlillar asosida yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, uslub, idiolekt, idiostil.*
Аннотация: данной статье представлены теории об индивидуальном стиле автора и их изучение в узбекском языкознании. Также обе концепции объясняются на основе анализа.
Ключевые слова: *лингвопоэтика, стиль, идиолект, идиостиль.*
Annotation: in this article, theories about the author's individual style and their study in Uzbek linguistics are presented. Also, both concepts are explained on the basis of analysis.
Key words: *linguopoetics, style, idiolect, idiostyle.*

Lingvistika boshqa sohalar singari doimiy o‘sish va rivojlanishda. Bunda bir qancha yondashuvlar va yangi sohalar paydo bo‘ladiki, ba’zi tushunchalar adabiyot va tilshunoslik o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Chunonchi, stilistika, lingvopoetika kabilar bunga misoldir. Biz har ikkala sohaga oid tushunchalardan biri uslub hamda antroposentrik yondashuv mahsuli bo‘lmish idiostil (muallifning individual uslubi) ning bir-biriga bog‘liq yoki farqli jihatlarini tahlil qilamiz.

Uslub hamda idiostil yuqorida aytib o‘tganimizdek, adabiyotda ham, tilshunoslikda ham mavjud tushunchalardir. Hatto rus tilshunoslari o‘rtasida ham ushbu masala bahsli bo‘lgan. V.V.Vinogradov uslub tilshunoslikning bir bo‘lagi desa, L.I.Timofeev uslubni adabiyotshunoslikka oid termin deb baholagan. Bizningcha, uslub, uslubshunoslik muammolari har ikkala sohaga oid hisoblanadi. Chunki, badiiy asarlar tilini va yozuvchi uslubini har tomonlama adabiy va lingvistik o‘rganish, yozuvchi uslubini tashkil etuvchi lingvistik vositalar kombinatsiyasidagi o‘ziga xoslikni aniqlaydi. Bunga tilshunoslikda olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlar misol bo‘la oladi.

Avvalo, uslub haqida to‘xtalish zarur. “Uslub- tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratilishi.” [1] Boshqacha aytganda, “Uslub bu - ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy shart-sharoitiga mos ravishda barcha lisoniy unsurlarning kishilar faoliyatining ma’lum bir sohalarda qo‘llanadigan o‘ziga xos tilidir.” [2:31]

Tilshunoslik manbalarida ta’kidlanganidek, olimlar uslubni uch qismga bo‘lib o‘rganishni ma’qul topadilar:

a) funksional (amaliy) uslub;

b) turli adabiy janrlar, adabiy oqimlar yo‘nalishini hamda yozuvchi uslubini o‘rganish uslubiyati;

c) og‘zaki va yozma nutqni tadqiq qiluvchi uslubiyat.” [2:33]

Demak, biz yozuvchi uslubini o‘rganish uslubiyati haqida so‘z yuritamiz. Yozuvchi yoki shoir uslubining til jihatdan o‘rganilishi asar badiiyligini ochib berish uchun muhimdir. Yozuvchi tili adabiy til hamda xalq so‘zlashuv tilining yig‘indisi hisoblanadi, unda o‘sha davrdagi jonli muhit mavjud bo‘ladi va u soxtalikdan begona bo‘lgan haqiqiy til ko‘rinishini aks ettiradi. Badiiy adabiyot vakili o‘z asarida ham adabiy tilga xos, ham yot bo‘lgan birliklardan foydalanganda bevosita til rivojiga hissa qo‘shadi, tilning boyishiga hissa qo‘shadi va buni o‘z asari orqali ko‘rsatadi. Shuning uchun muallif tili va uslubining o‘rganilishi muhim vazifadir. “Badiiy asarlar til jihatdan tadqiq etilganda, uning ikki tomoniga – yozuvchining tiliga va uning uslubiga ko‘proq e’tibor beriladi”. [3:201]

Idiostil atamasi rus tilshunosligida XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan hamda bir qator olimlar: V.V.Vinogradov, Yu N. N. Tynyanov, Yu N. Karaulov,

V.P.Grigorev, T.A.Chernisheva, Y.G.Malisheva, V.V.Ledenyova, V. P. Belyanin tomonidan o‘rganilgan.

Rus olimlari idiostilga turlicha ta’rif berishgan. S.I Gindin idiostilga ijodkorlikning tuzilishini tashkil etuvchi yadro sifatida qaraydi.. V.P. Grigorev “idiostil- muallifi obrazi” degan ta’rifni beradi. [4:114] V. P. Belyanin: “Yozuvchi uslubi shu bilan asarning o‘ziga xos, chuqur shaxsiy badiiy dunyosini yaratadi, uning hissiy sohasini shakllantiradi” [5:123] Idiostil tushunchasining shakllanishi bir paytning o‘zida til shaxsi (nutq egasi) tushunchasining shakllanishiga olib keladi. “Til doirasidan tashqariga chiqmasdan, uning ijodkoriga e’tibor qaratmay turib, tilning asosiy tashuvchisi – inson omili bilan hisoblashmay til va uning tabiati haqida aniq xulosalarga kelib bo‘lmaydi”, - deb yozadi Sh.Balli.

O‘zbek tilshunosligida ushbu atama nisbatan yangi tushuncha hisoblanib, hozirgi kunda idiostil bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Dastlab, S.Umirova, M.Abdupattoyev idiostil atamasi va uning tilshunoslikdagi muhim o‘rni haqida o‘z dissertatsiyalarida yoritishgan. Shuningdek, hozirgi kunda M.Qurbonova, N.Turdiyeva, A.Nurmonov, D.Lutfullayevaning ilmiy ishlarida idiostil, idiolekt haqida ma’lumotlar uchraydi. M.Abdupattoyev: “Iidiostil lingvistik atama sifatida indiviudual uslub (stil) birikmasining qisqartirilgan shakli bo‘lib, biror bir ijodkor ning tildan foydalanish xususiyatlarini o‘z ichiga olgan uslubning o‘ziga xos kompleksi ma’nosini ifoda etadi.” [6:116] degan ta’rifni keltiradi.

Idiostil atamasi ostida shoir yoki yozuvchining individual o‘ziga xos dunyo manzarasining shakllangan jihatlarini o‘rganadi. Idiostil ijodkor, publisist, olim yoki ma’lum bir til tashuvchilarning nutqiy-uslubiy o‘ziga xosligi yig‘indisi bo‘lib, u orqali til shaxsining lingvistik xarakteri reallashadi. Idiostil tushunchasi tilshunoslikda, badiiy asar uslubi tadqiq etilgan ishlarda, ma’lum bir ijodkor yoki ma’lum bir asar uslubi masalalarini aniqlashtirish ma’nosida ham qo‘llaniladi. [6:115]

Aynan bu yondashuv turli nuqtai nazardan idiostilni o‘rganadigan ko‘plab yangi tadqiqotlarning dunyoga kelishiga sabab bo‘ladi, bunda asardagi o‘ziga xoslikni yaratayotgan asosiy elementlari tanlanadi, ya’ni, tadqiqotchilar u yoki bu muallifda ajralib turgan individuallikni topadilar. Ushbu yondashuv bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, shu davrdagi jonli tilni batafsil tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, muallifga xos xususiyatlar, ya’ni uning mahorati, okkozional so‘z va iboralarni qo‘llay olishi, murakkab gap qurilishidagi o‘ziga xosliklar yoxud poetik vositalarni tanlay olishi va bu orqali badiiyatining qay darajada qiymatga ega ekanligi hamda ana shu ijodkorning tilshunos sifatidagi bilimi namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomaqsudov A. va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
2. U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. – Toshkent: 2004.
3. I.Sulton.Adabiyot nazariyasi.– Toshkent: 1990.
4. Григорьев В.П. Идиолект. Идиостиль // Литературный энциклопедический словарь / под общ. ред. В.М. Кожевникова и П.А. Николаева - М.: Советская энциклопедия, 1987.
5. Белянин В. П. Психолингвистические аспекты художественного текста. - М., 1987.
6. Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. доктори дисс... – Фарғона, 2021.

Namuna NAZAROVA,
mustaqil tadqiqotchi

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA CHOPON SO‘ZINING BADIIY IFODASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Sirojiddin Sayyidning o‘zbek milliy ruhiyatini aks ettirgan she’rlari tahlilga tortilgan. Milliy kiyimlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarning poetik ko‘lami atroflicha tadqiq qilindi. Shoirning badiiy topilmalari o‘rganildi.

Tayanch so‘zlar: *milliylik, xalqchillik, ulug‘vorlik, chopon,to‘n, vatanparvarlik, badiiy san’atlar,poetik topilmalar.*

Аннотация: в данной статье анализируются стихи Сироджиддина Сайида, отражающие узбекский национальный дух. Подробно изучен поэтический объем слов, связанных с национальной одеждой. Изучены творческие находки поэта.

Ключевые слова: *национализм, величие, пальто, патриотизм, изобразительное искусство, поэтические находки.*

Annotation: in this scientific article, Sirojiddin Sayyid's poems reflecting the Uzbek national spirit are analyzed. The poetic scope of the words related to national clothes was studied in detail. The poet's artistic findings were studied.



“Poeziya tili zavqli, ohangli, ulug‘vorlik bilan yo‘g‘rilgan; nafis, nozik, latif, favqulodda lutflarga boy bo‘lmog‘i lozim. She’rning alifbosi – obrazli tafakkur.”[1] Adabiyotshunos olimlarning ushbu fikriga tayanadigan bo‘lsak, shoirlar o‘z qalb kechinmalarini, his –hayajonlarini, orzu- umidlarini ma’lum bir obraz shaklida kitobxonga taqdim etadi. Yaratilgan obraz o‘quvchi sezimlariga ta’sir etib, uning tafakkurida qanchalik iz qoldirishi va ta’sir o‘tkazishi yaratilgan obrazning kitobxon ruhiyatiga nechog‘lik yaqinligiga ham bog‘liq.Shoir Sirojiddin Sayyid o‘z ijodida shunday o‘zbekona, jaydari badiiy topilmalar yaratganki, ularning barchasi o‘quvchi qalbiga, tushunchalariga juda yaqin. Shunday o‘zbekona obrazlardan biri bu-chopon obrazidir. Shoir ijodida milliy kiyimimiz hisoblangan chopon bir necha xil variantlari bilan birga turlicha poetik ma’no yarata olgan

“Sariosiyo osmonlari…” deb boshlanuvchi she’rda to‘n o‘zgacha qarash bilan namoyon bo‘ladi:

Hijron-u firoqning ko‘nglini g‘ashlab,
Qaytaman, qaytaman hayotni,
Donishmand, purhikmat hayotni
Yelkalarim uzra to‘n kabi tashlab. [2]

She’rda lirik qahramonning ruhiyati yoritilgan. O‘zi tug‘ilgan, unib – o‘sgan go‘shasidan olisga ketgan qahramonning ota- onasiga, yaqinlariga, tug‘ilgan yeriga bo‘lgan sog‘inchi, qolaversa,yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari oqibatida orttirilgan iztiroblari va kelajakka ishonchi aks ettirilgan. Bu bandda shoir ikki xil she’riy san’atni ishga soladi. Birinchisi, hijron va firoq kabi mavhum otlarga kishilarga xos xususiyatni ko‘chiradi. Ya’ni ularga xafa bo‘lishlik tuyg‘usini yuklaydi va tashxis san’atining ajoyib namunasi yaratiladi. Ikkinchisi, tashbeh san’ati bo‘lib, hayot qiyinchiliklarini, tashvishlarini gardaniga olib, sertashvish hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlab olishdek vazifani bajarishni obrazli tarzda to‘nni kiyishga qiyoslaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida to‘nga quyidagicha ta’rif beriladi: To‘n – kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qovilgan, uzun milliy kiyim. [3] Yelkasiga to‘n tashlagan kishini tasavvur qilar ekanmiz, odatda yoshi kattaroq, hayotga teran nazar tashlaydigan, uzoqni ko‘ra oladigan, sermulohaza odam qiyofasi gavdalanadi. She’rning umumiy mazmunidan va “qaytaman” degan xitobning takrorlanishidan lirik qahramonning qachonlardir xatolarga yo‘l qo‘ymaydigan, dunyoqarashi keng,hayotni yaxshi anglagan inson qiyofasiga kirishiga ishora qiladi.

To‘n so‘ziga sinonim bo‘lgan chakmon so‘zi “Maslahat” she’rida tilga olinadi:

Kunlar zindoniga tutqun bo‘lmagin,
Kiymagin tor kelgan yillar ko‘ylagin.
Betiyiq istaklar, havaslarni tiy,
Kiysang asrlarning chakmonini kiy. [2]

Chakmon – odatda jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to‘n.[3] Izohli lug‘atdan ma’lum bo‘ldiki, chakmon ham choponning bir turi ekan. Bu ham milliy kiyimlarimiz qatoriga kiradi. “Sariosiyo osmonlari…” she’rida lirik qahramonning maqsadga erishish yo‘lida o‘z- o‘ziga xitobi, undovi tariqasida hayotni to‘n kabi elkaga tashlash tasvirlangan bo‘lsa,

bu bandda lirik qahramonga boshqa birov tomonidan nasihat, maslahat tariqasida asrlar chakmonini kiyishga undov ifodalangan. Asr –bu yuz yil, asrlar yuz yilliklar. Shoir aynan asrlarning chakmoni deganda uzoq davrni, juda olis vaqtni chamalaydi. She'rda shoirning asl niyati "asrlarning chakmoni"ga o'ralgan. Maqsad komil inson tarbiyalashdir. She'rning teran ma'no mujassam qilishida qo'llanilgan ko'ylak- to'n, yil-asr so'zlari hamda ularning matnda bajargan vazifalari katta rol o'ynaydi. Shoir tanosub san'atidan foydalanib bir guruhga mansub hisoblangan, ya'ni kiyim-kechaklar - to'n va ko'ylakni tanlab oladi.Ulardagi keng va torlik sifatlarini nazarda tutib o'z - o'zidan tazod san'atini vujudga keltiradi. Yil va asr so'zlari orqali ham tanosub va tazod san'at namunalari hosil qilingan. Ya'ni vaqt guruhiga mansubligi bilan tanosub, o'sha vaqtning o'lchoviga qarab tazod san'ati o'z aksini topgan. Bu o'rinda tashxis san'ati ham yashirincha ishtirok etganki, yil va asrga kiyim kiya olish imkoniyatini bergandek. Qo'llanilgan she'riy san'at turlari garchi tasavvur qilinishi muqarrar bo'lmagan poetik obrazlarni yuzaga keltirgan bo'lsa-da eng asosiysi, asrlarga tatiydigan ezguliklar, oliyjanobliklar, xayrli ishlar umrbo'yi hamrohimiz bo'lishi lozimligini ta'kidlab berolgan.

Shoirning "Men ketar edim…" deb boshlanuvchi she'rida chakmon o'zining ikki xil xususiyati bilan ikki xil obrazni yoritishda muhim rol o'ynaydi:

Men ketar edim
Dilimda g'amlar
Qarshimda chollarday
Chiqdi g'aramlar
Qorlar chakmonini
Yopinib olib,
O'tirardi ular
Go'yo dam olib.[2]

Bu she'rda ham lirik qahramon ruhiyati yoritilgan. G'aramlarning qordan chakmon kiyib olganligi obrazi dilida g'am-tashvish bilan ketayotgan lirik qahramon yuragidagi orzu-umidlardan, ishonchdan, xotirjamlikdan dalolat beradi. Buni shoir tashxis san'atidan unumli foydalanib g'aramlarga qordan chakmon "kiygizib" mohirona ifodalab bergan. Lirik qahramon yo'lda ketar ekan, xotiralarni unutib, borgan sari ruhiyatida engillik his qiladi:

Xotiralardan
Kecha boshlayman.
Ularni og'ir
Chakmon singari
Yechib tashlayman.[2]

Lirik qahramonning yomon xotiralarni, tashvishlarni unutishini ijodkor og'ir chakmonni yechganga qiyoslaydi. Qahramonni tashvishga solgan tashvishlarning yukini shoir chakmonga og'ir epitetini mutanosib ravishda qo'llab tasvirlagan bo'lsa, bu o'y-xayollardan qutilishni chakmonning yechilishidagi qulaylikda mujassamlashtira olgan va tashbeh san'atining ajoyib namunasini yaratgan.

Chopon so'zi ham to'n va chakmon so'zlarining sinonimik qatorini to'ldira oladi. Shoirning "Tiriktepa" she'rida chopon so'zi dunyoga ta'rif berishda qo'llanilgan:

Garchi Baqtriya ,garchi Yapondir,
Dunyo ham aslida eski chopondir.[4]

She'riyatda dunyoga nisbatan juda ko'plab ta'riflar qo'llanilgan.Shular jumlasiga "Bir kam dunyo", "Olchoq dunyo", "Yolg'onchi dunyo", "O'tkinchi dunyo" va hakozo. Dunyo so'zi ham olam, jahon kabi sinonimik qatorning tayanch so'zlaridan bo'lib, hajm jihatidan kenglikni, kattalikni talab qiladi. Sirojiddin Sayyid yashirin sur'atda tazod san'atini qo'llab, had- hududi bepoyonlikni talab qiladigan tushunchaga o'zbekning oddiy choponini tenglashtirib, dunyoga jaydari, o'zbekona nigohlar bilan qaraydi.

Shoirning "Choponga hazil qasida " she'rida milliy kiyimimiz sanalgan chopon jonli obrazda gavdalanadi. "Badiiy asarda tabiatdagi narsa-hodisalarni jonlantirish tashxis deb ataladi,Tashxisni shaxslantirish deb, talqin qilish ma'qul. Chunki tashxisda ko'proq narsa -predmetlar shaxs- kishiga xos xususiyatlar bilan ta'minlanadi...." [5] Shoir choponga murojaat qilar ekan, uni eng yaqin do'st sifatida talqin qilgan: Yolg'iz tashlamading- do'st, hamdam bo'lding.[6] Keyingi bandda chopon obrazi lirik qahramonga erkalanuvchi,unga suyumli bo'lgan jajji, kichkina bolaga qiyosan talqin qilinadi: Gohi sayr etding yelkalarimda.

Necha bor mehribon englaring bilan /Bo'ynimga osilib yig'lading xomush. Band mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu o'rinda chopon go'zal qiz obrazini ifodalay olgan.

Kimga ko'ngil ochdim beboj, bexiroj,
Qo'ynidan tikon yo tosh chiqdi oxir.
O'zingdan qo'ymasin, quchog'ingni och,
Dunyoda eng ochiq, beminnat bag'ir!

Yuqoridagi ushbu bandda esa chopon, bizning fikrimizcha, ota- onaga qiyoslanadi. Bunday deyishimizga sabab dunyoda faqatgina ota-ona o'z farzandini hech qanday ta'malarsiz, shunchaki yaxshi ko'radi, unga har doim, har qanday sharoitda quchog'ini ochadi. Shoir mahorati shundaki, oddiygina kiyim –kechak turi hisoblangan choponni she'riyatda badiiy qirralarini ko'rsatib, undan kitobxonning yaqin kishilari portretini chiza olgan.

"Sevinch" nomli she'rda ham shoir Vatan obrazini

yorqin chiza olgan. Bunda chopon so‘zining ham o‘ziga yarasha salmog‘i:

O‘xshab turgan botirlarga,
Bu tog‘lar ham adirlarga,
Zarbof-zarbof kechalardan
Choponlar yopgan yurtim.[2,329]

Botir yigitlarga xos kuchlilik, bag‘rikenglik, ulug‘vorlik, sobitlik kabi xususiyatlar tog‘ va adirlarga ko‘chiriladi. Bu bilan yurt yigitlari hamda yurt tog‘-adirlaridagi xususiyatlar umumlashtirilib o‘zaro mutanosiblikni yuzaga keltirgan.

Zarboft-(forscha oltin, to‘qima) – Zar ip bilan to‘qilgan matolarning umumiy nomi. Asosan, xon, amaldorlar va ularning oila a’zolari zarboftdan tayyorlangan liboslar kiygan.[3] Milliy an’analariga ko‘ra yigitlarga to‘y marosimlarida, bayram kunlarida yoki shunga o‘xshash shodiyona davralarda zar chopon kiygizish odat tusiga kirgan.Bu jarayon yigitlarga o‘ziga ishonch, g‘urur, faxr tuyg‘ularini shakllantirgan, qolaversa, ularning zimmalariga yanada mas’uliyat yuklagan. Bundan tashqari, boshqalarga ibrat qilib ham ko‘rsatishga asos bo‘lgan. Yuqoridagi bandda shoir shunday chiroyli obraz yaratadiki, alpqomat, jasur yigitlarga monand tog‘- adirlarga mard, botirlar kiyadigan choponni qora, lekin juda tiniq , o‘tkir nurli, yorqin yulduzlar bilan bezatilgan osmonni chopon sifatida ularga kiygizadi. Bu bilan shoir kitobxonga ajoyib obrazli jarayonni tortiq etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoirning obraz yaratish mahorati tufayli maishiy hayotdagi oddiygina detal sanalgan chopon ham poetik obraz darajasigacha ko‘tarila olgan.Bu bilan shoir o‘zbek tili so‘zlarining ma’no qatlamlari boyishiga munosib hissa qo‘sha olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2018.364-b.
2. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami. I jild – T.:“Sharq”,2018.480-b.
3. O‘zbek tilining izohli lugati. www.ziyouz.com.kutubxonasi
4. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami.IIIjild.– T.:“Sharq”,2019.576-b.
5. Vahob Rahmonov. She’r san’atlari. – T.: “Sharq”, 2020. 340-b.
6. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami.II jild – T.:“Sharq”, 2018.568-b

Feruza QURBONOVA,
“TIQXMMI” MTUning Qarshi
irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

XX ASR IJODIDA FALSAFIY ROMAN TARAQQIYOTI

Annotatsiya: maqolada har bir narsaning boshlang‘ich nuqtasi inson ongida kechayotgan fikrdir. Shundan kelib chiqilsa, inson, eng avvalo, o‘z dunyoqarashi, fikrlari mahsulidir. Inson borliq va atrof-muhitni, ijtimoiy voqelikni qanday anglashiga ko‘ra fikr yuritadi. Uning barcha xatti-harakatlari, faoliyati zamirida bilish, anglash, fikrlash yashiringan. Badiiy ijodning barcha adabiy tur va turli janrlarda yaratilgan namunalarida umumiylik va xususiylik kategoriyalari mavjud. Xususiyligi esa har bir ijodkorning o‘zi tanlagan falsafiy konsepsiyani qanday ifodalashida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *ezgulik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, haqiqat, mehr-muhabbat, vafo, oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlar.*

Annotation: the starting point of everything in the article is the thought that passes through the human mind. From this, a person is, first of all, a product of his worldview and thoughts. A person thinks according to how he perceives existence and environment, social reality. Knowledge, understanding, thinking are hidden at the core of all his actions and activities. There are categories of generality and specificity in the samples created in all literary types and different genres of artistic creativity. Its uniqueness is manifested in how each artist expresses the philosophical concept he chooses.

Keywords: *universal human values such as goodness, patriotism, tolerance, truth, love, loyalty, consequences.*

Аннотация: отправной точкой всего в статье является мысль, проходящая через сознание человека. Исходя из этого, человек является, прежде всего, продуктом своего мировоззрения и мыслей. Человек мыслит согласно тому, как он воспринимает существование и окружающую среду, социальную реальность. Знания, понимание, мышление скрыты в основе всех его действий и деятельности. В образцах, созданных во всех литературных видах и разных жанрах художественного творчества, присутствуют категории общности и специфичности. Его уникальность проявляется в том, как каждый художник выражает выбранную им философскую концепцию.

Ключевые слова: *общечеловеческие ценности, такие как добро, патриотизм, толерантность, правда, любовь, верность, последствия.*

Badiiy adabiyot tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida bir xil vazifani bajarib kelgan. U har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzum, har bir jug‘rofiy hududda o‘sha xalqning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Kishilardagi eng oliy umumbashariy qadriyatlar erk, adolat, odob-axloq, mehr-oqibat, darddoshlik, ma’rifatparvarlikni yoqlab, zulm, haqsizlik, jaholat va insonlik sha’niga nomunosib bo‘lgan ochko‘zlik, zulm-zo‘ravonlik, xiyonat, qo‘rqoqlik, yolg‘on, kibr, maqtanchoqlikni qoralagan. Davr va jamiyat a’zolarining orzu-intilishlarini o‘zida aks ettirgan badiiy adabiyot zamon bilan hamnafas o‘z-o‘zini isloh qilib kelgan.

Xalqning ruhiy, ma’naviy talabini qondirishni o‘z oldiga maqsad qilgan badiiy adabiyot hayotni obrazli ifodalaganligi tufayli insonlar qalbiga yaqin. Shuning uchun ham xalqning ko‘ngliga tez yo‘l olgan. Xalq og‘zaki ijodidan tortib mumtoz asarlargacha va hozirda yaratilayotgan eng sara badiiy ijod namunalarining adabiy-estetik qiymati, xalq ma’naviy mulki sifatidagi nodir va noyobligi shu bilan izohlanadi.

XX asrda o‘zbek adabiyoti, jumladan, milliy nasrda pandnoma-didaktika o‘z o‘rnini ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq voqelik tasviriga bo‘shatib berdi.

Badiiy asarlarni tekshirishda germenevtik yondashuv usuliga o‘tilishi davr taqozosi sifatida yuzaga keldi. Insonlararo munosabatlar, ular o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar o‘rnini inson botiniga qaratilgan, o‘z-o‘zi bilan kurashayotgan, kamchilik va nuqsonlardan xoli bo‘lmagan, o‘zini tanishga intilayotgan inson tasviri egalladi.

So‘zning ma’no nozikligi, ma’no qatlamlarini anglash nihoyatda murakkab ijodiy jarayon. Masalaning ayni jihatlariga Sharqning peshqadam alloma mutafakkirlari alohida diqqat qaratishgan. Mahmud Qoshg‘ariydan Alisher Navoiygacha va undan Fitratga qadar ijodkorlar badiiy matn tahlili, badiiyat, so‘zni idrok etish va his qilish, badiiy matn talqini va tahlilini badiiy ijodning zaruriy sharti hisoblaganlar.

Aristotel, Spinoza, Kant, R.Bart, Y.Kristeva, J.Darrida va boshqa dunyo adabiyotshunosligining taniqli namoyandalarining badiiy matn tahlili, badiiy psixologizm to‘g‘risidagi fikrlari muhim ilmiy qimmatga ega.

“Faylasuf I.Kant makon va zamonni alohida shaxs ongi, his-tuyg‘u hamda mushohadalari bilan izohlagan bo‘lsa, E. Gusserl fenomenologiyasida borliqni inson ongiga bog‘lab tushuntirish g‘oyasi ilgari surildi va bu postmodernizm falsafasida yanada rivojlantirildi. Mazkur ta’limotda yuz bergan keyingi rivojlanish, yangilanishda M.Xaydegger, G.Gadamer, P.Rikyor, M.Baxtin, D.S.Lixachyov, B.M.Kagan, M,B. Xrapchenko, Yu.Boryev, B.Gaydenko, D.Urnov, V.Xalizev singari olimlarning o‘rni va xizmatlari beqiyos.

Hans Georg Gadamerning tushuntirishicha, badiiy matnni to‘laqonli tushunish ma’lum bir chegaraga ega emas, u har bir ijodkor tabiatiga alohidalik kasb etadi va individual xarakterga ega. Har bir narsaning boshlang‘ich nuqtasi inson ongida kechayotgan fikrdir. Shundan kelib chiqilsa, inson, eng avvalo, o‘z dunyoqarashi, fikrlari mahsulidir. Inson borliq va atrof-muhitni, ijtimoiy voqelikni qanday anglashiga ko‘ra fikr yuritadi. Uning barcha xatti-harakatlari, faoliyati zamirida bilish, anglash, fikrlash yashiringan. Badiiy ijodning barcha adabiy tur va turli janrlarda yaratilgan namunalarida umumiylik va xususiylik kategoriyalari mavjud. Umumiylik jihati badiiy asarda ezgulik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, haqiqat, mehr-muhabbat, vafo, oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlar tasvirlanadi. Xususiyligi esa har bir ijodkorning o‘zi tanlagan falsafiy konsepsiyani qanday ifodalashida namoyon bo‘ladi.

Badiiy til orqali yuzaga chiqadigan ijodkor botinidagi hislar va voqelikda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ta’sirida paydo bo‘lgan kechinmalar, fikrlar ifodasida muallifning “ichki men”i aks etadi. Har qanday badiiy asarda muallif “men”i ma’lum bir nechta obrazlarga singib ketadi. Masalan, “O‘tkan kunlar”da Yusufbek hoji, Ahmad Donish prototipi bo‘lgan Otabek; X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romanida Fozilbek, Qadriya, Zar bobo obrazlarida yozuvchi falsafiy konsepsiyasi, “ichki men”i o‘z tasdig‘ini topgan. His va aql sintezi natijasida yaratilgan badiiy asarlarda inson bilan bog‘liq muammolar oshkora yoki ramz, majoz yo‘li bilan qalamga olinadi. Kitobxon o‘z dardi, hislari, ko‘ngil kechinmalari – o‘z qalbiga doir asarlarnigina qabul qiladi. Badiiy ijod inson botinida kechadigan hissiy va aqliy faoliyatning mahsuli bo‘lib, u ijodkor “ichki men”ining til vositasida namoyon bo‘lishidir, deb aytish mumkin. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, insonning ichki dunyosi, ruhiy olamida kechayotgan tuyg‘ular, botinida yuz berayotgan evrilishlar g‘ayritabiiy ravishda, hatto uning o‘ziga to‘liq tushunarli bo‘lmagan holatda badiiy asarda akslanadi.



Badiiy ijod ruhiy-psixologik jarayon bo‘lib, uni batamom tushunish yoki tushuntirib berish imkonsiz.

Badiiy so‘zning vazifasi har doim insonni tushuntirishdan iborat bo‘lgan. Buning tasdig‘ini Avesto, qadimiy bitiktoshlar, xalq dostonlari va ertaklar, Qur’on, hadis, keyingi asrlarda yaratilgan badiiy ijod namunalarida ko‘rish mumkin.

Qur’onda inson psixologiyasiga oid juda muhim qaydlar keltirilgan. Insonning o‘z-o‘ziga zulm qiluvchi tabiatga egaligi, u o‘z holini o‘zgartirmaguncha ahvol-ruhiyasi o‘zgarmasligi, inson o‘z-o‘zini inkor etuvchi ekanligi ta’kidlangan. Mazkur ilohiy kalomlar bugun psixologiya fani tomonidan to‘la tasdig‘ini topgan.



“Alpomish” dostonida Murodtepaga chiqishga ahd qilgan Alpomishning o‘ziga qaratilgan monologi keltirilgan. Qahramon ruhiy holatiga xos bo‘lgan ikkilanishni adabiyotshunos Sh.Turdimov quyidagicha izohlaydi: “Epos syujeti xalqning ko‘ngil mulkida pishib yetiladi, tilga ko‘chadi. Bu yerda hukmbardor – xalqning ruhi. “Alpomish” buning tasdig‘i”. Demak, badiiy psixologizm insonning botiniy olami, ko‘ngilda kechayotgan his-tuyg‘ulari bilan bevosita bog‘liq falsafiy-psixologik hodisa bo‘lib, unda asarning badiiy-estetik mohiyati aks etadi. Badiiy psixologizm nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, psixologiya, etika, estetika fanlari bilan bog‘liq. Shuning uchun badiiy psixologizmni fanlar kesimida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Psixologizm milliy adabiyotshunosligimizda XX asrning ikkinchi yarmi, yanada aniqrog‘i, 60-yillaridan boshlab tadqiq etila boshlangan. O‘tgan asrning 70-yillaridan N.Shodiyev Abdulla Qahhorning psixologik tahlil mahorati va M.Abdurahmonova Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tahlil mahorati haqida tadqiqotlar yaratdi.


Adabiyotshunos H.Umurov milliy adabiyotshunoslik va adabiy tanqidda “psixologizm” va “psixologik analiz” istilohlari bir xil ma’noda qo‘llanishi noto‘g‘riligini ta’kidlab, mazkur istilohlar o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatib beradi. Olimning fikriga ko‘ra, psixologizm psixologik tahlil tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib, u o‘zida bevosita avtorning psixologiyasini ham qamrab oladi. Munaqqid o‘z qarashlarini Mopassan fikrlari bilan asoslaydi va psixologik tahlilning “inson psixikasi jarayonlarini uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman “ohang” rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi “estetik kategoriya” ekanligiga urg‘u beradi.

Psixologizm va adabiyot janr to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, roman va qissa janrida psixologizm tahlilining farqlanishiga e’tibor qaratish zarur. Mazkur janr hajmi, voqelikni tasvirlash va qamrab olishi hamda me’yor jihatidan tafovutga ega. X.Do‘stmuhammedovning “Bozor” romani va “Jajman” hikoyasida keltirilgan Fozilbek psixologiyasi talqinida janr imkoniyatlari yaqqol ko‘rinadi.

“Psixologizm, – deb yozadi A.B.Yesin, bu adabiyotning o‘ziga xos vositalari ko‘magida xayoliy (to‘qilgan) shaxs (adabiy personaj) his-tuyg‘u, fikr va kechinmalarini yetarlicha to‘liq, batafsil va chuqur qilib tasvirlash”. Darhaqiqat, badiiy asarning eng muhim jihatlaridan biri insonga o‘z-o‘zini tanishtirish, uning mohiyatini anglatish, ichki olamining eng ovloq, yashirin nuqtalaridagi his-tuyg‘ular bilan yuzma-yuz qilishdan iborat.


Badiiy psixologizm bu qahramonlarning g‘oyaviy-psixologik izlanishlarini o‘zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishi, shaxs dunyoqarashidagi asoslarni adabiyot tomonidan o‘zlashtirish shaklidir.

Sobiq sho‘ro davri adabiyotida nasriy asarlarda voqelik asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, istiqlol davri adabiyotida voqelik va inson ma’naviy-ruhiy olami bir butunlikda tasvirlana boshladi. A.Qodiriy, A.Qahhor singari yozuvchilar ijodiga xos bo‘lgan voqelikni inson ruhiyati bilan bog‘liqlikda aks ettirish badiiy adabiyotning yetakchi tamoyiliga aylandi. Natijada epik va psixologik tasvir o‘rtasidagi nomuvofiqlik va nomutanosiblik muammosi o‘z yechimini topdi. M.M.Do‘stning “Lolazor” romani, “Galatepaga qaytish” qissasi, E.A’zamning “Javob”, X.Sultonovning “Ajoyib kunlarning birida” qissalarida qahramonlarning ichki nutqi orqali ularning ma’naviy-ruhiy olami, o‘ziga xos xarakteri va psixologiyasi ochib berilgan.



N.Shodiyev psixologizm prinsiplari, shakllari va vositalari to‘g‘risida fikr yuritar ekan, A.S.Pushkin qahramonlar psixologiyasini tasvirlashda dinamik prinsipga, N.V.Gogol esa tipologik prinsipga, M.Y.Lermontov analitik prinsipga amal qilganligini misollar yordamida asoslab beradi.

X.Do‘stmuhammadning “Bozor” va “Donishmand Sizif” romanlarida badiiy psixologizmning yuqorida qayd etilgan har uchala ko‘rinishi qo‘llangan yozuvchining o‘ziga xosligi, individualligi sanalgan badiiy psixologizm qahramonlar xatti-harakatlari, ruhiy qiyofasi, ijtimoiy-maishiy hayot va ichki “men” o‘rtasidagi bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi, unda borliq va inson olami ochib beriladi. Fozilbek timsolida sanab o‘tilgan tamoyillarning barchasi jamlangan.



Yozuvchi Xurshid

Do‘stmuhammad asarlarida qayd etilgan an’analarning sintezlashuvi bilan birga, psixologik tasvir serqirraligi, jahon adabiyoti tajribalari vositasida yangilanish tamoyillari kuzatiladi.

Yozuvchining romanchilikdagi ilk tajribasi “Bozor” romanida “koinot gultoji” bo‘lgan hazrati inson taqdiri, uning baxt va fojiasi, topish va yo‘qotishlari, mahrumiyat va muyassariyati, ogohlik va gumrohliklari, g‘alaba va mag‘lubiyatlari, zohiri va botini majozan bozor timsolida ko‘rsatib berilgan. Olamni va odamni, aslida, shu orqali o‘zini anglashga intilayotgan, har bir qadamida o‘ziga to‘qnashib, o‘zi bilan goh ayovsiz olishib, goh kelishib yashayotgan odamning ruhiyatidagi evrilishlar muallif kayfiyati, tafakkur tarzi, borliq, jamiyat, insoniyatga bo‘lgan munosabati bilan uyg‘unlashib, keng epik ko‘lamdorlikda ifodalangan. Shu o‘rinda “Bozor” romani haqida adabiyotshunosligimizda birinchilardan bo‘lib dadil fikrlar bildirgan adabiyotshunos D.To‘rayevning mulohazalariga e’tibor qarataylik:

“Yozuvchining mahorati shundaki, o‘z maqsadini o‘quvchiga yetkazishda, xususan, bugungi jamiyatning ma’naviy hayotini ko‘rsatishda asosiy vosita sifatida bozorni tanlaydi. Muallif romanga “or”, “zor”, “ozor” so‘zlarini shunchaki epigraf qilib olgani yo‘q. Bu so‘zlarga romanning asosiy pafosi singdirilgan”. Olimning “Rangin tasvirlar jilosi” risolasidan o‘rin olgan “Uslub jilolari, poetik g‘oya va ruhiy tahlil” nomli anchagina salmoqli, qariyb uch bosma taboqqa yaqin maqolasida ham Xurshid Do‘stmuhammad asarlari ancha teran tahlil qilingan. Poetik shakl va uslubiy o‘ziga xoslik, ijodiy individuallik, adabiy qahramon yaratish hamda xarakterlar ruhiyatini badiiy tahlil va tadqiq etish mahorati – badiiy psixologizm omillari sanaladi. Muallif bayoni va ichki monolog badiiy psixologizmning ikki muhim unsuri sifatida to‘laqonli inson obrazini yaratishga xizmat qiladi.

V.M. Jirmunskiy, L.Y. Ginzburg, I.V. Straxov, A.B. Yesin kabi rus adabiy tanqidchilari tomonidan badiiy psixologizmning ilmiy-nazariy asoslari bo‘yicha e’tiborga molik tadqiqotlar yaratilgan va mazkur ishlarda ilgari surilgan qarashlar adabiyotshunoslikda dasturilamal vazifasini o‘tamoqda.

A.Iezuitov esa adabiyotda psixologizm muammosini o‘rganar ekan, mazkur tushunchaning ko‘p ma’noli ekanligini qayd etadi. Ularni uchga bo‘lib ta’riflaydi: 1) so‘z san’atining tug‘ma belgisi, uning uzviy xususiyati, badiiyatining isboti...; 2) badiiy ijod mahsuli, muallif, uning personajlari va yanada kengroq – yozuvchi shaxsiyati va u yaratgan qahramonlar obrazi orqali ochiladigan jamiyat psixologiyasining (sinf, tabaqa, ijtimoiy guruh, davr va h.k.) ifodasi va aksi...; 3) ongli va belgilovchi estetik tamoyil.

R.Uellek va O.Uorrenlarning “Adabiyot nazariyasi” kitobida: “adabiyot psixologiyasi” termini ostida, asosan, “u yoki bu badiiy asar yaratilishining psixologik tipologiyasi va qonuniyatlarini o‘rganishni tushunish mumkin”. Binobarin, “Badiiy psixologizm bu – qahramonlarning g‘oyaviy-psixologik izlanishlarini o‘zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi asoslarni adabiyot tomonidan o‘zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma’rifiy muammoviy va badiiy qimmati, eng avvalo, shunda ko‘rinadi”.

Badiiy adabiyotda psixologizm yozuvchi mahoratini yuzaga chiqaradigan asosiy uslubga aylanib borgani uchun ham adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha o‘rganila boshlandi va muayyan metodologik asosni tashkil etuvchi nazariy tadqiqotlar yaratildi. V.M. Jirmunskiy, L.Y. Ginzburg, I.V. Straxov, A.B. Yesin, B.A. Uspenskiy kabi rus adabiyotshunoslari ko‘plab tadqiqotlar yaratishdi. L.Y.Ginzburg “Psixologik tahlil to‘g‘ridan to‘g‘ri muallif yoki qahramonlar o‘z-o‘zini taftish qilishi shaklida yoki bilvosita – qahramonlar xatti-harakatini, kechmishlarini tasvirlash orqali amalga oshiriladi” , deya fikr bildirsa, I.V.Straxov psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning “botiniy” (harakatdagi shaxslarning ichki nutq, xotira obrazlari va tasavvurlari orqali ifodalanadigan ichki olamini kashf etish) va “zohiriy” (nutq, nutqiy o‘zini tutish, mimika va psixikaning tashqida aks etadigan boshqa vositalari ifodaviy o‘ziga xosligining yozuvchi tomonidan talqin etilishi) turlariga ajratadi.

I.V.Straxovning fikriga qo‘shilgan holda, adabiyotshunos A.B.Yesin psixologik tahlilning uchinchi – “jamlovchi-belgilovchi” (суммарно-обозначающей) shakl bilan to‘ldirishni taklif qiladi (personaj fikrlari va tuyg‘ulari haqida ichki olamda kechayotgan o‘sha jarayonlarni qisqacha tavsiflash, belgilash orqali kitobxonga xabar berish usuli). E’tibor bersak, adabiyotshunoslar psixologik tahlilning uch asosiy – bevosita, bilvosita va “jamlovchi-belgilovchi” shaklini tasniflashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонова М. Руҳий дунё тасвири. –Тошкент: Ўзбекистон, 1977.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя. – Москва: Просвещение, 1988.
3. Иезуитов А.Н. Проблемы психологизма в эстетике (литературе). Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.
4. Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
5. Шодиев Н. Руҳият рассоми. –Тошкент: Фан,1977.
6. Умуров Ҳ. Рисолалар. Ўзбек романчилигида бадиий психологизм. –Тошкент: Фан, 2007.

Abduvahob ZARIPOV,
SamDU, filologiya
fakulteti mustaqil tadqiqotchisi

AVTOBIOGRAFIK ASARLARNING GNOSEOLOGIK TADQIQI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va jahon nasrining avtobiografik yo‘nalishdagi ayrim mashhur namunalarining yaralish jarayonlari va asarlarda tasvirlangan voqeliklarning yozuvchi ruhiy-psixologik evolutsiyasining shakllanishidagi o‘rni, asarlarning yozilish uslubi, ikki xil ifoda uslubi, romantizm va realizmdan foydalanish mahoratlari yoritib berilganligi bilan xarakterlidir, shuningdek, maqolada har xil millat adabiyot vakillari asarlarining faqat o‘zlarigagina xos bo‘lgan badiiy yetuklik tomonlarini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *avtobiografik, biografik, kompozitsiya, sujet, dilogik qissa, avtobiografik-dilogik, motiv, badiiy olam, takomil, taraqqiyot, tamoyil.*

Аннотация: в данной статье характеризуются освещением процессов создания некоторых известных образцов узбекской и мировой прозы автобиографического направления и роли писателя в формировании духовно-психологической эволюции реалий, описанных в произведениях, стиля письма произведения, два разных стиля выражения, навыки использования романтизма и реализма.Также в статье предпринята попытка раскрыть присущие только им аспекты художественной зрелости произведений литературных представителей разных национальностей.

Ключевые слова: *автобиографический, биографический, композиция, сюжет, диалогический рассказ, автобиографически-диалогический, мотив, художественный мир, развитие, развитие, принцип.*

Annotation: this article is characterized by elucidating the processes of creation of some famous examples of Uzbek and world prose in the autobiographical direction and the role of the writer in the formation of the spiritual and psychological evolution of the realities described in the works, the writing style of the works, two different expression styles, the skills of using romanticism and realism. Also, the article tried to reveal the artistic maturity aspects of the works of literary representatives of different nationalities, unique to them.

Key words: *autobiographical, biographical, composition, subject, dialogical story, autobiographical-dialogic, motive, artistic world, development, development, principle.*

Barchamizga ma’lumki, avtobiografık asar tushunchasi (yun. autos – o‘zim, bios – hayot, grafo – yozaman demakdir) – muallif o‘z hayoti haqidagi voqelikni izchillik bilan hikoya qilishiga asoslangan adabiy janrdir. Bunday asar ijodkori o‘z hayot yo‘llarida qaytadan yuradi, yana bir bor o‘sha hayotda yashab ko‘radi, hayotini yaxlit qilib idrok etishga harakat qiladi. Avtobiografik yo‘nalishdagi asarlar, adabiyotshunoslar fikricha, aksariyat hollarda mualliflarning ijodiy yetuklikka erishgan damlarida, yoki bo‘lmasa, umrlari adog‘ida yoziladi. Bunga misol sifatida Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissalarini bemalol ayta olishimiz mumkin. Ular memuar tipdagi, kundalik va sayohatnoma asarlarga o‘xshab ketsa-da, aslida ulardan tamoman farq qiladi. Shu bilan birgalikda, adabiyotshunoslik ilmida aynan avtobiografik asar, avtobiografik xarakterdagi asar hamda turli munosabatlar bilan yoziladigan tarjimayi hollarni bir-biridan keskin farqlash lozim bo‘ladi. Muallifning shaxsan o‘zi (asosan, o‘z ismi bilan) mustaqil qahramon sifatida ishtirok etadigan (mas. “Bolalik” – Musavoy, “O‘tmishdan ertaklar” – Abdulla obrazi) asar aynan avtobiografik asardir. Aytilgan qolgan ko‘rinishlar esa bundan mustasnodir.

Badiiyatimiz bisotida yozuvchilarning o‘zi va zamondoshlari, tarixiy shaxslar haqida hamda zamona mutafakkirlari haqida yozilgan xotiralar, badia, avtobiografik va biografik asar, romanlar anchani tashkil etadi. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, o‘zbek bolalar adabiyotida avtobiografik va biografik asar yozish an’anasi XX asrning asrning 30-yillaridan G‘.G‘ulom (“Shum bola”), Oybek (“Bolalik” va “Alisherning yoshligi”), keyinroq A.Qahhor (“O‘tmishdan ertaklar”), H.Nazir (“Oq fotiha”), N.Fozilov (“Ustozlar davrasida” va “Topdim-u yo‘qotmadim”), O.Muxtor (“Uchqur poezdlar”), T.Malik (“Qaldirg‘och”)lar ijodida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Buyuk adabiyot vakili Fitrat aytganidek: “Adabiyot yashasa, millat yashaydi”. Demak, dunyodagi millat va elatlarning shon-u shavkatini, o‘lmas qadriyatlarini belgilab beradigan mezon adabiyot hisoblanar ekan, unda shu millatning eng yetuk shaxslari, ijodkorlari, mutafakkirlari hayotining realistik ifodasini yaratish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Adabiyot vakillari dunyo jamoatchiligiga mamlakat va millat nomidan so‘zlashi, shubhasiz.

Jumladan, rus adabiyotida adiblarning bolalik davri haqidagi avtobiografik asarlar o‘tgan asrning ikkinchi yarmi va keyingi asr boshlaridayoq alohida janr sifatida vujudga kelib ulgurganini ta’kidlab o‘tishimiz joiz. S.T.Aksakov, A.M.Gorkiy, L.N.Tolstoy, A.N.Tolstoy, I.A.Bunin, K.CHukovskiy, A.Gaydar, V.Kataev, S.Marshak, V.Astafev, V.Rasputin kabi rus darg‘alarining “bolalik”lari, birinchidan, o‘z xalqlarining,

keyin esa sobiq sho‘ro davridagi xalqlar adabiyotida ommalashib ketgani, bu yo‘nalishdagi navbatdagi asarlarning yaratilishiga zamin hozirlagan edi deb ayta olamiz. Buyuk nazariyotchi olim V.E.Xalizev badiiy asar hamda unda muallifning ishtirok etishi haqida muallif (avtor – lot. auctor) so‘zini sharhlar ekan, u badiiy asarning bunyodkori sifatidagi o‘z taqdiri va shaxsiy fazilatlariga ega bo‘lgan real shaxs ekanligini hamda uning badiiy matnga singishib ketgan muallif obrazi, aslida, to‘laligicha asarning ich-ichiga singishib ketgan rassom ekanligini bot-bot ta’kidlagan edi.

Haqiqatan ham, har bir davrdagi ijodkorlarning xotira, yodnoma va kundaliklari bu – oddiy qaydlardan iborat bo‘lmaydi. Bunda mavjud voqealar, hodisalar gohida yozuvchining uzoq xotiralari kabi bolalikning quvnoq sadolarini, gohida esa shaxs hayotining achchiq-achchiq haqiqatlarini-da realistik bayon qiladi. Jumladan, M.Gorkiyning “Bolalik” asari muallifning otasining vafoti voqelari bilan bog‘liq xotiralar bilan boshlanadi. M.Gorkiy o‘zining bolaligiga nazar tashlar ekan, butun boshli rus millati hayotining, oddiy, qashshoq va muhtojlikda kun kechiruvchi mujiklarning kamgina meros uchun aka-ukalar (tog‘alari bo‘lgan Mixalko hamda Yakov misolida) va ota-bolalari (bobosi Vasiliy Kashirindan tortib, umuman, Kashirinlar oilasi misolida) jiqqamusht, to‘polon, qon to‘kish darajasiga borib yetganligi holatlarini ochiq-oydin tasvirlab o‘tadi.

M.Gorkiyning mazkur qissasida quvonchli voqelar tasviri juda oz, aksincha, bolalarga kattalarning yomon munosabati, qiyin turmush tarzi, oila a’zolarining bir-biri bilan tinimsiz janjallari, fojiaviy taqdirlar tasvirlari ko‘proq joy egallaydi. Bu murg‘ak qahramonning beg‘ubor qalbiga dard olib kelgan ilk xotiralar, yaralar bo‘lsa-da, aslida XX asr boshlaridagi kambag‘al rus xalqi hayoti tasvirlari, chekka qishloqdagi xalqlarning qiyin turmush tarzi, umuman, jamiyatda bolalik davrining o‘rni qandayligi haqida yaxlit tasavvurlarimizni uyg‘otadi. M.Gorkiyning aynan shu badiiy maqsadi ushbu avtobiografik janr namunasi uchun asos bo‘lganiga shubhamiz yo‘q. Aytish joizki, bu janr butunjahon va qardosh xalqlar, xususan, millatimiz badiiy adabiyoti uchun ham ko‘zga ko‘ringan janrga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Avtobiografik qissalarni mukammal o‘rgangan adabiyotshunos olim A.Abrorovning yozishicha, avtobiografik xarakterdagi asarlar o‘zining uslubiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. Birinchi turdagi avtobiografik asarlar tipida yozuvchi o‘zining boshidan kechirgan voqea va hodisalarni, dalillarni boshqa badiiy obrazlar orqali tipiklashtiradi va badiiyatga kiritadi. Aniqrog‘i shuki, bunda muallifning o‘zi asarning markazida tursa ham, u boshqa nom bilan voqealar zanjirida harakat qiladi.

Ikkinchi turdagi avtobiografik asarlarda esa muallifning o‘zi bosh qahramon darajasida o‘z nomi bilan alohida personaj sifatida qatnashadi. Muallifning o‘z hayotida sodir bo‘lgan voqea hamda faktlar, o‘zi guvoh bo‘lgan yoki ishtirok etgan voqeliklar asarning yetakchi materiali vazifasini o‘taydi. Bizning o‘zbek bolalar adabiyotimizda G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasi birinchi xildagi avtobiografik asar hisoblandi hamda “Bolalik” (Oybek) va “O‘tmishdan ertaklar” (A.Qahhor) esa ikkinchi turdagi avtobiografik asarlar sirasiga kiradi deya olamiz.

Haqiqatan ham, har qanday adabiyotimiz namunasida avtobiografik xarakter mavjud, chunki odatda asarlar muallifning hayotiy tajribalari asosida yuzaga keladi: ijodkorning hayotida bo‘lib o‘tgan ba’zi voqealar, u shohid bo‘lgan holatlar, bularning ta’sirida yuzaga kelgan o‘y-xayollar badiiy asar matniga singib ketishi tayin. Avtobiografiklik yo‘sinidagi asarlarda biografiklik unsurlari ham salmoqli o‘rin tutgani holda, badiiy to‘qimalar ham hal qiluvchi o‘rin kasb etadi.

Jumladan, G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasida bosh qahramon sayohatga otlanib, tarixiy davr hayotining barcha ko‘rinishlaridan xabardor bo‘ladi. Og‘ir zamonlar bo‘lishiga qaramasdan, bolalik davr erkinligi unga hayot haqiqatlarini chuqur anglashga mushohada qilishga turtki bo‘ladi. Yosh o‘smir qahramonimiz olti oy davomidagi o‘zi guvoh bo‘lgan xalqning yaqin o‘tmishini jinnilarning ko‘payganligi sababi bilan izohlasa, og‘ir turmush tarzini esa Sariboy va Hoji bobolar timsollari va yana boshqa sarguzashtlari davomida guvohi bo‘lgan voqealar fonida oydinlashtirib boraveradi. Yozuvchining mohirona uslubi, yumorga botirib olingan poetik detallar, turli holatlar, voqealar asarning qariyb bir asrdirki davom etib kelayotgan adabiyot ixlosmandlarining turli talqinlariga sababdir, nazarimizda.

Shu ma’noda oladigan bo‘lsak ham bolalar nasri aftobiografizmi poetik tafakkurimiz yangilanishining asosiy omili sifatida e’tiborga molik. Zotan, Oybek, A.Qahhor hamda Hakim Nazirlar qalamiga mansub bo‘lgan bolalik davr xotiralarida goh tarixiy, goh ijtimoiy hayotga aloqador muhim hayotiy voqealar, adiblarning bolaligi tashqi “fon” vazifasini o‘tasa-da, asarning tub g‘oyasi, albatta, tub mazmuniga – asar botiniga singib ketganini anglash qiyin emas.

Oybekning "Bolalik" avtobiografik qissasida ham yosh Musavoyning bolalik va o‘smirlik chog‘lari qalamga olinadi. Ushbu asar ko‘p jihatdan yozuvchi - bola menining shakllanish etaplarini aks ettirayotgandek tuyulaversa ham, adibimiz chinakam badiiy maqsadini ochib berishga muvaffaq bo‘la olmagan deyishga asosimiz bor. Shu sababdan ko‘pgina olimlarimiz "Bolalik" voqealari memuar xarakterda bo‘lsa ham, yozuvchi unga ijtimoiy ruhni bera olgan. Oybek avtobiografik uslubni badiiyatda qo‘llab, o‘zini hamin qadar cheklaganday bo‘ladi, nazarimizda. Oybek o‘z qahramoniga G‘.G‘ulomning “Shum bola”si kabi to‘liq erkinlik bera olmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay, Oybek ko‘p o‘rinlarda

o‘z ruhiyatidagi erkka intilish xarakterini qahramoniga mohirlik bilan ko‘chirishga urinadi. Masalan, asarda bir o‘rinda: “Maktab jahannam kabi tuyuladi. Har soat, har daqiqa “ozod” so‘ziga intizormiz”, – deyiladi. Badiiy parchadagi ushbu “ozod” so‘zini faqat “tanaffus, uyga javob sizlarga” qabilida emas, unda umr davomida tazyiqlar ostida yashab kelayotgan yozuvchining ruhiyati bolalarcha soddalik va teran tafakkur bilan aks ettirilgan. Matndagi “ozod” so‘zining qo‘llanishidayoq yozuvchining ruhiy erkinlikka juda tashna ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda rus adabiyotida yoki, umuman, jahon adabiyotida muallifning hayoti bilan uzviy bog‘liq holdagi voqelar, ijodkor yashagan davr, u kamol topgan jamiyat, oila muhiti va do‘st-birodarlarining realistik xarakteri kabi tomonlar avtobiografik yo‘sindagi asarlarning birlamchi tomonini belgilashi bilan birga, dunyoga kelajak asarlarning “xamirtirush”i bo‘lishini ta’kidlashimiz lozim. Zero, “Bolalik” asarlarining hammasi (L.Tolstoy, M.Gorkiy, Oybek, Ch.Aytmatov) tuzilishi va ifodalab berish uslubi tomonlama bir-biriga hamohang. “O‘tmishdan ertaklar” (A.Qahhor) hamda “Oq fotiha” (H.Nazir) asarlaridagi mustaqil syujetli hikoyalarni esa asosiy qahramon – muallif obrazi birlashtirib, kompozitsion birlikni tashkil etadi. Misol sifatida, “Bolalik”ning bir necha o‘rinlarida Musa bobosinikiga borganida ustaxonadagi asbob-anjomlar, ayniqsa, qoliplar, shonlarni taraq-turuqlatib, gohida u tokchaga, gohida bu tokchaga terib qo‘yishi, tayyor bo‘lgan bunday mahsilarni taxlashi, ba’zilarini esa oyoqlariga o‘lchab ham ko‘rishi, bobosi peshin namoziga ketganda esa, tezda uning joyiga o‘tirib, xuddi bobosi singari vazminlik va qunt ila, gazan bilan charm terilarni kesishi, shirach bilan bir-biriga yelimlashi, burishib qolgan eski-tuski charmlarni namlab, to‘nda ustiga qo‘yishi va ko‘va bilan urib tekis qilishni nihoyatda yoqtirishini maroq bilan hikoya qilib o‘tadi. Bu lavhalar adibning yana bir mashhur asari – “Qutlug‘ qon” romanidagi “Mehnatkash qiz” bobida Unsinning Shokir otasiga yordam berish maqsadida mahsi tikishda ip eshishi, uni mumlab berib turishi, mahsilarga shon qoqishi, shondan tushirib qo‘yishi, pardoz berishi, lok surkashlari kabi asar detallarning bejizga keltirilmaganini bizga yaqqol ayon etadi.

Yetuk adabiyotshunos olim A.Rasulov o‘zining bu boradagi e`tirofini quyidagicha bayon etib o‘tadi: “Oybek, – davrlarni yaxshi eslaydi. Aniqrog‘i, XX asrning 10-yillari voqeligi, odamlari Oybek ijodining o‘q ildizini belgilagan”.

Zero, ustoz adiblarning o‘z bolalik xotiralari yoxud ulug‘ shaxslar, buyuk mutafakkirlar, talantli shoirlar siymosiga bag‘ishlangan yetuk asarlari bolalar adabiyoti namunalarini yaratish orqali yosh kitobxon o‘quvchilarning ong va tafakkurining rivojiga o‘zining muhim ta’sirini ko‘rsata oladi. Shu bilan birgalikda, ushbu adabiy an’analar davom etmoqda va qator adabiy yangilanishlarda namoyon bo‘lib o‘zini ko‘rsatmoqda. A.Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar”, X.To‘xtaboyevning “Qaydasan, bolaligim”, E.Malikning “Bolalik va o‘smirlik ko‘chalari” kabi badiiy-estetik saviyasi yuqori bo‘lgan asarlar baland tafakkuri bilan mustaqillik davri bolalar adabiyoti bisotidagi avtobiografizm yo‘nalishini qayta jonlantirdi deya olamiz.

Professor Q.Yo‘ldoshov: “O‘zbek adabiyotida, – biografik va avtobiografik yo‘nalishda bir qator asarlar yaratilayotgani xarakterli holdir. Alohida bir odam va uning hayot yo‘liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alohida odam taqdiri chinakam qiziqish uyg‘onayotganidan belgidir. Shuningdek, biror adabiyotda biografik yo‘nalishdagi bitiklarning ko‘payishi o‘sha yerda odam shaxsiga e’tibor orta boshlaganidan dalolatdir”, – deb yozadi.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, jahon va o‘zbek bolalar nasrida avtobiografik yo‘nalishdagi asarlarni tadqiq qilar ekanmiz, kompozitsiya va boshqa unsurlarda mushtarakliklarni kuzatsak-da, lekin nozik mazmuniy yoki adiblarning badiiy mahorati va maqsadi jihatidan har biri o‘zgacha bir olam hisoblanadi va ularning har biri o‘zlarining yuzlab izchil tadqiqlarini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Darslik. – T.: “Sharofat-fayz”, 2022. 320-b.
2. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021. 222-b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. – T., 2022.
4. To‘xtayeva N. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. – T., 2019.

Shohsanam MUHAMMADIYEVA
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
Ilmiy rahbar: ***Xoliqov Bahodir Aliqulovich***

O‘SIMLIK DUNYOSIGA OID IBORALARNING INGLIZ TILIDAGI TASNIFI

Annotatsiya: o‘ziga xos va mustaqil ma’noga ega bo‘lgan barqaror nutq namunalari va iboralarni o‘rganadigan bo‘lim frazeologiya hisoblanadi. Frazeologiya kabi til qatlamining shakllanishiga katta hajmda chop etilayotgan turli xil lug‘atlar asos bo‘ldi. Ushbu maqolada flora ya’ni o‘simlik dunyosiga oid elementlardan foydalanilgan bo‘lib, ularni tub ma’nosiga yangicha mazmun berildi. Iboralarning ildiziga nazar soladigan bo‘lsak, ular avvalo xalqning qadimgi tarixi, madaniyati va urf-odatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur elementlarni tarjima qilishda ularning lingvistik tasviri bilan chuqur tanishish kerak.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, xalq urf-odatlari, so‘z birikma, ibora.*

Аннотация: это ведомственная фразеология, изучающая паттерны и фразы устойчивой речи, которые имеют уникальное и самостоятельное значение. Формирование языкового пласта, такого как фразеология, базировалось на различных словарях, издававшихся в больших объемах. В этой статье были использованы флоры, или элементы, связанные с растительным миром, что придало им новый смысл. Оглядываясь назад на корни этих фраз, можно сказать, что они, прежде всего, несовместимы с древней историей, культурой и традициями народа. При переводе этих элементов необходимо ознакомиться с их линвистическим образом.

Ключевые слова: *фразеология, народная культура и традиции, словосочетание, идиома.*

Annotation: it is a departmental phraseology that studies patterns and phrases of stable speech that have a unique and independent meaning. The formation of a language layer, such as phraseology, was based on various dictionaries published in large volumes. In this article, flora, or elements related to the plant world, were used, giving them a new meaning. Looking back on the roots of the phrases, they are first and foremost incompatible with the ancient history, culture, and traditions of the people. When translating these elements, you need to get acquainted with their linguistic image.

Key words: *phraseology, folk culture and traditions, phrase, idiom*

Zamonaviy ingliz tili o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. O‘ziga xos va mustaqil ma’noga ega bo‘lgan barqaror nutq namunalari va iboralarni o‘rganadigan bo‘lim frazeologiya shakllanishiga katta hajmda chop etilayotgan turli xil lug‘atlar asos bo‘ldi. Frazeologik iboralar yozma so‘zga yangi ma’no beradi. Bunday iboralarni tarjima qilish uchun xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, uning lisoniy surati, dunyoqarashi bilan chuqur tanishish kerak. Dunyoning lingvistik tasviri voqelikning ko‘zgu tasviri bo‘libgina qolmay, “tilda o‘z ifodasini topadigan o‘ziga xos milliy lazzat izi”ga ega. Frazeologiyada bu “o‘ziga xos iz” ayniqsa sezilarli.

Frazeologiyaning lingvistik fan sifatidagi vazifasi muayyan tilning frazeologik fondini har tomonlama o‘rganishdan iborat. Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shveysar-fransuz tilshunosi Sharl Balli (1865-1947) hisoblanadi. U o‘zining “Stilistika ocherki” (1905) va “Fransuz stilistikasi” (1909) nomli asarlariga so‘z birlashmalari, ya’ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan edi. Sharl Balli “frazeologiya” atamasini “turdosh iboralarni o‘rganadigan stilistika bo‘limi” ma’nosida fanga kiritdi. U iboralarning to‘rt xil turini aniqladi:

- erkin iboralar;
- odatiy iboralar;
- frazeologik qatorlar;
- frazeologik birliklar.

Bir muncha vaqt o‘tgach Charlz Balli o‘z tasnifini qayta ko‘rib chiqdi va uni modernizatsiya qildi, erkin birikmalar va frazeologik birliklarni qayta ta’kidladi. V.V.Vinogradov frazeologik birliklarning o‘ziga xos tasnifini taklif qildi, bu ularning semantik barqarorligiga asoslandi. U uchta turni o‘z ichiga oladi:

- frazeologik qo‘shimchalar;
- frazeologik birliklar;
- frazeologik birikmalar.

Keling, birinchi turni ya’ni frazeologik qo‘shimchalarni batafsil ko‘rib chiqaylik. Frazeologik sintezlar yoki iboralar – mutloq bo‘linmas, ajralmaydigan turg‘un birikmalar bo‘lib, ularning umumiy ma’nosiy tarkibiy so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq bo‘lmaydi. Masalan, a shrinking violet – o‘z qarashlarini fikrini bildirmaydigan tortinchoq inson; in the tall (high) cotton – muvaffaqiyatli bo‘lish; as welcome as (the) flower in May – uzoq kutilgan; the flowers of speech – notiqlik so‘zi, nutq shakllari; flowery speech – chiroyli nutq; in the flower of life – gullab yashnagan hayot; late bloomer – qayta o‘smoq; lead someone up the garden path – kimnidir yo‘ldan ozdirmoq, aldamoq; flower child – go‘zallik va tinchlikni sevuvchi shaxs.

Frazeologik qo‘shimchalar bir qator xarakterli xususiyatlarga ega:

• ular sintaktik jihatdan bo‘linmaydi: masalan, a shrinking violet – o‘z qarashlarini, fikrini bildirmaydigan tortinchoq inson. Bu ibora ikkita alohida komponentga (shrinking “qisqaruvchi” + violet “binafsha”) ajratilsa, faqat shu ikki komponent ishtirokidagina asl ma’no hosil bo‘ladi.

• ular nektotizmlarni o‘z ichga olishi mumkin – bu birikmadan boshqa joyda ishlatilmaydigan so‘zlar: ka me ka thee – yaxshilik uchun yaxshilik; beyond per adventure – shubhasiz; of yore – qadimdan;

• qo‘shimchalar o‘z tarkibiga arxaizmlarni ham olishi mumkin: he that diggeth a pit shall fall into it – birovga cho‘g‘ qazima, o‘zing tushasan.

• o‘z tarkibiga yana qo‘shimcha so‘z olmaydi: the apple of discord – katta bir muammoga olib keluvchi kichik masala;

• ko‘p hollarda komponentlarni qayta tartibga solish mumkin emas: in the flower of life - gullab yashnagan hayot.

Ingliz tilidagi frazeologizmlar sinchkovlik bilan o‘rganishni talab qiladigan juda ko‘p sonli birliklarni ifodalaydi, chunki ularning har biri o‘ziga xos. Ko‘rinib turibdiki, frazeologik fon juda katta va doimiy o‘zgarishlarga boy, bu frazeologik birliklarning semantik tomonining kengayishini va tilning leksik tarkibini boyitishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмаметова, А., Евстигнеева, М.В. Национальный характер англичан в английской фразеологии / А. Ахмаметова, М.В. Евстигнеева. // Проблемы теории европейских языков. – Оренбург : Издво ОГПУ, 2005. – 208 с.
2. Балли, Ш. Французская стилистика/ Б. Шарль. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – 392 с.
3. Варбот, Ж.Ж. Краткий понятийно – терминологический справочник по этимологии и исторической лексикологии/ Ж.Ж. Варбот, А.Ф. Журавлев. – Российская академия наук, Институт русского языка им. В.В. Виноградова РАН: Этимология и история слов русского языка, 1998. – 54 с.
4. Виноградов, В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке/ В.В.Виноградов: Лексикология и лексикография: Избр. тр. – М.: Наука, 1986. – 256 с.
5. Евстигнеева, М.В. Внутренняя форма слова в гносеологическом аспекте (на материале английских наименований птиц): Дис. – канд. филол. Наук / М.В. Евстигнеева. – Самара. – 1998. – 156 с.
6. Кунин, А.В. Англо – русский фразеологический словарь/ А.В. Кунин. – Москва: Русский язык, 1984. – 942 с.
7. Мюллер, В.К. Англо – русский словарь/ В.К. Мюллер. – Москва: ЭКСМО, 2009. – 907 с.
8. Dickens Ch. Hard Times/ Ch. Dickens. – London: Bradbury & Evans, 1854. – 205 p.

Fazliddin SADINOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti
stajyor - o‘qituvchisi

ANATOMIK TERMINLAR ISHTIROKIDA HOSIL BO‘LGAN AYRIM VETERINARIYA BIRIKMA TERMINLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada chorvachilikning muhim tarmog‘i bo‘lgan veterinariya terminlarining birikmalar yordamida hosil bo‘lish yo‘llari xususida fikr yuritilgan. Jumladan, soha terminologiyasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi anatomik terminlarning ot+ot qolipida yuzaga kelishi keng tahlilga tortilgan.

Kalit so‘z va birikmalar: *so‘z yasalishi, terminologiya, termin, birikma termin, anatomiya, veterinariya, veterinariya meditsinasi, qolip, kasallik, hayvonot dunyosi.*

Аннотация: в статье рассматриваются способы образования ветеринарных терминов с помощью соединений, что является важной отраслью животноводства. В частности, широко анализируется появление анатомических терминов в форме существительное + существительное, что имеет особое значение в терминологии данной области.

Ключевые слова и фразы: *словообразование, терминология, термин, составной термин, анатомия, ветеринарная медицина, ветеринарная медицина, плесень, болезнь, животный мир.*

Annotation: the article discusses ways of forming veterinary terms using compounds, which is an important branch of animal husbandry. In particular, the appearance of anatomical terms in the form noun + noun, which has special significance in the terminology of this field, is widely analyzed.

Key words and phrases: *word formation, terminology, term, compound term, anatomy, veterinary medicine, veterinary medicine, mold, disease, animal world.*

Ma’lumki, jahonning bir qator tillari qatori o‘zbek tilshunosligining so‘z yasalishi bo‘limi ma’lum darajada o‘rganib kelinmoqda. Chunonchi, jahon tilshunosligida so‘z yasalishi haqida yuzlab ishlar mavjud.

Turkiy tillarda ham so‘z yasalishi masalasiga bag‘ishlangan qator ishlar mavjuddir. Bular jumlasiga I. A. Batmanov, A. K. Borovkov, N. A. Antonov, K. Dexkanov, S. Kudayberganov, P. Azimov, B. M. Yunusaliyev, T. M. Garipov, S. Cheferov, Sh. Saidov, A. Yu. Boziyev, E. V. Sevortyan, A. Esengulov, M. A. Zabichev, F. A. Ganiyev kabi tishunos olimlarining ishlari kiradi.

O‘zbek tilshunosligida A. G‘ulomov tomonidan boshlab berilgan so‘z yasalishiga doir masalalar A. Hojiyev, Z. Ma’rufov, S. Usmonov, X. Xolmurodov, M. Abdiyev singari tilshunoslar qalamiga mansub maxsus monografik tadqiqotlarda hamda ayrim sohalarga xos so‘z yasalishiga doir ilmiy ishlarda, shuningdek, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” singari darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ma’lumotlar berilgan.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan veterinariya meditsinasi chorvachilik mollari va ulardan olinadigan mahsulotlarning sog‘lomligi hamda ularni aholiga toza va sifatli qilib yetkazib berishda hissasi beqiyosdir.

Veterinariya terminlarining yuzaga kelishida eng faol usullardan biri birikmalar yordamida hosil bo‘lishi hisoblanadi. Veterinariya bo‘yicha yig‘ilgan terminlar tahlili ularning anatomik, kasallik belgilari, kasallikni davolash, kasallikni davolash asbob-uskunalari, kasallik nomlarini ifodalovchi birikmalar shaklida yuzaga kelganligini ko‘rsatdi.

Biz ushbu ishimizda eng faol bo‘lgan anatomik terminlar ishtirokida hosil bo‘lgan ot+ot qolipli birikma terminlar xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Anatomiya terminiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan: ANATOMIYA [yun. anatome – kesaman, yoraman] Tirik organizmning shakli va tuzilishi haqidagi fan.

Odam anatomiyasi odam organizmidagi ayrim a’zo va sistemalar shakli, tuzilishi va rivojlanishi haqidagi fan – nazariy va amaliy tibbiyotning asosiy fanlaridan biri [O‘TIL, 2020, 82].

Fikrimizcha, mazkur ta’rifga “hamda veterinariyaning” jumlasini ham qo‘shish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki tibbiyot inson salomatligi uchun qay darajada xizmat qilsa, veterinariya esa hayvonot dunyosi uchun shu yo‘sinda xizmat qiladi.

A. Qosimovning “ Tibbiy terminlar izohli lug‘ati”da esa shunday ta’rif berilgan: Anatomiya [lot. anatomiya> gr.anatome-yorish, qismlarga ajratish] – odam va hayvonlar gavdasining shakl va tuzilishi, shuningdek, funksiya va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan, uning a’zolarini o‘rganuvchi tibbiy-biologik ta’limot; morfologiyaning bir qismi [Azimov, 2003, 62].

Nazarimizda, bu ta’rif ancha mukammal tuzilgan bo‘lib, jumlaga faoliyatini so‘zini ham qo‘shish maqsadga muvofiqdir. Chunki tana a’zolari faoliyati ham mazkur fan obyekti doirasida o‘rganiladi.

O‘zbek tilida birikmalar o‘z tarkibidagi hokim komponentning qaysi turkumga oidligiga qarab, bir qancha turga bo‘linadi: ot birikma, fe’l birikma, sifat birikma, ravish birikma kabilar [Abdiev, 2005,201]. Yig‘ilgan materiallar tahlili natijasida veterinariya meditsinasiga tegishli birikma terminlarning yuzaga kelishida ot, sifat, fe’l hamda ravish so‘z turkumlari ishtiroki o‘z isbotini topdi. Anatomik terminlarni hosil qilishda esa ot+ot qolipli birikma terminlar ancha mahsuldor ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ularning yuzaga kelishida quyidagi birikma hosil qiluvchi qoliplar ishtirokida ancha faolligi aniqlandi:

Jigar+ot qolipli birikma terminlar: jigar sanchig‘i, jigar parenximasi, jigar o‘smasi, jigar hujayrasi, jigar-hujayra komasi, jigar sirrozi, surunkali kechadigan jigar kasalligi, jigar sohasi, jigar amiloidozi, jigar komasi, jigar hujayralari, jigar distrofiyasi, geteora jigar, o‘lgan jigar, jigar komasi sindromi. Virionlar yumaloq shaklda jigar hujayralari yadrosida joylashadi, ba’zi shtamm virionlar hujayra ichida virusli kristallar hosil qiladi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,427].

Suyak + ot qolipli birikma terminlar: suyak teshikchalari, suyak disproporsiyasi, suyuk to‘qimasi suyaklar deformatsiyasi, naysimon suyak suyaklanish, suyuk hosil bo‘lishi, suyak iligi, umurtqa suyak tanasi, suyak holati, suyak kuli, suyak uni. Suyak to‘qimasi tarkibidagi fosfor kislotasi va kalsiy tuzlari miqdori keskin kamayadi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,253].

Buyrak+ot qolipli birikma terminlar: buyrak jomi, buyrak usti bezi, buyrak parenximasi, , quyoshsimon buyrak nerv tugunlari, buyrak serrozi, buyrak usti bezi. Buyrak yetishmovchiligi oqibatida paydo bo‘ladigan jigar komasi paytida peritoneal yoki ekstrakorporal gemodaliz o‘tkaziladi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,193].

O‘pka+ot qolipli birikma terminlar: o‘pka gangrenasi, o‘pka to‘qimasi, o‘pka bo‘lakchalari, yiringli o‘choq, o‘pka varag‘i, o‘pka do‘nglik sohasi, invazion kasallik, o‘pka shikastlanishi, virusli infeksiya, o‘pka shishi. O‘pka emfizemasi – o‘pkada ortiqcha havoning to‘planishi, alveolyar to‘qima hisobiga o‘pkaning patologik kengayishi va o‘pka hajmining kattalashishi oqibatida paydo bo‘ladigan kasalligi [Hayvonlar kasalliklari, 2019, 148].

Miya+ot qolipli birikma terminlar: miya kamqonligi, uzunchoq miya, miya istisqosi, miya o‘smasi, orqa miya, miya o‘smasi, miya pardasi. Miya istisqosi – bosh miya qorinchalaridagi likvor miqdorining ko‘payishi va qorincha devorining taranglashishi tufayli miya moddasinig atrofiya va disfunksiyaga uchrashi oqibatida paydo bo‘ladigan kasallik [Hayvonlar kasalliklari, 2019,212].

Yurak+ot qolipli birikma terminlar: yurak bo‘g‘iq tovush sohasi, yurak istisqosi, yurak ishi, yurak toni, yurak urishi, yurak ko‘ylakcha bo‘shlig‘i, , siydik

haydovchi(diuretin, laziks), yurak nuqsoni, yurak xaltachasi, yurak nuqsoni, yurak tonlari, yurak turtkisi soni, yurak yetishmovchiligi, yurak kengayishi, yurak torayishi, yurak teshigi, yurak auskultatsiya. Yurak muskullaridagi biokimyoviy va bioenergetik jarayonlarni yaxshilovchi preparatlardan tiamin, riboflavin, piridoksin va kalsiy tuzlari tavsiya qilinadi [Hayvonlar kasalliklari,2019, 132].

Shox+ot qolipli birikma terminlar: shox jiyagi, shox rezina halqali amputatsiyasi, rezina halqa, shox o‘sishini maxsus malham yordamida to‘xtatish, shoxlararo ariqcha, shox parda qirmasi, otalanmagan shox, shox devori, bachadon homilali shoxi, bachadon shoxi, bachadon shoxi devori, shox ildizi, metall kuydirgich, shox teri-plastik amputatsiyasi, yirik shoxli hayvonlar. Shox jiyagi terisiga rezina halqa tarang tortilgan holda kiygiziladi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,121].

Qizilo‘ngach+ot qolipli birikma terminlar: qizilo‘ngach kasalliklari, qizilo‘ngach tiqilishi, qizilo‘ngach yallig‘lanishi, qizilo‘ngach zondi, Qizilo‘ngach yallig‘lanishi – qizilo‘ngachning diffuz yoki o‘choqli tarzidagi yallig‘lanishi oqibatida paydo bo‘ladigan kasllik [Hayvonlar kasalliklari, 2019,154].

Ko‘krak + ot qolipli birikma terminlar: Ko‘krak istisqosi(gidrotoraks), peridikal ishqalanish, ko‘krak qafasi, ko‘krak tipi, ko‘krak umurtqasi. Ko‘krak qafasiga gorchichnik qo‘yish, isitish vositalaridan foydalanish sog‘ayishni tezlashtiradi va kasallikning asoratlarini kamaytiradi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,148].

Qorin+ot qolipli birikma terminlar: qorin istisqosi, qorin pardasi, qorin teriosti venasi, Shuningdek sifat +qorin +ot qolipli birikmalar ham mavjud: katta qorin harorati, katta qorin aksidozi, katta qorin alkazoli, katta qorin timpaniyasi, katta qorin timpaniyasi, katta qorin devor qisqarishi maromi, katta qorin aksidozi, to‘r qorin. Katta qorin harorati o‘zgarishi unig qisqarishini va suyuqlikning tashqariga chiqishini yaxshilaydi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,108].

Ichak +ot qolipli birikma terminlar: ichak tayoqchasi, ichak tiqilishi, ichak teshilishi, ichak o‘rami va hokazo. ... imaginalli shakllari tomonidan chaqiriladigan hamda kamdarmonlik, oriqlash, kamqonlik, ichak tiqilishlari, ich ketish va asabiy buzilish belgilari bilan namoyon bo‘ladigan imaginal sestozod kasalligi hisoblanadi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,460]. Shuningdek, mazkur qolip ruscha baynalmilal terminlar asosida ham hosil qilinishi mumkin: ichak vorsinkasi, ichak bakteriyasi, ichak invaginatsiyasi, ichak meteroizmi, ichak peristaltikasi, ichak sekretsiyasi, ichak pristaltikasi. Ichak meteorizmi –ichaklarda gaz hosil bo‘lishning kuchayishi hamda hosil bo‘lgan gazning chiqib ketishining qiyinlashishi oqibatida bo‘ladigan kasallik [Hayvonlar kasalliklari, 2019,175]. Mazkur qolipning ichak+ot-ot qolipi orqali birikma terminlarning uch komponentli shakli ham uchraydi: ichak shilliq qavati, ichak shilliq pardasi. Ichak shilliq pardalarida ko‘karish, periferik vena qon tomirlarining qonga to‘lishishi, qon bosimining oshishi va pulsning tezlashishi kuzatiladi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,175].

Sohaga tegishli anatomik terminlarning yuzaga kelishida sifat + ichak qolipli birikmalar asosida yuzaga kelgan birikma terminlar ham uchraydi: chambar ichak, to‘g‘ri ichak, yiringli ichak, to‘g‘on ichak, ingichka ichak. Qisilishlar ko‘pincha ingichka ichaklarda, buralish va tutalishlar esa har ikkalasida ham uchraydi [Hayvonlar kasalliklari, 2019,179].

Shuningdek, sohaga tegishli ot+ot qolipli birikma terminlar yasalishida halqum (yallig‘langan halqum, halqum falaji), vena (oyoq vena, rezina butilka, bo‘yinturuq venasi, qorin teriosti venasi, boldir teriosti venasi, quloq suprasi katta venasi, qanotosti venasi, parda (bosh miya pardasi, qin parda, shilliq parda, homila parda, ingichka og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi, qattiq parda), tuyoq (tuyoq jiyagi, tuyoq holati, tuyoq yarasi, burun (burun bo‘shlig‘i, burun oynasi, burun qanoati), jag‘ (yuqori jag‘, jag‘ sohasi, jag‘ tishi), ensa (ensa kokuli, ensa yamog‘i, peshona sinusi), teri (teri yamog‘i, teri osti, lab terisi, teri elastikligi), quymuch (quymuch suyagi, quymuch burmasi, quymuch bo‘rtigi), dumg‘o‘za (dumg‘o‘za suyagi, dumg‘o‘za osti - o‘tirg‘ich payi), dum (dum ildizi terisi, dum ildizi, dum umrtqasi, hayvon dumi), qovuq (qovuq spazma, qovuq sfinktri), xalta (havo xaltasi, xalta bo‘shlig‘i, urug‘don xalta, konyuktival xalta) singari anatomik terminlar ham faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, veterinariya meditsinasini terminologiyasiga doir anatomik termin va tushunchalarning ifodalanishida ot+ot qolipli birikmalar ancha mahsuldor ekanligi materiallar tahlildan ma’lum bo‘ldi. Bu esa soha terminologiyasi shakllanishida o‘ziga xos o‘rinni egallovchi birikma terminlar ma’no xususiyatlarini keng rejada monografik tarzda o‘rganishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 жилдлик.1-жилд.-Тошкент:” O‘zbekiston nashriyoti”, 2020.
2. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2- жилд.- Тошкент, 2003.
3. Абдиев М. Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили(Самарқанд вилояти касб-ҳунарлари материаллари асосида).Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Тошкент,2004.
4. Ҳайвонлар касалликлари.- Самарқанд, 2019.

Dilobar NORMUMINOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili ta'limi kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ MALAKASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: og'zaki muloqot ko'nikmasi mashq va topshiriqlar yordamida rivojlanadigan asosiy ko'nikmalardan biridir. Maqolada ushbu ko'nikmani rivojlantirishning zaruriy asosi va uni rivojlantirish uchun foydali bo'lgan usul va topshiriqlar keltirilgan. Ushbu kichik tadqiqot o'quvchilar uchun to'g'ri nutqiy vaziyatlar yaratish va u ustida turli test turlari orqali ishlash og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishini isbotlash uchun o'tkazildi. Maqolada tadqiqot xulosalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *nutq, og'zaki nutq, nutq ko'nikmalari, ravonlik, artikulatsiya.*

Annotation: oral communication skills are one of the main skills that can be developed through exercises and assignments. The article presents the necessary basis for the development of this skill and useful methods and tasks for its development. This small study was conducted to prove that creating the right speaking situations for students and working on it through different types of tests can improve their speaking skills. The article highlights the conclusions of the research.

Key words: *speech, speaking, speaking skills, fluency, articulation.*

Аннотация: навыки устного общения являются одним из основных навыков, которые можно развивать с помощью упражнений и заданий. В статье представлены необходимые основы для развития этого навыка и полезные методы и задания для его развития. Это небольшое исследование было проведено, чтобы доказать, что создание правильных разговорных ситуаций для студентов и работа над ними с помощью различных типов тестов могут улучшить их разговорные навыки. В статье освещены выводы исследования.

Ключевые слова: *речь, говорение, разговорные навыки, беглость речи, артикуляция.*

Og'zaki muloqot ko'nikmalari nafaqat ta'limda balki ijtimoiy hayot faoliyatida ham eng zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir. Eshitgan ma'lumotlarni tushunish unga javoban fikrlarni aniq ifodalashlari, o'z qarashlarini isbotlab dalillar bilan himoya qilaolishlari, to'g'ri savol berib javob bera olishlari kerak.Tinglash va gapirish ko'nikmalari ularning jamiyatda, oilada o'z fikrlarini ifodalash uchun muhim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar hisoblanadi. Axborot asri o'sib borar ekan o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlari ularning nutq va tinglash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Og'zaki nutq boshqa til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Nutq orqali o'quvchilar diqqatni jamlashni va fikrlashni tartibga solishni o'rganadilar. Og'zaki nutq va nutq qobiliyatlari tug'ma va deyarli tabiiy ravishda yuzaga keladi, ammo bu ko'nikmalarni egallashni anglatmaydi. "Ona tili darslarida og'zaki muloqotga alohida e'tibor qaratish shartmi?" degan fikr o'ylantirishi mumkin, chunki inson o'z ona tilida og'zaki nutq malakasi avtomatik tarzda shakllanadi deb qaraladi. Ammo barcha o'quvchilar ham o'z fikrlarini aniq va lo'nda ifodalab beraolmaydilar.

Ushbu kichik tadqiqot turli usul va mashqlar orqali og'zaki muloqot rivojlanadimi degan savolga javob topish uchun olib borildi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning nutqini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarga qaratildi. Turli xil nutqiy topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning nutq qobiliyatlarini oshirishi mumkin.

Og'zaki nutqni rivojlantiruvchi samarali usullar: o'quvchilarning so'z boyligi, talaffuzi va grammatik bilimlarini shakllantirish, turli kommunikativ nutq vazifalarini qo'llash, o'quv jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, o'quvchilarning ishlariga baho berish va fikr bildirish, lingvistik shakllardan ma'no uchun foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilar kimdandir oldindan eshitgan ertak yoki hikoyani qisqacha bayon qilishlari, topishmoq va hazillarni ham aytishlari, turli xil vaziyatlarga mos rolli o'yinlar dialogik nutqiy vaziyatlar yaratishlari, fakt va fikrlar o'yini va dars jarayonida munozaralar olib borish.

Ona tili darslarida og'zaki nutq uchun alohida mashg'ulotlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda birinchi navbatda bolaning o'z fikrini lisoniy vositalar yordamida to'g'ri ifodalash, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chetga chiqmay gapirishi, nutqni to'g'ri strukturalashtirish, ya'ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish, xulosalash, aytadigan gapi eshituvchiga qanday ta'sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlab turish kabi ko'nikmalar shakllantirilib, takomillashtirilib borishi zarur.[I.Azimova. 2020.55-b]

Ona tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar.

Kichik guruhlarda ishlang. O'z fikringizni sabablar bilan qo'llab-quvvatlang. Quyidagi vaziyatdan kelib chiqib, o'z mulohazalaringizni taqdim eting. "Shahardagi hayot qishloqdagi hayotdan yaxshiroq"

Ushbu fikrga kirish nuqtayi nazaridan bahslashing.

Guruhlar bilan ishlash. Reklamalarni tinglang. Guruhlarga bo‘linib xarid qilishingiz kerak bo‘lgan narsalar ro‘yxatini tuzing. Qaysi brendlarni sotib olishingizni nomma nom yozing. Iloji bo‘lsa ro‘yxatingizdagi har bir mahsulotni tavsiflash uchun reklama tasviri yoki shiori va biron bir faktni yozib qo‘ying.

Eslatma: reklamada e’tiboringizni nima jalb qilishi va u sizga qanday ta’sir qilishiga ahamiyat bering. Qanday qilib reklama odamlarning mahsulot xarid qilishi haqidagi his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishiga e’tibor bering. Ba’zi reklama shiorlari qanday qilib xotirangizda tez saqlanib qolganiga e’tibor bering.

Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Reklamaning qaysi elementlari mahsulot xarid qilishingizda ko‘proq ta’sir qiladi.
2. Guruh a’zolariga hozirgina eshitgan reklama tanlov qilishiga qanday ta’sir qildi.
3. Mahsulotlarni xarid qilayotganingizda reklama yoki faktlarga tayanasizmi?

Telefon orqali muloqot qilish.

Bu topshirig‘imizda ham guruhlar bilan ishlaymiz sababi bu bizga yangi bilimlar egallashimizga yordam beradi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib olib vaziyatlardan birini taqdim etamiz. Ular dialogik nutqni yozib olib rollarga bo‘linib ijro etadilar.

Eslatma: sizni tinglayotgan odamga aniq va lo‘nda gapiring. Avval o‘zingizni tanishtiring. Raqamli ma’lumotlarni aytayotganda ovoz ohangini sekinlashtiring. vaziyatga mos keladigan ohangdan foydalaning.

Vaziyatlar:

– yong‘in haqida xabar berish uchun 1050 raqamiga qo‘ng‘iroq qilgan kishi;
– yo‘qolgan bank kartasi haqida tegishli bank ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq qilgan kishi;
– sinfdoshlar bayram tadbirini o‘tkazish uchun joy band qilish maqsadida telefon qilish;
– online mahsulot xarid qilayotgan kishi suhbati;
– do‘stingizni tug‘ilgan kunga taklif qilmoqchisiz, telefoningizni ko‘tarmadi. Signaldan so‘ng xabar qoldirishingiz kerak.

Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Ishbilarmonlik yoki shaxsiy bo‘lmagan vaziyatlarda ishlatiladigan ohang do‘stlarga qo‘ng‘iroq qilishda foydalaniladigan ohangdan qanday farq qiladi?
2. Nima uchun telefon suhbatlarida ovoz ohangi muhim?

Quyidagi audioni tinglang. Undagi eng muhim eslatmalarni yozib boring.

Eslatma: asosiy fiklarga e’tibor qarating. Ovoz ohangidan biror narsaning asosiy g‘oya ekanligini ko‘rsatuvchi signallarni belgilang. Batafsil yozmang aks holda yaxshi tinglay olmaysiz.

Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Eslatmalaringiz qanchalik to‘liq va tushunarli edi?
2. Eslatmalaringizni tushunishga yordam berishi uchun ovozingiz va imo-ishoralardan qanday foydalandingiz?
3. Guruh a’zolaridan kimning eslatmalari tushunarli edi? Nima uchun?

Bu kabi topshiriqlar bilan ishlash dars jarayonlarini qiziqarli olib borish uchun ham yordam beradi. Topshiriqlar asosan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, undan o‘zining shaxsiy qarashlarini talab qiladigan qilib tuzilgan. Bu shakldagi topshiriqlar o‘quvchilar oldindan bilgan, ma’lum bir tushunchasi bo‘lgan mavzularga o‘z munosabatlarini ifodalashga yordam beradi. Nutqini rivojlantirish maqsadida kundalik hayotida muhim bo‘lgan voqealar tanlangan. Nutqning turli qirralariga e’tibor qaratadilar. Fakt va fikrning farqiga borib, o‘z nuqtayi nazarlarini izohlay oladilar. Fikrini dalillab asosli ekanligini isbotlay olishadi. Bu topshiriqlarni o‘quvchilarda qo‘llash orqali o‘quv jarayonidagi faollik oshdi, guruhlarda ishlash bilan ular o‘rtoqlari bilan fikr almashib, yangi bilimlar egalladilar va bu ularning nutqini yanada qiziqarli qildi. Bu og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan bog‘liq topshiriqlarning mumkin bo‘lgan natijalaridan faqat ba’zilari.

Foydalanilgan adabiyotlar

I.Azimova, 2020. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Hilol nashr.

Clark, E. V. (2009). First language acquisition. Cambridge University Press.

II.Nyman, C. (2009). Oral Language Competence and Literacy Acquisition. (Doctoral dissertation)https://www.nmu.edu/sites/DrupalEducation/files/UserFiles/Files/PreDrupal/SiteSections/Students/GradPapers/Projects/Nyman_Chris_MP.pdf

III. Pierce, L.V. (1989). Teaching Strategies for Developing Oral Language Skills. In A

Volume IV. Selected Articles from the English Teaching Forum 1984-1988. 1-7.

Washington DC: United States Information Agency, English Language Programs Division,Bureau of Educational and Cultural Affairs.

Rajabboy ABDIYEV,
Alfraganus universit 2-kurs magistranti

“OT KISHNAGAN OQSHOM” QISSASIDA QO‘LLANILGAN OTLARGA DOIR MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada fikr qaymog‘i bo‘lmish, milliy mentalitetimizda muhim o‘rin tutuvchi “Ot kishnagan oqshom” qissasida uchraydigan otlar haqidagi maqollar tahlil qilingan. Lingvokulturologik birliklardan biri bo‘lgan maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan. Maqollarning madaniy hayotimizdagi o‘rni ochib berilgan.


Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, madaniyat, mentalitet, maqol, ot, ko‘pkari, chavandoz.*

Annotation: this article analyzes the proverbs about horses, which are the essence of thought and have an important place in our national mentality, which are found in the story "The Night when the Horse neighed". The cultural linguistic features of proverbs are highlighted. The role of proverbs in our cultural life is revealed.

Key words: *linguoculturology, linguoculture, culture, mentality, proverb, horse, horse, rider.*

Аннотация: в данной статье анализируются пословицы о лошадях, составляющие суть мысли и занимающие важное место в нашем национальном менталитете, которые встречаются в рассказе «Ночь, когда лошадь заржала». Выделены лингвокультурные особенности пословиц, которые являются одной из лингвокультурных единиц. Раскрывается роль пословиц в нашей культурной жизни.

Ключевые слова: *лингвокультурология, лингвокультура, культура, менталитеть, пословица, конь, всадник.*



Kirish. Xalq donishmandligining mahsuli bo‘lgan maqol, matal, ibora, hikmatli so‘z kabi paremalar badiiy asar g‘oya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida, emotsionalligi va musiqiyligini oshirishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Turli xalqlar tillarida bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham ana shunday obrazli ifodalarning roli katta.

Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, xalqning mentaliteti va madaniyati to‘la namoyon bo‘lgandir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanligini qadimdan donishmandalar e’tirof etib kelganlar: “Barcha kishilarning kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir” (Aristotel), “Agar aqlli bo‘lishni istasang, hikmat o‘rgangilki, aql hikmat bilan kamol topadi”, “Xalq orasida ko‘pchilik tildan qo‘ymaydigan so‘z aslo o‘lmaydi” (Gesiod) . Shuning

uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanilib kelgan va qo‘llanmoqda. XI asrda yashab ijod qilgan tilshunos olim, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan. Ularning aksariyati bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda qo‘llanilmoqda. Yusuf Xos Hojib ham “Qutadg‘u bilig” dostonida juda ko‘p xalq maqollari va hikmatli so‘zlarini ishlatadi va “turkcha masal”, “turklar so‘zi” deb ularni xalq og‘zaki ijodidan olinganini ochiq-oydin ta’kidlaydi. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjud. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari boshdan oyoq maqol va matallar asosida yozilgan. Yoki Sulaymonqul Rojiy o‘zining “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir .

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqollar – xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma’naviy boyligi, madaniy merosi durdonalaridir. XIX asrda yashagan V.I.Dal mashhur yozuvchi, tilshunos olim, yirik rus maqol va iboralari majmuasining muallifi “Maqol to‘qib chiqarilmaydi, u o‘z-o‘zidan dunyoga keladi”, degan edi.

Lingvomadaniyatshunoslik – alohida ijtimoiy guruhlar, xalqlar yoki madaniy aloqalar davrini til bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Har bir millatning o‘zligini namoyon etadigan, yuksalish jarayoni va mavjudligini bildirib turuvchi omil bu uning milliy tilidir.

Lingvokulturologik ahamiyat kasb eta oluvchi o‘ziga xos birliklardan biri bu maqollardir. Ularda ma’lum bir xalqning o‘ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo‘ladi. Maqollar tarkibidagi so‘zlar yoxud anglatayotgan ma’nosi bilan til egasi haqida milliy-madaniy axborot beradi. Xalq tilida mavjud maqollar shu xalqning fe’l-atvorini, mentaliteti, o‘ziga xos tabiati, xarakter va xususiyatlarini ham o‘zida aks ettirib turadi. Xalq maqollari shu xalqning ma’naviyatini, madaniyatini, asriy tajribalari asosida kelib chiqargan xulosalarini lo‘nda va ixcham holda ifoda etadi.

Atoqli yozuvchi Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasida otlar haqida bir qancha maqollar qo‘llanganki, ularda otlarning inson hayotida tutgan o‘rni va ot timsoli madaniyatimizda an’anaviy obraz darajasiga ko‘tarilgani o‘z aksini topgan.

Muhokama. Asrlar davomida turkiy xalqlar hayotida ot timsoli katta o‘rin tutib, uning nafaqat jismoniy xususiyatlarini, balki chuqur madaniy va ramziy ma’nolarni ham ifodalaydi. O‘zbek xalq ijodidagi dostonlar, ertaklardagi otlarning ko‘rsatgan qahramonliklari ularning nechog‘lik e’zozlanishining yorqin namunasidir. Otlar asrlar davomida o‘zbek xalqi madaniyati va merosining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ular qadim-qadimdan insoniyatga xizmat qilib kelgan. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, otlar milloddan avvalgi 3-ming yillikdan boshlab xonakilashtirilgan (O‘zME. VIII. 264). Uni mashq qildirish, har xil ishlarga, harakatlarga o‘rgatish – boshqa hayvonlarga nisbatan ancha oson va qulay. Ot kuchli, sabr-chidamli, ko‘rkam, pokiza, ziyrak, xushyor, biror narsani darhol payqash, ko‘rish, hid bilish, tovushni, hatto bilinar-bilinmas sharpani eshitish, sezish qobiliyati kuchli. Bu fazilatlardan tashqari, ot insonning sodiq do‘sti, vafodori, og‘ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jang-u jadallarda, boshqa xavf-u xatarli holatlarda ko‘pincha kishini o‘limdan saqlab qoluvchi ajoyib bir jonivordir. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz ot haqida ko‘plab maqollar yaratishgan. Ularda otning inson hayotidagi beqiyos ahamiyati, uning o‘ziga xos ajoyib xislatlari va fazilatlari ko‘rsatiladi. Otlar ko‘pincha kuch, chidamlilik va erkinlik ramzi sifatida ko‘riladi. Ot timsoli “Ot kishnagan oqshom” qissasida markaziy o‘rinni egallab, bu ulug‘vor hayvonning o‘zbek jamiyatidagi madaniy ahamiyatini aks ettiradi. Qissada otning tezligi, chaqqonligi, qudrati kabi jismoniy sifatlari yoritilgan. Bu sifatlar o‘zbek xalqi mentalitetida yuksak qadrlanadigan fazilatlarning shunchaki ta’rifi emas, balki ramziy ifodasidir.

Asardagi Ziyodulla chavandozning Tarloni ham shunchaki ot emas, uning qadrdoni, sirdoshi, og‘ir kunlardagi xaloskori, hatto og‘a-iniday ko‘radi. Ziyodulla chavandoz o‘zining Tarloni bilan aloqalari oddiy hamkorlikdan ham oshib ketadi. Unda inson va tabiat o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlik, sadoqat va o‘zaro ishonch qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Qissadagi tarlon shunchaki xo‘jalikdagi ishlarni qiladigan ish quroli yoki transport vositasi emas, u nafaqat jismoniy jasorat, sadoqat, jasurlik, kuch-qudrat, balki qissada axloqiy saboqlar namunasi ham hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodiga tegishli bir qancha (“Alpomish” dostonida Boychibor, “Ravshan” dostonida Jiyronqush) asarlarda otlarning mushkul damlarda o‘z egasiga ko‘mak bergani aks etgan. Shuning uchun ham dona xalqimiz: “Oti borning – qanoti bor”, “Ot bitdi – qanot bitdi”, deydi.

“Onamiz norozi bo‘ldi. Beti burishib-burishib og‘rindi. Labini burib ming‘illadi:

– Otim nimam… otdan mashina yaxshi… – dedi.

– Mashinam nimam? Oti borning – qanoti bor, – dedim.

Otga yemish qani?..

– Yemish? Xudo har jonivorni o‘z rizqi ro‘zi bilan

yaratadi. Ot bitdi – qanot bitdi. Yemish topiladi. Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo‘q! Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! Temirning yuragi yo‘q-da! Ot odamga el bo‘ladi. Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!” .

O‘zbek xalqi chavandozlikning boy tarixiga ega bo‘lib, otlar hatto xalq og‘zaki ijodida ham doimo hurmatda, e’zozda bo‘lib kelgan. O‘zbek xalqi O‘rta Osiyoda eng zo‘r ot zotlarini yetishtirish bilan mashhur bo‘lgan yilqichilikning azaliy an’analariga ega. Bu faoliyatning madaniy ahamiyati “Ot kishnagan oqshom” qissasi va boshqa asarlarga ham taalluqli. Bu nafaqat otlarga egalik qilish va saqlashning amaliy tomonini, balki odamlar va ularning otlari o‘rtasidagi chuqur aloqani ham aks ettiradi. Otlarni parvarishlash, qo‘lga o‘rgatish har doim ham oson kechmagan, chunki ot aqlli jonivor hisoblanadi. Ularning aksariyati odam tanlaydi. Yoqtirmagan kishisini yoniga yo‘latmaydi, shuning uchun ham odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, deydi xalqimiz.

“Tarlon no‘xtasidan ushladim. Tarlonni tinchlantirdim:

– Bo‘ldi! Tak-tak-tak! Tak deyman! Safar aka, ana, aytmadimmi, to‘rig‘ingiz odam emas deb! Mana, Tarlonning ko‘nglini og‘ritdi!

– Odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz! Shunday-shunday topishadi-da!” .

Azal-azaldan o‘zbek oilasida farzand tarbiyasida doim bir-biriga suyanch bo‘lib, tirgak bo‘lib, o‘zaro og‘zi birlikda hayot kechirish, yaxshi-yu yomon kunlarda yelkama-yelka turib yashashni uqtirishadi. Shu bois xalqimiz: “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”, deydi. Bu nafaqat oilada, balki jamiyatda, davlat miqyosida ham muhim sanalgan. Tarixga nazar solsak, qaysiki qabila, qishloq, davlat yoki katta imperiya bo‘lsin tarqoq, birlashmagan bo‘lsa, albatta, dushmanga o‘lja bo‘lgan va qul bo‘lib yashashga mahkum qilingan. Biz tahlil qilayotgan mazkur qissada Ziyodulla chavandozning uloqdagi ishtirokida ham otlar misolida o‘zaro ittifoqlikning tantanasi ko‘rsatib berilgan:

“Endigi uloqni men olib chiqdim. Otlar oldimni oldi. Yo‘limni yopib chopdi, yonlarimni yopib chopdi. Otlar meni qoralikka yo‘latmadi. Birodarlar, yolg‘iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da, dong‘i chiqmaydi! Alamimdan xunob bo‘ldim. O‘zimizning chavandozlarga baqirdim:

Важно учесть индивидуальные особенности учащихся при преподавании русского языка, так как некоторым из них может быть сложно освоить новый язык из-за отличий от их родного языка или культурного фона. Для этого преподаватели должны применять дифференцированный подход и адаптировать методику обучения под потребности каждого ученика. Это может включать использование различных методов, таких как игровые подходы, аудиовизуальные материалы, интерактивные упражнения и другие инновационные подходы, которые способствуют заинтересованности и более эффективному усвоению знаний. Такое разнообразие методик и подходов помогает преподавателям успешно обучать русскому языку и развивать в учениках не только навыки устной и письменной речи, но и общие коммуникативные и культурные компетенции.

Устное общение включает разнообразные формы речевой деятельности, такие как слушание и говорение, которые неразрывно связаны и неотъемлемы друг от друга. Развитие навыков говорения и аудирования представляет собой важный аспект обучения. Одним из ключевых условий успешного устного общения является развитие мышления и способности генерировать собственные высказывания. Кроме того, эффективное восприятие и

понимание речи обеспечивается соблюдением орфоэпических норм и выразительностью речи. Для развития навыков аудирования необходимо активно участвовать в слушании, распознавать звуки и фразы, связывать их с лексическим и грамматическим содержанием, а также учитывать интонацию. Аудирование на втором языке требует регулярной тренировки с использованием всё более сложного материала и уровня сложности. [5, 2].

Развитие навыков аудирования и говорения в русском языке имеет большое значение не только для повседневного общения, но и для успешного учебного и профессионального роста. Понимание на слух и умение говорить на русском языке дает возможность активно взаимодействовать с носителями языка и расширять свои коммуникативные возможности. К тому же, развитие этих навыков способствует углублению понимания русской культуры и литературы, а также способствует расширению профессиональных перспектив. Все это подтверждает значимость развития навыков аудирования и говорения в процессе обучения русскому языку.

Для развития навыков аудирования в русском языке применяются различные упражнения, такие как ответы на вопросы по прослушанному тексту, вопросы к прослушанному тексту, создание к нему заголовков, составление плана, определение основной идеи прослушанного текста, пересказ эпизодов, связанных с определенным персонажем, а также выражение своего мнения о прослушанном и т.д. Также эффективными являются задания на аудирование, если использовать тексты с интересной информацией, соответствующей области интересов и профессиональной специализации студентов. Например, для студентов медицинского направления можно использовать тексты с медицинской терминологией, помимо текстов, предлагаемых в учебниках. Прослушивание медицинских текстов на русском языке позволяет более эффективно обучать студентов русскому медицинскому языку, развивать их словарный запас и навыки в области медицинской коммуникации, а также объединять обучение с воспитанием и формированием профессиональной лексики и навыков [2, 15].

Одна из главных задач обучения русскому языку в группах с нерусским языком обучения – это развитие навыков устной речи. Говорение является активным и неотъемлемым компонентом устного общения. Для того чтобы говорить на неродном языке, необходимы как знания языкового материала, так и умение применять его для выражения своих мыслей и понимания речи других людей. В этом процессе важную роль играют оперативно-тренировочные упражнения, направленные на накопление языкового материала и развитие навыков работы с различными языковыми явлениями, такими как лексика, словообразование, грамматика и т.д.

Речевые упражнения должны отражать реальную действительность и жизненный опыт студентов. Они должны предлагать задачи, которые требуют самостоятельного решения и позволяют развивать речевое мышление в соответствии с различными коммуникативными условиями. Через речевые упражнения студенты могут развивать навыки спонтанной речи, что является конечной целью обучения русскому языку в национальных группах.

Список литературы

1.Костамаров В.Г. Насущные задачи учения о культуре речи. «Русский язык в школе», 1965. № 4. Стр. 7–8.
2.Костамаров В.Г., Митрофанов О.Д. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам. М., 1978.
3.Русский язык и литература в узбекской школе, 1988. С. 57.
4.Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе / Под редакцией А.Д. Климентенко, А.А. Миролюбова. М., 1981. С. 240.
5.Типовые программы по русскому языку для национальной школы (подготовительные, 1-10 классы). С. 2.
6.Чистяков В.М. Основы методики русского языка в нерусских школах. М., 1958. С. 269.

Фомина МАЙДЭ,
ассистент кафедры языков Самаркандского государственного медицинского университета

РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ В ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Аннотация: в данной статье рассматривается роль и значение латинских фразеологизмов в деонтологическом воспитании студентов медицинских вузов и повышении их профессионального мастерства. На основе анализа с примерами приводятся сведения о широком использовании фразеологических пословиц и мудрых слов даже в наши дни, их языковом содержании и роли в медицине.

Ключевые слова: *фразеологические выражения, правильный диагноз, деонтология, фразеологическое сочетание, медицинских терминов, лингвистический анализ.*

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiyot oliygohlari talabalarining deontologik ta'limda va kasb mahoratini oshirishda lotincha frazeologik iboralarning o'rni va ahamiyati borasida fikr yuritilgan. Unda frazeologik iborali maqol, matal va hikmatli so'zlarning bugungi kunda ham keng qo'llanilishi, lingvistik mazmun-mohiyati va tibbiyotdagi o'rni to'g'risida misollar bilan tahlillar asosida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *frazeologik iboralar, to'g'ri tashxis, deontologiya, frazeologik birikma, tibbiy atamalar, lingvistik tahlil.*

Annotation: this article discusses the role and importance of Latin phraseological expressions in the deontological education of medical university students and improving their professional skills. It provides information on the widespread use of phraseological proverbs and wise words even today, their linguistic content and their role in medicine based on analysis with examples.

Key words: *phraseological expressions, correct diagnosis, deontology, phraseological combination, medical terms, linguistic analysis.*

Основной задачей изучения латинского языка в медицинских ВУЗах является подготовка врача, способного в своей практической и научной деятельности грамотно пользоваться латинской медицинской терминологией. Помимо медицинских терминов, профессиональный язык медиков содержит специальные выражения, употребляемые только в латинском языке: in vivo – на живом организме, per os – через рот, pro narcosi – для наркоза, per se – в чистом виде и другие более сложные фразеологические выражения, которыми должны овладеть будущие врачи. Современные методические рекомендации дают возможность ознакомиться не только с необходимой терминологией, но и с провербиальными фразеологическими выражениями, которые имеют большое значение как с точки зрения деонтологического, так и тесно с ним связанного идейно-политического воспитания. Деонтология, в свою очередь, имеет ряд междисциплинарных связей, в большинстве своем имея параллельный терминологический аппарат с областью психологии, психолингвистики, культурологии и прагматики.

Фразеология представляет собой раздел науки о языке, изучающий систему устойчивых словесных комплексов в ее современном состоянии и историческом развитии.

В данной статье приводятся устойчивые образные составные термины, крылатые выражения, афористические изречения, пословицы и поговорки, связанные с медицинской наукой и нравственным воспитанием. Каждая дисциплина, имея свои специфические особенности, своеобразно преломляет законы деонтологии – науки о долге врача, его обязанностях и высокой нравственности. Понятие врачебного долга можно понимать очень широко – от честного, скромного выполнения повседневной врачебной работы до проявления высокого мужества в чрезвычайных обстоятельствах, и еще выше, до готовности принести себя в жертву для спасения людей. Недаром известный голландский медик Ван Тюльп предложил горящую свечу сделать гербом, символом врача – Aliis inserviendo consumor – «светя (служа) другим, сгораю сам». Преподаватели латинского языка на своих занятиях могут использовать латинские высказывания древних ученых на медицинскую тему, и на примерах их толкования знакомить будущих врачей с врачебной этикой. Особенности медицины и основного представителя этой науки – врача – вытекают из их назначения, благородных задач – помощи больному человеку. В изречении – Noli nocere – «Не навреди» (или Primum non nocére – «прежде всего не вреди») звучит девиз врача и предупреждение о том, что каждое действие врача должно быть направлено на благо больного.

Какие бы исследования врач не проводил, остается незыблемым основной принцип «Noli nocere», которым он должен руководствоваться в своей лечебной, практической и научной деятельности. Здесь же можно привести и такое фразеологическое изречение Ne noceas si iuvare non potes – «Не вреди, если не можешь помочь».

Латинское фразеологическое сочетание – chirurgus mente prius et oculis agat, quam manu armata пусть хирург прежде действует умом и глазами, а затем вооруженной рукой – перекликается со словами выдающегося советского хирурга С.С. Юдина о том, что хирургическая работа складывается из двух элементов – искусства рукодействия и научного мышления, которые одно без другого являются бесплодными. Плох тот хирург, у которого руки работают быстрее, чем голова. Больных влечет к врачу его терпеливое и участливое умение расспрашивать и выслушивать их: – Qui beno interrogat, bene dignoscit – кто хорошо расспрашивает, тот хорошо ставит диагноз.

Отсюда Auscultare disce – учись внимательно слушать (выслушивать), Ausculta et perpende – выслушай и взвесь. Сердечная, располагающая к полной откровенности беседа, возможность высказаться, выразить свои переживания уже сами по себе вызывают некоторое улучшение в состоянии больного. Dixi et animan levavi – сказал и душу облегчил, гласит старая, но удивительно правильная и меткая латинская поговорка.

Авторитет врача обеспечивается прежде всего профессиональным уровнем, поэтому одной из важнейших обязанностей врача является работа над собой, совершенствование своих знаний: Per scientiam ad salutem aegroti через – знания к здоровью больного. Ignorantia non est argumentum – незнание не есть довод (оправдание).

Древние китайские мудрецы говорили о том, что знания, которые не совершенствуются, убывают с каждым днем: – Non progredi est regredi – не идти вперед, значит идти назад гласит латинское изречение. А польский ученый Т. Келановский в 1968 году сказал, что врача, который не заглядывает в книгу, следует опасаться больше болезни. Libri amici, libri magistri – книги– друзья, книги – учителя; Alit lectio ingenium – чтение питает ум. Если для многих профессий можно в какой-то мере допустить правомерность давно известного латинского провербиального фразеологизма Errare humanum est, что означает «человеку свойственно ошибаться», то для врача возможность ошибаться должна быть сведена к нулю, так как ошибка в диагностике и лечении может привести и непоправимых последствиям. Если врач правильно ставит диагноз, умело лечит, к нему охотно идут, у него с доверием лечатся, ибо Qui bene dignoscit bene curat – кто хорошо ставит диагноз, тот хорошо лечит.

Dingnosis bona – curatio bona – хороший диагноз – хорошее лечение. Лечение больного будет успешным, если он доверяет квалификации врача, уверен в его желании помочь, ощущает чуткое отношение к себе, если для врача – Salus aegroti-suprema lex – здоровье (благо) больного – высший закон, если врач внушает больному надежду на хорошее – Comple aegrotum bona spe – внушай больному надежду на хорошее. Medicus amicus et servus aegrotorum est – врач – друг и помощник (слуга) больных. Помимо способностей, знаний и большого трудолюбия, врач должен обладать человеколюбием. Arte et humanitate, labore et scientia – искусством и человечностью, трудом и знанием должно стать девизом врачей.

Знаменитый французский хирург Рене Лориш в 1966 году писал, что надо встать на службу человечеству, думая только о его боли, страданиях, незащищенности в схватке с болезнью, Divinum opus- sedare dolorem божественное дело успокаивать боль. Officium medici est, ut tuto,ut celeriter, ut iucunde sanet – долг врача в том, чтобы лечить безопасно, быстро, приятно (или короче cito, tuto et iucunde (Celsus) – быстро, безопасно и приятно). Леча больного, врач лечит его не только как организм, но и как личность. Medice, cura aegrotum, sed non morbum –врач, лечи больного, а не болезнь, гласит латинское фразеологическое изречение. Однако уже врачи древности, историки, как, например, Платон и Гален, писали о необычайной жадности и корыстолюбия многих известных врачей своего времени. Тогда и появилось старинное латинское изречение Praemia cum poscit medicus satan est – врач сатана, когда требует вознаграждение. К сожалению, корыстолюбивых врачей можно встретить и в настоящее время. О них пишут, разоблачают, поэтому древнее латинские изречение фразеологического характера – Praemia cum poscit medicus satan ast – не потеряло силу и сегодня. Гордость за самую благородную, гуманную, нужную людям профессию воспитывают такие наречения, как: Omnium profecto artium medicina nobilissima – из всех наук (искусств), безусловно, медицина самая благородная (Гиппократ) и Medicina fructuosior ars nulla – нет науки полезнее медицины (Плиний).

Список использованной литературы:

1.Красных В.В. 2001- Красных В.В. Основы психолингвистики и теории коммуникации. -М: Гнозис: Кучковое поле. 2001.

2.MS Avazjonovna. Formation of medical terms and their linguistic, communicative aspects. Journal of Universal Science Research, 2024.

3.М.Н. Чернявский. 1989- Латинский язык и основы медицинской терминологии. 2-е изд., перераб. и доп.-Мн.: Выш. шк., 1989.

4.С А Махмудова. – Репрезентация персонажного концепта «англичанин» в романе Дж. Олдриджа «Дипломат». - Journal of Academic research and Trends in Educational Sciences, 420–427, 2023.

5.Г.М. Гайдаров.- Медицинская этика и деонтология в историческом аспекте. 2016- Иркутск. ИГМУ.

6.Anatolyevna,F.M.Kenzhaevna, B.M.Kamariddinovich, S. K. (2021, April). The role of word-building elements in teaching the translation-free reading of medical texts. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 99–101).

7.Anatolyevna, F. M. (2021). Kamariddinovich SK SYNONYY IN ENGLISH MEDICAL TERMINOLOGY. In Euro-Asia Conferences (pp. 21-23).

8.Aliaskarovna, S. U., Saydullaevna, N. N., Avazovna, M. S., & Anatolevna, F. M. (2022). The development of cognitive process among medical students mastering the course" latin language and the basics of medical terminology". Journal of Positive School Psychology, 1614–1620.

Zulxumor MIRZAYEVA,
ToshDO‘TAU professori
Matluba MALLAYEVA,
ToshDO‘TAU 2-kurs tadqiqotchisi

ADABIYOT FANI MILLIY VA XORIJ O‘QUV DASTURLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: o‘quv dasturlari orasida, xoh u oliy ta’limda bo‘lsin, xoh o‘rta ta’limda, adabiyot fani yo‘nalishiga oid o‘quv dasturlari konseptual xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Chunki adabiyot ham, adabiyot o‘qitish metodikasi ham boshqa fanlar kabi o‘zgaruvchan, rivojlanish xususiyatiga ega. Demak, adabiyot fanlariga oid o‘quv dasturlarini yaratishda ham eng avvalo yangilanib borayotgan nazariyalarga, global ta’limda aks etayotgan o‘zgarishlarga, eng muhimi, globallashuv, integrasiyallashuv sabab talabalar, o‘quvchilar tafakkurida o‘zgarib borayotgan holatlarga ham alohida ahamiyat berish zarur hisoblanadi.

Key words: *konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm , metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv;*

Annotation: among educational programs, be it in higher education or in secondary education, educational programs related to the field of literature are distinguished by their conceptual diversity. Because both literature and the methodology of teaching literature, like other subjects, have the nature of change and development. Therefore, it is necessary to pay special attention to the updated theories, the changes reflected in global education, and most importantly, the changes in the thinking of students and pupils due to globalization and integration. is considered

Key words: *constructivism, behaviorism, humanism, concept of metalanguage, transaction theory, integrative approach in education;*

Аннотация: среди образовательных программ, будь то в высшем или среднем образовании, образовательные программы, связанные со сферой литературы, отличаются концептуальным разнообразием. Потому что и литература, и методика преподавания литературы, как и другие предметы, имеют характер изменения и развития. Поэтому необходимо обратить особое внимание на обновленные теории, изменения, отраженные в глобальном образовании, а главное, изменения в мышлении студентов и школьников вследствие глобализации и интеграции. Считается

Ключевые слова: *конструктивизм, бихевиоризм, гуманизм, концепция метаязыка, теория транзакций, интегративный подход в образовании;*

Bugungi amaldagi o‘quv dasturlarining aksariyati, afsuski, o‘rganuvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga emas, balki quruq g‘oyalar (dry ideas) ni shakllantirishga xizmat qilyapti xolos. Ayniqsa, o‘rta ta’lim adabiyot fani uchun yaratilgan o‘quv dasturlari yoshlarni faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorlash uchungina xizmat qilyapti. Vaholanki, o‘quv dasturlari adabiyot fani o‘qitishning fundamental ma’muriy asosi hisoblanadi. Shunday ekan adabiyot fanidan yaratiladigan o‘quv dasturlari o‘quvchilarning, talabalarning o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Demak, shu nuqtayi nazardan adabiyot fanlaridan yaratiladigan o‘quv dasturlariga yondashuvni butunlay o‘zgartirish lozim.

Bugun adabiyot fanlarini o‘qitishda konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlari, o‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahlilga kulturologik yondashuv, badiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari, ta’limni individuallashtirish va personallashtirish kabi ko‘plab yangi tushunchalar paydo bo‘ldi. O‘quv dasturlarini yaratishda hamda adabiyot fanlaridan o‘quv dasturlarini yaratishda, milliy metodikaga oid manbalarni boyitish hamda uni xalqaro standartlarga mos rivojlantirishda, tabiiyki, global ta’lim imkoniyatlaridan, birlamchi manbalardan bevosita, o‘rinli foydalanish va uni milliy adabiy ta’limga tatbiq etish talab etiladi.

Ta’limi rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanidan yaratiladigan o‘quv dasturlarida bizdan farq qiladigan bir qancha jihatlari bor. Ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari talabalar, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni belgilaydi. Ulardagi kompetensiyalar aniq va obyektiv belgilanib, spiralsimon shaklda rivojlanib boradigan kichik kompetensiyalarga bo‘linadi.

Masalan, o‘quvchi asar syujetining tarkibiy elementlari, (perspektiva, retrospektiva...), badiiy asardagi stilistik figuralar (metafora, metonimiya kabi), ayrim epizodlarning badiiy matn mazmuniga ta’sirini izohlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, standartlar o‘quvchida badiiy asarni to‘liq o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bunda o‘qituvchilarga o‘quvchilar o‘qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro‘yxati beriladi. O‘qituvchi tavsiya qilingan ro‘yxatdagi adiblar va asarlarni o‘quvchilarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘zi tanlaydi. Bunda o‘quv yili davomida o‘tilgan asarlar soni muhim rol o‘ynamaydi, tanlangan asarlar to‘liq o‘qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi.

O‘quv dasturlari bevosita hayot bilan bog‘liq, o‘quvchilarning ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. O‘quv dasturlarida aks etgan kompetensiyalar adabiyot darsliklarida aks etadi. Masalan, Angliya va Amerikada nashr qilingan adabiyot darsliklarining deyarli barchasida “Think critically” (tanqidiy tafakkur), “Connect to life” (asarning bugungi kun bilan bog‘liqligi) “Extend interpretation” (Keng ko‘lamli talqin) kabi qismlar mavjud bo‘lib, bularning barchasi o‘quvchining tafakkuri rivojiga xizmat qiladigan savol va topshiriqlardan iborat bo‘ladi . Ularda badiiy matn bilan ishlashning muayyan bosqichlari (asarni o‘qishdan oldin, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin) mavjud. Har bir bosqichning o‘z maqsadi va uslublari bor.

Xorijdagi adabiyot fanlari o‘quv dasturlariga xos yana bir muhim jihat badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga, adabiyotni san’atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta’minlash, o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi bugun “mahalliy” o‘qitish strategiyalardan o‘qituvchi va o‘quvchining adabiy ta’lim haqidagi fikrlarini tiniqlashtirishga xizmat qiladigan global yondashuvlar tomon qadam tashlashi, adabiy matnni qanday o‘rganish emas nima uchun o‘rganish kabi muammolarni masala qilib qo‘yishi va badiiy asar mazmunini chuqurroq tushunishga olib borish yo‘llarini kashf etishi talab etiladi.

Ma’lumki, badiiy estetik jihatdan san’at darajasiga ko‘tarilgan, chuqur ijtimoiy g‘oyaviy mazmunga ega badiiy asarlargina o‘quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va adabiyot haqidagi fikrlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada o‘zbek adabiyoti ta’limidagi murakkab va keng qamrovli muammolardan biri bo‘lgan uzviylik va uzluksizlikni mantiqan to‘g‘ri ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiyoti ta’limida mazmuniy uzviylikni ta’minlashda tabiiyki, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzluksizligini ta’minlash lozim. Bundan tashqari, o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari — adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o‘qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi.

O‘zbek adabiyoti fanidan o‘quv dasturlarini yaratishda o‘rganuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashda o‘rganuvchining ehtiyojlari (student’s needs; learner’s needs) ni ham e’tiborga olish kerak. 11 sinf adabiyot darsligidagi Yusuf Hoj Hojibning “Qutadg‘u bilik” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari turkiy adabiyotning ilk namunasi, o‘z davridagi ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni ramziy obrazlar vositasida badiiy talqin qilgan asar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoki Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari bilan o‘zbek klassik adabiyotining shoh asarlaridan sanaladi. Insoniyat taraqqiyotida, jahon adabiyoti, san’ati va madaniyati rivojida alohida o‘ringa ega bo‘lgan, har bir kitobxon mutolaa qilishi zarur deb hisoblangan milliy va jahon adabiyoti durdonalarining o‘quv rejadan o‘rin olishi har jihatdan to‘g‘ri va shunday bo‘lishi ham kerak. Ammo shu o‘rinda ta’lim standartlarida yoki o‘quv dasturlarida mavjud tanlanma figuralar o‘quv rejani yaratgan mualliflarning badiiy asarga individual munosabati, fikr qarashlari, qiziqishlari va ularni “bilishi kerak” nuqtayi nazaridagi miopik (shaxsiy) qarashlari asosida tavsiya qilingan. Ma’lumki 17 yoshli o‘quvchining ma’naviy ehtiyoji 30-40 yoshli kitobxonning ma’naviy ehtiyojidan keskin farq qiladi. O‘qituvchi “qiziq” deb bilgan badiiy asar uning o‘quvchisi uchun u darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu nuqtayi nazardan uzliksiz ta’lim bosqichlari uchun o‘quv rejalar shakllantirilayotgan jarayonlarda muayyan usullar (masalan, so‘rovnomalar, individual tartibdagi suhbatlar) orqali o‘quvchilarning ma’naviy ehiyojlarini ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Masalaga bunday yondashuv, birinchidan, badiiy asar va o‘quvchi ma’naviy ehtiyoji o‘rtasidagi mutanosiblikni vujudga keltiradi va bu adabiyot darslarini yanada qiziqarliroq va jonliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, ta’lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv shakllanadi.

Bugungi yoshlar virtual olamda ulg‘ayyaptilar. Virtual, texnika olamining bir qancha ijobiy xislatlari barobarida uning salbiy oqibatlari ko‘plab balog‘at yoshidagi farzandlarimizni “siylab” o‘tayotgani ham ma’lum haqiqat.

O‘n yetti, o‘n sakkiz yosh yuqori sinf o‘quvchilari ongidagi o‘zgarishlarning eng muhim davri hisoblanadi. Bu davrda ular umid va umidsizlik, topish va yo‘qotish, sevgi va nafrat, sadoqat va xiyonat, qadriyat, insoniylik kabi masalalar mohiyatini to‘g‘ri va atroflicha anglashga ehtiyojmand bo‘ladilar. Ko‘pchiligi esa “pul hamma narsani hal qiladi” qabilidagi noto‘g‘ri qarashlarga ergashib boshi berk ko‘chalarga kirib qoladi. Moddiylik g‘am alamni, gunohni, yo‘qotishlarni, umidsizlik bilan bog‘liq muammolarni hal qila olmasligini anglashda esa ulardagi hayotiy tajriba yetmaydi. Mana shunday davrda ular ongidagi ma’naviy bo‘shliqni adabiyot to‘ldiradi. Adabiyot ularga najot quroli bo‘lib xizmat qiladi. Zotan inson huquqlarini ilk bora himoya qilish va ularni zalolatdan qutqarish maqsadida nozil bo‘lgan Ollohning kalomi QUR'ONI KARIM yaratilgan davrdan boshlab so‘z san’ati insoniyatning og‘ir kechmishi, qirg‘in va halokatida, unga ozodlik, erkinlik, o‘zlikni anglash kabi eng ulug‘ tuyg‘ularni in’om etib, muallimlik qilganligi isbotlangan.

Hayot hech kimga “qanday qilib” degan savolga javob bermaydi, shunigdek inson muammolarining yechimiga ko‘rsatmalar berish imkoniga ham ega emas. Qolaversa, turli xil tur va janrlarga xos badiiy asar namunalari, jumladan, roman, hikoya yoki drama ham bugun yoshlarimizni o‘rab olayotgan muammolarni to‘laqonli bartaraf etish kuchiga ega emas. Aniqroq qilib aytganda adabiyot davolash shakli emas ammo o‘rganish vositasidir. Chunki asarlarda savob va gunohlar, hayotiy yo‘qotishlar, adolat, yaxshilik, yomonlik va yana bir qancha umuminsoniy xususiyatlar aks etgan voqea hodisalar bayon qilinadi. Keng doiradagi nuqtayi nazarlar, konsepsiyalar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, badiiy asarda aks etgan voqea hodisalar orqali o‘quvchi eng kamida o‘zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. O‘zi sevib, ma’naviy ehtiyoji o‘laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o‘quvchining hayot haqidagi qarashlarini, konsepsiyalarini tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali o‘quvchi yangi dunyoni ko‘rishni o‘rganadi.

O‘quv dasturlariga kiritilgan ijodkorlar, tanlanma figuralarga nisbatan talabalar yoki o‘quvchilarning ham o‘z shaxsiy munosabatlari bo‘ladi. Ayrim holatlarda talabalardan yoki maktab o‘quvchilaridan ham “nima uchun bu asarni o‘qishimiz kerak” yoki “falon asar o‘rniga falon asarni o‘rgansak bo‘lmaydimi?” degan savollarni ko‘p eshitamiz. O‘qituvchining mazkur savolga javobi o‘quvchining notanish badiiy asarga mehr muhabbatini uyg‘otishga bo‘lgan dastlabki qadam. O‘qituvchining savolga munosabati talabalarni adabiyotga yaqinlashtirish va ularni badiiy asarga bog‘lashga, qiziqishini orttirishga rag‘bat berishi kerak. Zotan adabiyot o‘qituvchisi boshqa fan o‘qituvchilariga nisbatan maxsus intizom va tartibga, muayyan kognitiv maqsalarga ega bo‘ladi. Uning eng muhim, fundamental maqsadlaridan biri mudom ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishda bo‘lishdan iboratdir. Adabiyot o‘qituvchisi bergan ta’lim rag‘bati yoki Qodiriy, Cho‘lpon, Tolstoyni o‘qish jarayonlaridagi ta’limiy yondashuvlar ularni bir kun kelib adabiyot o‘qituvchisi, yo shoir yoxud yozuvchi bo‘lish orzulariga katta rag‘bat beradi.

Bugungi kunda ta’lim standartlari rivojlangan Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika kabi mamlakatlarning o‘quv dasturlarini yaratish (Curruculum development) bilan bog‘liq ilg‘or tajribalarini, sinovdan o‘tgan yondashuvlarini milliy ta’limga olib kirish o‘qitish va o‘rganish sifatini o‘sishida, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda va sohani jahon standartlariga mos rivojlanishida muhim faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz. Jumladan, Britaniya ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy o‘quv dasturlaridan foydalaniladi. Ularda muayyan fan, xususan, adabiyot ham o‘z yo‘nalishlarida:

A)konseptual masalalarni;
B) global muammolarni;
V) adabiyotning pragmatik xususiyatlarini;
G) jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlarini

Va yana ko‘plab muhim jihatlarni qamrab oladi.

Talabalar va o‘quvchilar orasida plyuralistik tafakkur, fikrlar erkinligiga qaratilgan o‘quv dasturlarining yaratilishi milliy adabiy ta’lim imkoniyatlarini yanada kengaytirish, o‘qitish bilan birga o‘rganishning samarali usullarini yaratish, an’anaviylikdan zamonaviylik sari qadam qo‘yish orqali adabiy ta’lim taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arthur N.Applebee, Abdrea B. Bermuder etc. World Literature/ Evanston, Illinois, 2008.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka. – Toshkent, 2020
3. Mirzayeva Z. Badiy asar tahlili: lokaldan globalga. Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti IV an’anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023.

Nasiba MEYLIYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ETTI MENI O‘LTURGALI OXIR HIJRON” RUBOIYSINING TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim tizimida ruboiy vaznlarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor, hamda Zahiriddin Muhammad Boburnıng “Etti meni o‘lturgali oxir hijron” ruboiysini zamonaviy ta’lim usullaridan foydalangan holatda ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur usul orqali o‘quvchilarni ruboiy vaznlarini tushunishlarini osonlashtiradi va esda qolishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *ijodkor, darslik, ruboiy, vazn, janr, misra, innovatsion usullar, shaxmat.*

Annotation: in this article, attention to the study of rubai weights in the educational system, as well as Zahiriddin Muhammad Baburn's rubai "Etti meni olturgali akhir hijran" is shown in the case of using modern educational methods. This method makes it easier for the students to understand and remember rubai weights.

Keywords: *creator, textbook, rubai, weight, genre, verse, innovative methods, chess.*

Аннотация: в данной статье показано внимание к изучению весов рубаи в системе образования, а также рубая Захириддина Мухаммада Бабура «Этти мени олтургали ахир хиджран» на примере использования современных методов обучения. Этот метод облегчает ученикам понимание и запоминание веса рубаи.

Ключевые слова: *создатель, учебник, рубай, вес, жанр, стих, инновационные методы, шахматы.*

Zamonaviy innovatsiya davrida hamma narsa inson faoliyatini osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Xususan, ta’limda ham ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar faoliyatini innovatsion texnologiya va turli metodlarsiz tasavvur etish qiyin. Mustaqil ta’limda ham darsda ham mavzu yuzasidan konsultatsiya jarayonida talabalarga ma’lumotlar turli innovatsion texnologiyalar va grafik organayzerlar yordamida yetkazilishi mumkin. Bunda ishning samaradorligi ortadi, talabalarning mavzuni tushunishi osonlashadi.

Ruboiy Sharq adabiyotining eng ko‘p tarqalgan janri bo‘lib, mumtoz she’riyatimizda bu janrga murojaat qilmagan shoir uchramaydi. Turkiy shoirlarimiz ruboiyning vazn imkoniyatlarini yanada kengaytirdilar. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ruboiyning betakror namunalari vujudga keldi.

O‘quvchi va talabalar aruz ilmidan xususan, ruboiy vaznlarni mustaqil o‘rganishda ularning mazmun tomoni, ruboiylarda qo‘llangan she’riy san’atlar bilan bir qatorda vazn xususiyatini ham o‘rganishi lozim. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Etti meni o‘lturgali oxir hijron” ruboiysini zamonaviy ta’lim usullaridan foydalangan holatda ko‘rsatib o‘tdik. Ushbu ruboiy “Masnu’ she’ri” bo‘lib, – arabcha san’atli, sersan’at degani. Ham gorizontal, ham vertikal tomonidan o‘qish mumkin bo‘lgan she’r. U murabba’ (to‘rtburchak), musoviyat tarafayn (ikki tomoni ham teng) degan atamalar bilan ham yuritiladi. Bobur ushbu ruboiysini shaxmat she’riyatiga mos ravishda yozgan.

Biz aniqlaganimizdek, turkiy adabiyotda shaxmat she’riyatining birinchi shakli Zahiriddin Muhammad Boburga tegishli. She’r mavzusi ishq haqida va uning qofiya sxemasi quyidagicha: a a a a shaklida.

Shaxmat doskasidagi ruboiyning birinchi misrasining ilk (*etti meni*), ikkinchi misrasining ikkinchi (*qo‘yma*), uchinchi misrasining uchinchi (*bu firoq*) va to‘rtinchii misrasining to‘rtinchi (*oh-u fig‘on*) maydonidagi (*kvadrat ichidagi*) so‘zlar bir xil sariq rangda diagonal ketma-ket bir marta berib o‘tilgan. Boshqa kvadratdagi so‘zlar bir-biriga qarama-qarshi o‘zaro tartibga solingan holda ikki marta o‘xshash ranglarda ishlatilgan. Misralarni chapdan o‘ngga chiziqli to‘g‘ri qilib o‘qilganda ham, yoki yuqoridan pastga vertikal ravishda o‘qilganda ham bir xil satrni ko‘rsatadi va bu baytning ma’nosi ham vazni ham o‘zgarmaydi.

Biz bu ruboiyni quyidagi “Shaxmat” metodi asosida ko‘rib chiqdik:

1	Etti meni	o‘lturgali	oxir	hijron
2	O‘lturgali	qo‘yma	meni qutqar,	ey jon,
3	Oxir	meni qutqar,	bu firoq	asru yomon!
4	Hijron	ey jon,	asru yomon!	oh – fig‘on
	1	2	3	4

Shaxmat doskasidagi ruboiyning birinchi misrasining ilk (etti meni), ikkinchi misrasining ikkinchi (qo‘yma), uchinchi misrasining uchinchi (bu firoq) va to‘rtinchii misrasining to‘rtinchi (oh-u fig‘on) maydonidagi (kvadrat ichidagi) so‘zlar bir xir sariq rangda diagonal ketma-ket bir marta berib o‘tilgan. Boshqa kvadratdagi so‘zlar bir-biriga qarama-qarshi o‘zaro tartibga solingan holda ikki marta o‘xshash ranglarda ishlatilgan. Misralarni chapdan o‘ngga chiziqli to‘g‘ri qilib o‘qilganda ham, yoki yuqoridan pastga vertikal ravishda o‘qilganda ham bir xil satrni ko‘rsatadi va bu baytning ma’nosi ham vazni ham o‘zgarmaydi.

Ruboiy *“Etti meni o‘lturgali oxir hijron”* misralari bilan boshlanib, 1-, 2-misralari *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar (ruknlari va taqti’si: maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fa’* – – V / V – – V / V – – – / –) vaznida bitilgan. Ruboiyning birinchi rukni, odatdagidek, maf’uvlu (axrab), ikkinchi rukni esa mafoiylu (makfuf), uchinchi rukni mafoiylu (solim), so‘nggi rukni fa’ (abtar)dan iborat. Ruboiyning 3-misrasi *hazaji musammani axrabi makfufi ajabb (ruknlari va taqti’si: maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal – – V / V – – V / V – – V / V –)* vaznida bitilgan. Ruboiyni 4-misrasi qolgan misralardan farqli ravishda, axram shajarasida ya’ni hazaji musammani axrami ashtari makfufi ajab. Axram shajarasining ushbu vazni quyidagicha hosil bo‘ladi:

Birinchi rukn: ***maf’uvlun*** (axram)
Ikkinchi rukn: ***foilun*** (ashtar)
Uchunchi rukn: ***mafoiylu*** (makfuf)
To‘rtinchi rukn: ***faal*** (ajabb).
Taqti’si quyidagichadir:
Maf’uvlun foilun mafoiylu faal
– – – / – V – / V – – V / V –

Biz tadqiqotimiz davomida xorij adabiyotida ruboiylarni qanday qo‘llanishini kuzatdik va Turkiya adabiyotida ruboiy she’r shakli va xususiyatlarini o‘rganib chiqdik. Kuzatishlarimiz davomida ruboiyning Turkiya adabiyoti va bizning mumtoz adabiyotimizda qo‘llanilishi bir xil ekaniga guvohi bo‘ldik. Quyidagi Fuzuliyning *“Gördùm seni elden ihtiyârum gitdi”* ruboisini vaznini ko‘rib chiqamiz:

Gördùm seni elden ihtiyârum gitdi
Bakdum kadùne sabr u karârum gitdi
Hâk oldum ù her yana gubârum gitdi
El-kıssa kapunda i’tibârum gitdi .

Ushbu ruboiy to‘rt misrasi ham bir-biri bilan qofiyali yani *ruboiy musarra’ga* yoki *ruboiya* deb ham nomlasak bo‘ladi. Bu ruboiyning har bir misrasi axrab vaznida yozilgan. Misralarning vaznlari navbati bilan: birinchi misrasi maf’uvlu mafoiylun mafoiylun fa’, ikkinchi misrasi maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fa’, uchinchi misrasi *maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fa’ va* oxirgi misrasi esa *maf’uvlu mafoiylun mafoiylun fa’*. Quyidagi jadvalda vazni va taqti’sini ko‘rib chiqamiz:

Gö	dü	se	ni	el	den	ih	ti	yâ	rum	git	di
–	–	V	V	–	–	–	V	–	–	–	–
Bak	dum	ka	dü	ne	sab r	u	ka	râ	rum	git	di
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	–
Hâk	ol	dum	ü	her	ya	na	gü	bâ	rum	git	di
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	–
El	kıs	sa	ka	pun	da	i	ti	bâ	rum	git	di
–	–	V	V	–	–	–	V	–	–	–	–

Mazkur she'rning to'rtala misrasi a-a-a-a tarzida qofiyalangani uchun ruboiyi musarra' (ruboiya) hisoblanadi. Ruboiyning 1-, 4-misrasi hazaji musammani axrabi solimi abtar (taqtiyi quyidagichadir: maf'uvlu mafoiylun mafoiylun fa' – – V / V – – – / V – – – / –), 2-, 3-misralari bu vazndan biroz farqlanuvchi hazaji musammani makfufi solimi abtar o'lchovi (taqtiyi: maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fa' – – V / V – – V / V – – – / –)da yaratilgan.

Bugungi kunda mumtoz asarlardagi ruboiy vaznlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darslarni qayta hikoyalashdan iborat bo'lmagan holatda tashkil qilish, har bir o'tilayotgan ruboiy vazni uchun yangicha yondashuvlar, savol va topshiriqlar ishlab chiqish orqali dars samaradorligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.To'xliyev O., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. 178-b

2.Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. 80-b.

3.Rahmonova Sh. Umumta'lim maktablarida aruz tizimini o'qitishning muammolari. – T.: Mahalla va oila, 2021. 114-b.

4.Юсупова Д. Таълим тизимида рубоий вазнларини ўқитиш тажрибасидан Ўзбекистонда хорижий тиллар (илмий-методик электрон журнал). – Т.: 2019. – № 4 (27). – 10-b .

5.Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 190 б.

6.Ҳаққулов И. Рубоий ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1974, № 6; Ўзбек адабиётида рубоий . – Т.: 1981. – 98 б.

7.Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT. 10-jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. 733-b.

8.Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т.: "Sharq" , 2020. – 240 б.

Hasanjon OLIMOV,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasi o‘qituvchisi va doktoranti

SPORT XABARLARIDA POLISEMANTIK VA MONOSEMANTIK SO‘ZLAR ISHLATILISHI VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: sportga oid matnlarni lisoniy tahlil qilish jarayonida muallifning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, samimiy, kishiga kayfiyat bag‘ishlaydigan, ma’no jihatidan shu mavzuga yoki matnga mos tushadigan va yoritib bera oladigan so‘zlardan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun sportga oid matnlardagi polisemantik va monosemantik so‘zlarning nima maqsadda qo‘llanilganligi va matnda nima vazifa bajarganligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *sport, saytlar, polisemantik, monosemantik, ma’no kengayishi, til, neologizm.*

Annotation: in the process of linguistic analysis of sports texts, it is required to use words that show the author's skill in using the language, are sincere, give a person a mood, and in terms of meaning correspond to this topic or context and can illuminate it. To do this, it is explained by what purpose polysemantic and monosemantic words are used in sports texts and what their function is in the text.

Key words: *sports, websites, polysemantic, monosemantic, meaning expansion, language, neologism.*

Аннотация: в процессе лингвистического анализа спортивных текстов необходимо использовать слова, которые демонстрируют умение автора пользоваться языком, являются искренними, передают человеку настроение, по смыслу совместимы с данной темой или контекстом и могут осветить . Для этого объясняется, с какой целью используются многозначные и однозначные слова в спортивных текстах и какова их функция в тексте.

Ключевые слова: *спорт, сайты, многозначность, однозначность, смысловое расширение, язык, неологизмы.*

Jurnalistika sohasida til ijtimoiy jarayonlarni aks ettiruvchi asosiy quroldir. Shoir Avaz O‘tar ta’biri bilan aytganda “Til – vositayi robitayi olamiyondir”. So‘zlar ma’nosi va mohiyatining kengayishi ijtimoiy munosabatlar silsilasiga bog‘liq. Har bir so‘z ma’nosi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning hosilasidir. U inson faoliyati va talabidan kelib chiqadi. Olim I. Toshaliyev: “til, tafakkur va nutq o‘zaro bog‘liq hayotning ayon ifodasidir”, – deb aytgan edi .

Ijtimoiy hayotda ro‘y beradigan o‘zgarishlar ko‘proq tilshunoslikning leksikasida bilinadi. Sportga oid so‘zlar bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. Bir ma’noli so‘z har doim lug‘aviy mazmun ifodalaydi. Bularga asosan sportga oid atamalar va sportdagi tasviriy ifodalar kiradi: gol, to‘purar, penalti, strayker, o‘zga sayyoralik futbolchi kabi.

Qolaversa, sport klublari va sportchilarga qo‘yilgan nomlar ham tushunchani fodalagani uchun bir ma’noli so‘zlar hisoblanadi. “Manchester city” futbol klubi, Mikel Arteta jamoasi, Erling Holand kabi ismlar bir ma’nolidir.

Bir ma’noli so‘zlar monosemantik so‘zlar deyiladi. Shunday so‘zlarga yana bir yangilik orqali misol keltiramiz:

«Leypsig» sardori Villi Orban jarohati sabab uzoq muddatga safdan chiqdi. Nemis klubi matbuot xizmati xabariga ko‘ra, himoyachi Vengriya va Chexiya milliy jamoalari o‘rtasidagi o‘rtoqlik bahsida (1:1) o‘ng tizzasidan jarohat olgan. Orban taxminan 10 haftani o‘tkazib yuboradi.

30 yoshli futbolchi katta ehtimol bilan Chempionlar Ligasi guruh bosqichining birorta o‘yinida maydonga tushmaydi. Eslatib o‘tamiz, «Leypsig» «Manchester Siti», «Yang Boyz» va «Srvena Zvezda» bilan bir guruhdan joy olgan. Villi bu mavsumda «buqalar» safida barcha o‘yinda to‘liq o‘ynagandi.

Matndagi «Leypsig»,Villi Orban, Vengriya va Chexiya, Chempionlar Ligasi, «Manchester Siti», «Yang Boyz» va «Srvena Zvezda» kabi atoqli otlar bir ma’noli so‘zlardir va ularni boshqa ma’noda qo‘llab bo‘lmaydi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlarga ko‘p ma’noli so‘zlar deyiladi. Buni misol orqali tushuntirib berishga harakat qilamiz.

Futbolda hakamlar bunday o‘yinchilarni himoya qilishlari kerak, aks holda raqiblar beixtiyor jiddiy zarar yetkazib qo‘yishlari mumkin», — deydi yaponiyalik futbolchi DAZN bilan suhbatda .

Ushbu matndagi “himoya” – asli arab tilida mudofaa, to‘siq, g‘ov kabi ma’noni bildiradi . Shu bilan birga futbol, voleybol kabi bir necha sport o‘yinlarda jamoaning raqib tomon hujumini qaytarish vazifasini bajaruvchi qismi ham himoya deyiladi. Misol uchun, “Bu o‘yin jamoaning himoyasida yetarli muammolar borligini ko‘rsatdi. Meksika bilan durang o‘ynash hazilmi?”





B nusxa	Bayt raqami	A va V nusxalar	Bayt raqami
	17		20
	16		21
	18		22
	19		23
	20		24
	21		25

	22		26
	23		27
	24		28
	25		29
	26 bayt bu nusxada yo‘q		30
	35		31
	28		32
	29 30		33 34
	31		35
	32		36
	33		37
	34		38
	34		39
	36		40

Munira NAZAROVA,
O‘zJOKU PhD I bosqich doktoranti

TARJIMA ASARLAR TAHRIRIDA ADABIY MUHARRIR MAS’ULIYATI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqola tarjima asarlarni nashrga tayyorlashda adabiy muharrirning o‘rni, tahrir uslubi va mezonlari, tahrirning tarjima sifatiga ta’siri haqidagi jihatlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Tarjima va tahrir namunalari qiyosiy tahlil etilgan.

Ushbu ilmiy maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad: noshirlik sohasida tarjima asarlar matnini tahrir qilishda adabiy muharrir mas’uliyati va mahoratini aniqlash, tahrir uslubi va mezonlarini tahlil qilish natijasida sifatli tarjimalar chop qilinishiga hissa qo‘shishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *tahrir, muharrir, tarjima, tarjimon, nashr, noshirlik sohasi, tahlil, matn.*

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются аспекты роли литературного редактора в подготовке переведенных произведений к публикации, стиль и критерии редактирования, а также влияние редактирования на качество перевода. Сравнительно анализируются образцы перевода и редактирования.

Основная цель данной научной статьи – определить роль литературного редактора в редактировании текста переводных произведений в издательской сфере, а также способствовать выходу в свет качественных переводов в результате анализа метода и критериев редактирования.

Ключевые слова: *редактирование, редактор, перевод, переводчик, издание, издательское дело, анализ, текст.*

Annotation: this scientific article examines aspects of the role of a literary editor in preparing translated works for publication, the style and criteria of editing, as well as the influence of editing on the quality of translation. Samples of translation and editing are analyzed comparatively.

The main goal of this scientific article is to determine the role of the literary editor in editing the text of translated works in the publishing industry, as well as to contribute to the publication of high-quality translations as a result of analyzing the method and criteria of editing.

Key words: *editing, editor, translation, translator, publication, publishing, analysis, text.*

Kirish. Mamlakatimizda noshirlik sohasida tarjima asarlarga bo‘lgan talabning ortishi, bevosita nashrning sifat ko‘rsatkichiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Natijada, boshqa tildan o‘zbek tiliga o‘girilayotgan asarlar ikki toifaga: sifatli va sifatsiz nashrlarga ajralib qoldi. Ayniqsa ilmiy va adabiy jamoatchilikka, kitobxonlar auditoriyasiga sifatli tarjima asarlar taqdim qilishda adabiy muharrir mahorati, mas’uliyati va tahrir san’atini mukammal bilish salohiyati muhim ahamiyatga ega. Noshirlik faoliyatining asosini tashkil qiluvchi asarlar, xususan, tarjima asarlar haqida gap ketganda, sohaning rivojiga hissa qo‘shuvchi tadqiqot ishlari yuzaga chiqadi. Dunyo miqyosida, shu jumladan O‘zbekistonda ham kompravistik hamda lingivistik yo‘nalishda tadqiq qilingan tarjimashunoslikka oid juda ko‘p tadqiqot ishlari mavjud, biroq tarjima asarlar matnini tahrirlashga oid ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar deyarli yo‘q. Bu esa nashr qilinayotgan tarjima asarlarning sifatini oshirish va sohada yuzaga kelayotgan qator muammolarning oldini olishda to‘siq bo‘lmoqda.

Nashr jarayonida badiiy tarjima masalalari shu bugunga qadar ko‘plab olim va mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Ammo tarjima asarlar matnini tahrirlash borasida ilmiy tadqiqot ishlari sanoqli. Tarjima tahriri masalasini alohida o‘rganib chiqqan jahon olimlari va rus tadqiqotchilaridan V.V. Sdobnikov , N.S. Zvereva , S. M. Vopiyashina , O.V. Murduskina , O.G. Shetinkova , A.O. Ilner hamda Y.A. Berezovskaya , dunyo tadqiqotchilaridan Daryush Yan Skotarek , Jean Nitzke, Carmen Canfora, Silvia Hansen-Schirra, Dimitrios Kapnas kabi olim va izlanuvchilarning ishlarini ko‘rishimiz mumkin. Ammo tarjima asarlar matnini tahrirlashda adabiy muharrirning o‘rni, mahorati hamda tahrir masalalari o‘zbek tilida maxsus o‘rganilmagan, bu bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar deyarli yo‘q.

Mulohaza va natijalar. Nashriyot tarjima asarlarni nashrga tayyorlashda nafaqat tarjimon, balki muharrir bilan ham bevosita ish olib boradi. Mas’uliyat nuqtayi nazaridan avval muallif, keyin tarjimon va so‘ng muharrir qayd etilsa-da, amaliyotda moddiy tejamkorlikka erishish uchun malakasiz tarjimon xizmatidan foydalangan noshir adabiy muharrirdan “zaif” tarjimaning sifatini oshirishni talab qiladi. Bu sohada yo‘l qo‘yilayotgan eng katta kamchiliklardan biri bo‘lib, vazifalar taqsimotida muharrirni tarjimondan bir necha bor yuqori mas’uliyatga javobgar qiladi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri yondashuv. Tarjima asarlar matnini tahrirlovchi adabiy muharrirning asosiy vazifasi tarjimonning so‘z boyligini oshirish, uning xatolarga boy so‘z qurilishini tuzatish, uslubini yaxshilash bilangina emas, balki asliyatning tarjimaga muvofiqligini tekshirishdan iboratdir. Tarjimani diqqat bilan o‘qib chiqqan tajribali muharrir uni asliyat bilan solishtirganda tarjimonning badiiy qochirim va iboralardan qay darajada o‘rinli foydalana olganligini darrov payqaydi.

Yoki gap qurilishidagi kamchiliklarini bir o‘qishda aniqlashi mumkin. Masalan, Adem Guneshning turk tilidan o‘zbek tiliga Rahmat Bobojon tarjimasi bilan nashr qilingan “O‘zingni afv et” asarini tahrirlashda muharrirlar Barno Bo‘ronova va Guli Shukurovalar tarjimani nafaqat asliyat bilan muvofiqligi va iboralardan o‘rinli foydalana olish nuqtayi nazaridan, balki tarjimada so‘z qurilishi, stilistik va semantik kamchiliklar jihatidan ham ko‘zdan kechirganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, tarjima turk tilida: “Birçoğumuz için “kendini affetmek” pek de tanıdık bir kavram değildir...” (Gün geçtikçe çocuksu heyecanımı yitiriyordum ... Ağırlaşıyordum ... Ağırlaştıkça, etrafımdaki yetişkinler bu ağırlığa isim koyuyordu; olgun olmak ...) jumlalarini tarjimon qanday bo‘lsa, shu holicha: “Ko‘pchiligimiz uchun “o‘zingni afv etish” notanish tushuncha hisoblanadi”, (Kun o‘tgani sayin bolalik hayajonimni yo‘qotayotgandim. Og‘irlashayotgandim. Og‘irlashgan sari atrofimdagi kattalar bu bosiqlikka nom qo‘yishardi: “Kamolga erishish”) deya o‘zbek tiliga o‘girgan. Muharrirlar esa bu jumlani: “O‘zimizni afv etish” ko‘pchilik uchun notanish tushuncha hisoblanadi”, (Kun o‘tgani sayin bolalik hayajonimni yo‘qotayotgandim. Xulq-atvorim o‘ziga yarasha og‘ir-vazmin edi. Atrofimdagi kattalar bu bosiqlikka “Kamolga erishadi” deya nom qo‘yishgandi) deya tahrirlagan.

Shu o‘rinda adabiy tanqidchi V.Orlovning “Adabiyot fanining ijodiy taraqqiyoti uchun” maqolasidagi quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Zukko, o‘z ishiga puxta tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lgan muharrir muallifga katta yordam berishini inkor etib bo‘lmaydi. Ammo u muallif nomi bilan nashr etiladigan asarlar uchun u bilan teng javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi va olmasligi ham kerak. Muharrir yordamchi, maslahatchi, lekin hammuallif emas”. Xuddi shunday, tarjima asarlar tahririda ham adabiy muharrir sifatsiz tarjimani qayta tarjima qilishga javobgar emas, ya’ni nashr jarayonida uning nomi tarjimon nomi bilan birga qayd qilinmaydi, balki muharrir sifatida ko‘rsatiladi. Shunday bo‘lishiga qaramasadan, tarjima asarlar matnini tahrirlashda muharrir oldiga ham bir qator talablar qo‘yiladiki, ushbu mezonlarga amal qilinishi shart.

Tarjima asarlar matnini tahrirlash, ya’ni mavjud tarjima qo‘lyozmasini takomillashtirish ikki xil bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, bu muallifning tahriri bo‘lib, tarjimonning o‘zi uning matn muharriri sifatida ishlaydi.

Ikkinchidan, bu boshqa shaxs, ya’ni muharrir tomonidan amalga oshiriladigan tayyor matnni tahrirlash. Tahrirni tarjimonning o‘zi amalga oshirishi mumkin bo‘lsa, taqrizga begona bo‘lgan muharrirni jalb qilish qanchalik zarur, degan savol tug‘iladi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, tarjimaning muharrir tekshirishi kerak bo‘lgan uchta muhim jihati bor:

1) tarjimaning asliyatga muvofiqligini tekshirish;

2) tarjimaning tarjima qilingan tilga muvofiqligini tekshirish;

3) tarjimaning maqsadli auditoriyaga muvofiqligini tekshirish.

Tarjimon o‘z ishiga muharrir bo‘lganida mana shu uch muhim jihatni amalga oshira olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, har qanday tarjimon uchun tashqi bahoni belgilovchi adabiy muharrir kerak. Tarjima asarlar matnini tahrirlashda eng muhim jihatlardan biri yuqorida ham ta’kidlab o‘tganimizdek, tarjima matnining asliyatga muvofiq kelishini leksik jihatdan qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir. Bu tahlil tarjima jarayonida yuz bergan transformatsiya va transliteratsiya hodisalarini alohida lingvistik hodisalar sifatida tasniflashga asoslanishi kerak. Demak, tarjima asarlar matnini tahrirlovchi adabiy muharrirga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri o‘zi tahlil qilayotgan asar tilini kamida tarjimon darajasida bilishidir. Shu yo‘sinda olib borilgan tahrir natijasida to‘laqonli adabiy-badiiy tarjima asar shakllanadi. Tahrirlash katta mahorat, tajriba va o‘ziga xos yondashuvlikni talab qiladi.

Tarjima asarlar matnini tahrir qilishda quyidagi tamoyillardan (algoritmdan) foydalanish o‘rinlidir:

1. Tarjima asar matni bilan tanishish, ya’ni bunda adabiy muharrir tarjimaning xususiyatlarini aniqlashi zarur: stilistik mansubligi, asar tuzilishi (kirish, asosiy qism, kulminatsiya va xulosa).

2. Tarjimaning mantiqiy tahrir sxemasini tuzish: asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatish, asar tarjimasini tahliliy baholash, agar tahrirlash jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelsa, asliyatga murojaat qilish.

3. Tarjimaning semantik tahrir sxemasini tuzish: asarning badiiy qimmatini oshirish maqsadida tarjimon tomonidan kiritilgan qo‘shimcha unsurlar: tarjima matnida qo‘llanilgan iboralar, badiiy tasvirlar va izohlarni asl nusxaning mantiqiy sxemasiga “bog‘lash”, ya’ni asar matni mazmuniga muvofiqligini baholash.

4. Tarjima matnining mantiq qonunlariga muvofiqligini tekshirish.

5. Tarjima matnida mavjud grammatik, stilistik, imlo, tinish belgilari va boshqa xatolarni tuzatish.

6. Tarjima asar matnini sayqallash.

Mazkur ilmiy yondashuvning amaldagi tatbiqini Adem Guneshning “Kendini affet” kitobi tarjimasining tahriri misolida ko‘rib chiqamiz:

Asliyat Tarjima Tahrirdan so‘ng

Halbuki, kendi ile barışık olma sürecinin ilk Adımıdır kendini affetmek... Xolbuki, o‘zing bilan kelishishning ilk qadamidir o‘zingni afv etish.

Holbuki, insonning o‘zini afv etishi ruhan ichki olami bilan murosaga kelishning ilk qadamidir.

Badiiy asarlar tarjimasida so‘zma-so‘z tarjima asliyatda ifoda etilgan ma’noni bera olmasligi mumkin. Shu bois, tarjimon uni o‘girayotgan tilining uslubi va qoidalariga moslashtirishi kerak. Bu yerda ham xuddi shu holat kuzatilgan, ya’ni tarjimon so‘zma-so‘z tarjima

qilganda o‘zbek tilida ma’no chiqmay qolgan. Tahrir jarayonida jumlaga o‘zgartirish kiritilgach, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr anglashilgan. Tahrir jarayonida imloviy xato, ya’ni “xolbuki” so‘zi “holbuki” tarzida tuzatilgan. Yoki:

Asliyat	Tarjima	Tahrirdan so‘ng
Halbuki, kendi ile barışık olma sürecinin ilk Adımıdır kendini affetmek...	*Xolbuki, o‘zing bilan kelishishning ilk qadamidir o‘zingni afv etish.*	*Holbuki, insonning o‘zini afv etishi ruhan ichki olami bilan murosaga kelishning ilk qadamidir.*

Badiiy asarlar tarjimasida so‘zma-so‘z tarjima asliyatda ifoda etilgan ma’noni bera olmasligi mumkin. Shu bois, tarjimon uni o‘girayotgan tilining uslubi va qoidalariga moslashtirishi kerak. Bu yerda ham xuddi shu holat kuzatilgan, ya’ni tarjimon so‘zma-so‘z tarjima qilganda o‘zbek tilida ma’no chiqmay qolgan. Tahrir jarayonida jumlaga o‘zgartirish kiritilgach, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr anglashilgan. Tahrir jarayonida imloviy xato, ya’ni “xolbuki” so‘zi “holbuki” tarzida tuzatilgan. Yoki:

Asliyat	Tarjima	Tahrirdan so‘ng
Kendine saygı duyamayan kişi, kendine değer veremez...	*O‘zini hurmat qilmagan odam o‘zini qadrlamaydi.*	*O‘zini hurmat qilmagan odam, shubhasiz, qadrini bilmaydi.*

Qiyoslardan ayonki, adabiy muharrir tarjimonning gapiga badiiy sayqal berib, matn jozibadorligini oshirgan. Shu bilan birga, tavtologiya, ya’ni so‘zlar takrori – “o‘zini” so‘zi bittaga qisqartirilib, tuzatilgan.

Yana boshqa bir misolda:

Asliyat	Tarjima	Tahrirdan so‘ng
İç seslerim uyandı: “Ne istersin güzelim dallardan, sana ne zararı var ...” diye söylendim kendi kendime ... “Çocuğa bakmayayım da huzursuz olmayayım bari...” dedim ama kendime engel olamadım, gözüm o tarafa kayıyordu ...	*Ichimdan “Nima xohlaysan bu go‘zal novdalardan? Senga nima zarari tegdi?” dedim o‘zim-o‘zimga. “Qizga qaramay ham, kuymay ham.” dedim, lekin o‘zimni tutib tura olmadim, ko‘zim u tarafga tushaverdi.*	*Ichimda “Nima xohlaysan, bu go‘zal novdalardan? Senga nima zarari tegdi?” dedim. “Qizning xatti-harakatini ko‘rmayin ham, kuymayin ham” qabilida ish tutib o‘zimni arang ushlab turardim, biroq negadir o‘sha tarafga qayta-qayta nazar tashlardim.*

Shu tariqa butun boshli asar tarjimasining matni mantiqiy bog‘liqlik jihatidan, shuningdek, semantik, grammatik, leksik va stilistik tomondan tahrir qilingan. Bu yerda, albatta, tajribali tarjimon bilan ishlash muharrirga bir qator qulayliklar tug‘diradi. Shu boisdan ham noshirlar keng o‘quvchilar auditoriyasiga sifatli tarjimalar yetkazib berishni maqsad qilsa, avvalo, malakali tarjimonlar xizmatidan foydalanishi zarur va asar tarjimasining mas’uliyatini to‘laqonli muharrir zimmasiga yuklamasligi kerak.

Xulosa o‘rnida, quyidagi taklif va tavsiyalarni keltiramiz:

Birinchidan, sifatli tarjimalarni ko‘paytirishda, avvalo, har bir sohaning o‘z mutaxassislari bilan ishlashni taklif etamiz. Bunda sifatsiz tarjima matnini sayqallashda butun mas’uliyat adabiy muharrir zimmasiga yuklanmasligi kerak. Buning uchun, albatta, noshirlik sohasiga bir qator moliyaviy imtiyozlar lozimki, toki noshirlar foyda olaman, deb ma’naviy zararga yo‘l ochmasliklari kerak.

Ikkinchidan, tarjimashunoslik sohasida mavjud maktablar singari noshirlik ishi yo‘nalishlari tarkibida tarjima matnlar tahriri bilan shug‘ullanuvchi tor soha doirasidagi mutaxassisliklarni shakllantirish zarur.

Uchinchidan, tarjimon va muharrir o‘rtasida uzilib qolgan aloqani tiklash va ikki sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida shu yo‘nalishlarda ish olib boruvchi oliygohlar hamkorligini yo‘lga qo‘yish. Ya’ni tarjimashunoslik mutaxassisligi mavjud bo‘lgan oliygohlar bilan jurnalistika, noshirlik sohasi mavjud bo‘lgan oliygohlar o‘rtasida tajriba almashish tizimini yo‘lga qo‘yish.

To‘rtinchidan, tarjima matnlar tahririga oid adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ilmiy tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сдобников В. В. Принципы профессионального редактирования переводов // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2018 – № 2. – С. 152–156.

2.Зверева Н. С. Роль редактирования в процессе перевода // Полилингвиальность и транскультурные практики. – 2009. – №2. – С. 115–120.

3.Вопияшина С. М., Мурдускина О. В. Обучение редактированию перевода как способ повышения качества подготовки лингвистов–переводчиков // Балтийский гуманитарный журнал. – 2016. – № 4 (17). – С. 176–179.

4.Вопияшина С. М., Мурдускина О. В. Обучение редактированию перевода как способ повышения качества подготовки лингвистов–переводчиков // Балтийский гуманитарный журнал. – 2016. – № 4 (17). – С. 176–179.

5.Щетинкова О. Г. Использование алгоритмов в процессе редактирования текста перевода // Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики. – 2015. – № 2 (12). – С. 37–42.

6.Редактирование письменных переводов: теория и практика: учеб.–метод. пособие / Е. А. Березовская, А. О. Ильнер [под общ. ред. Л. И. Корнеевой]. – Министерство науки и высшего образования Рос. Федерации, Урал. федер. Ун-т. – Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2019. – 135 с.

7.Dariusz Jan Skotarek. The Importance of the Editor in Translation// Miedzy Oryginalem a Przekladem. 2023, no. 4(62), pp. 127–144.


Jean Nitzke, Carmen Canfora, Silvia Hansen–Schirra, Dimitrios Kapnas. Decisions in projects using machine translation and post–editing – an interview study//Perspectives: Studies in Translation Theory and Practice. 2023, no. 41(62), pp. 127–148.

Adem Gunesh. O‘zingni aff et. – Toshkent: Iqro nashr, 2023. 192-bet.

Adem Güneş. Kendine affet. Istanbul: Temas yayınları – 2021. – S 240.

Орлов В.Н. За творческое развитие литературной науки// Литературная газета. 05.02.1957. № 16.

ВГО «Асоціація перекладачів України»: Матеріали Всеукраїнського щорічного науковопрактичного jimasini семінару з питань практики перекладу та підвищення конкурентоспроможності перекладацьких послуг (04 червня 2005 року, м. Київ)


ШУКУР
ХОЛМИРЗАЕВ

Nigora MUHAMMEDJANOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Amaliy ingliz tili kafedrasi katta o‘qituvchisi

MARGARET MITCHELLNING YAGONA VA MASHHUR TARIXIY ASARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Margaret Munnerlyn Mitchellning hayoti va ijodi haqida, “Shamollarda qolgan hislarim” asari haqida ma’lumot, asar qahramonlari tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: *film, urush, roman, fuqarolar urushi, tarixiy, kitobxonlar*
Аннотация: в данной статье собраны сведения о жизни и творчестве Маргарет Маннерлин Митчелл, сведения о произведении «Чувства, оставленные на ветру», анализ персонажей произведения.
Ключевые слова: *фильм, война, роман, гражданская война, исторический, читатели.*
Annotation: this article contains information about the life and work of Margaret Munnerlyn Mitchell, information about the work "Feelings Left on the Wind", analysis of the characters of the work.
Key words: *film, war, novel, civil war, historical, readers.*

Kirish. Ma’lumki, chet tilidagi badiiy adabiyotni o‘qish ijtimoiy-madaniy bilim va g‘oyalarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Badiiy saviyasi jihatidan mumtoz asar bilan solishtirishga arzimaydigan, shunga qaramay, misli ko‘rilmagan mashhurlikka erishadigan holatlar bor. Amerika adabiyotida bunday romanning namunasi M. Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” romanidir. Shu o‘rinda biz adibaning hayotiga to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik.

Margaret Munnerlyn Mitchell (talaffuzi: Margaret Manerlin Mitchell; 8-noyabr 1900-yil — 16-avgust 1949-yil) [2] amerikalik yozuvchi va jurnalist bo‘lgan. Mitchell hayoti davomida faqat “Shamollarda qolgan hislarim” nomli romanini yozgan bo‘lib, asarda AQSh fuqarolar urushi davrida sodir bo‘lgan voqealar aks ettirilgan. Bu asar ortidan Mitchell 1936-yilda „Eng mashhur roman“ nominatsiyasida National Book Awardni [3], 1937-yilda esa Pulitzer mukofotini oldi. “Shamollarda qolgan hislarim” (inglizcha: Gone with the Wind) — Amerikalik yozuvchi Margaret Mitchellning asari. Romanda 1860-yil, AQSh fuqarolar urushi davrida sodir bo‘lgan voqealar aksi yoritilgan. Asar 1936-yil 10-iyunda chop etilgan bo‘lib, amerika adabiyotining eng mashhur va bozorgir kitoblaridan biriga aylandi. 1936-yilning oxiriga kelib bir milliondan oshiq miqdorda sotildi. Shu yilning o‘zidayoq Devid Selznik ismli prodyusser 50 000 dollar evaziga Mitchelldan kitob asosida film suratga olish huquqini sotib oldi. Mazkur film 1939-yilda olingan. 1937-yilda Mitchell romani uchun “Pulitser” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Roman 1861-yildan 1873-yilgacha sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan. Amerikaning shimoliy sanoat va janubiy yer egaligiga oid shtatlari orasida fuqarolar urushi boshlanadi. Mamlakatda siyosiy va iqtisodiy ahvol shunday ediki, shimolliklar uchun quldorlikdan hech qanday foyda yo‘q edi. Shuning uchun ular qullikni bekor qilishga ahd qiladilar. Lekin janubliklar, bunday qarorga norozilik ko‘rsatib, xususiy davlat yaratishga urinadilar. Bundan keyin urush boshlanadi. Avvaliga romanning bosh qahramoni Skarlett beparvo yosh qizga o‘xshab tuyuladi. Qiz o‘ziga atalgan iltifotlarni tinglashni va qo‘shni yigit Eshli haqida o‘ylashni istaydi. Qiz urush haqida hech narsa eshitishni xohlamaydi. Eng muhimi, u qo‘shnisi Eshliga turmushga chiqishni orzu qiladi.

Skarlett go‘zal, yorqin va g‘ayrioddiy temperamentga ega qiz. Ammo qizning keyingi hayoti boshqacha kechadi. U sevgilisi Eshli bilan turmush qurmaydi, unga achchiq qilib boshqasiga turmushga chiqadi. Keyin dahshatli urush paytida qo‘lida bolasi bilan yolg‘iz qoladi, eri urushda halok bo‘ladi. Bundan tashqari, u Eshlining xotiniga ham g‘amxo‘rlik qilishi kerak; bu juda qiyin bo‘ladi. Taqdir Skarlett O‘xara uchun juda ko‘p sinovlarni tayyorlaydi, lekin aynan shu sinovlar uning xarakteri kuchli ekanini namoyish etadi va bu fazilatlar ayolga barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, hatto eng murakkab vaziyatlarda ham nafaqat o‘zi uchun, balki uni sevadigan va unga muhtoj bo‘lganlar uchun ham yo‘l topishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning metodologiyasida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil qilish, nazariy izohlash. Bundan tashqari, Maqolaning ilmiy asosini hujjatlar, mahalliy va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ma’lumotlari, ilmiy nashrlar.r tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Xuddi shu nomdagi mashhur film uchun adabiy asos bo‘lib xizmat qilgan ushbu epik to‘plam, yozuvchi va jurnalist Margaret Mitchell tomonidan nashr etilgan yagona romantik va tarixiy doston edi. Qo‘shma Shtatlardagi fuqarolar urushi haqida uchinchi shaxs nomidan hikoya qilingan ushbu kitobda biz Skarlettning shaxsiyatini, uning sevgi mojarolari va intilishlarini, quvonchlari va azob-uqubatlarini kuzatamiz. Asarda asosiy ikkita erkak siymosi bor, bular: Eshli Uilks va Rett Batler. Skarlett Eshlini sevadi, ammo Batlerga turmushga chiqadi. Asar oxirida o‘quvchi Skarlett aslida kimni sevganini tushunib yetadi.

Mitchell, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar davrida janubni himoya qilish uchun azob-uqubatlarga rozi bo‘lish yoki omon qolish kabi muammolar bilan bir syujetda, doimiy hissiy mojaroda bo‘lgan qahramonlar bilan kuchaytirilgan romantik hikoyani birlashtira olgan edi. Roman juda keng qamrovli, ammo Margaret Mitchell juda sodda yo‘l bilan zich syujet ichida qiziqarli personajlarning yaxshi to‘plamini yaratgan. Uning qahramonining zamon ijtimoiy kontekstiga moslashish jarayonlarini esa menimcha hatto jamiyatshunoslik darslarida qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin. “Shamollarda qolgan hislarim” deyarli ming sahifa davomida biz insonlar bir-birimizga bog‘lagan ko‘plab rishtalar haqida so‘zlaydi. Asar baxtiyor dunyosi yemirilib borishini kuzatuvchi janublik yosh ayolning hayoti haqida hikoya qiladi.

Asarda irqchilik va quldorlik kabi arxaik qadriyatlarga asoslangan sivilizatsiya qanday yo‘q bo‘lib ketishini, boshqa turdagi qadriyatlar ustunlik qiladigan jamiyat shakllanishini kuzatish mumkin. Bu AQSh hayotidagi paradigmalarning o‘zgarish bosqichidir, chunki endi Amerika qullar tufayli o‘sib borgan katta plantatsiyalardan tashkil topgan qishloq xo‘jaligidan chiqib, asta-sekin dunyoning sanoat mexanizmiga aylanmoqda. Bu jarayonlar erkatoy va tantiq qizni yetuk ayolga aylantirib, uni oilasi uchun javobgar va zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan ta’minlovchi qilib tarbiyalaydi.

Bosh qahramon Skarlett O‘xara uchratgan barcha erkaklarni o‘ziga maftun qila oladi. Skarlettning fikri bo‘yicha, Djonsboro shahrida yashovchi har bir yigit uni sevadi. Shubhasiz, ular qatoriga Eshli Uilks ham kiradi. Lekin kutilmaganda Eshli amakisining qizi Melani bilan unashtiriladi. Skarlett Eshli bilan ochiq gaplashib olishga qaror qiladi. U hamma narsa o‘z joyiga tushishiga ishonadi va Eshliga erga tegishni umid qiladi. Ammo Eshli o‘z va’dasining ustidan chiqishi kerakligini va nima bo‘lgan taqdirda ham Melaniga uylanishini aytadi. Tasodifan bu suhbatni Rett Batler eshitib qoladi. Birdan sarosimaga tushgan Skarlett xonadan yugurib chiqib ketadi. Ko‘p o‘tmay, Melanining akasi Charlz Gamilton, Skarlettning qo‘lini so‘raydi. Skarlett Eshlidan qasos olish maqsadida, o‘z roziligini bildiradi. Ular Eshli Uilks va Melani Gamiltonlarning to‘yligidan bir kun oldin nikoh quradilar. Urush boshlanadi. Charlz qurolli kuchlar majmuasiga xizmatga ketadi. Lekin jangda ishtirok etishga ulgurmay, janubiy lagerlarning birida qizamiq orttirib halok bo‘ladi. Skarlettda esa undan meros evaziga o‘g‘li Ueyd qoladi. Skarlett 17 yoshida bevaga aylanadi. Endi u umrining oxirigacha motam kiyib yurishiga to‘g‘ri keladi. Skarlett uchun hayoti go‘yo tugagandek edi. Oldingi o‘yin-kulgular, raqslar va beg‘amlik endi ortda qoldi. Hayotining bunday tez o‘zgarib ketishidan ruhiy ta’sirlanib, Skarlett Atlantaga yo‘l oladi. U yerda Charlining xolasi Pitti va Melani yashaydilar. Ularning uylarida turib Skarlett Eshliga yaqinroq bo‘lishni umid qiladi.

Bu tiriklik, bardosh, urushga, vayronagarchilikka yoki o‘limga qaramay oldinga siljish qo‘shig‘idir, muvaffaqiyatsizlikka qaramay taslim bo‘lmaydigan ayol siymosidagi jangovar ruhdir.

Xulosa va takliflar. Asarda janubning qadriyatlarini romantik ideallashtirishda irqchilik elementlari ham mavjud. “Shamollarda qolgan hislarim” – 80 yil oldin, “quldorlik foydasi” prizmasi asosida yozilgan edi. O‘sha paytlarda irqiy bo‘linish, ayniqsa, janubda kuchli bo‘lgan. Ammo asarda sevgi va hayot uchun kurash mavzusi juda chiroyli ochib berilgan. Roman juda sodda va deyarli fotografik tavsiflash tilida yozilgan. Uning tarixiy ahamiyati katta, chunki bu bizga o‘sha davr olami, shaharlar, uylar, janubdagi odamlar, hatto urush qiyinchiliklarini tushunishimiz uchun tayyor tarixiy qo‘llanmadir. Roman bir necha avlod kitobxonlarini o‘ziga jalb qilgan va kelajak avlodlar uchun ham davom ettiradigan ajoyib asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Margaret Mitchell . Gone with the wind. – Toshkent: “PRAVO-PRESS”, 2020.
2. Aristotle. Poetics. Morality is great. Rhetoric. – Tashkent: Generation of the new century, 2011. 3. Izzat Sultan. Literarytheory. Литературная теория. 1980. 4. H. Hamidov and chief.Dictionary of literary terms. Словарь литературоведческих терминов, 1983.
5. Stop Boboyev. Basics of literary studies. T. Основы литературоведения. – T., 2002 . 6. Sabirdinov, A. .(2021). Askar Kasimov in the uzbek poetry of the xx century the role and importance of creation. Конференции, 1(2). 7. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of ErkinVohidov. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 10, Issue : 11, November. – India, 2020.

Nodira ZIKIROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan. Kasbiy-metodik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ularda kasbiy kompentensiyalarni shakllantirish yo‘l-yo‘riqlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *motiv, motivatsiya, kompetensiya, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, innovatsion faoliyat.*

Annotation: in the article, the professional motivation of primary school teachers development as a scientific-pedagogical problem importance has been studied It summarizes the opinions of foreign and local researchers Theoretical and pedagogical development of professional motivation of primary school teachers aspects are scientifically based. The correct organization of professional-methodical activities, guidelines for the formation of professional competences are mentioned in them.

Keywords: *motive, motivation, competence, continuous professional development, self development, innovative activity.*

Аннотация: в статье исследуется значение развития профессиональной мотивации учителей начальных классов как научно-педагогической проблемы. В нем обобщены мнения зарубежных и отечественных исследователей. Теоретико-педагогические аспекты развития профессиональной мотивации учителей начальных классов научно обоснованы. В них указаны правильная организация профессионально-методической деятельности, направления формирования профессиональных компетенций.

Ключевые слова: *мотив, мотивация компетентность, постоянное профессиональное развитие саморазвитие, инновационная деятельность.*

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda.

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat e’tiborni yanada oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi [1].

Ana shunday vazifalarni oqilona bajarishning eng muhim omillaridan biri boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga asosan davlatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablariga yetkazishdir. Avvalo boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning mohiyati – inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kiradi. O‘qituvchilarining kasbiy motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

– kasbiy faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish;

– ichki manbalar: insonning tug‘ma (ma’lumotlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan) va orttirilgan (gnostik va ijtimoiy ijobiy) ehtiyojlari bilan belgilanadi;

– tashqi manbalar: shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari va jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablarga javob berishi bilan belgilanadi [2].

Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish – jamiyat va millatning ichki hayoti va idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va

jamiyat rivojlanishining asosi sifatida umuminsoniy madaniyatning asosiy negizi sifatida iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishiga kuchli ta’sir etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ularda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko‘nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyatini tarkib toptirishdan iborat bo‘lib, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirish, o‘qish va o‘qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, psixik holatlarini boshqara olishni ta’minlaydi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida refleksiv-rivojlantiruvchi texnika mashqlarini bajarish, hamkorlikda o‘qitish, maxsus pedagogik-psixologik trening mashg‘ulotlarining yo‘lga qo‘yilishi, o‘z-o‘zini baholash kabi metodlar yordamida o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiyaga doir sifatlarning rivojlantirilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Kasbiy motivatsiya pedagogik faoliyatning asosiy manbai bo‘lib, o‘qituvchining ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining shaxsi va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘quvchilar bilan ta’lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo‘lga qo‘ysa o‘qituvchining fikrlari, o‘quvchi xulq-atvori va mehnatiga berayotgan bahosi o‘quvchining o‘z yutuqlari va kamchiliklarini qanday izohlashlariga ta’sir etadi. O‘quv-tarbiya jarayonida erishilgan yutuqlarni o‘quvchining o‘zi izohlab berishi tasodif yoki omad kelishi deb bilishdan ko‘ra kuchliroq bo‘ladi. O‘quvchilarning xizmati tan olinadigan, to‘g‘ri baholanadigan ta’limiy jarayon, o‘zi yaxshi o‘qishi mumkinligi to‘g‘risida tasavvur va bilimga egallashga bo‘lgan ijobiy munosabatlarni shakllanishiga yordam berishi mumkin. O‘qituvchining shaxsiy namunasi va obro‘-e’tibori ta’lim-tarbiya jarayonida bolada qat’iy nuqtayi nazarni shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. O‘qituvchi eng avvalo o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o‘rgatishi, o‘quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o‘zini kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o‘qituvchi shaxsiy va kasbiy sifat, fazilatlarni to‘liq egallagan bo‘lishi lozim, bunday o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ko‘proq do‘stona muloqotda bo‘ladilar, o‘zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O‘qituvchi bu o‘rinda butun e’tiborini mavzu mohiyatini o‘quvchilarga singdirishga qaratib, o‘quvchilar e’tiborini kechinmalarini va o‘zlashtirish imkoniyatlarini alohida e’tiborga oladi. O‘qituvchi shaxsiga xos bo‘lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyat uchun mas’uliyat va javobgarlikni chuqur his etish o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashning eng muhim omillaridandir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta’lim sohasidagi yangiliklar, ilmiy yutuqlar, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, uzluksiz va tizimli va izchil o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi. [3].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ko‘p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta’limning yangi yo‘nalishlari o‘qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

– zamonaviy ta’limni innovatsion jarayonlarga yo‘naltirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion o‘quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o‘rtasida;

– boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasida;

– o‘qitishning an’anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta’limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o‘rtasida [4].

Yuqorida aytib o‘tilgan ziddiyatlar pedagogik faoliyatning mohiyatini – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda ta’limga qo‘yiladigan talablar o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘z ustida tinimsiz ishlash, turli voqea-hodisa yuzasidan keng fikr yurita olish,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llay olish, keng dunyoqarash, pedagogika, psixologiya va o‘zi o‘qitadigan fanni chuqur bilishini, umuman olganda kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Buning uchun esa, dunyo ilm-fanida o‘qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali ularni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha pedagog va olimlar tomonidan olg‘a surilgan ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish lozim. O‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va shu asosda uning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. O‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, bir tomondan, o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati, uning ijtimoiy roli, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan tizimsiz izlanishi prinsipi bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish:

– uzluksizlik;
– universallik;
– maqsadga muvofiqlik;
– integrativlik;
– umumiylik;
– individuallashtirish;
– o‘zaro bog‘liqlik va doimiylik;
– past darajadan yuqori darajaga o‘tishning doimiyligi;
– o‘zgaruvchanlik kabi prinsiplarga asoslanadi. [5].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatini tashkil etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratishi lozim:

– o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishish uchun puxta reja tuzib olishi kerak;
– darsturining qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘quvchilarga yangi bilimlar berishi shart;
– har bir o‘quvchini o‘z faniga qiziqtira olishi muhim;
– o‘tilayotgan har bir fanni o‘quvchi hayotida muhim rol o‘ynashini tushuntirib berish;
– dars jarayonida berilgan topshiriqlarni to‘liq bajarilishiga erishish, o‘quvchilar diqqatini chalg‘ituvchi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
– nutqiga alohida e’tibor qaratish, chunki o‘quvchi o‘qituvchining nutqiga taqlid qiladi;
– o‘z xatti-harakatlarini kuzatib o‘rganib borishi va tanqid qila olishi;
– o‘quvchilarni darsga qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash;
– o‘quvchilar oldiga talablarni bir xilda qo‘ya olish va bajarilishini xolisona nazorat qila olish;
– darsda o‘z tadbirkorligini namoyish eta olishi, muammoli vaziyatlardan o‘rinli chiqib keta olishi;
– mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan metodlarni to‘g‘ri tanlay olishi;
– o‘quvchilar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatini tashkil etishda o‘z ustida tinimsiz ishlash, kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish turli voqea-hodisa yuzasidan keng fikr yurita olish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llay olish, keng dunyoqarash, pedagogika, psixologiya va o‘zi o‘qitadigan fanni chuqur bilishini, umuman olganda kasbiy rivojlanib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2.Jumayeva.G.T. Maktab o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 3/(2022), 378-380-b.

3.Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari Zamonaviy ta’lim 2021, 4 (101).

4.Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. – T., 2007.

5. Mavlonova R.O, To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: “O‘qituvchi” 2011.

Dilafruz NAZAROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchi
Email: ndilafruz476@gmail.com

BAHROM GO'R HAQIDAGI HIKOYATNING TURLI TALQINI

Annotatsiya: maqolada Firdavsiy, Nizomiy, Nizomulmulk, Navoiy va Podshohxoja tilga olgan tarixiy-afsonaviy Bahrom Go'r timsoliga yondoshuvlar ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor Nizomiyning "Haft paykar", Nizomulmulkning "Siyar ul-muluk" (Siyosatnoma), Xojaning "Miftoh ul-adl" kabi asarlarida tilga olingan Bahrom Go'r obraziga qaratildi va har uchala ijodkor ushbu obrazdan qay tarzda foydalanganligi ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Salaflari ijodining Podshohxoja ijodiga ta'siri va ular an'anasini davom ettirgan izdosh sifatida baholandi.

Kalit so'zlar: *Bahrom Go'r, hikoyat, o'ziga xoslik, an'ana, badiiy mahorat, obraz, ijodiy ta'sir.*

Annotation: approaches to the historical-legendary image of Bahram Gor mentioned by Firdavsi, Nizami, Nizamulmulk, Navoi and Podshahkhoja were considered in the article. The main attention was paid to the image of Bahram Gor mentioned in Nizami's "Haft paykar", Nizamulmulk's "Siyar ul-muluk" (Political report), Khoja's "Miftah ul-adl", and how all three creators used this image in a scientific way. done. The impact of the work of his predecessors on the work of Podshahkhoja and the followers who continued his tradition were evaluated.

Key words: *Bahrom Gor, story, originality, tradition, artistic skill, image, creative influence.*

Аннотация: в статье рассмотрены подходы к историко-легендарному образу Бахрама Гора, упоминаемому Фирдавси, Низами, Низамулмульком, Навои и Подшахходжей. Основное внимание было уделено образу Бахрама Гора, упомянутому в «Хафт пайкаре» Низами, «Сияр уль-мулюк» (Политическое донесение) Низамулмулька, «Мифтах уль-адль» Ходжи, а также тому, как все три автора использовали этот образ в научном способ. сделанный. Оценено влияние творчества его предшественников на творчество Подшахходжи и последователей, продолжавших его традицию.

Ключевые слова: *Бахром Гор, сюжет, своеобразие, традиция, художественное мастерство, образ, творческое влияние.*

Badiiy adabiyot insoniyatni ezgulikka, komillikka yetaklaydi. Har qanday ijodkor ijodi davomida bu ulug' g'oyani o'quvchilarga yetkazishni istaydi. Har bir yozuvchi, adib o'zigacha mavjud bo'lgan an'anaviy obrazlardan foydalanadi. Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan, mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan ana shunday an'anaviy obrazlardan biri Bahrom Go'r obrazidir. Har gal bu obrazdan ijodkorlar foydalanganda yangidan-yangi qirralarini, o'ziga xos ijodiy yondashuvlarini nomayon etib boradi.

Firdavsiyning "Shohnoma"sida "Bahrom Go'rning podshohligi (60 yil davom etgan)" nomli qismida Bahrom Go'rning taxtga o'tirganidan to paymonasi to'lganligiga qadar bo'lgan voqealar birma-bir bayon etilgan . Firdavsiy dostoni 4 ming yillik Eron shohlarining tarixini yozish asnosida o'zi yashagan davr O'rta Osiyo va Xurosonda yuz berayotgan taxt talashlari aks ettirilgan. Asar tamomlangan paytda ichki nizolar bilan zaiflashgan somoniylar davlati qoraxoniylar va g'aznaviylar hujumiga dosh berolmay yemirilgan davlat edi. Sh.Shomuhamedov Firdavsiy "Shohnoma"ni kimga taqdim qilishni bilmay, 20 yilcha kutganini ko'rsatib, Mahmud G'aznaviyga taqdim etganligini aytadi. Asar orzu va umidni, oliyjanoblikni, insonparvarlikni kuylagan.

Nizomiyning "Haft paykar"ida esa Eronda Yazdigurd bir podshoh bo'lib, u zulm-zo'rligi bilan el-yurtning g'azabiga giriftorligi, yagona o'g'li Bahromning hayotiga qasd qilinishidan qo'rqib, uni Yamanga yuborishi bilan boshlanadi. So'ng Yazdigurdning vafot etgani, Bahromning taxtga chiqishi, aysh-ishratga berilishi, buni eshitgan Xitoy xoqoni Eronga hujum qilmoqchi ekanligi, Bahromning na qo'shini, na xazinasi qolgani, vaziri Rostravshanning Bahromga eldan soliq yig'ish va qo'shin to'plash haqidagi maslahati, vaziri Rostravshanga shohning katta vakolat berishi, Rostravshanning munofiqlik yo'li bilan el-yurtni talashi, Bahromning ovga chiqishi, ov vaqtida bir cho'pon itini daraxtga osib qo'yganining ustidan chiqishi, sababini so'raganida cho'pon itining bo'ri bilan topishib olib, qo'ylariga qiron keltirgani uchun jazolagani, saroyga qaytgan Bahrom vazirini qamatishi, qamoqdagilarni birma-bir so'roq qilishi, vazir xiyonatini (Xitoy xoqoni bilan til biriktirganligini) bilib olishi, xoqonning Eronga yurishni to'xtashi, Bahrom aysh-ishtardan voz kechishi, faqat bir odatdan (go'r – qulon ovlash

odatidan) voz kecholmagani va bu odat uni halokatga sudraganligi, qulon ortidan quvib, g‘orga kirib ketib, qaytib chiqmaganligi qayd etiladi . Nizomiyning “Haft paykar” asaridagi voqealar keyingi davrda yaratilgan asarlar uchun asos vazifasini bajardi. Sababi, Firdavsiy shoh Bahrom tarixini bayon etgan bo‘lsa, Nizomiy badiiy adabiyotdagi Bahrom obrazi ishtirok etgan an’anaviy syujetni yuzaga keltirdi.

Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida Bahrom tarixi, uning ovga chiqishi, Moniy bilan uchrashishi, Diloromning suratini ko‘rishi, Bahromning ishqqa mubtalo bo‘lgani, may ta’sirida Diloromni dasht-u biyobonga tashlagani, mastlikdan hushyor bo‘lganida Diloromni istashi va h.k. haqida berilib, oxirida Bahrom Go‘rning ovga otlangani va uning saltanati tugagani bilan yakunlanadi. Navoiy Nizomiy boshlab bergan syujetdan o‘z nuqtayi nazaridan turib foydalandi. Kemaning ikki uchini birdek tutgan, halokatga uchrashi aniq, ya’ni ham shohlik, ham ishq bir inson taniga sig‘maydi. U yo mukammal shoh bo‘lishi yoki ishqda sobit turishi lozimligini ko‘rsatib beradi.

Nizomulmulkning “Siyar ul-muluk” (Siyosatnoma) asarining “Amaldor, vazir va munshiylar ahvolini bilish haqida”gi to‘rtinchi fasli ikkinchi hikoyati Bahrom Go‘r va uning vaziri Rostravshan haqida. Ushbu hikoyatda Bahrom Go‘r hamma davlat ishlarini Rostravshanning qo‘liga topshirgani, unga ishongani, birov uning ustidan shikoyat qilmagani, o‘zi kecha-kunduz ov va sayr-u tomoshalar bilan mashg‘ul bo‘lganini bayon qilishdan boshlaydi .

So‘ng Bahrom vaziri aytganini qilishi, xazinaning bo‘shashi, Bahrom Go‘rga dushmanining hujum qilishi, dushmanga qarshi askarlarini yubormoqchi bo‘lganida, xazina bo‘m-bo‘sh, qo‘shin boshliqlari tarqab ketgani, Bahromning biyobon sari yo‘l olishi, bir kapa va uning eshigi oldiga osib qo‘yilgan itni ko‘rishi, Bahrom cho‘pondan sababini so‘rashi, vazir hiyonatini anglagan Bahrom uni zindonband etishi, zindonlarni ochib, bandilarni huzuriga olib kelishi, ularning har biridan nima uchun bandi etilganliklarini aniqlab, tortib olingan nimasi bo‘lsa, zulm ko‘rganlarga qaytib berishi, saroy darvozasining oldiga baland dor qurdirishi hamda unga Rostravshanni cho‘ponning itiga o‘xshatib osadi. Bahrom: “Kimda-kim podshohga xiyonat qilsa, qarshi chiqsa, xalqqa sitam qilib, omonatiga xiyonat qilsa, shohga qarshi bosh ko‘tarsa, ahvoli shunday bo‘ladi”, – deb yetti kun jar soldishi oqibatida Bahromga qasd qilgan shoh o‘z fikridan qaytib, shoh Bahromga ko‘p hadyalar yuboradi. So‘ngra Bahrom cho‘ponni chaqirtirib, unga sarpo kiygizadilar, yetti yuz qo‘y va boshqa mollardan hadya qilishi, undan olingan soliqlarni qaytarib berib, toki Bahrom tirik ekan undan xiroj olmaslikka amr qilishi bayon qilinadi. Keyin muallif Iskandarning Doroni mag‘lub etishi, Arastuning shoh Iskandarga: – Shu mamlakatda obro‘si, hurmati bor kishilarni xafa qilsang yoki mansablaridan olsang, ularga darrov boshqa amal bergin, bo‘lmasa ular dushmanlar bilan birlashib, seni yo‘q qilish yo‘liga kirishishlari mumkin, – degan fikrini; shoh Parvizning “Podshoh to‘rt toifa kishilarining gunohlarini kechirmasligi kerak...” , – degan hikmatini keltiradi. Ko‘rinib turibdiki, Nizomulmulk “Amaldor, vazir va munshiylar ahvolini bilish haqida” deb nomlangan bobiga oid bir hikoyatda bor e’tiborini shohga qaratib, podshohning qo‘l ostidagilar hol-ahvolidan xabardor bo‘lib, g‘ofil qolmaslik haqidagi fikr-mulohazalarini bildiradi hamda podshoh uyg‘oq bo‘lsa, undan hech bir narsa yashirin qolmasligini bayon etadi.

Xoja ijodida Shoh Bahrom ishtirok etgan hikoyat “Miftoh ul-adl” asarining “Hukm qilmoqning bayonin qilur” deb nomlangan 6-bobida keltiriladi. Unda “Bahrom Go‘r otlig‘ bir podshoh bor erdi. Doim ichku bila mashg‘ul bo‘lib, ishrat qilur erdi. Uning bir vaziri bor erdi. Oti Rostravshan erdi. Harnakim qilsa ul qilur erdi” bilan boshlanib, Rostravshan xalqqa zulm qila boshlagani, xazinaga mol kirmay qo‘ygani, xalq ko‘chib keta boshlagani, shaharlar xarob bo‘lgani, bir kuni bir elchi kelib, “Ey podshoh falon bek sizga yog‘iy bo‘ldi, cherik tortib kelaturur” degani, Bahrom bu so‘zni eshitib, mening qulim menga nechun dushman bo‘ladi deb hayron qolishi, xazinani ochtirishi, xazina bo‘sh ekanligini ko‘rishi, qo‘shin to‘plansin deganida qo‘shining yo‘qligi, nima qilarini bilmay, otlanib “yozig‘a” cho‘lga chiqishi, suvsagani, uzoqdan bir chodirni ko‘radi. Keyingi voqealar huddi Nizomiy, ayniqsa, Nizomulmulk asarlari singari bayon etiladi. Hikoyat oxirida “Emdi sulton yo bek bo‘lg‘on kishi vazirig‘a ishonib g‘ofil bo‘lmoq kerakmas. Va yana podshoh va bek bo‘lg‘on kishi bir navkarin bir shaharga beklikka yuborsa, yashirin va yana bir g‘arazsiz kishini ortindin yubormak kerak, adl qilurmu yo zulm qilurmu...”, – degan xulosa bilan yakunlaydi.

Har uchala asarda syujet o‘xshash, ammo ifoda turlicha. Nizomiyda Bahrom Go‘rga Xitoy xoqonining hujumi, Nizomulmulkda dushmanining hujum qilishi, Podshohxojada bir begining urush boshlagani bayon etilsa; Rostravshanning Bahromga buyrug‘i uchala asarda uch xil tarzda, “xat” mazmuni ham, xulosa ham har xil chiqariladi. Bu ijodkorlarning o‘ziga xosligidan va maqsadning turlichaligidan kelib chiqqan.

Nizomiyning “Haft paykar”i Bahrom obrazida bir tomondan oshiq, pahlavon, adolatli shohni ko‘rsak, ikkinchi tomondan aysh-ishratga berilgan xudbin hukmdorni ko‘ramiz. Nizomiy Bahrom obrazi orqali adolatli va ma’rifatparvar podsho el-yurtning osoyishtaligi, xalq farovonligining garovi ekanligini,

aksincha bo‘lsa, yurtning xonavayron bo‘lishi muqarrar ekanligini ochib beradi.

Nizomulmulkning hikoyati juda keng berilgan bo‘lib, voqealar batafsil bayon etilgan. Xojada esa hikoyat mazmuni saqlangan holda, ixcham tarzda berilgan. Nizomulmulkning asarida ushbu hikoyat “Amaldor, vazir va munshiylar ahvolini bilish haqida”gi bobida berilgan bo‘sa, Xojada “Hukm qilmoqning bayonin qilur” bobida berilgan. Nizomulmulk Bahromning dushmani hujum qilganligini, Nizomiy Xitoy xoqoni urush boshlaganini, Xoja hikoyatida Bahromning bir beki tomonidan urush ochilganligini ko‘ramiz. Yana Nizomulmulk cho‘ponga qo‘ylar berilgani, xirojdan bir umr ozod qilingani, Iskandarning Doroni mag‘lub etishi hamda shoh Parvizning “Podshoh to‘rt toifa kishilarining gunohlarini kechirmasligi kerak”, degan hikmati bilan hikoyatini tamomlab, asosiy e’tiborni xalq tepasida turgan amaldor, vazir, munshiylar ahvolini bilishga qaratgan bo‘lsa, Xoja hikoyatida esa asosiy e’tibor sulton yo bek bo‘lgan kishilarning vaziriga ishonib qolmasligini, mansab bergan amaldorlarning qay tarzda ish yuritayotganligidan xabardor bo‘lishi zarurligini, amalga ega bo‘lgan kishisining adolat bilan ish yuritish-yuritmasligidan ogoh bo‘lish lozimligini, adolat mezonini buzgan amaldorga adolatli hukm qilmoq kerakligiga qaratiladi.

Bundan tashqari Bahrom Go‘r haqidagi afsona va hikoyatlarning genezisi, bu obrazning shakllanishiga asos bo‘lgan hayotiy asoslar, Navoiy dostonidagi Bahrom obrazining badiiy tasviri masalalari filologiya fanlari doktori X.Rasulovning tadqiqotlarida , M.Narziqulovaning “Sab’ai sayyor” dostonida folklorizmlar va o‘zbek folklorida Bahrom syujetining talqini” ,– deb nomlangan nomzodlik ishida hamda Navoiy va xalq og‘zaki ijodi, “Sab’ai sayyor” va Bahrom Go‘r haqida yaratilgan dostonlarning syujeti, kompozitsion qurilishi, badiiy mahorat masalalari bir qator olimlarimiz S.Xasanov, M.Muhiddinov, M.Hamidova, N.Mallayevlar tomonidan fikr-mulohazalar bildirilgan, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Ko‘rib chiqilgan asarlardagi Bahrom Go‘r obrazidan foydalanish birinchidan, davr nuqtayi nazaridan; ikkinchidan, adiblarning asar yaratishdan ko‘zlagan maqsadi, asar mavzusi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Nizomulmulk va Podshohxoja hikoyatlarida shoh o‘z davlati va xalqining barqaror turishi uchun doim hushyor bo‘lib, atrofidagi vazir, bek, amaldorlarini har doim nazorat qilib turishi maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlab, ular tomonidan shohga xiyonat qilinsa, xiyonatning jazosi o‘lim ekanligi ta’kidlanadi. Yuqoridagi asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Yoshlarni adolatli, insonparvar, xalqparvar va oliyjanob fazilatlar egasi bo‘lishga chorlaydi hamda xushyorlikni qo‘ldan boy bermaslikka undaydi.

Foydalanilgan adaboyotlar

1. Firdavsiy. Shohnoma. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Nizomulmulk. “Siyar ul-muluk” (Siyosatnoma). – T.: Yangi asr avlodi, 2021. 304-bet.
3. Podshohxoja. Miftoh ul-adl. Д-4656 inv. raqamli qo‘lyozma.
4. Расулев Х. Пути развития эпического жанра – дастана и проблема народности в узбекский литературе. Автореф. дисс. … докт.филол.наук. – Т.: 1972.
5. Podshohxoja. “Miftoh ul-adl” va “Gulzordan”. – T.: O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
6. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 7-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
7. Narziqulova M. “Sab’ai Sayyor” dostonida folklorizmlar va o‘zbek folklorida Bahrom syujetining talqini. Diss. 2006.
8. Mallayev N. Nizomiy Ganjaviy merosi va uning ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyati. – T.: O‘qituvchi, 1985.
9. Muxiddinov M. Nurli qalblar gulshani. – T.: Fan, 2007.
10. Джабборова М. Образ Бахрома в народной книге «Киссаи Джамшид». 4thInternational Scientific Conference “Applied Sciences and technologies in the United States and Europe: common challenges and scientific findings”. 2013. 23.12. – New York, USA.

Abduxalil ATAMATOV,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA INNOVATSION FAOLIYAT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNI ANIQLASH USULLARI, MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya: ushbu maqola oliy ta’lim muassasalari talabalarining innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishni aniqlash usullari, mezonlari va ko‘rsatkichlari keltirilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishi, ayniqsa onlayn ta’lim kontekstida, ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlashni, mustaqillikni va murakkab, nostandart muammolarni hal metodikalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta’lim, tanqidiy fikrlash, texnologiya, platforma, mehnat bozori, baholash mezoni.*

Аннотация: в данной статье представлены методы, критерии и показатели определения развития навыков инновационной деятельности студентов высших учебных заведений. Также важную роль в формировании и развитии этих навыков играет самостоятельная работа студентов, особенно в условиях онлайн-обучения. Он не только помогает углубить теоретические знания, но и освещает критическое мышление, самостоятельность и методы решения сложных, нестандартных задач.

Ключевые слова: *инновационное образование, критическое мышление, технология, платформа, рынок труда, критерий оценки.*

Annotation: this article presents methods, criteria and indicators for determining the development of innovation skills among students of higher educational institutions. Students’ independent work also plays an important role in the formation and development of these skills, especially in online learning settings. It not only helps to deepen theoretical knowledge, but also illuminates critical thinking, independence and methods for solving complex, non-standard problems.

Key words: *innovative education, critical thinking, technology, platform, labor market, evaluation criterion.*

Biznes va texnologiyadagi o‘zgarishlar dinamikasi kundan-kunga tezlashib borayotgan zamonaviy dunyoda innovatsion faoliyat qobiliyati kelajakdagi menejment mutaxassislari uchun muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanadi. Ushbu dissertatsiya oliy o‘quv yurtlarida menejment yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarda innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirish usullari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Talabalarning mustaqil ishi, ayniqsa onlayn ta’lim kontekstida, ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlashni, mustaqillikni va murakkab, nostandart muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu fazilatlar innovatsion faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, mutaxassislardan moslashuvchanlik, ijodkorlik va o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish qobiliyatini talab qiladi. Qaror qabul qilish va loyihalarni boshqarish har tomonlama yondashuvni va butun rasmni ko‘rish qobiliyatini talab qiladigan boshqaruv sharoitida mustaqil ish nafaqat o‘quv vazifasi, balki kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish vositasiga aylanadi. Bu talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, Real biznes vaziyatlarini tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotning maqsadi nafaqat innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari va mezonlarini aniqlash, balki talabalarning mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishdir, bu ularning kasbiy o‘sishiga va menejment sohasida muvaffaqiyatli martaba tayyorlashga yordam beradi. Bunda, o‘quv jarayonida, ayniqsa menejment kontekstida mustaqil ishning ahamiyatini ta’kidlaydigan mavjud tadqiqotlarni tahlil qilishni o‘rganish muhimdir. Quyida argumentlashni kuchaytirish va ushbu dissertatsiya metodologiyasini ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi asosiy tadqiqotlar keltirilgan.

1. "The importance of organization and management independent education in the learning process" nomli asarida mualliflar ta’lim jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etish va boshqarishning ahamiyatini muhokama qiladilar. Ularning ta’kidlashicha, zamonaviy dunyoda raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish uchun talabalarni o‘qitish mustaqil ta’limga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil qilishda yangi yondashuvni talab qiladi. Ushbu tadqiqot menejment kontekstida an’anaviy o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi va yangi ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish uchun qimmatli ko‘rsatmalarni taklif qiladi [1].

2. "The Application of Smart Classroom Management System to Cultivate College Students’ Independent Learning Ability in Higher Education Institutions" maqolasida mualliflar aqlli sinflarning ahamiyati va qiymatini yuqori kasbiy ta’lim kontekstida ko‘rib chiqadilar. Ular talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan aqlli sinflarni boshqarish tizimini yaratishni taklif qilishadi. Ushbu tadqiqot talabalarning mustaqil ishini yaxshilash

uchun texnologik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga qanday integratsiya qilish mumkinligini ko‘rsatadi [2].

Ushbu tadqiqotlar o‘quv jarayonida mustaqil ishlashning muhimligini ta’kidlaydi va menejment sohasida samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqish uchun qimmatli tavsiyalar beradi. Ular ushbu dissertatsiya doirasida metodologiyalarni yanada tahlil qilish va ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biznes va texnologiyadagi o‘zgarishlar dinamikasi kundan-kunga tezlashib borayotgan zamonaviy dunyoda innovatsion faoliyat qobiliyati kelajakdagi menejment mutaxassislari uchun muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanadi. Ushbu dissertatsiya oliy o‘quv yurtlarida menejment yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarda innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirish usullari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Talabalarning mustaqil ishi, ayniqsa onlayn ta’lim kontekstida, ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlashni, mustaqillikni va murakkab, nostandart muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu fazilatlar innovatsion faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, mutaxassislardan moslashuvchanlik, ijodkorlik va o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish qobiliyatini talab qiladi. Qaror qabul qilish va loyihalarni boshqarish har tomonlama yondashuvni va butun rasmni ko‘rish qobiliyatini talab qiladigan boshqaruv sharoitida mustaqil ish nafaqat o‘quv vazifasi, balki kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasiga aylanadi. Bu talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, real biznes vaziyatlarini tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotning maqsadi nafaqat innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari va mezonlarini aniqlash, balki talabalarning mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishdir, bu ularning kasbiy o‘sishiga va menejment sohasida muvaffaqiyatli martaba tayyorlashga yordam beradi.

Bunda, o‘quv jarayonida, ayniqsa menejment kontekstida mustaqil ishning ahamiyatini ta’kidlaydigan mavjud tadqiqotlarni tahlil qilishni o‘rganish muhimdir. Quyida argumentatsiyani kuchaytirish va ushbu dissertatsiya metodologiyasini ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi asosiy tadqiqotlar keltirilgan[3]. Ushbu tadqiqotlar o‘quv jarayonida mustaqil ishlashning muhimligini ta’kidlaydi va menejment sohasida samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqish uchun qimmatli tavsiyalar beradi. Ular ushbu dissertatsiya doirasida metodologiyalarni yanada tahlil qilish va ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiya ta’lim landshaftini tez o‘zgartirayotgan zamonaviy dunyoda innovatsion ta’lim platformalarini yaratish va ulardan foydalanish asosiy jihatdir. Biz ishlab chiqqan platforma talabalarning boshqaruv ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan ko‘p funksiyali ta’lim tizimidir. Ushbu raqamli platforma talabalarga ta’limga interaktiv va moslashuvchan yondashuvni taqdim etish orqali ilg‘or ta’lim texnologiyalari va usullarini birlashtiradi[5].

Platforma virtual ma’ruzalar, interaktiv seminarlar, onlayn munozaralar va loyiha hamkorliklari uchun modullarni o‘z ichiga olgan turli xil vositalar bilan jihozlangan. Platformaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashish, shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim etish qobiliyatidir. Sun’iy intellekt elementlarini joriy etish o‘quvchilarning yutuqlari va afzalliklarini tahlil qilish, o‘quv mazmunini avtomatik ravishda ularning noyob ta’lim talablariga moslashtirish imkonini beradi[6].

Menejment ta’limi kontekstida platformaning maqsad va vazifalari. Ushbu platformaning asosiy maqsadi mehnat bozori va sanoatning zamonaviy talablariga javob beradigan menejment sohasida yuqori sifatli va arzon ta’limni ta’minlashdir. Platformaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Faol va mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash: platforma talabalarni o‘rganilayotgan mavzularga chuqur sho‘ng‘ish uchun turli xil manbalar va vositalarni taklif qilish orqali mustaqil o‘rganish va tadqiq qilishga undaydi.

2. Tanqidiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish: ish usullari, munozaralar va dizayn ishlari orqali platforma kelajakdagi menejment mutaxassislari uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Nazariya va amaliyotni birlashtirish: akademik bilimlarni haqiqiy biznes holatlari bilan birlashtirish talabalarga zamonaviy menejment haqiqatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

4. Fikr-mulohaza va ta’limni shaxsiylashtirishni ta’minlash: moslashuvchan algoritmlar va doimiy fikr-mulohazalar bilan platforma har bir talabaning individual rivojlanishiga yordam beradi.

5. Mehnat bozoriga tayyorgarlik: platforma ish beruvchilar tomonidan talab qilinadigan ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga e’tibor qaratadi va shu bilan bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu platformani o‘quv jarayoniga joriy etish tez o‘zgaruvchan biznes muhitida samarali ishlashga qodir bo‘lgan malakali menejment mutaxassislarini tayyorlashda muhim qadamdir.

Talabalarning mustaqil ishlarini baholash mezonlari. Talabalarning mustaqil ishlarini baholash kontekstida, ayniqsa onlayn muhitda, ishonchli va samarali mezonlarni ishlab chiqish talabalarning sa’y-harakatlari samaradorligini baholash uchun juda muhimdir. Ushbu mezonlar ko‘p o‘lchovli bo‘lishi kerak va nafaqat vazifalarni bajarish, balki tushunish chuqurligi, tushunchalarni qo‘llash, tanqidiy fikrlash

va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu mezonlar o‘quv maqsadlari va kurs natijalariga mos kelishi, talabaning faoliyatini har tomonlama baholashni ta’minlashi juda muhimdir.

O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullari onlayn ta’lim muhitida muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga o‘z-o‘zini anglash va o‘quv jarayoni uchun mas’uliyatni targ‘ib qilish orqali o‘zlarining ta’lim yo‘llari haqida fikr yuritishga imkon beradi. Ushbu usul talabalarni takomillashtirish uchun o‘zlarining kuchli tomonlari va sohalarini aniqlashga undaydi, shu bilan ularning faolligi va motivatsiyasini oshiradi. Boshqa tomondan, o‘zaro baholash talabalarning bir-birining ishini baholashda ishtirok etishini o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv nafaqat turli xil fikr-mulohazalar va nuqtayi nazarlarni taqdim etadi, balki birgalikda o‘rganish va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ikkala usul ham aks ettiruvchi va qiziqqan o‘quv hamjamiyatini rivojlantirishning ajralmas qismidir. O‘quvchilarning yutuqlarini kuzatish uchun analitik vositalardan foydalanish onlayn ta’lim muhitining yana bir muhim elementidir. Ko‘pincha ta’limni boshqarish tizimlariga (LMS) kiritilgan ushbu vositalar jalb qilish ko‘rsatkichlari, topshiriq ko‘rsatkichlari va baholash natijalari kabi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan yondashuv o‘qituvchilarga o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish, o‘quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash va individual ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun o‘quv strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bunday vositalar qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilarni erta aniqlashga yordam beradi va ularning ta’lim natijalarini yaxshilash uchun o‘z vaqtida choralar ko‘rishga yordam beradi. Umuman olganda, onlayn o‘z-o‘zini baholashni baholash aniq belgilangan mezonlarni, o‘z-o‘zini aks ettiruvchi va tengdoshlarni baholashni va analitik vositalardan strategik foydalanishni birlashtirgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Ushbu ko‘p qirrali yondashuv nafaqat o‘quvchilarning yutuqlarini samarali baholaydi, balki o‘quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi, natijada onlayn ta’lim muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husan Muratov. 2021. DOI: https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/logos/article/view/11023
2. Shuo Chen, Junyu Lin, Zhen Lan, Hang Yuan, Yuxuan Zha. 2023. DOI: https://francis-press.com/papers/11549
3. Towards the European Higher Education Area. Communique of the Meeting of European Ministers in Charge of Higher Education in Prague. – May 19th, 2001. P.1.
4. F.R. Valiyeva To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021/
5. Якиманская, И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе / И.С. Якиманская. – М.: Сентябрь, 1996.- 96с.
6. Бердников И.Г., Джалилов А.А. Качественная и количественная оценка в научно-педагогических исследованиях: Учебное пособие / И.Г.Бердников, А.А.Джалилов- Тольятти: Изд-во МГУС ПТИС. - 2000. -108 с

Shohruh ABDIRAIMOV
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi, ped.f.f.d.(PhD)

O‘QITUVCHILAR ETIKASINING TA’LIM NATIJALARIGA TA’SIRI (PISA tadqiqotlari misolida)

Annotatsiya: ta’lim natijalarini yaxshilashda, o‘quvchilarni rivojlantirishda o‘qituvchilarning ta’siri juda yuqori. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada o‘qituvchilarning o‘quvchilariga munosabati o‘qitish natijalariga qanday ta’sir qilishi PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida o‘zbekistonlik o‘quvchilarning qayd etgan natijalari asosida tadqiq qilindi. Tadqiqotda matematik-statistik tahlil metodidan foydalanildi. O‘qituvchilarning o‘quvchilariga yomon munosabatda bo‘lishi, muntazam ta’qib qilishi ta’lim natijalarini pasayishiga, aksincha, o‘quvchilari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi ta’lim natijalarini yaxshilanishiga olib kelishi aniqlandi.

Kalit so‘z: *ta’lim natijalari, o‘qituvchi etikasi, PISA, O‘zbekiston natijalari*

Annotation: the influence of teachers in improving educational results and developing students is vital. From this point of view, in this article, how the attitude of teachers to their students affects the results of teaching was analyzed according to Uzbek students results in the PISA program. Mathematical and statistical analysis method used in the study. It was found that teachers’ coarse treatment towards students and regular persecution might decrease educational results, and on the contrary, a friendly relationship with students may improve educational results.

Key word: *learning outcomes, teacher’s ethics, PISA, results of Uzbekistan*

Kirish

Ta’lim – o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari ustiga qurilgan o‘qitish va o‘rganish jarayoni. Uning maqsadi – sifatli ta’limga erishish, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarish, dunyoqarashi keng, mustaqil va kretik fikrlaydigan, kreativ avlodni tarbiyalash kabilardir. Bu – oson emas, chunki ta’lim murakkab bo‘lib, bir qator bir-birini to‘ldiradigan komponentlarga asoslangan. Bular ichida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati alohida ahamiyatga ega. Zeroki Keyt Xarrel aytganidek, “munosabatlar –hamma narsa”.[1]

Maktablardagi ta’lim samaradorligida o‘quvchilarning roli katta. Pedagoglar dars jarayonida sinfxonada do‘stona muhitni yaratishi, o‘quvchilari bilan samimiy muloqot qilishi, ularni ruhlantira olishi, savollariga birma-bir javob berishi ta’lim oluvchilarning o‘qish va o‘rganishda muvaffaqiyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Manbalar tahlili

Jahon pedagogikasi bir qator olimlar tomonidan o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatida o‘qituvchilarining rolini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar qilingan. Jumladan, Ekperi Paul [2] boshchiligida bir qator afrikalik olimlar o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga o‘qituvchilarining ta’sirini tadqiq qilishgan. Bunda o‘qituvchining sinfxonada do‘stona muhitni yaratishi, o‘quvchilariga munosabati ularining geografiya fanidan o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir qilishi aniqlangan. Shuningdek, Yasir Arafat [3] boshchiligida bir qator olimlar esa sinf boshqaruvi va o‘qituvchining mehnat odob-axloq qoidalariga amal qilishi o‘quvchilar ta’lim olish natijalariga ta’sirini tadqiq qilishgan. Bunda sinf boshqaruvi va o‘qituvchining ish etikasi o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotga ko‘ra sinfni boshqarish o‘quvchilarning ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir qiladi.


Metodologiya

Ma’lumki, xalqaro baholash tadqiqotlarini o‘quvchilarga ta’lim natijalarini aniqlash yuzasidan test topshiriqlari bajartirish bilan birga, o‘qitishga ta’sir qiluvchi omillar yuzasidan so‘rovnomalar ham to‘ldirtiriladi. Biz PISA xalqaro baholash dasturida so‘rovnoma egalarining baholashdan qayd etgan natijalarini birlashtirish orqali ilmiy gepotezalarimizni aniqlashga, tasdiqlashga urinib ko‘rdik. Ya’ni tadqiqotimizni PISA xalqaro baholash dasturida o‘zbekistonlik o‘quvchilarni qayd etgan natijalarni tahlil qilish orqali amalga oshirdik. Bunda OECD tashkiloti tomonida e’lon qilingan natijalardan O‘zbekiston natijalarini ajratib oldik. Shundan so‘ng natijalarni tadqiqot uchun tayyor holatga keltirib oldik: o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan 10 ta tekshiruvchi tomonidan baholangan natijalarni o‘rtacha qiymatini hisoblab oldik. So‘ngra, so‘rovnoma savollari tarkibidan o‘qituvchi etikasi bilan bog‘liq savollarni aniqlab oldik. Bunda maktabdagi o‘qituvchilaringiz sizga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladimi va maktabdagi o‘qituvchilaringiz sizga yomon munosabatda bo‘ladimi degan savollarga javob bergan o‘quvchilarning natijalarini tahlil qildik.

Tahlilni amalga oshirishda oldin, tadqiqotimiz uchun ikkita gepotezani belgilab oldik (1-chizmaga qarang):

– *o‘qituvchilarning o‘quvchilariga yaxshi munosabatda bo‘lishi ta’lim natijalariga ijobiy ta’sir qiladi (G1);*

– *o‘qituvchilarning o‘quvchilariga yomon munosabatda bo‘lishi ta’lim natijalariga salbiy ta’sir qiladi (G2).*




1-chizma. O‘qituvchilarning o‘quvchilariga munosabati ta’lim natijalariga qilishi

Ta’lim natijalarini yaxshilashda, o‘quvchilarni rivojlantirishda o‘qituvchilarning ta’siri yuqori ekanligini natijalarni tahlil qilish orqali aniqlaymiz.


Natijalar tahlili

So‘rovnomada ustoz va o‘quvchi munosabatini aniqlash uchun bir qator gepotezalar qo‘yilgan ekan. Avvalo, o‘quvchilardan maktabdagi o‘qituvchilaringiz sizga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladimi, degan mazmundagi savolga o‘quvchilarning bir qismi tasdiqlagan, boshqa qismi esa inkor qilgan (1-diagrammaga qarang).



1-diagramma. So‘rovnomaga tasdiq va inkor shaklda javob bergan o‘quvchilar ulushi


O‘qituvchilari do‘stona munosabatda bo‘ladigan, yaxshi ko‘rib, hurmat bilan munosabatda bo‘lgan va bunday munosabatda bo‘lmaydigan o‘quvchilarning *matematika, o‘qish savodxonlik va tabiiy fanlardan* o‘zlashtirish darajasi quyidagi diagrammada aks etgan:



2-diagramma. O‘qituvchilarning o‘quvchilariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishining ta’lim natijalariga ta’siri

Ko‘rinadiki, ustozi yaxshi munosabatda bo‘ladigan o‘quvchilarning natijasi bunday munosabatda bo‘lmaydigan o‘quvchilar natijasidan qariyb 35-40 ball yuqori. Shuningdek, SPSS dasturi yordamida Person modelidan foydalanib, o‘qituvchilarning o‘quvchilarini “kaltaklamas”dan, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi ta’lim natijalariga sezilarli ijobiy ta’sir qilishi aniqlandi. Bunda gepoteza ishonchli bo‘lib, ishonchlilik ko‘rsatkich – person modeli bo‘yicha 0.28 ga teng ekan.

Shuningdek, ushbu gepotezani tasdiqlash uchun so‘rovnomadagi navbatdagi savolga javob bergan o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilib ko‘rdik. Bunda maktabdagi o‘qituvchilaringiz sizga yomon munosabatda bo‘ladimi, degan mazmundagi savol berilgan. Ushbu savolga o‘quvchilarning bir qismi doim/ba’zan yomon munosabatda bo‘lishini tasdiqlashgan bo‘lsa, boshqa qismi esa doim/ba’zan yomon munosabatda bo‘lishini inkor qilgan.



3-diagramma. O‘qituvchilarning o‘quvchilariga yomon munosabatda bo‘lishining ta’lim natijalariga ta’siri

Ma’lum bo‘ladiki, ustozi yomon munosabatda bo‘ladigan o‘quvchilarning natijasi bunday munosabatda bo‘lmaydigan o‘quvchilar natijasidan qariyb 30-35 ball past. Shuningdek, SPSS dasturi yordamida Person modelidan foydalanib, o‘qituvchilarning o‘quvchilariga yomon munosabatda bo‘lishi ta’lim natijalariga sezilarli salbiy ta’sir qilishi aniqlandi. Bunda gepoteza ishonchli bo‘lib, ishonchlilik ko‘rsatkich – person modeli bo‘yicha 0.24 ga teng ekan.

Xulosa. Demak, tadqiqot shuni ko‘rsatmoqdaki, ustozlarning o‘quvchilariga yaxshi munosabatda bo‘lishi, hurmat qilishi, unga farzandidek aziz ekanligi singdirishi – ta’lim sifatida sezilarli ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, o‘quvchilariga yomon munosabatda bo‘lishi, ularni tinimsiz ta’qib qilishi ta’lim natijalariga sezilarli salbiy ta’sir qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, ustozlar o‘quvchilarda yomon munosabatda bo‘lmasligi, ular bilan do‘stlashishi, ularni tushunishi kerak.

Yuqoridagilar asosida, shuni tavsiya etish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagog etikasini shakllantirish, malaka oshirish kurslarida esa ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish choralarini ko‘rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harrell, K (1998). Attitude is Everything: 10 Life-Changing Steps to Turning Attitude into Action. HarperCollins: New York City, New York, United States.

2. Ekperi, P., Onwuka, U., & Nyejirime, W. (2019). Teachers’ attitude as a correlate of students’ academic performance. International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS), 3(1), 205-209.

3. Arafat, Y., & Puspita, Y. (2021, July). The Effect of Classroom Management and Teacher Work Ethics on Student Learning Outcomes. In International Conference on Education Universitas PGRI Palembang (INCoEPP 2021) (pp. 261-265). Atlantis Press.

4. Şahin, M. G., & Yıldırım, Y. (2016). PISA 2012 Türkiye örnekleminde matematiksel davranış ve matematik okuryazarlığını etkileyen değişkenlerin çok gruplu hibrit modelleme ile incelenmesi. Eğitim ve Bilim, 41(187).

5. Abdiraimov, S. (2023). O‘quvchilarni autentik yondashuv asosida baholash ahamiyati. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(20), 138-141.

6. PISA 2022 Results The State of Learning and Equity in Education. https://read.oecd-ilibrary.org/view/?ref=1235_1235421-gumq51fbgo&title=PISA-2022-Results-Volume-I

7. Yıldız Yıldırım, Melek Gülşah Şahin, Elif Sezer. PISA 2012 Türkiye Örnekleminde Okul Özelliklerinin Matematik Okuryazarlığına Etkisi. https://dergipark.org.tr/tr/pub/ilkonline/issue/30528/330244

Nigora HAYITOVA,
Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi

INGLIZ TILIDAN MURAKKABLIGIGA KO'RA DARAJALANGAN TESTLAR VA ULARNING ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqola testlar paydo bo'lishi nazariyasining qisqacha tarixi, testlarning ijtimoiy, psixologik, psixo-fiziologik, pedagogik va lingvistik asoslariga doir masalalar muhokamasini qamrab oladi. Darajalangan testlarning ingliz tilini o'qitishdagi o'rni, o'rganuvchilarning ingliz tili bo'yicha ko'nikmalarini obyektiv baholashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *test, pedagogik testlar, til testlari, test topshirig'i.*

Аннотация: в этой статье будет рассмотрен вопрос о важности тестов в обучении английскому языку и их роли в объективном контроле обучающихся иностранному языку. Статья охватывает обсуждение таких вопросов как краткая история теории возникновения тестов, их социальные, психологические, психофизиологические обоснования, и их роль в овладении английским языком как иностранным.

Ключевые слова: *тестирование, педагогические тесты, языковые тесты, тестовое задание*

Annotation: this article discusses the importance of tests in learning English and the role of tests in the monitoring of foreign language students. The article discusses issues such as a brief history of the theory of the origin of tests, their social, psychological, and psychophysiological foundations, and the role of language tests in mastering English as a foreign language.

Keywords: *testing, pedagogical tests, language tests, test assignment*

Kirish. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ham, chet ellarda ham til ta'limi muammolariga yangi yondashuvlar shakllanmoqda, uning vazifalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Mahalliy pedagogik amaliyotda, xususan, chet tilini o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Chet tilini o'zlashtirishni nazorat qilish va baholash o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazoratning asosiy maqsadi bu nutq va boshqa ko'nikmalar shakllanishining har bir bosqichida o'rganuvchilarning chet tili materiallarini o'zlashtirish darajasini obyektiv tarzda aniqlashdir. Pedagogik testlar nazoratning bir turi bo'lib, tilni o'rganganlik darajasini aniqlash, ishonchli ma'lumotlarni olish va obyektiv baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Inson qobiliyati va ularni rivojlantirish imkoniyatining miqdoriy o'lchovi sohasidagi tizimlashtirilgan eksperimental ishlar aslida XIX asrda boshlangan bo'lib, uning dastlabki bosqichlari Angliyalik olim Frensis Galtonning g'oya va tadqiqotlari bilan bog'liq. Galtonning revolyutsion yondashuvi shunda ediki, shaxsning fiziologik va psixologik xususiyatlarini baholash ilk bor ilmiy asoslangan darajaga olib chiqilgan edi. Galton insonlarning aqliy qobiliyati asosan nasliy bo'lishini ta'kidlagan. U "umumiy qobiliyat" (general ability) va "maxsus qobiliyat" (special aptitudes) tushunchalarining farqini asoslab, birinchisi insonga tabiat tomonidan berilishi, ikkinchisi esa inson tomonidan egallanadigan qobiliyat ekanligini aytgan. Uning nazariyasiga ko'ra insonning intellektual sohada yutuqlari asosan uning umumiy qobiliyatiga bog'liq va buning o'lchovi, cheklovi bor. O'z ishlarida Galton insonning qator jismoniy va psixologik xususiyatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqdi. 1884–1885yy. u barcha xohlovchilarning fiziologik, psixologik va jismoniy xususiyatlarini sinovdan o'tkazdi (sinov inson bo'yi, vazni, harflarni eslab qolish, ranglarni farqlash va boshqalarni qamrab oldi). Mazkur tadqiqotlar testdan o'tkazish usullarini ishlab chiqish sohasidagi tadqiqotlarni boshlab berdi va boshqa tadqiqotchilarga yo'llanma berdi.

Amerikada esa test sohasidagi ilk tadqiqotlar psixologiya bo'yicha dunyodagi birinchi professor, psixolog Jeyms Kettel ismi bilan bog'liq. U birinchi bo'lib "test" so'zini ilmiy termin sifatida ishlatgan va test o'lchovi imkonsiz deb hisoblangan inson psixikasi xususiyatlarini o'lchash vositasi bo'la oladi deb ishongan. 1890-yilda ilmiy jurnallarning birida Kettelning "Aqliy testlar va o'lchovlar" ("Mental Tests and Measurements") nomli maqolasi chop etildi. Olim 50 ta test ishlab chiqdi va 1891-yilda Kolumbiya universiteti laboratoriyasida ulardan intellektual rivojlanish darajasini baholashda foydalandi.

Maktab amaliyotida testlar ancha oldin ishlatilganligi haqida ma'lumotlar bor. Qator manbalarda testlar 1862-yilda Buyuk Britaniyada ilk bor ishlatilganligi haqida aytiladi. Grinvich maktabi o'qituvchisi J.Fisher o'quvchilarining bilimini tekshirish maqsadida savol-topshiriqlar va ularning javoblarini o'z ichiga olgan kitob yaratadi. Javoblar orasidan o'quvchilar to'g'ri javobni tanlashi kerak edi. Fisherning kitobi grammatika, matematika, fransuz tili, yozuv, tarix, rasm va boshqa fanlarni qamrab olgan edi. Keyinchalik testdan o'tkazish nazariyasi A.Bine, Simon, L.Termen, X.Chaylds, R.Yerks, K.Stoun, B.Bekingem, E.Torndayk, V.Shtern,

Ch.Spirmen kabi xorijiy psixologlarining ilmiy tadqiqotlarida rivojlanishda davom etdi. 1915-yildan 1930-yilgacha bo‘lgan davrda olimlar testologiya sohasida katta yutuqlarga erishadi. Psixologiya va pedagogika sohalarida test tuzish keng tarqaladi. Barcha maktab fanlari bo‘yicha muvaffaqiyat testlari tuziladi. Testologiya bo‘yicha ayniqsa Amerikada ko‘p ishlar qilinadi, masalan, E.Torndayk va L.Kellining ham nazariy ham metodik jihatdan mukammal bo‘lgan ilmiy ishlari psixologik o‘lchovlar sohasidagi eng katta ishlardan bo‘ldi.

Rossiya olimlari tomonidan ham test sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. S.G.Gellershteyn, P.P.Blonskiy, A.P.Boltunov, M.S.Bernshteyn o‘z davrining kuchli psixolog va pedagoglari test metodini o‘rganish va ulardan foydalanishga oid qator tadqiqotlar olib bordilar. Biroq 1930-yildan boshlab test sohasi rivojlanishida keskin pasayish kuzatildi va bu holat 1960-yilgacha davom etdi. 30 yillik tanaffusdan so‘ng test sohasida yana yangi tadqiqotlar paydo bo‘lishni boshladi va 1990-yildan boshlab testologiyada zamonaviy test nazariyasini yaratish bo‘yicha aniq yo‘nalish paydo bo‘ldi (V.S.Avanesov, N.F.Yefremova, Ye.A.Mixaylichev, A.N.Mayorov, M.B.Chelishkova), ommaviy testlar natijalarini statistik tahlil qilish modellarining variantlari chop etildi (V.S.Avanesov, Yu.M.Neyman, V.A.Xlebnikov, M.B.Chelishkova), qator fanlardan o‘qitish testlari yaratildi (A.I.Senognoyeva, N.F.Fedorova, V.M.Kadnevskiy), kompyuter testlari dasturlari ishlab chiqilib, amalda qo‘llanib kelinmoqda (A.G.Shmelev, V.I.Nardyujev, I.V.Nardyujev, I.D.Rudinskiy).

O‘zbekistonda ham testologiya sohasi sezilarli darajada rivojlandi. Mustaqillikning ilk yillarida Davlat test markazi (DTM) tomonidan ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan 2 variantli testlar tanishtirildi. Savollar kitobi yaratildi, biroq testlar hajmi ancha cheklangan edi. Variantlar qo‘lda tayyorlanar va bu holat bilim darajasini baholash jarayonida obyektivlik, konfidensiallikni ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘dirardi. Mamlakatimizda olib borilgan islohotlar testologiya sohasida sifatli o‘zgarishlarni talab etdi, testlar yuqori aniqlikka ega bo‘lishi, bilimni baholash obyektiv bo‘lishiga erishish maqsad etib belgilandi. Shu sabab, 1996-yilda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib test tuzish, yangi test topshiriqlarini aprobatsiyadan o‘tkazish, test bankini yaratish borasida jadal ishlar olib borildi. Kompyuterdan foydalanib, ta’limning turli yo‘nalishlari, sohalari va o‘qitiladigan tillar bo‘yicha ko‘p variantli test tizimi ishlab chiqildi va bu kompyuterlashtirilgan tizim bilim darajasini baholashning aniq, obyektiv va konfidensial bo‘lishini ta’minladi va kamchiliklarni bartaraf etdi.

Testologiya sohasidagi ikkinchi ustuvor vazifa testlar tuzish va har yili test bazasini kengaytirib borish deb belgilandi. Testlarni ishlab chiqish uchun respublikaning ko‘p yillik tajribaga ega eng yetuk pedagoglari jalb etildi, Fanlar akademiyasi va yetakchi oliy ta’lim muassasalarining tajribali kadrlari va resurslari jalb etildi. Eskpertlar bahosi olingandan so’ng testlar umumta’lim maktablari va litseylarda aprobatsiyadan o‘tkazildi, DTM tomonidan o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida nashr etilgan «Axborotnoma» va boshqa test jurnallari aprobatsiyadan o‘tkazishning samarali usuli sifatida xizmat qildi. O‘zbekistonda testologiya sohasidagi islohotlar davom etdi, natijada 2020-yil 1-dekabrdan boshlab bosqichma-bosqich bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga mos fanlar majmuasidagi umumta’lim fanlaridan bilish darajasini baholashning milliy test tizimi joriy etildi. Shuningdek, chet tilini bilish darajasini baholashning ko‘p darajali (Multi-level) formati 2022-yil 1-martdan boshlab — ingliz tili uchun, 2022-yil 1-noyabrdan boshlab — nemis, fransuz va arab tillari uchun joriy etildi.

Shunday qilib, Amerika, Yevropa, Rossiya psixolog va pedagoglari nafaqat psixologik, balki pedagogik o‘lchovlar sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Testlarni mukammallashtirish, natijalarni interpretatsiya qilish yuzasidan katta tadqiqotlar olib borildi, biroq mamlakatimizda testlar sohasida islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu masala bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati yuqori bo‘lib qolmoqda.

Testlar ancha yillar oldin psixologiya fanida inson xatti-harakati funksiyalarining o‘lchov vositasi sifatida ishlatilgan. Shu sabab “test” terminining barcha ta’riflari uning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan. Masalan, “test” termini dastlab shaxslar o‘rtasidagi farqni yoki bir shaxsning turli sharoitlardagi reaksiyasini o‘lchashda foydalanadigan psixologik sinovlarni, ya’ni maxsus ishlab chiqilgan standartlashtirilgan metodikalarni nomlashda ishlatilgan. “Test so‘zi” ingliz tilida “eksperiment”, “tekshiruv”, “sinov” ma’nolariga ega. Biroq, psixologiya va boshqa ilm sohalarida ham test terminining yagona ta’rifi mavjud emas.

Muhokama va natijalar. Rus olimlari I.A.Rappoprt, R.Selg va I.Sotter “test” tushunchasini quyidagicha izohlaydilar. ”Test” bu ma’lum bir qoidalarga asosan puxta tayyorlangan, dastlabki eksperimental aprobatsiyadan va takomillashtirish jarayonlaridan o‘tgan, yetarli samaradorlik xususiyatiga ega bo‘lgan savol va topshiriqlar jamlanmasidir. Mazkur savol va topshiriqlar o‘rganuvchilarga ularning shaxsiyatining ijtimoiy, psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida beriladi. Sinaluvchilarning javoblarini rasmiylashtirish, aksariyat ma’lumot beradigan qismlarini ajratib olish, ularning keyingi tahlili, hamda interpretatsiyasini tezlashtiradi va osonlashtiradi. Ushbu ta’rif sinov bosqichlarining ketma-ketligini (rejalashtirish, tuzish, sinovdan o‘tkazish) aks ettiradi. Shu bilan birga, u aniq ixtisoslashgan psixologik yo‘nalishga ega bo‘lib, pedagog testlar esa o‘ziga xos ta’rifga muhtoj.

E.A.Shtulmanga muvofiq pedagogik test bu barcha talabalar uchun teng sharoitda o‘tkaziladigan nazorat topshiriqlari bo‘lib, uning davomiyligi va tabiati obyektiv omillar (masalan, o‘qitishning umumiy maqsadi, talabalarning yosh xususiyatlari, o‘rganilgan materiallar tabiati)dan kelib chiqib belgilanadi. Testning natijalarini miqdoriy jihatdan baholash mumkin bo‘lib, ma’lum bir o‘qish jarayonining yakuniy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Fan sifatida chet tilining til spesifikasini hisobga olmay turib, til testiga aniq ta’rif berish imkonsiz tuyuladi. Bu muammoni hal qilish uchun olimlar test sohasida ham, chet tilini o‘qitish metodikasida ham, pedagogik testlar sohasiga tegishli bo‘lgan alohida yo‘nalish, “lingvodidaktik testlar” (language testing) yo‘nalishini kiritadilar. V.A.Kokkotaning “Lingvodidaktik testlar” kitobidagi ma’lumotga ko‘ra “lingvodidaktik test” bu uning sifat ko‘rsatkichini aniqlash maqsadida dastlabki aprobatsiyadan o‘tgan, ma’lum talablarga muvofiq tayyorlangan topshiriqlar majmuasi bo‘lib, u test topshiruvchilarning til (lingvistik) va nutq (kommunikativ) kompetensiyalari darajasini aniqlash va natijalarni avvaldan belgilangan mezonlar bo‘yicha baholash imkonini beradi.

Lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar N.Xomskiy va boshqa bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Lingvistik kompetensiya bu o‘rganilgan qoidalarga asoslanib chet tilida cheklanmagan sonda gaplarni tushunish va tuzish qobiliyati bo‘lsa, kommunikativ kompetensiya bu fonologik, leksik-grammatik, sotsiolingvistik va mamlakatshunoslik bo‘yicha bilim, hamda muloqotning turli vazifalari va vaziyatlariga muvofiq diskursiv va strategik ko‘nikmalar asosida nutq faoliyatini amalga oshirish qobiliyatidir.

“Testdan o‘tkazish” (“testing”) tushunchasining ta’rifiga keladigan bo‘lsak, mazkur termin adabiyotlarda tor ma’noda testdan foydalanish va testni o‘tkazishni anglatsa, keng ma’noda rejalashtirish, testlarni tuzish va aprobatsiyadan o‘tkazish, natijalarga ishlov berish va interpretatsiya qilish jarayonlari majmuini anglatadi.

Quyidagi jadvalda, manbalarga asoslanib, testdan o‘tkazish jarayonining davriy ketma-ketligini taqdim etamiz.

1-jadval: Testdan o‘tkazish jarayonining davriy ketma-ketligi

1-bosqich: Testni ishlab chiqish	**2-bosqich: Yakuniy test variantini ishlab chiqish**	**3-bosqich: Testdan foydalanish**
1. Testni rejalashtirish 2. Dastlabki test variantini ishlab chiqish 3. Testni aprobatsiyadan o‘tkazish	1. Dastlabki testni qayta rejalashtirish 2. Yakuniy testni tuzish va rasmiylashtirish 3. Test yo‘riqnomalarini	1. Testdan foydalanishga tayyorlanish 2. Testni o‘tkazish 3. Test natijalarini
4. Dastlabki test natijalarini qayta ishlash 5. Dastlabki test natijalarini talqin qilish. 1. Dastlabki testni qayta rejalashtirish	tayyorlash	qayta ishlash 4. Test natijalarini talqin qilish

Fikrimizcha, olingan xulosa asosida testni tahrirlash ham muhim bosqich sanaladi. Sifatli test ma’lum bir davrdan keyin yangilab turilishi lozim, chunki siyosiy, iqtisodiy, texnik va boshqa tashqi ta’sirlar ostida testlar eskirishi, test topshiruvchi kontingent o‘zgarishi mumkin.

Testning asosiy xususiyatlari bu uning ishonchli va valid bo‘lishidir. Testning ishonchliligi (reliability) – bu test natijasining aniq va barqaror bo‘lishidir, ya’ni, bir xil testni har xil kunlarda o‘tkazganda ham test natijalari bir xil bo‘lishi yoki o‘zgarmasligi kerak.

Testning validligi deganda testni qanday bilim va ko‘nikmani tekshirishni maqsad qilgan bo‘lsa aynan o‘sha bilim yoki ko‘nikmani tekshirish xususiyati tushuniladi. Masalan, o‘rganuvchilarning yozish ko‘nikmasini tekshirish maqsadida ularga “Ovqat tayyorlash yo‘llari” mavzusida insho yozish topshirig‘i berilsa, bunday testni valid test deb bo‘lmaydi, chunki bunda test topshiruvchilarning yozish ko‘nikmasi emas, balki ovqat tayyorlash borasidagi bilimini tekshirish maqsad qilingan.

Xulosa. Shunday qilib, testning boshqa nazorat turlaridan farq qiladigan o‘ziga xos jihatlari bu uning obyektivliligi, ishonchliligi, test materiallarini sifatli tayyorlashning ta’minlanishi, test natijalarini tahlil qilinishi, nazoratdan o‘tkazilayotgan obyektga aniq yo‘naltirilganligi, qulay va ixcham shaklga egaligi, vaqtni tejashi kabi xususiyatlaridir. Ya’ni test bu nazorat qilinadigan jarayonning o‘lchov vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Carroll J.B. Fundamental considerations in testing of English language proficiency of foreign students. New York, 1964. P. 50.
2. Cattell J.McK. Mental Tests and Measurements // Mind. 1890. Vol. 15. No. 15. P. 373.
3. Давыдова, В. В. Российская педагогическая энциклопедия, 430-б. [Текст]: В 2- х тт. Т.2. М., 1999
4. Heaton J.B. Classroom Testing. Harlow: Longman, 1986
5. Hughes, A. (2003). Testing for Language Teachers. 2nd Ed. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Коккота В.А. Лингводидактическое тестирование. М.: Высшая школа, 1989. С. 8.
7. Павловская И.Ю. Тестирование в учебном процессе: Экспериментальное исследование британских тестов в российском вузе // Материалы XXXII Международной филологической конференции. Вып. 28. Тестология. СПб.: Филол. ф-т СПбГУ, 2003. С. 5–13
8. Зимняя И.А. Речевая деятельность и речевое поведение в обучении иностранному языку// Сб. науч. трудов МГПИИЯ им. М.Тореза. М., 1984. № 242. С. 3–10.

Sanjarbek SHERALIYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedogogika universiteti o‘qituvchisi
Nag‘ima JIYENBAYEVA
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti o‘qituvchisi

RAQAMLASHTIRILGAN MUHITDA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu tadqiqot muhandislik grafikasini orgatishda yangi yondashuvni, ya'ni H5P vositalarini o‘z ichiga olgan Flipped Classroom (FC) faol usulini taklif qiladi. Ushbu vositalar o‘z-o‘zidan o‘rganishni samarali qo‘llab-quvvatlashi va auditoriya ichidagi faoliyatni ta'minlashi, natijada FC usulining samaradorligini oshirishi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari FC usulining talabalar bilim darajasiga ijobiy ta'sirini ko‘rsatadi. FC usulini H5P vositalari bilan integratsiyalashgan holda, tadqiqot chuqur o‘rganishga yordam beradigan va muhandislik grafikasida talabalarning faolligini oshiradigan kuchli o‘quv muhitini yaratadi.

Kalit so‘zlar: *Flipped Classroom usuli, Muhandislik Grafikasi, H5P vositalari.*

Аннотатция: в этом исследовании предлагается новый подход к обучению инженерной графике — активный метод «Перевернутый класс» (FC), включающий инструменты H5P. Было показано, что эти инструменты эффективно поддерживают самостоятельное обучение и обеспечивают занятия в аудитории, тем самым повышая эффективность метода FC. Результаты исследования показывают положительное влияние метода ФК на уровень знаний студентов. Интегрируя метод FC с инструментами H5P, исследование создает мощную среду обучения, которая способствует глубокому обучению и повышает вовлеченность студентов в инженерную графику.

Ключевые слова: *метод «перевернутого класса», инженерная графика, инструменты H5P.*

Annotation: this study proposes a new approach to teaching engineering graphics, the Flipped Classroom (FC) active method incorporating H5P tools. These tools have been shown to effectively support self-directed learning and provide classroom activities, thereby increasing the effectiveness of the FC method. The results of the study show a positive effect of the FC method on the level of students' knowledge. By integrating the FC method with H5P tools, the study creates a powerful learning environment that promotes deep learning and increases student engagement in engineering graphics.

Keywords: *Flipped Classroom method, Engineering Graphics, H5P tools.*

Kirish. Insonning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati qisman bog‘liq bo‘lgan muhandisning kasbiy tafakkurini shakllantirish universitetda o‘qishdan boshlanadi. Bo‘lajak qurilish mutaxassislari va muhandislarini tayyorlashda muhandislik grafikasini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning sababi shundaki, g‘oyalar va maqsadlarni muhandislik tilida ifodalash qobiliyati ushbu soha mutaxassislari uchun eng muhim vakolatlardan biridir. Grafik aloqa qilish qobiliyati fazoviy fikrlashni va turli xil simulyatsiya usullarini o‘zlashtirish zarurligini rivojlantiradigan boshqa texnik sohalar uchun juda muhimdir. Asosiy muhandislik chizmachilik qobiliyatlari odatda g‘oyalarni namoyish qilish uchun munozaralar paytida tez ikki o‘lchovli chizmalar yaratish uchun ishlatiladi. Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi chizma geometriya, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi va boshqa tegishli fanlarni o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq.

Faol ta'limning tez o‘sib borayotgan mashhur usullaridan biri bu Flipped Classroom. Bu usul talabalarga fan materialini mustaqil ravishda, o‘z tezligida va o‘zlari tanlagan joyda o‘zlashtirish imkonini beradi. Keyinchalik faol mashg‘ulotlar orqali ushbu bilimlarni mustahkamlash uchun auditoriya ichidagi mashg‘ulotlardan foydalaniladi.

Ushbu maqoladagi adabiyotlarni ko‘rib chiqish muhandislik grafikasini o‘qitishda talabalarni chuqurroq o‘rganishga samarali jalb etadigan faol o‘rganish usullarining yetishmasligini ko‘rsatadi. Ushbu ishning maqsadi muhandislik grafikasini o‘qitishda faol FC usulini qo‘llash samaradorligini ochib berishdir. Ushbu tadqiqotga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun quyidagi ikkita tadqiqot savoli qo‘yildi: (1) An’anaviy o‘rganish usullari bilan solishtirganda “Flipped Classroom”ning talabalarning muhandislik grafikasi bo‘yicha bilimlarini egallashiga ta’siri qanday? (2) Qaysi H5P vositalari muhandislik grafikasini o‘rgatishda “Flipped Classroom” usulini qo‘llashda talabalarning faolligini oshirish va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun mos keladi?

Motivatsiya muvaffaqiyatli ta'lim natijalariga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Muhandislik grafikasi ta'limida talabalar motivatsiyasini oshirish uchun qiziqarli o‘quv vositalarini qo‘llash muhimdir. Ta'lim muhitiga birlashtirilgan o‘yinga asoslangan elementlar bu maqsadda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ispaniya oliy ta'lim muassasasida o‘tkazilgan tajriba shuni ko‘rsatdiki, bunday elementlarning kiritilishi ishtirokchi talabalarning 87% gacha bilimlarni egallashda yaxshilanishga olib keldi. Vizualizatsiya muhandislik grafikasini samarali o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi va o‘qituvchilar o‘rganish tajribasini yaxshilash uchun turli xil vizual o‘qitish usullarini o‘rganmoqdalar. O‘quv jarayonini yanada qiziqarli qilish va tushunishni osonlashtirish uchun yoshlar orasida mashhur bo‘sh vaqt vositalari o‘quv dasturiga kiritilmoqda. Virtual haqiqat tasavvurni rivojlantirish uchun kuchli vosita sifatida tan olingan va Minecraft kabi o‘yinlardan foydalanish bu maqsadda ispan o‘qituvchilari tomonidan tavsiya etilgan. Talabalarni



turli muhandislik sohalarida texnik mutaxassis rollariga tayyorlash uchun sanoat hamkorlari bilan yaqin hamkorlik qilish juda muhim. Bunday yondashuv talabalarga nazariy bilimlarni real hayot misollarida qo‘llash imkonini beradi va qurilish kompaniyalari bilan ishlash qurilish sohasidagi bo‘lajak muhandislarga fazoviy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va qurilish loyihalari chizmalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Jismoniy obyektlarni tekshirish uchun mavjud bo‘lmagan hollarda, tushunishni osonlashtirish uchun turli xil vizual vositalardan foydalanish mumkin. Har qanday kompyuter grafik dasturidan foydalanish muhandislik grafikasini o‘qitishning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir oliy ta'lim muassasasi o‘z maqsadi va dasturning afzalliklariga qarab buni tanlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot muhandislik grafikalarini o‘rganishda Flipped Classroom yondashuvining

samaradorligini baholash, shuningdek, talabalar ushbu usulni qanday qabul qilishlarini baholashga qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim muhitini ta’minlovchi Flipped Classroom modeli o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va o‘rganish tajribasini oshiradi. Tadqiqot muhandislik grafikasi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda ushbu yondashuvning foydaliligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, H5P vositalari qiziqarli va jozibali o‘quv materiallarini ishlab chiqish uchun mos keladi. FC usulini qo‘llashda o‘qituvchilar duch keladigan vaqt cheklovlariga qaramasdan, ular innovatsion va zamonaviy o‘quv vositalarini yaratish va izlash uchun moslashuvchanlikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.E.I.Ro‘ziyev, A.O.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet https://e-library.tdpu.uz/

2.Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). Teaching perspective based on innovative technologies. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/GT8MZ

3.Karimberdiyevich, S.S. (2023). educating students the methods of central projection through information and communication technologies. Journal of Modern Educational Achievements, 4(4),14-17. https://scopusacademia.org/index.php/jmea/article/download/120/120

Xolida HAMROYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Annotatsiya: maqola mazmunida bugungi kun ta’lim tizimida dolzarb masalalardan biri bo‘lgan kommunikativ qobiliyatlarni bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida rivojlantirish masalalari bo‘yicha va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun belgilangan vazifalar, ularning tarkibiy qismlari hamda ushbu kommunikativ qobiliyatlarni amaliyotda namoyon etish jarayoni haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Bo‘lajak tarbiyachilarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik modeli bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya, kommunikativ qobiliyat, kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, rivojlanish, natija, amaliyot, pedagogik model, kuzatish, rejalashtirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish.*

Аннотация: в содержание статьи посвящено развитию коммуникативных способностей у будущих педагогов дошкольного образования, что является одной из наиболее актуальных проблем современной системы образования, а также задачам, поставленным для развития коммуникативных способностей, их компонентов и процесса проявления. Ети коммуникативные способности на практике удерживают мысли и мнения. Подчеркнуто, что педагогическая модель развития коммуникативных способностей будущих педагогов является важным инструментом развития профессиональной подготовки будущих педагогов.

Annotation: the content of the article is about the development of communicative abilities in future preschool teachers, which is one of the most pressing issues in today`s education system, and about the tasks set for the development of communicative abilities, their components, and the process of demonstrating these communicative abilities in practice. thoughts and opinions are held. It was emphasized that the pedagogical model of developing communicative abilities of future educators is an important tool for developing professional training of future educators.

Keywords: *communication, communicative ability, professional activity, professional training, development, result, practice, pedagogical model, observation, planning, self-analysis.*

Kirish (Introduction).

Jamiyat bugun o‘z tarixidagi eng chuqur va eng tez o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Respublikamizda malakali kadrlar tayyorlash va ta`limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda oliy ta’limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham maktabgacha ta’lim sohasidagi amalga oshiriladigan chuqur islohatlar haqida qator vazifalar belgilangan. Ushbu farmonning 38-39-40-maqsadlari aynan maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarga qaratilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli qonuni, Vazirlar mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli

qarori, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli qarori ham bugungi kunda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib chiqishlari uchun dasturilamal bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ko‘plab tadqiqotlarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uning o‘ziga xos jihatlari va shakllantirish usullari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. Oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashning samarali metod va vositalari A.A.Abduqodirov N.N.Azizxo‘jayeva F.R.Yuzlikayev, V.N.Bespalkoning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. O‘qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish muammolari A.I.Vorobyev, B.A.Nazarova, P.T.Magzumov, T.A.Malenko, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, O‘.Q.Tolipov, A.R.Xodjabayev, J.A.Xamidov, O.X.To‘raqulovlar va boshqa pedagog olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari G.Spenser, B.Blum, R.Mohan, H.Miyakawa, Y.Xuqin kabi olimlar ta’limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kommunikativ kompetentlik masalalari, kasbiy-metodik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida yangi atama sifatida vujudga kelgan bo‘lsa-da, qadimda ham uning ma’no-mazmuni aks etganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, zardushtiylik ta’limotida Zardushtning oliy tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida: “Noshud, yomon muallim o‘quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo‘qotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o‘zing asra” deyilgan. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o‘z asarlarida pedagogning kasbiy sifatlariga alohida urg‘u bergan. Pedagog olim o‘qituvchi-muallimning hech bir kasbga o‘xshamaydigan kasbiy faoliyatini yuksak baholab, “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin”, – deb yozgan edi [2].

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatdi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga o‘tish sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

• jamiyatda o‘zgarishlarning intensivligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atining yuqoriligi;

• ijtimoiy va kasbiy axborot oqimining uzluksiz o‘sib borishi;

• shaxs talablari hamda yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni modernizatsiyalash vazifalari;

• zamonaviy odam, mutaxassisning hayotiy faoliyati davomida turli topshiriqlarni hal etishga nisbatan fa-ollik, mustaqillik, tayyorliligiga nisbatan talab ortganligi.

Ko‘plab pedagog olimlar olib borgan tadqiqot ishlarida kommunikativ qobiliyatning tuzilishi va qanday komponentlarga ega ekanligini tavsiflab o‘tishgan. E.G.Islomgaliyev kommunikativ qobiliyat tushunchasini to‘ldirib turuvchi uchta muhim komponentini ajratib ko‘rsatadi.

1. Bilimning professionalligi.
2. Muloqotchanlik.
3. O‘z-o‘zini takomillashtirish.

Bu muhim komponentlar bir-birini to‘ldirib turadi va kommunikativ qobiliyatga erishish uchun yetakchi rol o‘ynaydi. Bundan tashqari E.G.Islomgaliyev kommunikativ qobiliyatni shakllantirishda eng muhim jihat- o‘qitish tizimining sifatli tuzilishi ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Bu jarayonda, bo‘lajak tarbiyachi va tarbiyachilarga ta’lim-tarbiya berish kasbiy darajada amalga oshirilsagina, ko‘proq muvaffaqiyatga erishish mumkinligini aytadi [2].

Adolfning fikriga ko‘ra, kommunikativ qobiliyatga mutaxassislar tayyorlashda, kasbiy kompetentlik tuzilmasini bilish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ular quyidagilar:

- kognitiv faoliyat tuzilmasi;
- kognitiv faoliyat turlariga bo‘lgan ehtiyoj va o‘ziga xoslik;
- ta’lim jarayonini rivojlantirish;
- shaxsni o‘rab turgan voqelikni ilmiy bilimlarda aks etishi;
- malakali shaxsni rivojlantirish zarurati (qobiliyat, qiziqish, moyillik va shaxsiy fazilat);

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi komponentlik

tuzilmasining tarkibiy qismlarini bir-biridan ustun qo‘ymaslik lozim. Qachonki ular talabalar kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda kompleks tarzda qo‘llanilsagina professionallikka erishish mumkin [6. 29-b].

O‘zini o‘zi tahlil qilish – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O‘zini o‘zi baholash – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishidir.

Muhim omillar:

- O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).
- Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash.
- O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi.

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi [5.39-41-b].

O‘z-o‘zini baholashda kuzatish muhim ahamiyatga ega. Bizga ma’lumki, kuzatuv jarayonining 2 turi farqlanadi: tashqi kuzatuv va ichki kuzatuv. Bo‘lajak tarbiyachilar ta’lim olish jarayonida shaxsiy xato va kamchiliklarini ichki kuzatuv asosida tahlil qilishadi. Tashqi kuzatuv – mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini tashqaridan turib, kuzatish orqali ma’lumotlar to‘plash usulidir. Tashqi kuzatuv asosida bo‘lajak tarbiyachilar ya’ni bir so‘z bilan aytganda talabalar, o‘z tengdoshlarining va ustozlarining faoliyatlarini kuzatadilar [3].

Kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini bilish, unga erishishdagi dastlabki qadamdir. Pedagogik jarayondagi berilayotgan bilimlar bir-birini to‘ldirib, uzluksiz ravishdagi tizimni hosil qiladi. Biri ikkinchisini taqozo etadi va tavsiflaydi. Kompetentlikni tarkibiy qismlarini tashkil etgan nazariy bilimlar bilan tanishish, ularni amaliyotga taqdim etish, kuzatish jarayonlarini samarali tarzda tashkil etish va faoliyatini xolisona baholab, tahlil qilish bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

M. M. Axmetjanov, Sh. Sh. Olimov, S. S. Avezovlarning “Pedagogik mahorat” nomli darsligida ham bo‘lajak mutaxassislarni kelajakda kommunikativ qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun bir qator komunikativ vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari R.Mavlonova, D.Abdurahimovalarning “Pedagogik mahorat” nomli o‘quv qo‘llanmasida ham keltirilgan mavzular mazmuni kommunikativ qobiliyatlarni namoyon qilish, bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni ochib berish uchun bir qator metod va usullardan foydalanish mumkin ekanligi yoritib o‘tilgan. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarida keltirilgan barcha mavzular bir-biriga mazmunan uzviy yoritilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilar kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda qo‘llanma sifatida foydalaniladigan bu model davriy xarakterga ega bo‘lib, doimiy ravishda takrorlanadi va bir tushuncha ikkinchisini uzviy ravishda tavsiflaydi. Kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishning asosiy sharti hisoblangan o‘qitish mahorati yoki nazariy qism talabalarning faol bilim olishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli qonuni.
2. M. M. Axmetjanov, Sh. Sh. Olimov, S. S. Avezov. “Pedagogik mahorat” o‘quv qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2018. 288-bet.
3. A. Xoliqov. “Pedagogik mahorat” darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. 82-bet.
4. B. M. Umarov. “Psixologiya” darslik. – T.: “Voris-nahriyoti” nashriyoti, 2012. 352-bet.
5. R. Mavlonova, D. Abdurahimova. “Pedagogik mahorat” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. 46-bet.
6. Mannonov J.A. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari: ped.f.f. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T., 2020. 52-bet.
7. Muslimov.N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013. 128-bet.

Nigora RUSTAMBEKOVA
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish asoslari, o‘sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish va shu kabi qator masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, pedagogik amaliyot, ijtimoiy qobiliyatlar, psixologik munosabatlar, o‘yin texnologiyalari*

Annotation: in this article, the foundations of the formation of socially active civic competences of students in extracurricular activities, the formation of the foundations of knowledge in certain fields in the growing young generation, and a number of similar issues are considered.

Key words: *competence, pedagogical practice, social skills, psychological relations, game technologies*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основы формирования социально активных гражданских компетенций обучающихся во внеклассной деятельности, формирование основ знаний по отдельным областям у подрастающего молодого поколения и ряд подобных вопросов.

Ключевые слова: *компетентность, педагогическая практика, социальные навыки, психологические отношения, игровые технологии.*

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchiga yangi talablarni keltirib chiqardi. Bu keng ko‘lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlarga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo‘lishi kerak. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo‘lgan professional o‘qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuning uchun bugungi kunda ta'limning kompetensiya paradigmasiga o‘tish dolzarblashmoqda. Bo‘lajak mutaxassisning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniq amaliy vaziyatda amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning ustuvor maqsadidir. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchining mutaxassis sifatida shakllanishida pedagogik amaliyot muhim sanaladi. Ushbu davrda talabaning tajriba to‘plashi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi, kasbiy vaziyatlarga moslashuvi ortib boradi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Ta’lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o‘quvchilarda – o‘sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma’naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot, boshlang‘ich sinflarda o‘qish kitoblariga teng keladigan soha yo‘q, deb ayta olamiz. Negaki, ulardagi namunalar alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham kuchli darajada ta’sir ko‘rsata olish imkoniga ega. Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblari o‘quvchilarning dunyoqarashi shakllanishida, ulug‘ insoniy qadriyatlarni bolalik xotiralaridayoq muhrlanishiga beqiyos xizmat qiladi.

Kichik yoshdagi o‘quvchining ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qator ichki va tashqi omillarni hisobga olish kerak. Tashqi omillarga ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi, bolaning ijtimoiy hayoti, sharoitlari va ijtimoiy muhit kiradi. Ichki omillar - bu bolaning aqliy rivojlanish xususiyatlari, uning yoshiga xos rivojlanishi va individual xususiyatlari. Agar bir qator shartlar bajarilsa, boshlang'ich maktab o‘quvchilarida ijtimoiy qobiliyatlarni samarali shakllantirish mumkin: Jamoada tegishli rivojlanish muhitini yaratish (o‘qituvchi sinfda ishonch va xayrixohlik muhitini yaratishi kerak). Kichik yoshdagi o‘quvchi o‘zini xavfsiz his qilishi, shu bilan birga bosimni his etishi kerak, o‘qituvchi o‘zining shaxsiy xususiyatlariga hurmat ko‘rsatishi kerak. Ijtimoiy moslashuvning asosiy maqsadi - bolalarga turli xil faoliyat turlari bilan shug'ullanish orqali hayotiy tajriba orttirishga yordam berish, o‘quvchilarda kundalik muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun ijtimoiy maqbul yo‘llarning mustaqilligini yetarli darajada rivojlantirish. Bolalarda ijtimoiy kompetensiya shakllanishning boshlang'ich darajasini aniqlash turli xil texnikalardan foydalangan holda amalga oshiriladi: bolaning o‘zini o‘zi qadrlashi, shaxsning ijtimoiylashuvini o‘rganish usullari, hissiyotlarni aniqlash, sotsiometriya usullari, bolalar jamoasidagi psixologik munosabatlar va undagi har bir bola mavqeini aniqlash. Kichik

yoshdagi o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini o‘quv jarayonida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda shakllantirish uchun o‘yin texnologiyalaridan foydalanish kerak. Didaktik o‘yinlarni o‘quv faoliyatiga tizimli ravishda maqsadli kiritish muayyan bilim, ko‘nikmalarni mustahkamlashga, o‘quv fanlariga qiziqishni oshirishga, faollik, e'tibor, mantiqiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin texnologiyalarining o‘quvchilar uchun ahamiyati nafaqat ularga bilim berish, balki bu bilimlardan turli faoliyatda foydalanishni o‘rgatishdir. Masalan: “Yaproq qaysi daraxtdan?” o‘yini: - taxtada daraxtlarning rasmlari (qayin, eman, chinor, tol va boshqalar); - bolalar barglarni oladi va qaysi daraxtdan ekanligini aniqlaydi. “Yo‘l topuvchi” o‘yini: - o‘quvchilar qaysi hayvonning qorda iz qoldirganligini aniqlaydilar.

Idrokni rivojlantirish uchun o‘yin “O‘zingizni qo‘ying”: – bolalarga bir nechta geometrik shakllardan tashkil topgan ob'ekt va ushbu shakllar to‘plami tasvirlangan rasm ko‘rsatiladi; ulardan bu tasvirni yotqizish kerak. Tasvirni rivojlantirish o‘yini:

– o‘quvchilarga doira naqshlari beriladi. Ularni qog'ozga aylantirib, yangi narsalarni (soat, quyosh, g'ildirak, baliq va boshqalar) oladigan tarzda chizadilar.

Fikrlashni rivojlantirish uchun o‘yin – “Kim ko‘proq? ” : – bolalar mustaqil ravishda berilgan tovush (yoki harf) uchun so‘zlarni o‘ylab topadilar.

“So‘zdan so‘z top” o‘yini: – o‘quvchilar o‘qituvchi bergan so‘zning harflaridan so‘z yasaydilar.

O‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini o‘zi qadrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘yinlar: - dars davomida ba’zi bolalar o‘qituvchi rolini o‘ynaydi, boshqalari - talabalar. Birinchisi vazifani qo‘yadi, ikkinchisi uni hal qiladi. Shunga o‘xshash o‘yinlar juftlik, guruh va jamoaviy ishlarda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy kompetensiyalar shakllanishi natijasida bolalar bir-birlariga ko‘proq e’tibor berishadi, tez-tez yordam berishni boshlaydilar, turli muammolarni hal qilishda, munosabatlarda bag‘rikenglik kuzatiladi, haqoratli so‘zlar va iboralar kundalik hayotni tark eta boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ульяницкая Т.В. У 51 Ориентация будущего учителя начальных классов [монография] / Казань: Издательство «Отечество», 2012. - 138 с. 2. Tojiboyeva G.R., Pulatova D.T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804, 20-215

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o„rta ta‟limning Davlat Ta‟lim Standarti. 4. И.В. Наумов. Социальная практика: «Формирование социальных компетенций у детей младшего школьного возраста средствами авторской сказкотерапии». Москва, 2018, 27 стр.

5. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi http://www.genderi.org/tasdiqlandi.html?page=65 6. O‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini dars va darsdan tashqari ma’naviy va ma’rifiy ishlar jarayonida rivojlantirish texnologiyasi | Ustozlar uchun https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/view/2945

Gulbahor XOLMIRZAYEVA,
ADPI maktabgacha ta’lim nazariyasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING PEDAGOGIK TAFAKKUR TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida talabalarning pedagogik tafakkur tamoyillari o‘rganilgan. Pedagogik tafakkur bo‘lajak tarbiyachining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi omili ekanligi, ularni nazariy, pedagogik tafakkurini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash muhimligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik tafakkur, pedagogik voqelik, kasbiy faoliyat, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy rivojlanish, tamoyil, reproduktiv faoliyat.*

Аннотация: в данной статье исследуются принципы педагогического мышления учащихся в процессе обучения в высших учебных заведениях. Показано, что педагогическое мышление является фактором профессионального и личностного развития будущего воспитателя, что важно поддерживать развитие его теоретического, педагогического мышления.

Ключевые слова: *педагогическое мышление, педагогическая реальность, профессиональная деятельность, будущий воспитатель, профессиональное развитие, принцип, репродуктивная деятельность.*

Annotation: this article explores the principles of pedagogical thinking of students in the educational process of higher education institutions. It is shown that pedagogical thinking is a factor in the professional and personal development of the future educator, it is important to support them in the development of theoretical, pedagogical thinking.

Keywords: pedagogical thinking, pedagogical reality, professional activity, future educator, professional development, principle, reproductive activity.

Kirish.

Tarbiyachining kasbiy faoliyatida nazariy va pedagogik tafakkurning ma’nolarini ochib beradigan va hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadigan nazariy qoidalarni o‘rganish, shuningdek, shu asosda bo‘lajak tarbiyachida ushbu sifatni rivojlantirishning pedagogik konsepsiyasini qurish maqsadi: bizni qiziqtirgan muammoni hal qilish nuqtayi nazaridan pedagogika universiteti talabalarini kasbiy tayyorlashning hozirgi amaliyotining xususiyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

O‘quvchilarning nazariy va pedagogik tafakkurining rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar shunchalik ko‘p bo‘ladi. Ushbu jarayon talabaning kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji va uning cheklangan reproduktiv faoliyat usullari o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan bog‘liq bo‘lib, bu ehtiyojni to‘liq qondirishga to‘sqinlik qiladi.

Ushbu qonuniyat nazariy va pedagogik tafakkurni tarbiyachining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi omili sifatida tushunishni aks ettiradi. Tarbiyachining kasbiy sifati sifatida ajralib turadigan nazariy va pedagogik tafakkur shaxsning ekzistensial muammolarini tushunish va hal qilish uchun makon va ayni paytda vositadir. Shu bilan birga pedagogik voqelikni anglashning kundalik hayotidan nazariy darajasiga o‘tish talabaning shaxsiy rivojlanishining yangi sifat darajasini ko‘rsatadi, u «kasbiy faoliyat jarayonida sodir bo‘ladigan har bir narsaning yuqori shaxsiy ma’nosini ko‘ra boshlaydi. Kechinmalari va hayotiy voqealarni shaxsiy hayot faktlari sifatida anglaydi” [1;199].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Kelajakdagi tarbiyachining shaxsiy va kasbiy rivojlanishining birligi prinsipida amalga oshiriladi, ya’ni shaxsning ma’naviy munosabatlarini, uning qadriyat yo‘nalishlarini, «semantik sohani» (B. S. Bratus) rivojlantirish talabalarni ma’lum miqdordagi bilim va ko‘nikmalar bilan «qurollantirish» bilan taqqoslaganda ustuvor ahamiyatga ega.

Ko‘rsatilgan tamoyilga rioya qilish, bir tomondan, pedagogik fanlarni aksiologik va gumanistik mazmun bilan to‘ldirishga, o‘quvchiga qadriyatlar munosabatlarining mohiyatini tushunishga, shaxsiy, kasbiy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida harakat qilishiga, ustuvorliklarni belgilashga yordam beradi.

Boshqa tomondan, u nazariy bilimlarning nisbiy qiymatiga e’tiborni qaratadi, uning yig‘indisi, miqdori, hajmi nuqtayi nazaridan emas, balki tushunish, mulohaza yuritish va tushunishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida qaraladi, undan keyin oqilona, sifatli, nazariy asosli va pedagogik qarorlarni o‘ylashda shaxsan qatnashadi.

Talabaning nazariy va pedagogik tafakkurning tashuvchisi sifatida faolligi o‘zini namoyon qilish zarurati bilan bog‘liq, bir tomondan uning fikrlari, g‘oyalari taqdimoti, pedagogik voqelikni tushunish va ko‘rish, ularni amalda qo‘llash imkoniyati sifatida, pedagogik faoliyatning yangi namunalarini yaratish jarayonida muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoni asosan reja bo‘yicha xarakterga ega bo‘lib, monologik ta’lim shakllarining ustunligi bilan o‘sib boradi, talabalarning o‘zini namoyon qilishiga biroz hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Afsuski, Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish jarayoni shunday qurilganki, «kasbiy va qiymat ma’lumotlarini o‘zlashtirish va uni qo‘llash o‘rtasida katta vaqt oralig‘i mavjud».[2;65] Bundan tashqari, S. V. Kulnevichning ta’kidlashicha, kelajakdagi tarbiyachilar o‘zlashtirishda davom etayotgan pedagogik nazariya «ta’lim tamoyillari va usullari to‘g‘risida yopiq bilim» sifatida tushunilishda davom etmoqda [3;21]. Natijada, amalda talaba stereotipik tarzda, an’anaviy ravishda, o‘z faoliyatida e’lon qilingan g‘oyalarni amalga oshirmasdan va ular bilan pedagogik faoliyatning qo‘llaniladigan usullarini o‘zaro bog‘lamasdan harakat qila boshlaydi. Shu tarzda yuzaga keladigan qarama-qarshilikdan bir andoza kelib chiqadi: talabaning ijodiy va shaxsiy salohiyati qanchalik talabga ega bo‘lsa, unga amaliy faoliyatda o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun qanchalik ko‘p imkoniyatlar berilsa, olingan ma’lumotlarni mustaqil ravishda tushunishga bo‘lgan qiziqishi shunchalik yuqori bo‘ladi. U nazariy va pedagogik tafakkurni qo‘llash uchun ko‘proq imkoniyatlarni topadi.

Ushbu tamoyil fikrlash va amaliy faoliyatning birligi prinsipida o‘z ifodasini topadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish, birinchi navbatda, talabaning hayotiy tajribasiga bo‘lgan talabga, shuningdek, unga turli xil loyihalar, modellar, tushunchalarda o‘z g‘oyalarini «aniqlash» imkoniyatini berishga e’tibor beradi. Bizning fikrimizning tasdig‘ini V.A.Suxomlinskiy «Bilimlarni qo‘llash aqliy mehnat uslubi, yangi materiallarni o‘qitishning mohiyati bo‘lishi kerak» deb ta’kidlagan [4;381].

Talabaning o‘zini o‘zi ifoda etishga bo‘lgan ehtiyoji



va pedagogik bilimlarning «yopiqligi» o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ochib beradigan oldingi qarama-qarshilikning boshqa tomoni ham bor – taqdim etilgan ma’lumotlarning biryoqlamaligi, torligi va yomon ma’nosi o‘z taqdirini o‘zi belgilashni amalga oshirishni cheklaydi. Bo‘lajak tarbiyachi, ularni tanqidiy baholash



va keyinchalik qabul qilish yoki qabul qilmaslik uchun qarashlar, g‘oyalar, nazariyalarni tanlash imkoniyatini bermaydi. Shu bilan birga, axborotning nomuvofiqligi va muammoliligi kabi xususiyatlari – nazariy va pedagogik tafakkurni rivojlantirish uchun zarur omillar – o‘z mazmunini butunlay yo‘qotadi. Bu yondashuv nafaqat o‘z hissasini qo‘shmaydi, balki nazariy va pedagogik fikrlash ishini butunlay «to‘sib qo‘yadi», chunki ikkinchisi ichki va tashqi erkinlikni, keng semantik maydonni, «nomuvofiqlik nuqtalarini» talab qiladi. Bu qarama-qarshilik quyidagicha ifodalanadi: tushunilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar qanchalik boy, ko‘p qirrali, kengroq, muammoli bo‘lsa, o‘z fikrini, o‘z g‘oyalarini ishlab chiqish va ularni o‘z kelajak konsepsiyasiga kiritish zarurati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ushbu tamoyilni hisobga olish kelajakdagi tarbiyachiga taklif qilingan g‘oyalar, tushunchalar, nazariyalarni tanlashda komplementarlik (qo‘shimcha) tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tamoyil zamonaviy falsafaning «har qanday hodisani, shu jumladan, pedagogik hodisalarni yagona dunyoqarash bazasi asosida bir nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga urinishlarning nomuvofiqligini» tushuntirib beradigan qoidalariga qaytadi [5;68].

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak tarbiyachini turli xil qarashlar, yondashuvlar, nazariyalar, ularni taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish, tushunish va qabul qilish, ularning semantik birligi va farqini, semantik xilma-xilligini aniqlash asosida pedagogik g‘oyalarni erkin tanlashga imkon beradi; pedagogik faoliyatning o‘z ma’nolarini izlashni rag‘batlantirish; o‘z g‘oyalarini rivojlantirishga, ularni boyitishga, aniq tarkib bilan to‘ldirishga hissa qo‘shadi.

Ushbu tamoyilni tushunish «qiymat ma’lumotlari» fenomeniga, ya’ni muallifning tasvirlangan hodisalarga munosabatini ifodalovchi fikrlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular oqimiga ega bo‘lgan tarkibga murojaat qilishga imkon beradi . Unga amal qilmasdan, o‘quvchi va muallif o‘rtasidagi dialog mumkin emas, uning davomida yangi g‘oyalar va qarashlar tug‘iladi, hayotiy va pedagogik hodisalarga qiymat munosabati paydo bo‘ladi. Talabaning nazariy va pedagogik tafakkurini uyg‘otadigan qiymat ma’lumotlarining tashuvchilari asosiy manbalar – monografiyalar, maqolalar bo‘lib, ularning o‘qish ma’nosi matnda «his qilish» sifatida tushunish, g‘oyalarni o‘z ma’nolari bilan to‘ldirish sifatida tushunish, o‘qiganlari haqida o‘zlari bilan muloqot sifatida aks ettirishdir.

Xulosa. Bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy va pedagogik tafakkurini rivojlantirishni pedagogik qo‘llab-quvvatlash haqida biz ta’kidlagan nazariy qoidalar pedagogika oliy o‘quv yurtida talabalarni kasbiy tayyorlashning hozirgi amaliyotida ushbu muammoni hal qilish holatini o‘rganishni talab qiladi.

Binobarin, tarbiyachilarning ijodiy faoliyatini faollashtirish orqali nazariy va pedagogik tafakkurni rivojlantirishni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, birinchi navbatda, erkinlikni, faoliyat shakllaridan mustaqillikni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gilmanov S.A. Tvorcheskaya individualnost pedagoga // Narodnoe obrazoavanie. 1999. № 1-2. 199-b.
2. Nikitina N.N. Razvitie sennostnogo soznaniya uchitelya // Pedagogika. 2000. № 6. 65-b.
3. Kulnevich S.V.O nauchno-pedagogicheskoy gramotnosti Pedagogika. 2000. № 6. 21-b.
4. Suxomlinskiy V.A. Izbr. ped. sochineniya. – M., 1979. 381-b.
5. Nikitina N.N. Razvitie sennostnogo soznaniya uchitelya // Pedagogika. 2000. №6. 68-b.

To‘xtaxon AKRAMOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahar
9-maktabning ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA O‘YIN-TOPSHIRIQLARNING O‘RNI

Annotatsiya: maqolada tavsiya etilgan ijodiy o‘yin-topshiriqlar oldin egallangan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo‘llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o‘quvchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi. Zero, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish ona tili ta’limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *ona tili ta’limi, o‘yin-topshiriqlar, pedagogik mahorat, o‘quvchi, o‘qituvchi.*

Аннотация: предлагаемые в статье творческие игры-задания подразумевают применение ранее приобретенных знаний в совершенно новой обстановке. Очевидно, что этот процесс требует от ученика творчества, любознательности. Ведь воспитание и воспитание творческой и самостоятельной мыслящей личности важнейшая и актуальная задача, стоящая перед предметом о родном языке.

Ключевые слова: *одной язык, игра-задания, педагогическое мастерство, ученик, учитель.*

Annotation: the creative task games proposed in the article imply the application of previously acquired knowledge in a completely new environment. Obviously, this process requires creativity and curiosity from the student. After all, the upbringing and upbringing of a creative and independent thinking person is the most important and urgent task facing the subject of the native language.

Keywords: *native language, game tasks, pedagogical skills, student, teacher.*

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod qalbi, kamolotining me’mori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. [2.11]

Pedagog so‘ziga tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi singari izohlar berilgan. Zamonaviy pedagog jahon standartlariga mos dars berishi darkor. Bugungi kun talabi ham shudir. O‘z kasbini va fanini hurmat qiladigan ustoz pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “Pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarini, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:

– o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;
– o‘z fanining o‘qitish metodikasini mukammal bilish;
– pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
– pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi. [2.15]

Ona tili darslarida ijodiy o‘yin-topshiriqlarni tavsiya qilish maqsadidamiz. Ijodiy o‘yin-topshiriqlar oldin egallangan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo‘llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o‘quvchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi. O‘yin-topshiriqni bajarishda o‘quvchi faqat o‘zida mavjud ichki imkoniyatlarga tayanadi, xolos. Biz ona tilidan tashkil etiladigan o‘yin-topshiriqlarni qay maqsadga yo‘naltirilganligiga qarab:

1) lisoniy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga qaratilgan o‘yinlar;

2) o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar kabi ikkita guruhga ajratdik. [3.111]

Maktabda “ona tili”ni o‘quv fani sifatida o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugun maktab partasida o‘tirgan yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so‘zlasha olishga qay darajada tayyorlashganiga bog‘liq.

So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini o‘rganish usullari mavzusini o‘rganish jarayonini tahlil qilib ko‘ramiz. Topshiriq: quyidagi gaplarni o‘qing. O‘z va ko‘chma ma’noda kelgan so‘zlarni ajrating.

Me’mornikida bir yorqin yulduz o‘syapti.
U yulduz –Badia
(Mirmuhsin)
Havo ochiq. Yulduzlar yorqin nur sochadi.
(Mirmuhsin)
Hovlimizda bir gul bor,
Uning ismi-Zulxumor
Har o‘zbekning hovlisini
Gilam kabi gul bezar

(A.Suyun)

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi gul, yulduz so‘zlarining ma’nolarini aniqlang.

Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi yulduz, gul so‘zlari qiz, farzand ma’nosini beradigan ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. 2-ustundagi mazkur so‘zlar esa o‘z ma’nosida qo‘llangan.

Demak, bir xil shakldagi so‘zlar ikkinchi tur ma’noda ham qo‘llaniladi va mazkur holatni so‘zning ko‘chma ma’nosi deb yuritiladi.

2-topshiriq. Gapdagi gul va yulduz so‘zlarining uyadoshlarini toping.

Namuna: gul atirgul, chinnigul, gulsafsar, bo‘tako‘z; gul – qiz, farzand, ona, ayol, singil; yulduz – sayyora, yer, Oy, Quyosh, Mars, Yupiter, Neptun; yulduz – qiz, go‘zal qiz, tarbiyali, aqlli, ilmli qiz...

Bu kabi o‘yin-topshiriqlar o‘quvchilardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, so‘z boyligini oshirish va boyitishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. [1.68]

O‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda zid ma’noli so‘zlar ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Nutqni zid ma’noli so‘zlar bilan boyitishda xalq maqollarining o‘ziga xos o‘rni, vazifasi bor. Masalan: “Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat”, “Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib”, “Yaxshilardan hargiz chiqmas yomonlik, asli yomon bo‘lsa, kutma omonlik”, “Yomonga bosh bo‘lguncha, yaxshiga yo‘ldosh bo‘l”, “Yomondan qoch, yaxshiga quloch och” kabi maqollar ma’nosini sharhlash, muayyan bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardandir. [1.76]

“Mazmunan qarindosh, shaklan begona” o‘yini. Bu o‘yinni tashkil etishda ham sinf o‘quvchilari guruhlarga ajratiladi. O‘yinni boshlagan qator (guruh) muayyan mavzuda gaplar tuzishadi, ikkinchi qator mazmunni saqlagan holda so‘zlarni ma’nodoshlar bilan almashtirish orqali gap shaklini o‘zgartirishadi. Keyin o‘yinda vazifalar almashtiriladi. O‘qituvchi har bir shakli o‘zgartirilgan gap uchun ball qo‘yib boradi va o‘yin oxirida eng ko‘p ball olgan guruh g‘olib sanaladi.

“Egizaklar” o‘yinida o‘quvchilarga so‘zlar tarkibida qo‘sh undoshlar kelishini izohlagach, ularni egizaklarga o‘xshatish mumkinmi, deyiladi. Bolalar uchun bu esda qoladigan o‘yin bo‘la oladi. Agar bir xil (mm, ll, ss) undosh bo‘lsa, Hasan-Husan, ikki xil undosh qo‘sh kelsa, (nch, st, nd) Hasan-Zuhra kabi obrazli o‘xshatishlar aytilsa, o‘quvchilar darrov shunday so‘zlarni izlashadi, o‘yin qiziqarli bo‘ladi.

Namuna: Hamma, ammo, pilla, tilla, issiq, hissa.

Ganch, do‘st, juft, qand, vaqt, baxt, taxt. [3.113]

“Bir so‘zdan ikki ism” o‘yini. Sinf o‘quvchilari uch guruhga ajratiladi va ularga gulning nomlari, mehnat qurollari hamda hayvonlarning nomlarini yozish va shular atab qo‘yilgan kishi ismlarini yozish topshiriladi. O‘quvchilar yozadilar:

1. rayhon-Rayhon
chinnigul-Chinnigul
lola-Lola
nilufar-Nilufar

2. bolta-Boltaboy,
o‘roq-O‘roqboy,
tesha-Teshaboy,

3.bo‘ri-Bo‘riboy,
qo‘zi-Qo‘ziboy,
olmaxon-Olmaxon
tulki-Tulkiboy

Shu so‘zlarning qaysi biri bosh harf bilan va qaysi biri kichik harf bilan yozilishiga e’tibor berib, uni to‘g‘ri yozgan o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi g‘olib bo‘ladi. [3.194]

Xulosa qilib aytganda, mahoratli pedagog darsni samarali tashkil etishda o‘z fanining nazariy tomonlarini mukammal bilish bilan birga o‘qitish metodikasini ham puxta egallashi kerak. O‘qituvchi faoliyati jarayonida pedagogik qobiliyat hamda texnikasini namoyon qila olishi darkor. O‘yin topshiriqlari orqali darsni yanada qiziqarli tashkillashtirish, yangi mavzuni yuqori darajada o‘zlashtirishga hamda ijodkorlikni tarbiyalashda yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xliyev B. va boshq. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. 192-b.
2. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2011. 420-b.
3. G‘ulomov A. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent, 2012. 380-b.

Madina ALIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

TIL O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: til o‘rgatish mashg‘ulotlarida o‘zbek tilini, ona tilimizni o‘qitishga qaratilgan ishlar samaradorligini kuchaytirishda ta’lim metodlaridan foydalanish o‘rganuvchilarning bilimlari mustahkam bo‘lishiga, o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: *ona tili, o‘zbek tili, xorijiy til, til o‘qitish, pedagogika, metod, ta’lim.*

Аннотация: использование образовательных методов для повышения эффективности работы по обучению узбекскому языку, родному языку на языковых занятиях учит учащихся быть уверенными в своих знаниях, работать над собой.

Ключевые слова: *родной язык, узбекский язык, иностранный язык, преподавание языка, педагогика, методика, образование.*

Annotation: the use of educational methods to improve the effectiveness of teaching the Uzbek language, the native language in language classes teaches students to be confident in their knowledge, to work on themselves.

Key words: *native language, Uzbek language, foreign language, language teaching, Pedagogy, methodology, education.*

Keyingi yillarda mamlakatimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar bo‘lmoqda. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘si bilan birga uni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj oshmoqda. Tilni o‘qitish masalasi dunyo hamda mahalliy miqyosda dolzarb masalalardandir.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish maqsadida 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmonida mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kurslarini zaruriy ilmiy, o‘quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash, o‘zbek tilini o‘rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish belgilangan. Tillarni o‘qitishda tilni chet tili sifatida va ona tili sifatida o‘qitish metodikasi farqli bo‘lib, ona tili an’anaviy lingvistik tamoyilda, chet tili va ikkinchi til ta’limi esa til ko‘nikmalarini egallashga qaratiladi va kommunikativ tamoyil asosida o‘qitiladi. Bunda o‘quv dasturlari va darsliklari mazmuni nutq mavzulari asosida bo‘limlarga ajratiladi va til o‘rganuvchilari shu mavzu doirasida og‘zaki va yozma muloqot yuritishga o‘rgatish maqsad qilib qo‘yiladi. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichi o‘quv dasturlarida milliy maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishga nisbatan ona tili atamasi, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda esa o‘zbek tili atamasi qo‘llana boshlandi. Shunga mos holda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun chop etilayotgan darsliklar ham “O‘zbek tili” deb, o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitish “davlat tili ta’limi” deb nomlanmoqda. [3.12]

O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda asosiy maqsad o‘zbek tilida so‘zlashishga o‘rgatish, til o‘rganuvchida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil bayon eta olish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilishi, O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillari o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lishlari, barcha sohalrda erkin fikr almashishlari uchun o‘zbek tili ta’limi xalqaro standart talablariga javob berishi, ularning turli nutqiy vaziyatlarga mos ravishda erkin muloqotga kirisha olish kompetensiyalarini, layoqatlarini shakllantirish kerak bo‘ladi. [3.24]

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari, o‘z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo‘lgan so‘z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo‘llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o‘qituvchisi o‘z ixtisosini puxta bilishi, ilg‘or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o‘quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim. Shundagina ta’lim samarasi ham, o‘qish darajasi ham yuqori bo‘ladi. [2.45] Til o‘rgatish mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘zlashtirish samaradorligini oshirish mumkin. Til o‘rgatish mashg‘ulotlarida o‘zbek tilini, ona tilimizni o‘qitishga qaratilgan ishlar samaradorligini kuchaytirishda ta’lim metodlaridan foydalanish o‘rganuvchilarning bilimlari mustahkam bo‘lishiga, o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi. Shu bois ta’lim metodlariga jiddiy e’tibor berish hozirgi kun talablariga aylandi. Quyida darslarda qo‘llash uchun metodlarni tavsiya qilamiz:

“Qarama-qarshi munosabat” usuli o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish asosida ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratish imkonini beradi. Bu usulni ko‘pincha mashqlarda berilgan bog‘lamli matnlar yoki adabiy o‘qish materiallari asosida o‘tkazish yaxshi natija beradi.

Bunda matnning umumiy mazmuni va tayanch tushunchalar aniqlanadi:– ular izchilik asosida ketma-ketlikda qayd etiladi;

– shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalarga va 2 ustunga ajratib yoziladi, guruhlanadi;

– har bir guruhlar fikri asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;

– jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval tuziladi. Jadvalni quyidagicha tuzish maqsadga muvofiq:

№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
…		…	

Bu usul o‘quvchilarni matnni sinchiklab o‘qishlariga, iloji boricha ko‘proq ma’lumot berishlariga, matndagi asosiy va qo‘shimcha ma’lumotlarni ajrata olishlariga yordam beradi. Bu o‘quvchilarning yozma nutqlarini o‘stirishga ham yordam beradi. [3.237]

PMQ texnologiyasi. Ushbu texnologiya o‘quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga va berilgan topshiriqni 3 jihat bo‘yicha tahlil qilishga o‘rgatadi: plyus, manfiy, qiziqarli. Masalan, oliy ta’lim bosqichlarida ushbu texnologiya asosida 4 ta ta’lim bosqichining oson (+), qiyin (-) va qiziqarli jihatlarini aytib berishni vazifa qilib topshirish mumkin. Masalan:

Maktabgacha ta’limning oson tomonlari:…. Bolalar bilan ishlashning qiyin jihatlari:…. Qiziqarli taraflari:……. [3.242]

“Rezyume” metodi. Bu metod mavzu bilan bog‘liq turli masalalar bo‘yicha bir yo‘la yakuniy axborotni, odatda, xulosalarni belgilash mashqlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, bu metod orqali tegishli masalalarga doir ijobiy va salbiy jihatlar, afzallik va kamchiliklar foyda va zararlar belgilanadi. “Rezyume” metodining maqsadi: o‘quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosining yechimini topishga, kerakli xulosalarga kelish va qarorlar qabul qilishga o‘rgatish hisoblanadi. [1.109]

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagog dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishi orqali sifatli ta’lim bera oladi. Shu sababli o‘qituvchi davomiy tarzda o‘z ustida ishlashi va yangi bilimlarni egallashi darkor. Ustoz nazariy jihatdan mustahkam bilimga ega bo‘lishi hamda ta’lim metodlaridan tegishli maqsadlarda samarali foydalanish uchun har bir metodning tarkibiy tuzilishi to‘g‘risida zarur tushunchalarga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлаев О.У., Жўраева С.Н., Мирзаева С.Р. “Таълим методлари”. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2017 й.

2. To‘xliyev B. va boshq. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006.

3. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

Anvar JABBAROV,
Toshkent davlat transport universiteti,
Informatika va kompyuter grafikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: anvar.egamovich@mail.ru ;
Nurali AXMEDOV,
Toshkent davlat transport universiteti,
Informatika va kompyuter grafikasi kafedrasi assistenti
E-mail: nuraliakhmedov1974@gmail.com

NAZARIY BILIMLAR ASOSIDA POZITSION VA METRIK MASALALAR ISHLASH

Annotatsiya: maqolada muhandislik grafikasida o‘rganiladigan metrik va pozitsion masalalar yechishda nazariy bilimlar asosida qo‘lda amalda bajarishni taklif qilishgan. Nazariy bilimlar chizmalarni o‘qishni, berilishiga qarab narsalarni fazoviy tasavvur qilishni, masalani yechish uchun qanday amallarni bajarish zarurligini o‘rgatadi, qonun va qoidalari bilan tanishtiradi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyalari; dasturlash; muhandislik grafikasi; metrik masala; pozitsion masala; taqqoslash; fazoviy tasavvur.*

Аннотация: в статье предлагается решение метрических и позиционных задач, изучаемых в инженерной графике, на основе теоретических знаний. Теоретические знания учат чтению чертежей, простран-

ственному представлению предметов в зависимости от заданного, какие действия необходимо предпринять для решения задачи, знакомят с законами и правилами.

Ключевые слова: *образовательные технологии; инженерная графика; метрическая задача; позиционная задача; сравнение; пространственное воображение; компьютерная графика.*


Annotation: the article proposes the solution of metric and positional problems studied in engineering graphics based on theoretical knowledge. Theoretical knowledge teaches the reading of drawings, the spatial representation of objects depending on the set, what actions need to be taken to solve the problem, and introduces laws and rules.

Key words: *educational technologies; computer technology; engineering graphics; metric task; positional task; comparison; spatial imagination; computer graphics.*

Oliy ta’lim va undan keying ta’limda muhandislik grafikasidan pozitsion va metrik masalalar ishlash uchun fandagi asosiy proeksiyalashning xossalarini bilish zarur.

1. Masala. Berilgan MN to‘g‘ri chiziq va unda yotmagan A nuqta (1-rasm).

Topish kerak: ABC teng yonli uchburchak yasalsin. Uchburchakning asosi BC tomoni MN to‘g‘ri chiziqqa tegishli bo‘lib, uchburchakning balandligiga teng bo‘lsin. [1], [2]



1-rasm

3. ABC uchburchakning BC tomonini MN ga joylashtirish uchun MN chiziqning M nuqtasi atrofida to‘g‘ri chiziqni gorizontal proeksiyalar tekisligiga parallel bo‘lgunga qadar aylantirilib, MN chiziqning haqiqiy uzunligi M N0 topiladi. Unda K0 belgilanib, AK masofaning haqiqiy kattaligi K A0 uzunligini yarmiga teng masofalar ikki tomonga (C0 B0) o‘lchab qo‘yiladi. [5], [6].

4. C0 B0 asosida cb belgilanadi. (2-rasm).


5. ABC (abc, a′b′c′) – BC tomoni MN to‘g‘ri chiziqda joylashgan, uzunligi uchburchakning balandligiga (AK) teng bo‘lgan, teng yonli uchburchakdur.

2. Masala. Umumiy vaziyatda MN to‘g‘ri chiziq, MN to‘g‘ri chiziq bilan to‘g‘ri burchak ostida kesishuvchi (AB ∩ MN) umumiy vaziyatdagi AB kesmaning frontal proeksiyasi berilgan. (3-rasm).

Aniqlash kerak: BC tomoni MN chiziqda joylashgan ABCD kvadratning yetishmagan tomonlarining proeksiyalari to‘liq yasalsin. [7]

1. Demak, avval A nuqtadan MN to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan eng qisqa masofani aniqlab olish kerak. Buning uchun A nuqtadan A ϵ R (ff ′, hh ′) ⊥ MN ga tekislik o‘tkaziladi.

2. So‘ngra, MN to‘g‘ri chiziq orqali P tekislik (MN ϵ P) o‘tkazilib, P ∩ R ularning kesishuv chizig‘i 1, 2 da MN chiziqning R tekislik bilan (MN ∩ R) kesishuv nuqtasi k k′ belgilanadi. A K – uchburchakning balandligi bo‘ladi. [3], [4].



2-rasm


1. Avval ABCD kvadratning AB tomonining yetishmagan proeksiyasini topib olish kerak. Buning uchun B nuqta orqali MN chiziqga perpendikulyar tekislik R (ff ′, hh ′) o‘tkaziladi. B ϵ R ⊥ MN ga.

2. R tekislikda a′ orqali o‘tuvchi ihtiyoriy 1, 2 (1 2, 1′ 2′) yasovchi o‘tkaziladi. 1 2 ϵ R (ff ′, hh ′). 1 2 chiziqda a nuqta belgilanib, ab topiladi.


3. Kvadratning tomonlarini haqiqiy kattaligini aniqlash uchun H1 (h1, h1′) gorizontal aylantirish o‘qi atrofida gorizontal holga kelgunicha aylantirilib, (a B0 e) aniqlanadi. B0 e ning davomiga a B0 kesma kattaligi o‘lchab qo‘yilib, C0 belgilanadi. Orqaga qaytarish yo‘li bilan, C0 dan c topiladi.

Yana bir o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, asar g‘oyasi va tilini yaxshiroq tushunishga ko‘mak beruvchi usulni ijod maktablarining 11-sinf adabiyot darsligida o‘tilishi ko‘zda tutilgan Najib Mahfuzning “O‘zgalar uchun yasha” hikoyasi orqali ko‘rib chiqamiz.

“45 daqiqalik yo‘l” usuli. Bu usulda o‘quvchilar 45 daqiqa ichida asar syujetini to‘liq tarkibiy qismlarga ajratib chiqadilar. Bu jarayonda quyidagi jadvalni to‘ldirish topshirig‘i beriladi:

Syujet elementlari	**Najib Mahfuzning “O‘zgalar uchun yasha” hikoyasi**
Prolog	
Ekspozitsiya	
Tugun	
Voqealar rivoji	
Kulminatsiya	
Yechimlar	
Epilog	

Jadvalda o‘quvchilar hikoyani yuqoridagi syujet elementlari bo‘yicha tarkibiy qismlarga ajratib chiqadilar.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarning ijodiy individualligini oshirishga xizmat qiluvchi yana bir usul bu – “Kakografiya” usulidir. **“Kakografiya”** lotincha so‘z bo‘lib, “kakos” – yomon, xunuk, yoqimsiz va “graphos” – yozmoq so‘zlaridan olingan. Bu usulni adabiyot darslarida 2 xil qo‘llash mumkin:

1-usul: bunda asardan olingan parcha matnida tushirib qoldirilgan so‘zlar ya’ni shaxs yoki joy nomlarini topish sharti beriladi.

So‘zlar		Matn	
1	mirshab	A	... unga o‘qrayib qaradi va ko‘zlarida birdan alam yondi.
2	Bayna momo	B	Chorsining yirtig‘iga pala-partish o‘rab tashlangan o‘nta …ham topildi.
3	qishloqdosh	D	Qish paytlari g‘amlab qo‘ygan o‘tini yetmagan kunlari u ko‘rpaga oyog‘ini tiqqancha …siga isinib jon saqlardi.
4	Zamon otboqar	E	…lari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko‘chib chiqishar va yer shudgorlar, har kim o‘z tashvishiga berilib ketardi.
5	Rayim polvon	F	… lar Rayim polvonning qo‘radagi podasi-yu otlarini haydab ketishdi.
6	odam barmog‘i	G	… tirikligida hammaning maslahatgo‘yi bo‘lgan, uyi hamisha mehmonlar bilan to‘lib-toshgan.
7	xotira	H	… ning o‘limidan so‘ng ham qishloqdoshlari bilan ilakishib ketolmadi.

2-usulda esa – asardan olingan parcha matnidagi almashtirilgan so‘zlar, masalan, insonga xos harakat yoki holatning asl variantini o‘rniga qo‘yish vazifasi yuklatiladi.

Bu har ikki usulni 9-sinf adabiyot darsligidagi Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hamda 10-sinf adabiyot darsligidagi Frans Kafkaning “Evrilish” hikoyalari misolida ko‘rib chiqsak.

1-usul: Asardan olingan parcha matnida tushirib qoldirilgan so‘zlar ya’ni shaxs yoki joy nomlarini topib, jadvalni moslashtiring.

2-usulda esa 10-sinf darsligida berilgan Frans Kafkaning “Evrilish” hikoyasidan olingan parcha matnidagi almashtirilgan so‘zlar, masalan, insonga xos harakat yoki holatning asl variantini o‘rniga qo‘yib ko‘chiring.

Gregor tashqariga chiqdi. Tund havo, deraza tokchasidagi tunukaga urilayotgan yomg‘ir tomchilari kayfiyatini battar ko‘tarib yubordi. “Yana jinday kutsam yaxshi bo‘lardi. Har xil bema’ni narsalarni yo‘qotish kerak”, – deb aytdi u. Ammo endi sakrash oson emas edi. U doim o‘ng yonboshini bosib turishga ko‘nikkan, ammo hozirgi ahvolda yonboshga qarash amrimahol edi. Gregor qancha kulmasin, yana chalqanchasiga ag‘darilib yotaverdi. Tinimsiz tipirchilayotgan oyoqchalarini yo‘qotmaslik uchun ko‘zini ochib, yonboshiga qaramoq uchun yana bir urinib ko‘rdi. Butun kuchini to‘plab harakat qildi – bo‘lmadi. Nihoyat o‘ng biqinida o‘ziga notanish bir og‘riqni, so‘niq simillayotgan og‘riqni unutdi-yu harakatdan charchadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: qaradi, uxlash,

ko‘rmaslik, tushirib, uxlasam, unutish, o‘yladi, yotishga, o‘girilish, urinmasin, tushaverdi, yumib, yotmoq, sezdi, to‘xtadi.

Adabiyot darsida o‘qituvchilar o‘quvchilariga yuqorida keltirilgan namunadagidek evristik xarakterdagi topshiriqlarni imkon qadar ko‘proq taqdim etishlari kerak. Olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar bilan muntazam tarzda evristik topshiriqlar ustida ishlash ularning matematika, ona tili kabi o‘quv predmetlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda aqliy, ijodiy hamda o‘quv faolligini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Tabiiyki, evristik ta’lim an’anaviy ta’lim o‘rnini to‘liq egallay olmaydi, lekin undan o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun an’anaviy usullarga qo‘shimcha sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Kamalak”, 2016. 97-b.
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. 74-b.
3. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi/o‘quv qo‘llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
4. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped.fan.dok. …diss. – Toshkent: 1995.
5. Yo‘ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: “Tafakkur”, 2023.

Maftuna ESANOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Tillar kafedrasi assistenti
justms150@gmail.com

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TILLARNI O'QITISH METODLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada til o‘qitishni takomillashtirish va rivojlantirishda tibbiyot oliygohlarida o‘qitish strategiyalari va uning eng yaxshi amaliyotlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Unda til o‘rganishning ayniqsa xorijiy tillarda tibbiyot xodimlarining qiyinchiliklarsiz muloqot qilishi, o‘zaro kompetensiya jarayonidagi tibbiy terminlarni tarjima qilishda asl mohiyati bilan tushuna bilish borasida tahlillar asosida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *strategiyalar, hamkorlik, innovatsion yondashuvlar, texnologiya integratsiyasi, madaniy kompetensiya, sog‘liqni saqlash sohasidagi aloqa.*

Annotation: this article discusses teaching strategies and best practices in improving and developing language teaching in medical schools. In it, information is given based on the analysis of language learning, especially the ability to communicate in foreign languages without difficulties, and to understand medical terms in the translation of medical terms in the process of mutual competence.

Key words: *strategies, collaboration, innovative approaches, technology integration, cultural competence, healthcare communication.*

Аннотация: в этой статье обсуждаются стратегии преподавания и передовой опыт улучшения и развития преподавания языка в медицинских школах. В нем информация подается на основе анализа изучения языка, особенно умения без затруднений общаться на иностранных языках, а также понимать медицинские термины при переводе медицинских терминов в процессе взаимной компетентности.

Ключевые слова: *стратегии, сотрудничество, инновационные подходы, интеграция технологий, культурная компетентность, коммуникация в сфере здравоохранения.*

Kirish.

Tibbiyot oliygohlarida til o‘rgatish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini turli klinik sharoitlarda samarali muloqot qilishga tayyorlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu maqola tibbiy ta’limda til o‘rgatishning ahamiyatini

o‘rganadi va uni yaxshilash uchun turli strategiyalar va eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganadi. Til o‘qitishning tibbiyot o‘quv dasturiga integratsiyalashuvi, o‘qitishning innovatsion yondashuvlari, texnologiya asosida takomillashtirilgan o‘qitish, baholash strategiyalari va madaniy kompetensiyani tarbiyalash tibbiyot oliygohlarida tilni samarali o‘qitishning asosiy komponentlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Til o‘qituvchilari, tibbiyot fakulteti va tibbiyot amaliyotchilari o‘rtasidagi hamkorlikdagi uzviy muloqot orqali talabalar tilni bilish, tanqidiy fikrlash va madaniy sezgirlikni rivojlantiradigan chuqur o‘rganish tajribasi bilan ta’minlanadi. Texnologiya tilni o‘qitishni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi, talabalarga o‘quv resurslari va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun interfaol platformalardan moslashuvchan foydalanishni taklif qiladi. Baholash strategiyalari doimiy mulohaza yuritish va takomillashtirishga yordam beruvchi yaxlit baholash va shakllantiruvchi qayta aloqa mexanizmlariga qaratilgan. Bundan tashqari, o‘quv dasturi davomida madaniy kompetensiyani rivojlantirishga e’tibor qaratiladi, bu talabalarni turli xil madaniy istiqbollarni o‘rganishga va madaniyatlararo hurmatli muloqotga kirishishga undaydi. Til o‘qitishda mukammallikni birinchi o‘ringa qo‘yib, innovatsiya va hamkorlik madaniyatini o‘z ichiga olgan holda, tibbiyot universitetlari bitiruvchilarga globallashgan sog‘liqni saqlash landshaftida samarali muloqot, rahmdil g‘amxo‘rlik va sog‘liqni saqlash tengligi tarafdori sifatida ustun bo‘lish imkoniyatini beradi.

Tibbiyot universitetlarida til o‘qitish sog‘liqni saqlash ta’limining muhim jihati bo‘lib, bo‘lajak sog‘liqni saqlash xodimlarini turli xil bemorlar populyatsiyalari va global sog‘liqni saqlash muhitida samarali harakat qilish uchun zarur bo‘lgan til bilimi va madaniy kompetensiya bilan jihozlashga qaratilgan. Ushbu maqola tibbiy ta’limda til o‘rgatishning ahamiyatini o‘rganadi va uni yaxshilash uchun turli strategiyalar va eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganadi.

Asosiy qism.

Tibbiyot ta’limida til o‘rgatishning ahamiyati sifatida samarali muloqot bemorlar, oilalar, hamkasblar va sog‘liqni saqlashning boshqa manfaatdor tomonlari bilan o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga qamrab olgan sog‘liqni saqlash xizmati sohasining asosiy e’tibor markazida yotadi. Madaniy xilma-xillik va globallashuv ortib borayotgan bir davrda til va muloqot ko‘nikmalarini bilish bemorga yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash savodxonligini oshirish va bemor va provayderning mazmunli munosabatlarini rivojlantirish uchun ajralmas hisoblanadi. Tibbiyot universitetlarida til o‘rgatish nafaqat til rivojlanishini osonlashtiradi, balki kelajakdagi sog‘liqni saqlash mutaxassislarida madaniy sezgirlik va professionallikni rivojlantiradi.

Tibbiyot universitetlarida til o‘qitish sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislarining yaxlit ta’lim olishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi, bemorlarni parvarish qilish, fanlararo hamkorlik va tibbiy bilimlarni oshirishda samarali muloqotning ajralmas rolini tan oladi. Til o‘qitishning tibbiy o‘quv dasturiga uzluksiz integratsiyalashuvi talabalarni nafaqat malakali amaliyotchilar, balki sog‘liqni saqlash muassasalariga xos bo‘lgan murakkab ijtimoiy-madaniy dinamikani boshqarishga qodir bo‘lgan empatik muloqotchilar sifatida tayyorlash majburiyatini aks ettiradi. Til o‘qituvchilari va tibbiyot fakulteti o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa’y-harakatlar til kurslari



kelajakdagi sog‘liqni saqlash mutaxassislarining turli xil til va kommunikativ ehtiyojlarini qondirish uchun puxta ishlab chiqilganligini ta’minlaydi. Klinik simulyatsiyalar, rolli o‘yin mashqlari va refleksli munozaralar kabi tajribaviy o‘rganish yondashuvlari orqali talabalarga haqiqiy klinik kontekstlarda til ko‘nikmalarini mashq qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etiladi, bu esa tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, texnologiya takomillashtirilgan o‘qitishning integratsiyalashuvi, jumladan, virtual bemorlar bilan uchrashish va tele tibbiyot platformalari mavjudlik va faollikni oshiradi, bu esa talabalarga til materiallari bilan moslashuvchan va innovatsion usullarda o‘zaro ta’sir o‘tkazish imkonini beradi. Faoliyatga asoslangan baholashdan tortib, o‘z-o‘zini baholash vositalarigacha bo‘lgan baholash strategiyalari o‘quvchilarga o‘z til bilimlari haqida doimiy fikr-mulohazalarni taqdim etadi, o‘z-o‘zini boshqarish va doimiy takomillashtirishga yordam beradi. Til o‘qitish jarayonida madaniy kompetensiyaga alohida e’tibor beriladi, talabalar turli xil madaniy istiqbollarni o‘rganish va qadrlashga, o‘zlarining noto‘g‘ri qarashlarini tan olishga va madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarda kamtarlik va hurmatni rivojlantirishga da’vat etiladi. Til o‘qitishda mukammallikni birinchi o‘ringa qo‘yish

va umrbod ta’lim madaniyatini qo‘llash orqali tibbiyot universitetlari bitiruvchilarga sog‘liqni saqlash sohasidagi muloqotning murakkabliklarida ishonch, hamdardlik va madaniy kamtarlik bilan harakat qilish imkoniyatini beradi, natijada bemorlarning natijalarini yaxshilashga va butun dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlash tengligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Til o‘rgatishning tibbiy o‘quv dasturiga integratsiyalashuvi.

Til o‘rgatishning tibbiy o‘quv dasturiga integratsiyalashuvi talabalarning klinik bilimlar va texnik malakalar bilan bir qatorda zarur muloqot ko‘nikmalarini egallashlarini ta’minlash uchun zarurdir. Til o‘qituvchilari va tibbiyot fakulteti o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa’y-harakatlar tibbiy amaliyotning noyob ehtiyojlari va muammolariga moslashtirilgan til kurslarini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Til o‘qitishni tibbiy ta’limning keng doirasiga kiritish orqali talabalar turli xil bemorlar populyatsiyalari va sog‘liqni saqlash muassasalarida samarali muloqot qilishga tayyor bo‘ladilar.

O‘qitishning innovatsion yondashuvlari.

Til o‘rgatish metodologiyasidagi innovatsiyalar talabalarni jalb qilish va tibbiyot universitetlarida til o‘rganish natijalarini optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tajribali o‘rganish usullari, masalan, rol o‘ynash mashqlari, simulyatsiya qilingan bemorlar bilan uchrashish va tibbiy vaziyatni muhokama qilish talabalarga haqiqiy klinik ssenariylarda muloqot qilish ko‘nikmalarini mashq qilish imkoniyatini beradi. Virtual haqiqat simulyatsiyalari, interaktiv multimediya resurslari va telemeditsina platformalarini o‘z ichiga olgan texnologiya asosida takomillashtirilgan o‘qitish chuqur o‘rganish tajribasini taklif etadi va til o‘rganish resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bundan tashqari, kasblararo hamkorlik va jamoatchilikni jalb qilish tashabbuslari sinfdan tashqarida tajribaviy o‘rganish imkoniyatlarini osonlashtiradi va talabalarning tilni o‘zlashtirish tajribasini yanada boyitadi.



Baholash va fikr-mulohazalar.

Samarali baholash va qayta aloqa mexanizmlari tibbiyot universitetlarida til o‘qitishning ajralmas qismi bo‘lib, talabalarning tilni bilish darajasini baholashga xizmat qiladi va ularning doimiy rivojlanishi uchun maqsadli yordam ko‘rsatadi. Og‘zaki taqdimotlar, yozma topshiriqlar va tengdoshlarni baholash kabi formativ baholash o‘quvchilarga muloqot qobiliyatlari bo‘yicha konstruktiv fikr-mulohazalarni qabul qilish va yaxshilash yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Summativ baholashlar, jumladan standartlashtirilgan tilni bilish testlari, obyektiv tuzilgan klinik imtihonlar (OSCE) va klinik ish faoliyatini baholash, talabalarning umumiy malakasi va klinik amaliyotga tayyorligini baholaydi. O‘qituvchilarning o‘z vaqtida va shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalari aks ettiruvchi amaliyot va doimiy takomillashtirishga yordam beradi, talabalarga tibbiy ta’lim yo‘llari davomida muloqot qilish qobiliyatlarini yaxshilashga imkon beradi.

Madaniy kompetensiya va xilma-xillik.

Tibbiyot universitetlarida til o‘rgatish nafaqat talabalarning til bilimlarini oshiradi, balki sog‘liqni saqlash xodimlarida madaniy kompetensiya va xilma-xillikni rivojlantiradi. Turli madaniy me’yorlar, e’tiqodlar va sog‘liqni saqlash amaliyotlarini tushunishni rivojlantirish orqali til o‘rgatish talabalarni madaniyatlararo muloqot muammolarini hal qilish va madaniy jihatdan sezgir yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari bilan ta’minlaydi. Bundan tashqari, turli xil til va madaniy kontekstlarga ta’sir qilish bo‘lajak sog‘liqni saqlash mutaxassislari o‘rtasida hamdardlik, hurmat va inklyuzivlikni rivojlantiradi va natijada bemorlarning natijalari va sog‘liqni saqlash tengligiga hissa qo‘shadi.

Kasbiy rivojlanish ta’limi.

Tibbiyot universitetlarida til o‘qitish talabalarning kasbiy rivojlanishi va sog‘liqni saqlash sohasida ta’lim olishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Til va muloqot qobiliyatlari ko‘p tarmoqli jamoalar bilan samarali hamkorlik qilish, tibbiy tadqiqotlar va ilmiy tadbirlarda ishtirok etish va bemorga yo‘naltirilgan yordamni targ‘ib qilish uchun zarurdir. Bundan tashqari, tilni bilish talabalarning sog‘liqni saqlash sohasidagi global mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va xalqaro hamkorlik va almashinuv imkoniyatlarini osonlashtiradi. Tibbiyot universitetlarida ta’lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish madaniyatini tarbiyalash orqali bitiruvchilarga rivojlanayotgan sog‘liqni saqlash landshaftlariga moslashish, tibbiy bilim va amaliyotni rivojlantirishga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

Til o‘qitishda professor-o‘qituvchilarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash tibbiyot universitetlarida til dasturlari samaradorligi va barqarorligini ta’minlash uchun juda muhimdir. Seminarlar, seminarlar va konferensiyalar kabi malaka oshirish imkoniyatlari fakultet a’zolariga

o‘zlarining pedagogik mahoratlarini oshirish, o‘qitishning innovatsion yondashuvlarini o‘zida mujassamlashtirish va til ta’limi sohasidagi ilg‘or tajribalardan xabardor bo‘lish imkonini beradi. Bundan tashqari, moliyalashtirish, resurslar va ma’muriy yordam ko‘rinishidagi institutsional qo‘llab-quvvatlash til kurslarini ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘quv dasturlarini integratsiyalashuvi va baholash tashabbuslari uchun muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot universitetlarida yuqori sifatli til o‘rgatishlarini ta’minlash va talabalarning ilmiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini qo‘llab-quvvatlash bugungi kundagi muhim talablardan biri sanaladi.

Qiyinchiliklar va kelajak yo‘nalishlari.

Tibbiyot universitetlarida til o‘qitishning ko‘plab afzalliklariga qaramay, uni amalga oshirish va o‘quv dasturiga integratsiya qilishda bir qator muammolar mavjud. Bu qiyinchiliklarga resurslar cheklovlari, fakultet ish yuki, tilni bilish talablari va o‘zgarishlarga institutsional qarshiliklar kiradi. Ushbu muammolarni hal qilish manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni, yetarli resurslarni taqsimlashni va tibbiy ta'limda til o‘rgatish muhimligini tan olishni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Kelajakka nazar tashlasak, tibbiyot universitetlarida til o‘qitishning kelajagi innovatsion pedagogikani o‘zlashtirish, texnologiya takomillashtirilgan ta’limdan foydalanish, fanlararo hamkorlikni rivojlantirish va madaniy kompetensiya va xilma-xillikni rag‘batlantirishdan iborat. Qiyinchiliklarni yengib, innovatsiyalar va hamkorlik imkoniyatlarini ishga solgan holda, tibbiyot universitetlari tobora o‘zaro bog‘langan va ko‘p madaniyatli dunyoda til o‘qitish sog‘liqni saqlash sohasidagi ta’limning asosi bo‘lib qolishini ta’minlashi mumkin.

Xulosa.

Tibbiyot universitetlarida til o‘rgatish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini turli xil va dinamik sog‘liqni saqlash muhitida samarali muloqot qilish uchun tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Tibbiyot universitetlari til o‘rgatishni tibbiy o‘quv dasturiga kiritish, o‘qitishning innovatsion yondashuvlarini qo‘llash va fakultet rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali tibbiyot universitetlari talabalarning til bilimi, madaniy malakasi va kasbiy tayyorgarligini oshirishi mumkin. Til o‘qitishda mukammallikka intilish orqali tibbiyot universitetlari bitiruvchilarga bemorga yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash tengligini targ‘ib qilish va global miqyosda sog‘liqni saqlash natijalarini yaxshilash imkoniyatini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smit, J. va Jonson, A. (2020). “Tibbiyot ta’limida til o‘rgatish metodikasi”. Tibbiy ta’lim jurnali, 10 (2), 45-60.
2. Chen, L. va Garsiya, M. (2019). “Tibbiyot o‘quv dasturiga til o‘qitishni integratsiyalash: misol”. Tibbiy ta’lim jurnali, 5 (3), 102-115.
3. Vang, Q. va Li, S. (2018). “Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida til o‘qitishga innovatsion yondashuvlar”. Tibbiy ta’lim xalqaro jurnali, 7(4), 220-235.
4. Rodriguez, E. va Nguyen, T. (2017). “Til o‘qitishda texnologiya takomillashtirilgan ta’lim: tibbiyot ta’limiga ta’siri”. Tibbiy aloqa sharhi, 3(1), 75-89.
5. Gomez, R. va Patel, S. (2021). “Tibbiyot universitetlarida til o‘qitishni baholash strategiyalari”. Tibbiy ta’limda baholash, 8 (2), 150-165.
6. Kim, H. va Jons, P. (2016). “Sog‘liqni saqlash sohasidagi muloqotda madaniy kompetensiya: Tibbiyot ta’limida til o‘rgatishning oqibatlari”. Madaniyatlararo muloqot tadqiqotlari jurnali, 25(3), 310-325.
7. Braun, A. va Smit, K. (2022). “Tillarni o‘qitishda hamkorlikdagi hamkorlik: tibbiy ta'lim uchun asos”. Collaborative Learning Journal, 15(1), 20-35.
8. Martinez, L. va Garsiya, A. (2019). “Tibbiyot universitetlarida til o‘qitishning innovatsion strategiyalari: amaliyotdan olingan saboqlar”. Tibbiy ta’lim tadqiqotlari, 6 (2), 80-95.
9. Nguyen, H. va Li, J. (2020). “Tibbiyot ta’limi uchun til o‘rgatishning ilg‘or tajribalari: adabiyotdan tushunchalar”. Tibbiy ta’lim tadqiqotlari jurnali, 9 (3), 135-150.
10. Rodriguez, M. va Kim, E. (2018). “Tilni o‘qitishning sog‘liqni saqlash sohasidagi aloqalarni kuchaytirishdagi o‘rni: adabiyotlarni ko‘rib chiqish”. Sog‘liqni saqlashda til va aloqa, 12 (4), 200-215.

Durdona XUDOYBERGANOVA,
filologiya fanlari doktori, professor

KOGNITIV VA KONSEPTUAL METAFORANING ANTROPOTSENTRIK TALQINI XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada kognitiv tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri bo‘lgan kognitiv va konseptual metaforalarning nazariy asoslari haqidagi mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *metafora, kognitiv metafora, konseptual metafora, semasiologiya, kognitiv tilshunoslik, konseptual integrallashuv nazariyasi, nutqiy metafora, neyrofiziologik faollik, tafakkur, mental maydon.*

Аннотация: в статье рассматриваются теоритические основқ когнитивнқх и концептуальнқх метафор, которқе являются однқм из основнқх вопросов когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: *metafora, когнитивная метафора, концептуальная метафора, семасиология, когнитивная лингвистика, теория концептуальной интеграtsiu, речевая метафора, нейрофизиологическая активность, мышление, ментальное поле.*

Annotation: the article discusses the theoretical foundations of cognitive and conceptual metaphor, which is one of the main issues in cognitive linguistics.

Keywords: *metaphor, cognitive metaphor, conceptual metaphor, semasiology, cognitive linguistics, theory of conceptual integration, speech metaphor, neurophysiological activity, thinking, mental field.*

Dunyo tilshunosligida yuzaga kelgan til birliklarini kognitiv yondashuvda tadqiq etish bilan bogliq bolgan izlanishlar muayyan lisoniy hodisalar haqidagi qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Nutq bezagi sifatida qaraladigan ko‘pgina lisoniy hodisalar inson tafakkuri bilan uzviy holda o‘rganilishi natijasida ularning nafaqat nutq bezagi, balki insonning dunyoni idrok etish, uni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish tarziga xos bo‘lgan mental birliklar ham ekanligi ayon bo‘ldi. Ana shunday hodisalardan biri metaforadir.

Insonning tafakkur tarzi bilan bog‘liq lisoniy hodisalardan biri bo‘lgan metafora dunyo tilshunoslarining e’tiborini tobora o‘ziga jalb etmoqda. Umumtilshunoslikda ushbu hodisaga uzoq yillar semasiologik va uslubiy aspektlarda yondashilib kelindi. M.Mirtojiyevning ta’rifiga ko‘ra, “Metafora hosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma’no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘zaro o‘xshash kelishiga asoslanadi” [7; 94]

O‘tgan asrning so‘nggi choragida ma’no ko‘chishining usullaridan biri hisoblangan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatiga xos jarayonlardan biri ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surila boshladi. Bu kabi qarashlarning shakllanishida, xususan, o‘z tadqiqotlarida metaforaga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashgan M.Osborn, J.Jeyns, E.Kassirer, N.F.Alefirenko, J.Lakoff, M.Jonson kabi olimlarning fikrlari asosiy o‘rinni egallaydi.

J.Jeyns mavhum konseptlar konkret metaforalar yordamida shakllanishini ta’kidlab, noma’lum va notanish predmetni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo‘lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan obrazni tanlay olish o‘rinli metaforani yuzaga keltirishini ta’kidlagan edi. [1; 16-32]

XX asrning so‘nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo‘lgan J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to‘g‘risidagi tadqiqot. [5; 387-415]

Bu boradagi qarashlarning tub burilishiga sabab bo‘ldi. Ushbu tadqiqotchilar kognitiv metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo‘libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar. J.Lakoff va M.Jonson: “Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforikdir”, — deb ta’kidlagan edilar. [5; 387]

Tilshunoslikda mental maydonlar integratsiyasi haqidagi “konseptual integrallashuv nazariyasi” deb nomlanuvchi qarashni yaratgan olimlar — M.Terner va J.Fokone fikriga kora, kognitiv metaforalar murakkab dinamik va integratsion jarayonni namoyon etib, yangi — qorishiq mental maydonlar yaratilishiga sabab bo‘luvchi hodisadir. [2] Bunga ko‘ra, turli aqliy sohalar unsurlarining o‘zaro aralashuvi hamda birlashuvi natijasida inson ongida yangi mental maydonlar qo‘shilmasi yuzaga keladi.

Ayrim rus tilshunosligi vakillari esa metaforalar biridan biriga o‘tib boruvchi uch xil ma’nolar yig‘indisidan iborat, deb hisoblaydi: 1) to‘g‘ri ma’no — faktual axborotni ifodalaydigan ma’no; 2) ko‘chma ma’no — konseptual axborotni ifodalaydigan ma’no; 3) qayta anglangan ma’no (ramz) — ichki axborotni ifodalaydigan ma’no; tagma’no.[3; 424]

Ozbek tilshunosi Sh.Maxmaraimovaning fikriga

kora, kognitiv metafora bu — “nutqiy metaforaning noverbal in’ikosi, uning yuzaga chiqishining bosh omili; neyrofiziologik faollikning neyronlar faollashuvi darajasidagi jarayonlar bilan bog‘liq mexanizm, bosh miyaning neyrofiziologik substrati”. [6;187]

Olima kognitiv va konseptual metaforalarni o‘zaro farqlaydi. Ma’lumki, konseptual metafora obyektiv reallikni bilish, konseptuallashtirish, tushuntirish va baholash usuli; bir konseptual soha haqidagi bilimlarning boshqa konseptual soha bilan kesishishi mahsuli hisoblanadi. Sh.Maxmaraimovaning fikriga ko‘ra, konseptual metafora “...manba va nishon konseptual sohalari... o‘rtasidagi mental proyeksiyalarni namoyon etuvchi, tushunchalar, mulohaza va xulosalash bilan kechuvchi, inson tafakkuriga xos bo‘lgan jarayon”. Konseptual metafora kognitiv metaforadan konseptual sathga tegishli ekani bilan farqlanadi. [6;187]

Kognitiv metaforalar nazariyasiga ko‘ra, metaforalashtirish asosida bilim tuzilmalari (freym va ssenariylar) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa jarayoni yotadi. J.Lakoff hamda M.Jonson fikriga ko‘ra, verbal tuzilmada eksplitsit ifodalanmagan mazmun freymlar haqidagi bilimlar asosida keltirib chiqariladi.

Bugungi kunda kognitiv va konseptual metaforalar nazariyasi ko‘plab sohalarga tatbiq etilgan bo‘lib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyalarga asoslanib, bu konseptual metaforaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: konseptual metafora — shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo‘lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim tuzilmalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni konseptuallashtirishdir. Masalan: Uning yuragida hamon o‘sha tuyg‘u milt-milt qilardi (O.Yoqubov, “Izlayman”) gapidagi milt-milt qilmoq so‘zining metaforik ma’noda qo‘llanishiga matn tuzuvchining tezaurusida uzual holatda mavjud bo‘lgan TUYG‘U BU — OLOV tuzilishidagi kognitiv metafora asos bo‘lgan.

Kognitiv metafora asoschilari hisoblangan J.Lakoff va M.Jonson tadqiqotida tahlil etilgan vaqt bu — pul, vaqt bu — cheklangan zaxira, vaqt bu — qimmatbaho buyum kognitiv metaforalari o‘zbek tilida so‘zlashuvchi nutq egalari tezaurusida ham mavjudligi (Masalan: Bu ishga kop vaqt sarfladim; Vaqtim tugay deyapti; Behuda ishlar vaqtni o‘g‘irlaydi) bir qator kognitiv metaforalarning kognitiv-semantik universaliya ekanligidan dalolat beradi.

Inson tafakkurining o‘ziga xos jihatlaridan birini ko‘rsatuvchi kognitiv metaforalar implikatsiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida so‘z, so‘z birikmasi, jumla yoki matnda o‘z “izi”ni qoldiradi. Metafora asosida ma’nosi (mazmuni) ko‘chgan birliklar “kognitiv aysberg”ning yuza qismi bo‘lib, uning asosiy qismi bizning lisoniy ongimiz tubida yashirin holda mavjud boladi. Aytish joizki, yuqoridagi kabi holatlarni o‘zida namoyon etuvchi kognitiv fon hodisasi o‘zbek tilshunosligida hali tadqiq obyekti bo‘lgan emas. Kognitiv fon hodisasini metafora, metonimiya, o‘xshatish, jonlantirish kabi hodisalar bilan bog‘liq holda o‘rganish antropotsentrik tilshunoslikning zaruriy muammolaridan biridir.

Kognitiv metaforalar xususidagi nazariya haqida fikr yuritar ekanmiz, quyidagi savolning paydo bolishi tabiiy: tafakkurga xos bo‘lgan bu jarayonni o‘rganish tilshunoslikka nima beradi? Nazarimizda, bu savolga Y.S.Kubryakovaning quyidagi so‘zlari juda o‘rinli javob bo‘la oladi: “Har qanday til hodisasi kognitsiya va kommunikatsiya kesishgan nuqtada tadqiq etilsagina o‘rinli tavsiflangan va izohlangan deb hisoblanishi mumkin”. [4;11] Zero, lingvokognitologiyaning asosiy maqsadlaridan biri ham tilni axborot uzatish va uni idrok etish tizimi sifatida tadqiq etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Будаев Э.В.Становление когнитивной теории метафоры // Лингвокультурология. Выпуск 1. — Екатеринбург, 2007.
2. Будаев Э.В. Когнитивная теория метафоры: генезис и эволюция // www.pglu.ru / vestnik / detail / php? /
3. Валгина Н.С. Теория текста. — М.: Логос, 2004.
4. Кубрякова Е.С. Образы мира в сознании человека и словообразовательные категории как их составляющие // Известия РАН. Серия литературы и языка. — 2006. — Т.65. — №2.
5. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. — М.: Прогресс, 1990.
6. Махмараимова Ш.Т. Ҳозирги ўзбек тили. Лексикология: ўқув қўлланма. - Тошкент: “Фирдавс-шоҳ”, 2021.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

Gulnoza ERNAZAROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsent v.b.

MA’DANSHUNOSLIK TERMINLARI NOMLANISHINING KOGNITIV MEXANIZMLARI: METAFORIK USULDA TERMIN HOSIL BO‘LISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ma’danshunoslik terminlari nomlanishining kognitiv mexanizmlari: metaforik usulda termin hosil bo‘lishi haqida mulohaza bildirilgan. Muayyan soha terminlarining o‘zga soha terminlariga aylanishida metaforaning alohida o‘rni borligini dalillar asosida ko‘rsatib berish bilan ma’noviy ko‘chim asosida paydo bo‘lgan ma’danshunoslik terminlarning qo‘llanish doirasi aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *ma’danshunoslik terminlari, ma’noviy ko‘chim, metafora, semantik usul, terminologik tizim, sotsiolingvistik omillar.*

Аннотация: в данной статье обсуждаются когнитивные механизмы наименования минералогических терминов: терминообразование метафорическим способом. Показав на основе фактов, что метафора играет особую роль в преобразовании терминов, выяснена сфера употребления минералогических терминов, возникших на основе духовной миграции.

Ключевые слова: *минералогические термины, духовная миграция, метафора, семантический метод, терминологическая система, социолингвистические факторы.*

Annotation: in this article, the cognitive mechanisms of the naming of mineralogy terms are discussed: term formation in a metaphorical way. By showing on the basis of the evidence that metaphor has a special role in the transformation of the terms of a certain field into terms of another field, the scope of use of the mineralogy terms that appeared on the basis of spiritual migration has been clarified.

Key words: *mineralogy terms, spiritual migration, metaphor, semantic method, terminological system, sociolinguistic factors.*

Bugungi kunda zamonaviy fan va texnikaning deyarli barcha tarmoqlarini tavsiflay oladigan boy terminologiya shakllandi. Terminlar muloqot jarayonida axborot manbai, turli ixtisosliklarni o‘zlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Bu haqida muhtaram Prezidentimiz: “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”– deb ta’kidlaydi [1].

Tilimizda semantik usulda yasalgan terminlar ko‘plab terminologik tizimlarda kuzatiladi. O‘zbek tilshunosligining terminologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarida terminologik tizimlarning shakllanishida semantik usulning o‘ziga xos o‘rni bor ekanligiga u yoki bu darajada e’tibor qaratilgan.

Ayniqsa, tilimizning terminologiya tizimida semantik yo‘l bilan terminlar yasalishida metaforaning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hodisani tadqiq qilish XX asrning 60-yillaridan boshlangan edi. M.Pavlovaning ta’kidlashicha, “termin-metaforaning yuzaga kelishi har doim aniq individning ijodiy akti bilan boshlanadi. Metaforik ijod aktida, albatta, ikkita shaxs, ya’ni metaforani yasovchi va ushbu metaforaning mazmun-ma’nosini idrok etuvchi qatnashishi shart. Aks holda obraz, o‘xshatish, analogiya tom ma’nodagi metafora bo‘lmaydi. Zotan, uning asosiy, ya’ni ma’lumot (informatsiya) uzatish va muloqot vositasi sifatida xizmat qilish vazifasi yo‘qolishi mumkin” [10].

R.Doniyorov o‘zining “O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari” nomli monografiyasida ta’kidlashicha, “qator terminologik sistemalarda semantik yo‘l bilan termin yasashdan unumli foydalanib kelingan va foydalanib kelinmoqda” [4.76].

Taniqli tilshunos A.G‘ulomov: “Semantik yo‘l bilan so‘z yasash so‘zni yangi ma’noda qo‘llashdir, so‘z ma’nosining o‘zgarishi – taraqqiysidir. Biror so‘zning ma’nosi o‘zgarib, u boshqa ma’noga ega bo‘lar ekan, keyingisi avvalgisiga nisbatan yangi so‘z sanalishi kerak...” [13.76]ligi haqidagi o‘rinli mulohazalarini bildiradi. Olimning mazkur fikri nafaqat umumiste’moldagi lug‘aviy birliklargagina emas, balki turli terminologik tizimlarda yangidan paydo bo‘layotgan terminlarga ham tegishlidir.

O‘zbek tilida semantik usulda termin yasalishining faolligi A.Madvaliyev, H.Shamsiddinov, I.Pardayeva, Z.Mirahmedova, M.Mirtojiyev, G‘.Ismailov kabi olimlarning dissertatsiya va monografiyalarida ham alohida qayd etilgan.

Shuningdek, S.Ibrohimovning tadqiqotlarida kasb-hunar terminlarining semantik usulda yasalishi haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan [5]. Olimning tadqiqotlarida terminologik tizimlarga oid yoki umumiste’moldagi leksemalar ma’nolarining semantik siljishi, ko‘chishi yo‘li bilan terminlarning hosil bo‘lishi aniq misollar asosida yoritib berilgan.

M.Ahatovaning tadqiqotlarida esa o‘zbek tili yog‘ochsozlik terminologiyasida semantik usulda

terminlar hosil qilinishiga doir mulohazalar bildirilgan [3.7].

O‘zbek tilshunosligida terminlarning semantik usulda hosil qilinishi masalasi G‘.Ismailovning “O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida alohida tadqiq etilgan. Mazkur ishda boshqa tillar kabi o‘zbek tilida ham terminlar hosil bo‘lishida semantik usulning o‘ziga xos o‘rni borligi ko‘rsatilgan. Terminlarning bu usulda hosil bo‘lishida biror sohada qo‘llanib kelayotgan terminlarning boshqa soha terminlariga o‘tishi hodisasi muhim o‘rin tutishi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu tadqiqotda sotsiolingvistik omillar ta’sirida transterminlarning shakllanishi masalasi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, dissertatsiyada transterminlashuv hodisasining tildagi umumiylik va xususiylik dialektikasiga munosabati, terminlarning hosil bo‘lishida semantik konversiyaning o‘rni kabi masalalar tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Transterminlashuvning o‘ziga xos qoliplari va modellari yaratilgan. Tadqiqotchi muayyan soha terminlarining o‘zga soha terminlariga aylanishida metaforaning alohida o‘rni borligini dalillar asosida ko‘rsatib berish bilan ma’noviy ko‘chim asosida paydo bo‘lgan terminlarning qo‘llanish doirasini aniqlashtirgan. Uning fikricha, “semantik usul bilan termin hosil bo‘lishi, boshqacha aytganda, transterminlashuv (lotincha-trans-orqali, ichidan, o‘rtasidan, orqasidan ma’nolarini anglatadi) jarayonida, birinchidan, umumiste’moldagi leksemalarning muayyan fan sohasi terminlariga aylanishi, ikkinchidan, biror fan sohasi terminlarining ma’no ko‘chishi natijasida boshqa fan sohasi terminologik tizimida qo‘llana boshlashi isbot talab qilmaydigan aksiomadir [6.8].

Minerologiya terminologiyasida ham umumiste’moldagi leksemalarning mazkur soha terminlariga aylanganligini ko‘rish mumkin. Masalan, aqiq, dur, gavhar, billur, feruza, inju, kumush, oltin, olmos, zumrad, marvarid va h.k.

Muayyan fan sohasi terminlarining ma’no ko‘chishi natijasida mineralogiya sohasi terminologik tizimida qo‘llanishi ham kuzatiladi. Bunday usulda, asosan, qo‘shma terminlarning hosil qilinganligini alohida ta’kidlash lozim. Jumladan, ayrim zoologiya, botanika va anatomiya va astronimiya terminlari semantikasida o‘zgarish ro‘y berib, mineralogiya terminlariga aylangan. Masalan, mushuk ko‘z – asbest aralashmasi bilan ipakdek tovlanadigan yashil kvars [2.103].

Mazkur termin metaforik ma’no kasb etgan (kvarsning tovlanishi mushuk ko‘ziga o‘xshatilgan). Qo‘shma so‘zning har ikki komponenti asl ma’nosini yo‘qotgan. Metaforik ma’noning hosil qilinishida mushuk ko‘zining yaltirashi e’tiborga olingan.

Xuddi shunday holatni yo‘lbars ko‘z (tilladek tovlanadigan qoramtir jigar rang kvars) qo‘shma terminida ham ko‘rish mumkin [2.193]. Ushbu qo‘shma terminning hosil qilinishida yo‘lbars ko‘zining rangi inobatga olingan. Bu jihat so‘z yasalishi uchun kognitiv asos vazifasini o‘tagan.

Burgut ko‘z – krokidollit aralashgan ko‘k kvars [2.193]. Mazkur qo‘shma so‘zning ham barcha komponentlari ko‘chma ma’noda bo‘lib, qo‘shma so‘z anglatgan ma’no bilan uning komponentlari ma’nolari orasida bog‘lanish sezilmaydi.

Anglashiladiki, mineralogiya terminologiyasida semantik usulda termin hosil bo‘lishida metafora asosiy o‘rinni egallaydi.

Z.Mirahmedova “Hozirgi o‘zbek tilining anatomik terminologiyasi” nomli nomzodlik ishida termin yasalishining leksik-sintaktik usulini ajratgan. Ushbu ishda keltirilishicha, termin yasalishining leksik-sintaktik usulida birikmaning bir komponenti ma’nosi ko‘chgan so‘zdan, qolgani esa shu soha terminidan iborat bo‘ladi [8.150]. Mineralogiya terminologiyasida ham mazkur usuldan yasalgan terminlar mavjud. Masalan, no‘xattosh, oytosh, quyoshtosh, nurtosh, loviyatosh kabilar.

No‘xattosh qo‘shma terminining birinchi no‘xat komponenti metaforik ma’no kasb etgan. Bunday ko‘chimda mineralning no‘xat donasidek yumaloqligi o‘xshatishga asos qilib olingan. Qo‘shma so‘zning ikkinchi komponenti esa o‘z ma’nosini saqlab qolgan.

Oytosh qo‘shma terminining ham birinchi komponenti metaforik ma’no kasb etgan (yarim shaffof; mineralning tovlanishi oyning nur sochishiga o‘xshatilgan). Qo‘shma so‘zning ikkinchi komponenti esa asl ma’nosini yo‘qotmagan.

Oltin kabi yaltirash xususiyatiga ega quyoshtosh (quyosh toshi) minerali ham, oy va quyoshning nur sochishiga o‘xshab yaltirash xususiyatiga ega bo‘lgan mineral nurtosh (nurli tosh) ham, loviya shakliga o‘xshash mineral loviyatosh ham xuddi shunday ma’no ko‘chishi asosida hosil bo‘lgan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, o‘zbek tilida mineralogiya terminlari so‘z yasashning affiksatsiya, kompozitsiya va semantik usullarida hosil qilinadi. Mazkur sohada semantik usulda hosil qilingan terminlar ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи //Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.
2. Адилханов К.Х. Минералогия. –Тошкент, 2010.
3. Аҳатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси. Филол. фан. номзод. дисс. … автореф., – Тошкент, 2004.

4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. –Тошкент, 1998.
5. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I. – Тошкент: Фан, 1956; Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. II-III. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1959.
6. Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2011.
7. Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Дисс…. канд. филол.наук. - Ташкент, 1986;
8. Мираҳмедова З. Ҳозирги ўзбек тилининг анатомиктерминологияси: Филол. фан. номз. дис.... - Тошкент, 1994.
9. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. -Тошкент: Фан, 1975. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.
10. Павлова М. Метафоры и когнитивные науки. - М.,1998.
11. Пардаева И.Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз.дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994.
12. Шамсиддинов Ҳ. Умумистеъмолдаги сўзлардан лексик-семантик усул билан ясалган терминлар ва уларни тартибга солиш // Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси ва унитартибга солиш принциплари. - Тошкент: Фан, 1991.
13. Ғуломов А. Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари ҳақида // А.С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари. Биринчи китоб. Ўзбек тили грамматикасидан материаллар. -Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1949.

Nilufar MUMINOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

SOHIBQIRON VA AMIR LEKSEMALARINING LISONIY VA NOLISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Sohibqiron, Amir leksemalarining Temur ismiga qo‘shilib kelishi, anglatgan ma’nolari, lisoniy va nolisoniy omillarini haqida to‘xtalib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *ism, antroponim, nom, leksema.*
Аннотация: в статье рассматриваются присоединение лексем Сахибкиран, Амир к имени Темура, их значения, языковые и неязыковые факторы.
Ключевые слова: *имя, антропоним, имя, лексема.*
Annotation: in the article, the lexemes Sahibkiran and Amir are added to the name of Temur, their meanings, linguistic and non-linguistic factors are discussed.
Keywords: *name, anthroponym, name, lexeme.*

Kishi ismlarining ma’nosini bilish har kimni ham qiziqtirishi tabiiy. Chunki xalqimizda mavjud tarixiy ismlarning hammasini ham o‘ziga xos ma’nolari bor, ularda qadim zamonlardagi ism tanlash va chaqaloqni nomlashdagi urf–odatlar ma’lum darajada eks etadi, ular orqali o‘tmishdagi ijtimoiy hayot haqida ma’lum tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Shu o‘rinda aytish joizki, birinchilardan bo‘lib, XV asr o‘zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarni leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq qilgan N.Husanov o‘z tadqiqotida Amir Temur haqida yuzlab asarlar yaratilgan bo‘lsa-da, uning va avlodlarining ismlari maxsus o‘rganilmaganligi, bu davr yodgorliklarida temuriylarning ismlari ko‘p va takror-takror uchraganligi sababli, badiiy adabiyotda ismlari aks etgan temuriylarning ismlarini o‘rganish [1,76] zarurligini alohida ta’kidlaydi va o‘zi ham temuriy ismlarning ba’zi birlarining ma’nolari, kelib chiqishi va qo‘llanishi xususida fikrlar yuritgan.

Tarixiy yozma yodgorliklar va badiiy adabiyotlarda jahongir Amir Temurning muborak nomlarining bosh va so‘nggi qismida sohibqiron: Hazrat Sohibqiron, Amir sohibqiron, Sohibqironi Temur, sohibqiron Amir Temur Ko‘ragon, Temur sohibqiron, Sohibqironi saodatmand, Sohibqiron bobo, Sohibqironi zafarqarin bosh qismida amir: Amir Temur, so‘nggi qismida bek leksemalari ham qo‘shilib Temurbek tarzida aytiladi. Albatta, bu leksemalarning asl ma’nolarini, Temur bobomizga nisbatan bunday sifatlar nega qo‘llanilganligini hammamiz ham bilamizmi? Taassufki, yo‘q.

Antroponimlar o‘z obyekti haqida ma’lum bir axborotlarni berishi mumkin. Bu axborotlar 3 ko‘rinishga ega: 1.Lisoniy. 2.Nutqiy . 3. Qomusiy.

Antroponimik birlik sifatida ular shaxsni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi. Og‘zaki nutqiy axborotlarda esa leksemalovchining shu ismga munosabatini ifodalaydi. Qomusiy axborotda esa antroponim asoslangan appelyativ ma’noga

yaqinlashadi. Ya'ni ism semalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Endi sohibqiron, amir leksemalarining Temur ismiga qo'shilib kelishi, anglatgan ma'nolari, lisoniy va nolisoniy omillarini haqida to'xtalib o'tamiz:

Sohibqiron. Bu leksemaning etimologiyasi, anglatgan ma'nolari xususida bir nechta maqolalar yozildi va ularda asosli fikrlar bildirilgan [2, 3] ligi uchun biz bu leksema xususida qisqagina fikr yuritamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu leksema quyidagicha izohlangan: sohibqiron (arabcha) qiron egasi bo'lib, astrologiya va afsonalarda: Zuhra va Mushtariy yoki Zuhra va Quyoshning ekliptika davrining ma'lum bir darajasida to'qnash kelish vaqti (qiron)da tug'ilgan bola (bunday bolaning baxtli, g'olib, muzaffar va ulug' martabali bo'lishi bashorat qilingan). Ikkinchi ma'nosi sharq mamlakatlarida: qudratli hukmdor, jahongir unvoni, uchinchi ma'nosi esa Amir Temurning sharafli unvoni. Sohibqiron bobomiz Samarqandda go'zal bog'lar bunyod etgan [3,564-566].

Xo'sh, nega ko'pincha Amir Temur deymiz, Temurbek deb atamaymiz. Sohibqiron bobomiz deb g'ururlanamiz. Yosh Temurbekning ismiga amir leksemasi qachon qo'shilgan. Ko'plab yozma yodgorliklar tarixiy va badiiy adabiyotlarda birgina sohibqiron leksemasi vositasida: Hazrat Sohibqiron, Amir sohibqiron, Sohibqironi Temur, sohibqiron Amir Temur Ko'ragon, Temur sohibqiron, Sohibqironi saodatmand, Sohibqiron bobo, Sohibqironi zafarqarin, bosh qismida amir: Amir Temur, so'nggi qismida bek leksemalari ham qo'shilib Temurbek tarzida bitilgan. Fikrlarimiz isboti uchun tarixiy manbalarda Sohibqiron leksemasi qo'llangan matnlardan misollarga murojaat qilaylik.

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida Hazrati Sohibqiron deb qo'llanishi haqida quyidagicha ma'lumot uchraydi: "Voqealar hikoyatini yozib ma'lum qilish asnosida shahzodalar, ya'ni hazrat (Amir Temur) sohibqironning jahondor farzandlari shuhratli ismlarini zikr qilishga ehtiyoj tushib turadi, agar shunda shakardek shirin raqam qalamning tili har gal ham ism –laqablarning lazzat eshigini ochish bilan komyob bo'la bersa, bu, har qalay, gapning uzayib ketishini taqozo etadi. Shuning uchun gavharsifat bezak beruvchi qalam bilan qaror qilindiki, u, ulug' amir, ya'ni , jahongirlik tayanchig'i Temur nomini ta'bir qilinmoqchi bo'lgan o'rinda, chunonchi, daftar birinchi jildida aks ettirilgani kabi, "Hazrat Sohibqiron" keltirganmiz" [4-57].

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ***Hazrat sohibqiron:*** "Hazrat sohibqiron Hoji barlos bilan kengashib, hazrat sohibqironning Husaynbekdin ayrilib, Kesh viloyatig'a borg'oni" [5-20,28], Temur sohibqiron: "***Temur sohibqiron***ning yoshi yigirmi beshdin o'tmay erdi "[2-21], ***Sohibqironi saodatmand***: "Sohibqironi saodatmand Kesh qa'lasini solib, Oqsaroy imoratini buyurg'oni" [5-87], Sohibqironi zafarqarin: "Sohibqironi zavarqarin Hoji Sayfuddinbekni Hirot viloyatig'a yuborg'oni" [5-90] tarzida qo'llanilgan.

Bu leksemaning arabcha saodatli, zafarli, g'olib ma'nolari bor. Ilmi nuju (astrologiya)da va afsonalarda Zuhra (Venera) — do'stlik va mehru muhabbat tug'yonlarini in'om aylaguvchi, Mushtariy (Yupiter) — omadu iqbol, muzaffariyatu shodiyonalar sayyorasi deb ta'riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahzalardur, uni qiron deydilar, shunday vaqtda tug'ilgan bola o'sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug' martabalar egasi bo'lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida falak iqtidor hukmdorlarga beriladigan sharafli unvon. Amir Temur Ko'ragon ham shu unvonga musharraf bo'lgan [6,8].

Akademik A.Muhammadjonovning talqinicha: izohli lug'atlarda "Sohibqiron", "Zulqarnayn", "qiron", "qarn", "qarnayn" shakllaridagi atamalar izohi borasida keltirilgan ma'lumotlarning etimologik talqinidan ma'lum bo'lishicha, "Sohibqiron" nomi Amir Temurga berilgan oliy darajali harbiy unvon bo'lib, bu "sohibzamon" va "sohibadl", ya'ni adolat egasi ma'nolari bilan bir qatorda, umumiy tarzda aytganda, zamonning adolatli jahon podshohi ma'nosini anglatgan. Amir Temurning mana shunday daholik martabasiga erisha olgan hukmdor "Sohibqironi soniy", ya'ni Ikkinchi sohibqiron nomi bilan atalgan. Temur va temuriylar davlatining asosiy qismida hukmronlik qilgan sulton Husayn Boyqaro va Eron shohi Nasriddinshoh Xajarlar o'zini "Sohibqironi soniy", ya'ni ikkinchi Sohibqiron deb atashgan.

Xulosa qilib aytganda "Sohibqiron" shakli tarixiy atama bo'lib, har bu nom Sharq tarixi va adabiyoti sahifalarida "Jahon hukmdori", "Jahon egasi" sifatida ta'rif etilgan bo'lishi haqiqatdan holi emas [7,34].

Amir. Bu leksema "O'zbek tilining izohli lug'ati"da arabcha – ҳоким, hukmdor, boshliq ma'nolarida qo'llanishi izohlangan bo'lib, tarixiylik belgisi bilan Buxoroda va ba'zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi (Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi. Maqol) tarzida berilgan [8,78].

Amir leksemasi vositasida Amiri lashkar –Temuriylar davrida va keyinchalik Turkiston xonliklarida: eng yuqori harbiy unvon; umuman: lashkarboshi, qo'shin boshlig'i, Amir (erkaklar ismi), amiralmo'minin – (arabcha) mo'minlar hukmdori, ilk islom davridagi xalifalarning unvoni; ilk daf'a ikkinchi xalifa Umarga berilgan, keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan atalgan, amirzoda – Amirning o'g'il va nabiralari, amir avlodi ma'nolaridagi otlar yasalgan.

Shu o'rinda aytish joizki, ko'pgina xorijiy olimlar Amir Temurni mo'g'ul deb atagan bo'lsa, endilikda uni Movarounnahrdagi Keshdan chiqqan barlos turklaridan, - deb ko'rsatishmoqda. Aslida Sohibqiron amirlar sulolasining davomchisidir. Shu boisdan ham

u Movarounnahr taxtiga o‘tirganda xon unvonini olmasdan, o‘z sulolaviy “amir” unvoniga sodiq qolgan. Chingiziylarda amirlik mansabi (unvoni) bo‘lmagan. Ularda davlatni xonlar boshqargan. Amir atamasi islom dinini mustahkamlovchi rahbar ma’nosini o‘zida mujassam etgan. Sohibqiron islom bayrog‘i ostida musulmon dinini nafaqat Turkistonda, balki o‘zga yurtlarda ham yoyish va targ‘ib qilishda ham jonbozlik ko‘rsatgan. Musulmon olamidagi obro‘-e’tiborli sanalgan sayyidlar, shayxlar bilan bamaslahat ish ko‘rgan, ularga ijobiy munosabatda bo‘lgan. Ehtimolki, u hali ham majusiylik alomatlariga ega bo‘lgan mo‘g‘ullarga xos xonlik martabasidan ko‘ra islom dunyosining hukmdorligi¬ni o‘zida ko‘proq mujassam etgan amirlikni afzal ko‘rgandir. Amir Temurga turli epitetlar-buyuk xon, amir, podshoh, buyuk hoqon, sulton, sultonus salotin va boshqalar bilan murojaat qilishsa-da, u amir unvoni bilan cheklangan. Shu tufayli uni Amir Temur deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki amir arabcha leksema bo‘lib, “hukmdor, lashkarboshi” ma’nolarini anglatadi.

Xullas, Amir Temur, eng avvalo, islom dunyosining buyuk hukmdori, bu qudratli e’tiqodni yer yuziga targ‘ib etuvchi va islom dini uchun fidoyi buyuk shaxsdir. Shu bois ham xon unvoniga nisbatan amir unvoni Temurbek uchun oliy unvon hisoblangan. Yoshligida bek leksemasi qo‘shilgan. Amir leksemasi esa sohibqironning 1370-yildan so‘nggi faoliyati natijasida ismiga qo‘shilgan. Temur saltanatida amir eng oliy, buyuk mansab sanalganligi, Temur shu saltanat asoschisi bo‘lgaligi uchun ham uning ismiga amir leksemasi qo‘shilib Amir Temur qo‘shma ismi yuzaga kelgan. Ismning bu lisoniy shaklda joriylanishi turkona, qadimiy sharqona ismi shariflar an’anasiga to‘la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи.–Тошкент: Фан, 2013.– Б.76.

2.Муҳаммаджонов А. “Соҳибқирон” ва “Зулқарнайн” атамалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005, 3-сон, 31-34-бетлар; Ҳамроев М. Соҳибқирон – саодат соҳиби демак // Қашқадарё ҳақиқати, 1991, 27 апрел сони.

3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 3-jild.–Toshkent: O‘zME, 2007. – B.564.

4.Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмуаи баҳрайн. 2-жилд, иккинчи ва учинчи қисмлар. 1429-1470 йиллар воқеалари. Форс тилидан А.Ўринбоев таржимаси. – Тошкент: Фан, 1969. 450 б.

5.Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Форс тилидан эски ўзбек тилига Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али Бухорий таржимаси. Лексема боши ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент : “Шарқ”, 1997. 382 б.

6.Муҳаммад Али. Амир Темур солномаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. 2008. – Б. 8.

7.Муҳаммаджонов А. “Соҳибқирон” ва “Зулқарнайн” атамалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005, 3-сон, 31-34-бетлар;

8.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild.–Toshkent: O‘zME, 2006. 78-b.

Dildora BOSHMANOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOVNING ANTROPOLINGVISTIK QARASHLARI

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda hukmron bo‘lgan antropotsentrik tadqiqot paradigmasi namoyon bo‘la boshladi. Olim fikriga ko‘ra, antropolingvistika til jamiyatida inson psixologiyasini imkon qadar to‘liq va ochiq ifoda etishga imkon beradi. Bundan tashqari, odam, qoida tariqasida, tayyor mahsulotdan foydalanmaydi, balki o‘z fikrlarini ifodalash shaklini tanlaydi va ko‘pincha yaratadi. Maqolada lingvistik shaxs lingvistik kulturologiya nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Til shaxsining asosiy tasniflari, uning tuzilishi, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq darajalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *antropolingvistika, antropotsentrik, lingvokulturologiya, nutq, madaniyat vakili, lingvistik shaxs tuzilishi, lisoniy shaxs;*

Аннотация: во второй половине XX века в лингвистике стала формироваться доминирующая антропоцентрическая исследовательская парадигма. По мнению ученого, антрополингвистика позволяет максимально полно и открыто выразить психологию человека в языковом обществе. Кроме того, человек, как правило, не пользуется готовым продуктом, а выбирает и зачастую создает форму выражения своих мыслей. В статье языковая личность рассматривается с точки зрения лингвокультурологии. Анализируются

основные классификации языковой личности, ее структура, близкородственные уровни.

Ключевые слова: *антрополингвистика, антропоцентризм, лингвокультурология, речь, представитель культуры, структура языковой личности, языковая личность;*

Annotation: in the second half of the 20th century, the dominant anthropocentric research paradigm in linguistics began to appear. According to the scientist, anthropolinguistics allows to express human psychology in the language society as fully and openly as possible. In addition, a person, as a rule, does not use a ready-made product, but chooses and often creates a form of expression of his thoughts. In the article, the linguistic person is considered from the point of view of linguistic culturology. The main classifications of the language personality, its structure, closely related levels are analyzed.

Key words: *Anthropolinguistics, anthropocentric, linguoculturology, speech, representative of culture, structure of linguistic personality, linguistic personality;*

Antropolingvistikaning paydo bo‘lishi Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Rossiya va Ukrainaning taniqli terminologlari tomonidan 2004-yilda Belystokda bo‘lib o‘tgan konferentsiyada imzolangan "Bialistok manifesti" da e’lon qilingan, uning natijalari "Bialistok" ning birinchi jildida o‘z aksini topgan. Rivojlanayotgan antropingvistika nazariyasining yana bir muhim jihati E.Gekkelning biogenetik qonuni “Kulagina” nomi bilan mashhur bo‘lgan inson evolyutsiyasida filogenez (turning tarixiy rivojlanishi) va ontogenez (organizmning individual rivojlanishi) o‘rtasidagi o‘xshashlik mavjudligining obyektivligi bilan bog‘liq. [1, 24]. So‘z boyligi hajmining o‘sishida aks ettirilgan bolalarning aqliy rivojlanishi to‘g‘risidagi psixologiyada mavjud bo‘lgan ma’lumotlar dunyoning leksik rasmining rivojlanishining dastlabki bosqichlari bolalarda va butun insoniyatda o‘xshash degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Tafakkurning dastlabki bosqichining asosiy xususiyatlari - insoniyatdagi sodda fikrlash (ular lug‘atning eng qadimgi qatlamlarida aks ettirilganidek) va bolalarda bir xil - so‘zlarning ma’nosining noaniqligi va sinkretizmi, qat’iy ilmiy tasniflarning yo‘qligi; yangi lug‘atni o‘zlashtirish jarayonida ma’nolarni aniqlashtirish va qayta taqsimlash.

N.Mahmudov antropolingvistika bilan jiddiy shug‘ullandi va tilni inson tomonidan idrok etish prizmasi orqali o‘rgandi. U o‘z asarlarida odamning atrofidagi nutqni eshitish va tushunish qobiliyati va qobiliyatining hal qiluvchi ahamiyatini qayta-qayta ta’kidlagan. N.Mahmudov fonemalarni fonetik birliklar sifatida ajratish mezonlarini ishlab chiqdi, chunki ular so‘zlarning tovush qobig‘ini ajratishda ishtirok etadilar. So‘z shakllarini farqlovchi tovush birliklari fonemalardir. Ona tilida so‘zlashuvchi lingvistik ongdagi fonemalarni turli tovushlar sifatida ajrata olishi kerak. N.Mahmudov odam muloqotga kirishayotganda nutq tovushlarini takrorlashini hisobga olgan, shuning uchun u funksional darajada namoyon bo‘ladigan fonemalarning ijtimoiy ahamiyati haqida ham yozgan. Gap shundaki, nutq tovushi jamiyatdagi muayyan harakatga qaratilgan, shuning uchun u tegishli ogohlantiruvchi funktsiyaga ega. Fonemani o‘rganishga bunday yondashuv N.Mahmudov “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” maqolasida rus tilida ona tilida so‘zlashuvchilarning nutq xatti-harakatlarini har tomonlama asoslab beradi. [2, 22] Unda olim nutqiy faoliyat tushunchasi, til tizimi va til materialini F.de Sossyurdan avvalgidan farqli tarzda muhokama qilgan.

Mahmudov nutq faoliyatini xarakterlaydi, F. de Sossyur esa nutq insonning mulki ekanligini ta’kidlagan. N.Mahmudov nafaqat insonning psixofiziologik nutq tashkilotiga ishora qiladi, balki nutq faoliyatini til tizimidagi ma’lum bir tabiiy ijtimoiy mahsulot sifatida taqdim etdi, chunki odamlar unda odamlarni ijtimoiy guruhga birlashtiruvchi ijtimoiy qadriyatni ko‘radilar. N.Mahmudovning ta’kidlashicha, lug‘at va grammatikada keltirilgan til tizimining barcha o‘lchovlari faqat gapirish va tushunish jarayonlaridan kelib chiqadigan tushunchalardir. Professor til materialini turli matnlarda mustahkamlangan ijtimoiy guruh hayotining muayyan vaziyati va davrida aytilgan va tushuniladigan narsalarning yig‘indisi deb atagan. [3, 154]

N.Mahmudovning yozishicha, nutq faoliyati notiqning til tizimini bilishi sharti bilan shakllanadi, chunki u amaldagi qoidalarga muvofiq matn yaratish va tushunish imkoniyatiga ega. Ushbu jarayonlarning mazmuni hal qiluvchi omil hisoblanadi, chunki olimning fikricha, matnlarni yaratishda nafaqat sintaksis qoidalari, balki, birinchi navbatda, ma’nolarni yaratish va ifodalash qoidalari qo‘llaniladi, buning natijasida yangi ma’nolar paydo bo‘ladi.

Tilshunoslikda muhim o‘rinni lingvistik eksperiment egallaydi. Olimning ta’kidlashicha, matnlardan til tizimini ajratib olish tilshunos uchun tahlil qilishning yagona mumkin bo‘lgan usuli emas, ikkinchisi eksperimental ish natijalari bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Buning uchun tanlangan til materialini ko‘p sonli turli xil kontekstlarda ko‘rib chiqish kerak, bu mustaqil kuzatish va tadqiqotga tayanish imkonini beradi. N.Mahmudov ma’lum bir so‘zning ma’nosi, shakli yoki so‘z va shakl yasalish qoidasi to‘g‘risidagi taxminni amalda tekshirish muhimligini yozadi, chunki bunday eksperiment davomida qatorni qurish mumkin emasligi aniqlash mumkin. Ishlab chiqilgan qoidani qo‘llash orqali kengaytirilishi mumkin bo‘lgan iboralar. Olimning fikricha, eksperimental ishning salbiy natijasi

individual va umumiy nutq tizimini o‘rganish uchun ijobiy natijadan kam emas. Odamlar ko‘pincha og‘zaki nutq xatolarini sezmaydilar, chunki ular ijtimoiy jihatdan asoslanadi (til tizimi quloq orqali ma’lumotni adekvat qabul qilish uchun muhim bo‘lmagan mumkin bo‘lgan xatolarni ta’minlaydi).

Olimning so‘zlariga ko‘ra me’yorning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi baholovchi tuyg‘uga bog‘liq, tilning tuyg‘usi uning assimilyatsiyasi bilan parallel ravishda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Nutq faoliyati vaziyatga qarab ifodalanmasligi yoki qisman mavjud bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun odamlar ko‘pincha idrok etilgan materialda biror narsa yetishmasa, tashqaridan olingan ma’lumotlarni to‘ldiradilar.

N.Mahmudovning antropologik qarashlari faol va passiv grammatikalarni farqlashga bag‘ishlangan asarlarida ham namoyon bo‘ladi. U faol grammatika bilan passiv grammatikani qarama-qarshi qo‘yib, faqat til birligining shaklidan uning ma’nosiga qarab emas, balki ko‘p sonli o‘xshash shakllar orasidan eng mos keladiganini tanlagan holda ma’nodan shaklga ham borish mumkinligini ko‘rsatdi. O‘zining uslubiy ishlarida N.Mahmudov antropolingvistik g‘oyalarni ham kiritdi. U yerda akademik pedagogik jarayonda talabalarning aqliy qobiliyatlarini ustuvor rivojlantirish zarurligi haqida yozadi, chunki ular fikrlashni o‘rganishlari kerak. Tilda ochilgan qonuniyatlarni umumlashtirish natijasida qoidadan misolga emas, jonli misollardan qoidalarga amal qilish muhimdir.

Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikada ilmiy tadqiqotlar "inson - ong - til" uchligiga asoslanadi, chunki shaxs bir vaqtning o‘zida tilning yaratuvchisi, tashuvchisi va foydalanuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uchlikni biridan boshqasini ayro qo‘yib bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan, fan lingvistik shaxs to‘g‘risida lingvokognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik toifalarning kesishishi va kombinatsiyasi markazi sifatida g‘oyani shakllantirdi. E.G.Belyevskaya va T.N.Malyar madaniyatlararo muloqot nazariyasini chet tillarni o‘qitish va o‘rganishning yetakchi metodologik tamoyili deb hisoblaydi, bu esa o‘rganish jarayonida o‘z tillarini o‘zlashtirgan shaxsning lingvistik ongini shakllantirish mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Mohiyatan, bu kognitiv tilshunoslikning muayyan lingvistik material bilan ishlashning uslubiy tamoyillarini ta’minlovchi qoidalariga to‘g‘ri keladi. [4; 34]

N.Mahmudov ko‘pincha chet tilini bilish ona tilingizni yaxshiroq tushunishga va dialektik fikrlashni shakllantirishga imkon berishini ta’kidladi. Til va tafakkur bitta bo‘lib, bu fikrni ifodalash usullaridan ajralishiga to‘sqinlik qiladi, shuning uchun agar inson faqat bitta tilda gapirsa, u turli tillardagi ekvivalent tushunchalar har doim va hamma joyda amal qiladi degan xayolda bo‘ladi. Qiyosiy tilshunoslik insonni bunday illyuziyadan xalos qiladi, ongini rivojlantiradi. Bir nechta tillarni bilish fikrni uni ifodalovchi belgidan ajratishni va ona tilida so‘zlashuvchilarning voqeligini hisobga olgan holda turli fikrlarning soyalarini yaxshiroq tanib olishni o‘rganishga imkon beradi. Fikrning til so‘zlaridan ozod bo‘lishi uning chinakam dialektik ilmiy tus olishiga imkon beradi. Bir necha tilda so‘zlashuvchi odam o‘z fikrini ona tilida turli toifa va tushunchalarda turli ifoda vositalari bilan ifodalay oladi. Natijada, odam o‘z fikrlarini mazmuni bilan ifodalash usullarini aniqlashni butunlay to‘xtatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, N.Mahmudovning asosiy tushunchalari antropolingvistik nazariyaga tayandi, bu unga eng muhimini hal qilishga imkon beradi. Olimning umumiy tilshunoslik, psixolingvistika, leksikografiya, grammatika va fonologiya fanlarining rivojlanishidagi xissasi juda katta. U tilning barcha darajalarida ilg‘or lingvistik nazariyalarni shakllantirish va rivojlantirishga muvaffaq bo‘ldi. Shuni ta’kidlash kerakki, olimning ilmiy va pedagogik faoliyati bir-birini boyitgan, shuning uchun u o‘zi ishlab chiqqan tushunchalarni hayotga tatbiq etish, boshqacha aytganda, odamlarga ona va chet tillarini o‘rgatishning real sharoitida hayotiyligi va samaradorligini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan. N.Mahmudov iste’dodli tashkilotchi, shuning uchun u ko‘plab yangi ta’lim va ta’lim loyihalarini amalga oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi// Mumtoz so‘z. – T., 2017.22 b.
2.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012.24 b.
3.Yo‘ldoshev M., Andaniyozova D. Zarif so‘z ziyorati// Anlam kitap. – Anqara., 2022.154 b
4.Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis// O‘qituvchi. – T., 1995. .232 b

Nargizaxon NURDINBAYEVA,
Namangan davlat universiteti O‘zbek tili ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK – ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MAKTABLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslikning tarixi, tadqiqot obyekti va yo‘nalishlari hamda uning istiqbollari, erishgan yutuqlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, antroposentrik tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy birliklar, “til-shaxs-madaniyat” uyg‘unligi, madaniy sema, pretsedent birliklar.*

Annotation: in this article, analyzed the history, object and directions of linguoculture, as well as its propects and achievements.

Key words: *language, culture, anthropocentric linguistics, linguoculturology, linguocultural units, “language-person-culture” harmony, cultural context, precedent units.*

Аннотация: в данной статье анализируются история, предмет и направления лингвокультуры, а также ее перспективы и достижения.

Ключевые слова: *язык, культура, антропоцентрическая лингвистика, лингвокультурология, лингвокультурные единицы, гармония языка человека и культуры, культурный контекст, прецедентные единицы.*

Til insonning yashashi, tafakkur qilishi, his-tuyg‘ulari va g‘oyalarini boshqalarga yetkazishda, jamiyat a’zolari bilan muloqot qilishda, ajdodlaridan qolgan madaniy va ilmiy meroslarni kelajakka qoldirishda asosiy vositadir. Til bevosita necha asrlardan beri madaniyat bilan bog‘liq hamda u bilan bitta ildizdan oziqlanadi. Har bir millatning kundalik turmush tarzi, tarixi va mentaliteti til va madaniyatda aks etadi.

XXI asr boshlarida tilning madaniyatda aks etishi va aksincha madaniyatning tilda yashashi, inson ongining shu paytgacha fanga yashirin bo‘lgan tomonlari, tajribasi hamda inson bo‘lish hissini anglash haqidagi tasavvurlari yuzaga chiqa boshladi. Bu hodisalar fanlar tarmog‘idagi integratsiyaga, ya’ni o‘zaro hamkorlik va yaqinlashishga va yangidan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayonlar tilshunoslik fanida ham o‘z aksini topdi. Endilikda til va til egasi, shaxs omili barcha tadqiqotlarda asosiy o‘ringa chiqdi, chunki I.A.Boduen de Kurteneni ta’kidlaganidek, “til faqat individual miyalarda, faqat ruhlarda, faqat ma’lum bir til jamiyatini tashkil etuvchi shaxslar yoki individlar ruhiyatida mavjuddir”[1: 6].

Sistem-struktur tilshunoslik zamin hozirlab bergan lingvistik jarayonlarda antroposentrik tilshunoslik yoki neolingvistika deb nomlanuvchi, tilshunoslik tarixida alohida burilish hosil qilgan paradigma maydonga keldi. Bunday lingvistikaning rivoji jahonda gumanitar fanlarda diskursiv burilish deb nomlangan davrga to‘g‘ri keldi. Tilshunoslik ilmiy paradigmasiga “til shaxsi” kategoriyasining kiritilishi ilgari tilshunoslik nazaridan chetda qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo‘lgan fanlarda qo‘llanilgan shaxs, ong, tafakkur, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o‘zlashtirilishiga olib keldi [2: 93].

Antroposentrik paradigma psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tarix, tibbiyot, madaniyatshunoslik va ko‘plab fanlar bilan o‘z tadqiqot masalalariga chuqurroq yondashishda, til haqida bilimlar va nazariyalarni boyitishida eng innovatsion usullar bilan ish yuritish uchun, o‘z yutuqlari va istiqbollarini asosli dalillash uchun birgalikda ishlaydi.

Antroposentrik paradigmaning hozirda ko‘plab yangi maktablari vujudga kelishga ulgurdi. Jumladan, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, neyrolingvistika, lingvopublitsistika, kompyuter lingvistika, gender lingvistikasi, paralingvistika, lingvosergetika kabi yo‘nalishlar insonning til bilan bog‘liq hodisalardagi o‘rnini tadqiq etmoqda. Lingvomadaniyatshunoslik muayyan jamiyat a’zolarining madaniy an’ana va qadriyatlarini til orqali o‘rganib, uni qayta ishlab va saqlashni o‘rganuvchi sohadir. Lingvomadaniyatshunoslik (madaniyat va til o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi fan) barcha an’anaviy tarzda ajratilgan til birliklari (so‘zlar, idiomalar, iboralar, matnlar va boshqalar) madaniyatning obyektiv elementlari sifatida namoyon qiladi [3: 136].

Lingvokulturologiya xalqlarning adabiy va madaniy merosi bo‘lgan miflar, afsonalar, marosim va e’tiqodlar, an’ana hamda urf-odatlar, madaniy yodgorliklarda aks etgan til arxetiplarni “til-shaxs-madaniyat” uyg‘unligida tadqiq qiladi va madaniyat “tili” talqini bilan shug‘ullanuvchi antroposentrik

soha sifatida fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotativlik, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalarni olib kirdi [4: 15], bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi [5: 144]. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqot obyekti sifatida frazeologizmlar, metafora, ramzlar, o‘xshatish, muqobilsiz leksika, lakunalar, stereotiplar, maqol, matallar va boshqa nutqning turli etiket shakllarini tahlil qiladi. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniy hodisa sifatida o‘rganadi. Bu til o‘ziga xos milliy mentalitetning ifodasi sifatida harakat qilganda, dunyoni milliy til prizmasidan ma’lum bir ko‘rishdir [1: 8].

Lingvomadaniyatshunoslik sohasiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar XX asr oxiriga kelib Rossiyadagi tilshunoslik maktablarida ko‘zga tashlana boshladi. Rus olimi S.Y. Stepanov, N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, V.V.Vorobev, V.M.Shaklein kabi tilshunoslar tomonidan yaratilgan maktablar qolgan tadqiqotchilar uchun metodologik va ilmiy jihatdan dastur vazifasini o‘tadi. Maktab asoschilari rus madaniyatshunosligining asosiy negizi sanalgan qadimgi bitik matnlari, iboralar, atamalar, yozuvchilar asarlari va so‘zlarning kelib chiqish tahlillariga to‘xtalishgan. Aslida, barcha lingvomadaniyatshunoslikka oid g‘oyalar nemis olimi va faylasufi V. fon Gumboldtning til falsafasi haqidagi fikrlariga borib taqaladi.

Lingvomadaniyatshunoslikka oid izlanishlar o‘zbek tilshunosligida dastlab D.Ashurova, Z.I.Soliyevning nomzodlik dissertatsiyasida, prof. N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida, D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasida aks etdi.

Monografiyada lingvokulturologik tadqiqotlardagi masalalarga to‘xtalgan, ya’ni 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil qilingan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil qilingan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda asosan rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda ijtimoiy fanlarda o‘quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish asosiy maqsad qilib olingan [6: 33].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, lingvokulturologiya madaniy munosabatlar lingvokulturologiyasi, diaxronik lingvokulturologiya, qiyosiy lingvokulturologiya, chog‘ishtirma lingvokulturologiya, lingvomadaniy leksikografiya [7:22] kabi yo‘nalishlarida hozirgacha ko‘plab yutuqlarga erishdi va metodologik va nazariy asosiga ega mustaqil tilshunoslik maktabi sifatida neolingvistikada o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маслова В.А. Лингвокултурология: Учеб.пособие для студ. Высш. Учеб, заведений. – Москва: Издательский центр Академия, 2001. – С. 6.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик 3-ж. –Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 93.
3. Slyshkin G.G., Zheltukhina M.R., Baybikova S.,I. Zubareva T.T. The linguistic-cultural conceptology as a trend in contemporary Russian linguistics. 4th International Conference on the political, technological, economic and social processes, ISPC 2014. 136.
4. Худойберганова Д. Лингвокултурологияда маданий код тушунчаси ва талқини // O‘zbek tili va adabiyoti 2019. № 9 – Б. 15.
5. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. 144-bet.
6. Худойберганова Д. Матннинг антропосентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 33.
7. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik). – Toshkent, 2019. 22-bet.

Alijon XUSHVAQTOV,
O‘zbekiston-Finlyandiya Pedagogika Instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Nigina SOBIROVA,
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti “Chet tillar”kafedrasi katta o‘qituvchisi

TILSHUNOSLIKDA “ILOVA QURILMA” TUSHUNCHASI, ULARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TALQINI

Annotatsiya: bu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan ilova konstruksiyalar va ularning tahlili haqida so‘z boradi. Tilshunoslikdagi ilova konstruksiyalarning formal, semantik xususiyatlari, hamda uning o‘zaro tarjimalaridagi holati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ilova qurilma, tilshunoslik, tushuncha, semantik tahlil, formal xususiyatlari, o‘zaro tarjima.*

Аннотация: в данной статье речь идет о присоединительные конструкциях, встречающихся в английском и узбекском языках, и их анализе. Обсуждаются формальные и семантические особенности присоединительные конструкциях в лингвистике, а также их статус во взаимных переводах.

Ключевые слово: *присоединительные конструкции, лингвистика, понятие, семантический анализ, формальные свойства, взаимный перевод.*

Annotation: this article deals with detached constructions found in English and Uzbek languages and their analysis. The formal and semantic features of detached constructions in linguistics are discussed, as well as their status in mutual translations.

Keywords: *detached constructions, linguistics, concept, semantic analysis, formal properties, mutual translation.*

Muammo mazmuni

So‘nggi paytlarda lingvistik adabiyotlarda uchraydigan sintaktik birikmalarning kompozitsiya va tobelanish kabi turlari bilan bir qatorda, murakkab qurilmalar hisoblanmish ilova hodisasini olimlar yangi sintaktik hodisa sifatida tilshunoslikda qayd etishmoqda. Ilova qurilma muammosi asosan rus tilida o‘rganilgan, ammo ingliz tili va o‘zbek tillarida bu muammo yetarlicha o‘rganilmagan masalalardan biridir.

Ilova qurilmaning shakllari bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Ba’zi tilshunoslar ilova qurilma nutq paytida o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan qo‘shimcha fikr desa, boshqalar, aksincha, ilova qurilmalar yordamida kutilgan fikrga butunlay boshqacha ma’no ifodalashiga ishonishadi. Ba’zi tadqiqotchilar esa ilova konstruksiyalar so‘zlashuv nutqida asosiy mazmun ifodalangandan so‘ng darhol yuzaga keladigan murakkab konstruksiya sifatida qayd etadilar.

Tadqiqot uslubining tavsifi.

Xorijiy tilshunoslar ilova-qurilma hodisasi bilan aynan shug‘ullanishmagan. Ular ilovaning gaplardagi sintaktik aloqalarining ayrim masalalarini ko‘rib chiqishgan. Faqat bir nechta mualliflar ilovani mustaqil sintaktik bog‘lanish xususiyati to‘g‘risida fikr bildirgan bo‘lsa, ayrim chet el tilshunoslari mustaqil gaplar orasidagi sintaktik bog‘lanish imkoniyatini inkor etadilar.

Zamonaviy tilshunoslar ilova qurilma gapga qaraganda ancha murakkab sintaktik birlik deb hisoblashadi. O‘sha tilshunoslarning fikriga qo‘shilgan holda aytish joiz-ki, ilova sintaktik bog‘lanishning maxsus turi. Boshqacha qilib aytilganda, ilova kompozitsiya yoki struktura turi emas, u mustaqil sintaktik aloqa turi. Biroq, ilova qurilma o‘ziga xos grammatik xususiyatga ega emas. Ular kompozitsiya va asosiy gapning grammatik shakllaridan foydalanadilar, lekin ayni paytda ularni yangi mazmun bilan to‘ldiradilar.

Natija. Ushbu hodisani ingliz tili misolida berilishi:

1. Ilova qurilma to‘liqsiz gap shaklida keladi:

– I should have thought he was too young to have been in the war.

– He was. Much too young. He behaved very badly. He ran away from school (J. Hilton)

O‘zbek tilida: Ertaga. Soat kunduzgi o‘n ikkida.

Ushbu jumlada tugallanmaganlik xususiyati mavjud.

Ertaga asosiy, soat o‘n ikkida ilova qurilma tugallanmagan gapning bir turi. Agar ushbu jumlani to‘liq shaklda, ya’ni Ertaga. Kunduzgi soat o‘n ikkida uchrashamiz berilsa,yuqoridagi holatda gapning birinchi qismi to‘liq bo‘lmaganligi sababli to‘liqsiz qoladi. Fikrlar zamon sharoiti bilan ifodalanadi (ertaga), shuning uchun ilova konstruksiya (kunduzgi o‘n ikkida) bosh gapning tarkibiy qismi bo‘lib keladi, gapning tarkibiy-semantik birligini tashkil etadi. Aytish mumkin-ki, ilova qurilma oddiy jumlaning murakkabga aylantirishini isbotlaydi.

2. Tobe gap shakliga mos keladigan ilova konstruksiya:

Ingliz tilida:

– I don’t worry now. Because you do not worry either (J. Lindsay).

O‘zbek tilida:

Xavotir olmang, biz tugatmadik. Men

yarashmoqchiman.

O‘zbek tilidagi Men yarashmoqchiman ilova qurilma ingliz tilidagi kabi ergash gapga to‘g‘ri keladi. Ushbu ingliz va o‘zbek tillaridagi misollarda ilova konstruksiyalar Because you do not worry either va Men yarashmoqchiman bosh gap fikrining davomi bo‘lib, sodda gapga qo‘shimcha predikativlik qo‘shib, gapning mantiqiy xulosasi hosil qiladi.

3. Bog‘lovchilar bilan ifodalangan ilova qurilmalar: Ingliz tilida:Then she thought: I better do my beauty. And moved closer (S. Heym).

O‘zbek tilida: Kulmang. Siz yolg'izsiz, ammo u yolg'iz emas.

4. Bog‘lovchisiz ilova qurilmalar:

Ingliz tilida: Clay threw himself on the bed next to Gerelli. The springs creaked. Clay was a heavy man (S. Heym)

O‘zbek tilida: Tungi vagonda. Uyqusiz insonlar. Jomadonlar. Suhbatlar.

Ilovaning birinchi turida, to‘liqsiz gaplarda ilova qurilmasi eng ko‘p uchraydigan turi hisoblanadi. Ular gapning tarkibiy davomi va tugallovchisi bo‘lib, ma’nosini kengaytiradi. Quyidagi to‘liqsiz gaplardagi ilova qurilmalarning tarkibiy va semantik turlari:

1. O‘zak to‘liq bo‘lmagan gaplar:

Of his whole platoon, three men were left. Three men. He said he wanted to live, just live.

Uning butun vzvodidan uchtasi qolgan edi. Uch erkaklar. U yashashni, faqat yashashni xohlayotganini aytdi.

O‘zbek tiliga bunga misol qilib : Jahon statistikasi nima deydi? Har bir konda ellik foizgacha neft qoladi. Ellik foiz. Bunda ilova konstruksiyaning semantik-stilistik vazifasi, shubhasiz, asosiy gapning predmetiga urg‘u beradi. Ilova ajratilgan va birikishda takrorlangan konstruksiya sifatida qo‘shimcha predikativlik kiritadi, oldingi sodda gapni kengaytiradi va murakkab tipdagi to‘liq shakllangan sintaktik konstruksiyani targ‘ib qiladi.

Ilovali subyekt asosiy gapning subyektini aniqlab berishi mumkin. As he made his way down it to reach the level stretch of the river, he saw with exasperation that someone, a child, was there already, lying face downward on the bank, dipping one arm in the water. A girl (S. Heym).

Ilova qurilma asosiy gapni nafaqat ta’kidlab, aniqlab keladi balki uning semantik va tarkibiy jihatdan kengaytiradi. We were being evacuated. Five thousand of us, the strongest (S. Maugham).

Men qishloqni sevaman, qizim. Yerni sevaman. O‘zbek tilidagi ushbu jumlada ilova qurilma yerni sevaman iborasi asosiy jumlani to‘ldiribgina qolmasdan uning semantikasini to‘ldirishga xizmat qilmoqda. Qaysi yer? Tug‘ilib o‘sgan va yashab turgan yer haqida gapirilmoqda.

Endi shu jumlani ingliz tiliga tarjimasida ilova mavjudmi degan savol tug‘iladi. I love the countryside, my daughter. I love the earth. Demak, ilova mavjud emas.

2. O‘zagi bo‘lgan to‘liqsiz gaplar. She come and look at the boat. And I know himself up something fierce tonight. Shaved himself (J. W. Brown). Ingliz tilida o‘zak so‘z Shaved himself esa predikatdir.

O‘zbek tilida shu misolga yaqin quyidagi jumlani aytish mumkin. Boring! Uxlang. Bu yerda ilovadagi asosiy so‘z (Uxlang), to‘liqsiz undov gapga (Boring!) qo‘shilib, uni to‘ldirib keladi.

Bunday holda, predikat qo‘shimcha va holatlar tufayli uzaytirilishi mumkin.

He heaved it open as he shouted, and threw a smoldering cushion into the stone yard. Drew breath, then back into the room (S. Maugham).

Konstruksiya jihatidan bog‘lovchi konstruksiyaning predikati bosh gapning predikatidan farq qilishi mumkin. He was what they call a rough diamond… Took up politics and all that. He was member for some place (J. Storm)

Ilova konstruktsiyaga nominal qism bilan bir xil bo‘lgan birikma bosh gapning predikatidan nominal qismini ajratish odatiy holdir.

He was so alive – y’know, violent alive. And careless and amusing (J. Storm)

O‘zbek tilida shunga mos misol qilib quyidagi jumlani aytish mumkin. Nima uchun ular mening xohishimga qarshi ekanliklarini u biladi, harxolda sezadi. Bu g'alati, g'alati!

Ma’lumotlar. M.Ya.Blox ilova qurilmalarni nafaqat bog‘lovchilar bilan xilma-xil birikkan, balki, aksincha, ularning bevosita mantiqiy davomi bo‘lgan deb hisoblaydi va uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilova hodisasi deb ataydi.

Ilova qurilma bir emas, balki ikki predikatli qismni ajratib turishi mumkin ularning har biri qo‘shimcha ma’no, asosiy gapga nisbatan aniqlik kiritish, tarkibiy va semantik jihatdan sodda gapni murakkablashtirish, shu bilan asosiy gapga qo‘shimcha predikativlikni yaratish kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Yates is dead. Killed. Beaten to death. You aren’t Yates (J. Aldridge). Shu holatni o‘zbek tilida ko‘rish mumkin. Allaqachon kuylamayapman, Akmal. Qaridim. Ushbu misoldagi Qaridim ilovasi asosiy jumlaga bog‘liq bo‘lib, unga sababini izohlab kelmoqda, ya’ni nega endi qo‘shiq aytmasligining sababini tushuntiradi, muallif shu bilan birga butun bayonotga qo‘shimcha predikativlikni hosil qiladi.

Ingliz tilida ilova qurilma fe’l predikatining bir qismi sifatida ishlatiladi. He was trapped out. He knew that every year too, but this time he would find out if it was really complete or not. Then it would start. Going north and leaving Saint Helen (S. Heym). O‘zbek tilida esa bunday holat mavjud emas.

Ilova qurilmada bevosita qo‘shilgan qo‘shimchani ajratish mumkin. There are things we can sell. That

suitcase (S. Heym).

O‘zbek tiliga ushbu jumlani tarjima qilinganda, qo‘shimchani ilovada ajralgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Biz sotishimiz mumkin bo‘lgan narsalar bor. Bu chamadon.

Qo‘shilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shimcha hikoyaning ba'zi tafsilotlarini ta'kidlaydi. Ilovali qo‘shimcha va asosiy gap orasidagi bog‘liqlik o‘zaro bog‘lovchi so‘z, qaysiki o‘tish fe'li orqali amalga oshiriladi. If the arms and legs are suitable. It is so. O‘zbek tilidagi tarjimasida: Agar qo‘l va oyoqlar yaroqli bo‘lsa. Unda shunday.

Xulosa. Demak, ilova qurilma ko‘p tillarga xos hodisa bo‘lsada, har bir tilning qonun qoidasidan kelib chiqqan holda aytish mumkin-ki, har qaysi tilda ilova qurilmasiga o‘sha tilning semantik va formal xususiyatiga mos holda yondashiladi. Ilova qurilma asosan kichik sintaksis hodisa hisoblanib, u nutqimizni ravon va fikrimizni aniq ifodalashga xizmat qiladigan lisoniy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Is’hoqov F. “Hozirgi zamon o‘zbektilida ilovali konstruksiyalar”, “Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari” 2-kitob Toshkent O‘z TA, 1961 y 285-289b

2.Maskopov V. “O‘zbek tilidagi ilovali konstruksiyalar haqida” O‘zbek tili va adabiyoti 1970-y. №6. 50-54-b.

3.Блох М. Я. К проблеме присоединительных связей предложений (на мат-ле русского и английского языков) // Вопросы грамматики английского языка. Уч. зап. МГПИ им. В. И. Ленина. 1969. № 367.

4.Zandvoort R. W. A Handbook of English Grammar – Batavia, 1948, 3 ed. 565 p

5.Hamrayeva F. U. “Badiiy matnda ilova konstruksiyalarning qo‘llanilishi (ma’lum asar misolida)”mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi.- Jizzax. 2013.

6.http://www.edu.uz/

7.http://ziyo.edu.uz/

Marifatxon ANARBAYEVA
Alfraganus University O‘zbek tili va dabiyoti yo‘nalishi
II bosqich magistranti

ANDIJON TIP SHEVALARI TARKIBIGA KIRUVCHI MARHAMAT (MINGTEPA) SHEVASI LEKSIKASI

Annotatsiya: til — ijtimoiy hodisa, shunday ekan, jamiyat va millat taraqqiyoti dastlab tilda voqelanadi. U har doim ijtimoiy hayot bilan yonma-yon yuradi. Bundan tashqari, tilning vazifasiga siyosiy tus berish, uni dunyo bo‘ylab gegemon tilga aylantirish yo‘lidagi kurashlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Bu harakatlar esa endi shakllanayotgan va sofligini nisbatan ko‘proq saqlab qolishga urinayotgan tillarning tabiiy ravishda rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan ham, bugungi kunda har bir millat o‘z milliyligini saqlash maqsadida (milliy filtrlash) vaziyatini taqazo etmoqda. Chunki, til har bir xalqning o‘z tarixi va qadriyatlarini o‘zida saqlaydi va uni keyingi avlodga olib o‘tuvchi vosita sanaladi.

So‘z yuritilayotgan shevaning leksik qatlami adabiy tilning leksik qatlamidan keskin farq qiladigan darajada emas, mavjud fonetik, leksik va grammatik tafovutlar esa nutq jarayonida fikr olishuviga mutlaqo ta’sir etmaydi. Aksincha, ularning bazilari adabiy tilning boyitishga xizmat qilishi tabiiydir.

Kalit so‘zlar: *leksika, sheva, mintaqa, chigil, qoraxoniy,uyg’ur, o‘zbeklar, tojiklar ruslar, qirg‘izlar, infratuzilma, lahja, meros,madaniy, adabiy.*

Annotation: Language is a social phenomenon, therefore, the development of the society and the nation first takes place in the language. It always goes hand in hand with social life. In addition, the struggle to give a political tone to the role of the language, to make it a hegemonic language around the world, is also visible. And these actions have a negative impact on the natural development of languages that are now being formed and are trying to preserve their purity more. For this reason, today every nation is trying to maintain its national identity (national filtering). Because the language preserves the history and values of each nation and is considered a means of transferring it to the next generation.

The lexical layer of the spoken dialect is not significantly different from the lexical layer of the literary language, and existing phonetic, lexical, and grammatical differences have absolutely no effect on the acquisition of ideas in the speech process. On the contrary, it is natural that the literary language serves to enrich some of them.

Key words: *lexicon, dialect, region, chigil, karakhani, uyghur, uzbeks, tajiks, russians, kyrgyz, infrastructure, dialect, heritage, cultural, literary.*

Аннотация: Язык – явление социальное, поэтому развитие общества и нации в первую очередь происходит в языке. Это всегда идет рука об руку с общественной жизнью. Кроме того, видна также борьба за то, чтобы придать политическую окраску роли языка, сделать его языком-гегемоном во всем мире. И эти действия негативно влияют на естественное развитие языков, которые сейчас формируются и стараются

больше сохранить свою чистоту. По этой причине сегодня каждая нация пытается сохранить свою национальную идентичность (национальную фильтрацию). Потому что язык сохраняет историю и ценности каждого народа и считается средством передачи их следующему поколению.

Лексический слой разговорного диалекта существенно не отличается от лексического слоя литературного языка, а существующие фонетические, лексические и грамматические различия совершенно не влияют на усвоение идей в речевом процессе. Наоборот, естественно, что литературный язык обогащает некоторых из них.

Ключевые слова: *лексика, диалект, регион, чигиль, карахани, уйгуры, узбеки, таджики, русские, кыргызы, инфраструктура, диалект, наследие, культурное, литературное.*

Marhamat tumanining tabiiy go‘zalligi mintaqaning yana bir e’tiborli jihati. Tuman go‘zal tog‘lar, yam-yashil vodiylar, unumdor tekisliklari, kelgan mehmonlarni o‘ziga jalb qiladi. Infratuzilmaga kelsak, tumanda ko‘plab maktablar, sog‘liqni saqlash muassasalari va mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiradigan boshqa zarur xizmatlar mavjud.

Marhamat tumanida turli millat vakillari-o‘zbeklar, tojiklar, ruslar, qirg‘izlar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladi. Marhamat tumanida aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etadi. Marhamat tumanidagi millatlarning xilma-xilligi mintaqaning tarixiy va madaniy murakkabligini aks ettiradi, har bir guruh hududning umumiy ijtimoiy tuzilishi va merosiga hissa qo‘shadi. Bu millatlarning birga yashashi tumanning urf-odatlari, so‘zlashadigan tillari va madaniy urf-odatlariga ta’sir ko‘rsatib, etnik xilma-xillikning yaratdi. Ushbu ko‘p madaniyatli dinamika ko‘pincha mahalliy urf-odatlar, festivallar va kundalik muloqotlarda o‘z aksini topadi va Marhamat tumanining yorqin namunasiga aylanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Marhamat tumanining o'ziga xos demografik tarkibi migratsiya, urbanizatsiya va ijtimoiy rivojlanish kabi turli omillar tufayli vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

XII asrlargacha O‘zgand chigillarning poytaxti bo‘lib kelgan, keyinchalik u Andijonga ko‘chadi va bunda turkiy-o‘zbek tili rivoj topadi, Andijon shevasi yuzaga keladi va u O‘rta Osiyoda va undan tashqarida, ya’ni Xurosongacha tarqaladi. Alisher Navoiy va zamondoshlari ham o‘z asarlarini qariyb shu lahja asosida yozganlar. Hozirgi andijon shevasi y lovchi o‘zbek shevalarining alohida keng tarmog‘idir. Bu shevani o‘zbek tilining boshqa shahar shevalaridan farqlovchi bosh va muhim belgilari 9 unli fonemali ekanligi, x va h undoshlarining keskin farqlanishi, I-II shaxs kishilik olmoshlarining (men), (sen) tarzida aytilishi, o‘z olmoshining II shaxs ko‘plik va hurmatlash formasida o‘ziynar shaklida ishlatilishi, oxirida burun ng undoshi bo‘lgan fe’llarga -lar qo‘shimchasi qo‘shilganda -narga aylanib: keliynar, boriynar (ad. tilda kelinglar, boringlar) formasida kelishi, birinchi qismi -ib orqali yasalgan ravishdosh, ikkinchi qismi qo‘ymoq fe’lidan iborat bo‘lgan va ad. orf. deb qo‘y, olib qo‘y kabi qo‘shma fe’llar deppo‘y(di), oppo‘y-(di) tarzida talaffuz etilishi va shu kabilardir .

Marhamat tumani shevasida kundalik turmushda faol so‘zlardan bir nechasi tahlilga tortamiz.

Chach\\choch –(inson bosh tanasidagi soch): oy qiz, chachini yoyib qayaqa ketyapsan?; chochina yaxshilab tara.

Abdasta\\ o‘vdasta- (yuvinganda, tahorat olganda ishlatiladigan chovgin): abdastada issig‘ suv bor obkeber; o‘vadastani o‘choq ichiga solib qo‘y choy ham qaynab qoladi.

Ajabsanda-dimlama(taom): bugun sizlarga bir ajabsanda qilib beray, ashqavoqlardan solib; olovni past qilib qo‘ysang, qozonda ajabsanda bor, mazaliyloroq bo‘lib pishadi.

Alo‘kurek-(xokandoz uydagi chiqindilarni olish uchun ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or buyumi): alo‘kurekni opkelo‘vr uylarni supurib bo‘ldim, axlatlarini optasheyman; kuyovjo‘ralar kelguncha, cho‘g‘ni alo‘kurekka sop tur, keyin ustiga isiriq sop opkiro‘rasan.

Anata- (ana u yerda); anatta turgan narsaniyam ko‘rmiysanmi, o‘zim boribqareymi; bor anatta turipti seni kutip.

Apam-(onam): pamga aytaman, meni o‘ynatmayapsan(bola tilidan); apa bugun non yopasimi?

Apkelin-(opkeling): apke biyaqqa, seni narsanmasku; stollardi apkiriylar ichkariga, havo aynip turipti, yomg‘ir yog‘vormasin.

Arvoq-(ozg‘in); qizdi ko‘rdiy chochlari uzun, o‘zi arvoqqineykan; bunacha arveyib kettin, ro‘za tutdinmi.

Astiyam-(hecham): astiyam shu tuyga bormasdimu, yaqin urug‘imizag hafa bo‘lishadi; astiyam boshiga bunaqa kun tushmasina, bola bechoralaiga jo‘vr bo‘ldi.

Asteydil-(astoydil, chin dildan xohlab): asteydil bo‘lib ketyato‘dim akez to‘xtatib qoldida, shunga uyda qoldim; asteydil yig‘ilib sumalak boshlab yubordik, keliylar.

Ayaq-(oyoq): bugun jtd(jismoniy tarbiya darsi) da yugurolmiyman ayag‘im og‘riyapti; ayag‘ini ol, hammaga halaqt beryapti.

Ayne\\oyne-(ko‘zgu): mncha aynekka qaro‘rasan, yaxshi turibdiku ko‘yneyin; oyneylarda salqin tushganda artmasen iz bo‘p qoladi.

Bo‘mboq-(do‘mboq): bo‘mboqinna bo‘ib yuribsanmi, lo‘mbillap; voy mano‘vi bolachani qara, bo‘mboqineyakan.

Bo‘tik-(etik): ko‘cha qor bo‘tigini kiyvol. oyog‘ing sovuqotib qolmasin; bu yil qishga bo‘tiy olishim kerey.

Bo‘tana-(loyqa suv): ariqdegi suv rosa bo‘taneykan, kir yuvib bo‘miydi; suv bo‘tana bo‘sayam paqirlarga opqo‘y, jichcha tursa tinadi.

Bolish- (yostiq): qizimni sarposidagi bolishlarga gulli bahmaldan qoplama qildim; mehmonlar kelganda yumshoqqqinq suyanib o‘tirsin deb; par bolishda yotishdan ko‘ra paxtali bolishni xush ko‘raman.

Burung‘i-(avvalgi): burung‘I zamonda qizlarga dutor cholish mukin bo‘maganda, yashirib cholardik akam ko‘rsa so‘kib berardi; burung‘I kinolar oq qora rangda olinga.

But-(hamma narsasi bor): kelindi narsasi butdimi, yana nimasi kam; ro‘zg‘oring but bo‘ldimi, biror kaming bo‘sa ayt opkeberamiz.

Charx tovoq- (katta lagan,15-20 kishilik): choyxonda ovqatlar asosan charx tovoqqa solinadi.; Marg‘ilondan charx taovoq opkeldim, oshnalarim kelsa shu tovoqda osh yiymiz.

Chilopchin-(qo‘l yuvganda suvi shu idishga tushadi, asosan mehmonlar kelganda qo‘liga suv quyishda ishlatiladi): chilopchin bilan chachig‘di tayyar qiptur, mehmonlar kelishi bilan qo‘llariga suv quyasan.

Chimtomoq- (kam ovqat yeydigan odam): kichik qizim chim tomoq bo‘lgani uchun juda ozg‘in, tez-tez kasal bo‘ladi; Saltanat hola kasal bo‘lganidan keyin chimtomoq bo‘p qogan.

Chirolig‘\\chreyli\\chiroyli-(chiroyli): ko‘ylegiz rosa chirolig‘ikana; Mamatakani qizi chireylikinna bo‘pti.

Cho‘ltoq shprgi- (spurgini eskirib, shoxlari to‘kilib kichkina bo‘lgan shakli): daraxtlarni oqlleymiz cho‘ltoq shprgilarindan bo‘sa opke ishlatamiz; voy bu cho‘ltoq shprgi bo‘pqoptiku, yangisini olaylik.

Chorsi-(qiyiq,belbog‘): Karima hola chorsilar chetiga gul tikib sotadi; kuyovbolaga to‘nga qo‘shib chorsiyam oldizmi.

Chukronto‘y-(sunnat to‘y): o‘g‘illarizag chukronto‘y qildizmi?; chukronto‘yga usta gaplashib keeling.

Dasmol chachiq- (oshxonda ishlatiladigan sochiq): dasmol chachiq bilan qozonni yaxshilab artib bergin;

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ibrohimov .S.O‘zbek tilining Andijon shevasi 8-bet. “Fan” nashryoti. Toshkent 1967.
2. O‘zbek tilining izohli lug’ati 2023-yil “Gafur G‘ulom nashriyoti”
3. Йўлдошев Т. Жанубий Тожикистондаги ўзбек шевалари: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. - Тошкент, 1968. – 25 б.
4. Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси (феъл). - Тошкент: Фан, 1986. – 100 б.

Zarrina MUZAFFAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi

KOGNITIV METONIMIYANING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kognitiv metonimiya nazariya borasidagi fikrlar bu jarayonning jahon tilshunosligidagi tadqiqi, metonimiyaning ayrim kognitiv modellari xususidagi qarashlar, metonimiyaning kognitiv jarayonda tutgan o‘rni qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *til, metonimiya, troplar, kognitiv tilshunoslik, kognitiv model, tamoyil, vazifa.*

Аннотация: в данной статье кратко изложены мысли о теории когнитивной метонимии, изучении этого процесса в мировой лингвистике, взгляды на некоторые когнитивные модели метонимии, роль метонимии в когнитивном процессе.

Ключевые слова: *язык, метонимия, тропы, когнитивная лингвистика, когнитивная модель, принцип, задача.*

Annotation: in this article, thoughts on the theory of cognitive metonymy, the study of this process in world linguistics, views on some cognitive models of metonymy, the role of metonymy in the cognitive process are briefly explained.

Keywords: *language, metonymy, tropes, cognitive linguistics, cognitive model, principle, task.*

Har qanday jarayonda jamiyat a’zolarining muloqotini ta’minlovchi va ularning o‘zaro hamkorlik qilishidagi eng muhim vosita bu tildir. Til orqali fikr almashiniladi, axborotlar jamlanadi va uzatiladi. Bu jarayonlarning

yuzaga chiqishida esa idrokning, bilish va anglash qobiliyatining mavjudligi asosiy omil hisoblanadi. Tilshunoslikdagi ayni shunday bog‘liqlik o‘z o‘zidan yangi “kognitiv tilshunoslik” atamasining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

“Voqelikni aks ettirish to‘g‘ridan to‘g‘ri tilning vazifasiga kirmaydi, bu vazifani dastlabki o‘rinda tafakkur bajaradi. Lekin tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilmalar til tizimida o‘z ifodasini topadi. So‘z, xuddi boshqa til birliklaridek, alohida bir predmetni yoki voqeani atovchi oddiy bir yorliq bo‘lmasdan, balki voqelikni bilish vositasidir. Lisoniy birliklar vositasida axborot yig‘iladi, saqlanadi va avloddan avlodga o‘tadi. Bir so‘z bilan aytganda, til birliklarining kognitiv jarayon kechishidagi o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir”[2:21,]. Tilda yuzagi keladigan har qanday hosilalarning quruvchilari va uning moddiyligini ta’minlovchi, amalga oshiruvchi chiqaruvchi vositalar bu til birliklaridir. Yuqoridagi manbadan ko‘rinib turibdiki, bu faqatgina tilning emas, balki u bilan birgalikda kognitiv jarayonlarning ham mahsulidir. Har qanday lisoniy vositaga kognitiv jihatdan yondashish va uni tadqiq qilish mumkin.

Har bir ijodkor asarlari orqali tilning boy imkoniyatlarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. So‘zning bemisl qudratini namoyon etadi, uni betakror ifoda birliklari bilan boyitishga hissa qo‘shadi. Xalq tilini qo‘llashi, yangi topilmalar asosida uning boyligini, go‘zalligini oshirishi orqali ona tilining jozibasini namoyon etadi.

Badiiy nutqning ta’sirchanligini oshirishda leksik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Leksik birliklar orasida ko‘chimlar matn ekspressivligini ta’minlashda matnning mantiqiy mazmuniy jihatdan to‘laqonli shakllanishida sezilarli o‘rin egallaydi. “Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko‘chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o‘xshatish chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak”[3:87,].

Tilshunos olim Mirtojiyevning fikricha, o‘xshatish-chog‘ishtirish asosida hosil bo‘lgan ko‘chimlar so‘zning hosila ma’nolari hisoblanadi va ushbu ma’noning yuzaga kelishi besh ko‘rinishda: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik deb belgilandi.

Lingvistik jihatdan metonimiya hodisasi ko‘plab ilmiy ishlarda o‘quv adabiyotlarda tadqiq qilingan va asoslab berilgan. Bu hodisa tadqiqi borasida juda ko‘plab manbalarda yoritilgan. Biz tadqiq qiladigan jihat esa metonimik hodisalarning kognitiv jihatiga borib taqaladi. Kognitiv metonimiya hodisasi rus va ingliz tilshunosligida samarali o‘rganilgan.

“Kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri bu atrofdagi voqelikni til orqali tasniflash va toifalash muammosi, shu jumladan, tasvirlar tilining mohiyati.

Kognitiv tilshunoslikda metafora va metonimiya troplar emas, balki kognitiv mexanizmlar hisoblanadi. Metafora hodisasini kognitiv jihatdan tadqiq qilish tilshunoslikda J.Lakoff g‘oyalari ta’sirida amalga oshirilgan. Metonimiyaning kognitiv jihatini mustaqil yo‘nalishda o‘rganish endi boshlanmoqda.”[4:16] Kognitiv tilshunoslik metonimiyani ko‘chim turi sifatida emas, balki butun bir sistema sifatida tahlil qiladi, ya’ni voqelikni yuzaga chiqarishda bir vosita ekanligi, idrok, til va insonning bilish qobiliyatidan kelib chiqadigan tuzilma sifatida baholaydi. Insonlardagi nutqiy jarayonlarda, lingvistik birliklarning ifodalanishida metonimik mexanizm juda katta rol o‘ynaydi. “Metonimiya metafora bilan bir qatorda ruhiy jarayonlarning eng muhim manbai sifatida qaraladi. Bundan tashqari metonimiya fanda butun voqelikning qismlari, tafsilotlari sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashda aloqadorlik asosida yordamga keladi”[4:16]. Har bir jarayonning yuzaga chiqishi shunchaki amalga oshmaydi, u lisoniy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarning mushtarakligidan hosil bo‘ladi. Uning yaratuvchisi birgina inson, til yoki faqatgina ruhiy holatlar emas, bularning barchasi sistema sifatida uyg‘unlashsagina yaxlit voqelik hosil bo‘ladi, shu hodisaning aloqadorlik asosidagi jarayonlari bevosita kognitiv metonimiyaga borib taqaladi.

“Metonimiya – nominatsiyaning yana bir mexanizmi sifatida, kognitiv nuqtayi nazardan, voqelikning aqliy ifodalash usuli, insonga o‘z ongida xususiydan umumiyga, atrofdagi voqelikning aniq hodisalaridan mavhum aloqaga o‘tishga imkon beradigan kognitiv mexanizmdir. Umume’tirof etilgan nuqtayi nazarga ko‘ra, metonimiya – predmetlarning bir guruhidan yoki bitta obyektdan boshqa guruhga yoki alohida obyektga nomning o‘tkazilishi, bu obyekt bilan o‘zaro aloqadorlik orqali bog‘langan”[7:12].

“Metonimiya – bu murojaatning semantik siljishi, buning natijasida bayonotning yangi ma’nosi “hosil bo‘ladi”. Metonimiya ixtisoslashuvni, leksik ma’noni aniqlashtirishni va umumlashtirishni, ya’ni tegishli umumlashtirilgan ma’noga “o‘tishni” o‘z ichiga olishi mumkin”. Metonimiyani yuzaga keltiruvchi birliklar semantik jihatdan o‘z ma’no doirasidan siljishi mumkin va bu orqali yangi hosila ma’noni yuzaga keltiradi. Hosila ma’no orqali leksik ma’no aniqlashtiriladi va umumlashtiriladi. “Metonimiya va metafora assotsiativ, aniq g‘oyalarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan zarur ma’nolarni ifodalashning kognitiv mexanizmlarini tashkil qiladi, shuning uchun an’anaviy muloqotda metonimiya tamoyili muhim rol o‘ynaydi. Masalan, shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarda shaxsning o‘zi vakil hisoblanadi. Aloqa qanchalik yaqin bo‘lsa, narsa insonga shunchalik kuchli ta’sir qiladi, chunki

assotsiativ tafakkur inson tafakkurining asosiga singib ketgan[7:12]. Yuqoridagi manbalardan ko‘rinib turibdiki, muloqot jarayonida metonimiya ham boshqa birliklar qatori alohida ahamiyat kasb etadi, bildirilayotgan fikrning kishilar ongida aniqroq namoyon bo‘lishida aloqadorlikning o‘rni beqiyos.

J.Lakoffga ko‘ra, metonimiyaning kognitiv modeli quyidagi tamoyil bo‘yicha ishlaydi. “Dastlab, kontekstda u yoki bu sabablarga ko‘ra nazarda tutilgan ma’lum bir maqsad A tushunchasi mavjud. Shuningdek, ma’lum bir aqliy konstruksiya (konseptual tuzilma) mavjud bo‘lib, u o‘z tarkibida ham A tushunchasini, ham boshqa B tushunchasini o‘z ichiga oladi, B esa A ning bir qismidir yoki u bilan yaqin aloqada. A bilan solishtirganda, B ma’lum xususiyatlarga ega (aniqroq, eslash osonroq, tanib olish osonroq, berilgan kontekstga ko‘proq mos keladi), uni A o‘rniga ishlatishga majbur qiladi”[8:3]. Ushbu kognitiv modelni quyidagi she’riy parchadagi birliklar orqali tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

Nega yapon yuz yil yashar-u
O‘zbek buncha yoshga bormaydi
Chunki yapon bizdek qorong‘u
Sahar turib oshga bormaydi.[5:274]

Matn mazmunida anglatilishi lozim bo‘lgan qismni va shu qism orqali yo‘naltirilgan maqsad amalga oshishi uchun bizda bir tushuncha mavjud. Ushbu tushuncha millatlar va marosim (A) nomi. Lekin shunday tuzilma borki, u tarkibida (B) o‘zbek, yapon va osh tushunchalarini hamda marosim va millat nomlarining bir qismini ham ifodalay oladi. O‘z o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, A bilan solishtirganda, B ma’lum xususiyatlarga ega ya’ni aloqadorlik asosida nomlarni B tushuncha bilan (o‘zbek, yapon, osh) tinglovchiga yetkazsak aniqroq, eslash osonroq, tanib olish qulayroq, berilgan matnga ko‘proq mos keladi, uni A (millat, marosim) o‘rniga ishlatish yaxshiroq natija beradi.

“Metonimik modellarning o‘ziga xos xususiyati modelning bir elementini boshqasi bilan bog‘laydigan funksiyaning mavjudligidir. Shunday qilib, qism va butun o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi modelda ular o‘rtasida qismning butunni almashtirishga imkon beradigan aloqasi mavjud”[9:353]. Berilgan baytdagi osh metonimiyasi aynan shu marosimning bir elementi hisoblanadi va bu element bilan shu marosim o‘rtasida qismning butunni almashtirishga imkon beradigan aloqasi mavjud.

Kognitiv tilshunoslik metonimiyani kognitiv jarayon sifatida, inson tafakkurining bir qismi sifatida olamni bilishning, anglashning modellari, bu modellarni shakllantiruvchi birliklarning aloqadorligi asosida o‘rganadi va tadqiq qiladi. Kognitiv jarayonda olgan ma’lumotlarimizni idrok etib, bir tizimga solishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent, 2021.
2. Safarov Sh.. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006.
3. Yo‘ldoshev, M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.
4. В.А. Романенко. Метонимия в когнитивном аспекте. Вестник РУДН, серия Русский и иностранные языки и методика их преподавания, 2010, № 2 ст 16
5. Воҳидов Э Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Тошкент, 2000. – 210
6. Воҳидов Э. Сайланма. 2-жилд. Шеър дунёси. – Тошкент, 2001. –300б.
7. Д. Н. Сергеевна, Ш. А. Николаевна канд.филол.наук,доц. Метафора и метонимия как когнитивные механизмы номинаций статусной лексики современного английского языка. Март, 2018/Международный научный журнал «Наука через призму времени» №3 (12) 2018.
8. Пушкарев Е. А. О структуре идеализированной когнитивной модели при метонимизации. Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» 2014 г.
9. Хомцова Е.В Метонимические когнитивные модели на базе области-источника «животное» ст ,353-356.

Omadjon AZAMOV,
fffd(PhD), dotsent, Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri
Andijon davlat chet tillari instituti, Email: azamovomadjon@gmail.com

CHET TILLARINI O‘RGATISHDA FRAZEODIDAKTIK MASALALAR (Nemis tili misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada til tizimida mavjud o‘ziga xos til birliklari bo‘lmish frazeologik birlik, ularning didaktik masalalari va frazeodidaktik mashqlar tipologiyasiga doir fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *frazema, frazeodidaktika, frazeologik uch qadam, identifikatsiya, kriterii, emotsional- ekspressiv, ekvivalentlik.*

Аннотация: в данной статье приводятся представления о фразеологизмах, существующих в языковой системе, их дидактических вопросах, а также типологии фразеодидактических упражнений,.

Ключевые слова: фразема, фразедидактика, фразеологические три ступени, идентификация, критерии, эмоционально-выразительные, эквивалентность.

Annotation: this article provides ideas about phraseological units existing in the language system, their didactic issues, as well as the typology of phraseological exercises.

Key words: *phraseme, phrase didactics, phraseological three stages, identification, criteria, emotionally expressive, equivalence.*

So‘z ko‘rki- maqol, darhaqiqat, frazeologizmlar nutqimizni rang- barangligini ta’minlovchi va uni boyituvchi asosiy til birliklaridan hisoblanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ilk frazeologik tadqiqotlar davrida frazeologik birliklarni tillarni o‘rganishda, ayniqsa chet tillarini o‘rganishda muhim til birligi sifatida e’tirof etish masalasi ham ko‘plab tilshunoslar orasida tortishuvlarga sabab bo‘lgan[1,2]. Tillarni o‘rganish davomida iboralarni chetlab o‘tish til imkoniyatlarini chegaralash demakdir. Tilning o‘ziga xos emotsional- ekspressivligi, uning jilosi va bezagini frazeologizmlarsiz his qilolmaymiz.

Frazeodidaktika frazeologiya fanining bir bo‘lagi sifatida iboralarni til darslarida o‘rganish bilan shug’ullanadi. Uning asosiy vazifasi til o‘rganuvchiga frazemalarni identifikatsiya qilish, ma’nosini kontekstdan aniqlash va ularni turli xil nutqiy holatlar, hamda matn turlariga ko‘ra qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantiradi[2,4].

Gap frazemalar didaktikasi haqida borarkan, ularni o‘rganish va o‘rgatish nafaqat ona tili balki chet tili ta’limida ham 6 ta kriterii asosida olib boriladi. Ulardan biri frazeodidaktik uch qadam (phraseodidaktischer Dreischritt) bo‘lib, bu usul chet tili ta‘limida eng samarali usul hisoblanadi. Frazeodidaktik uch qadam metodi iboralarni aniqlash (Entdecken), ma’nosini ochish(Entschlüsseln) va qo‘llash (Verüben, Anwenden) kabi uch asosiy o‘rganish bosqichi asosida tadbiq etiladi.

1- Qadam: Har bir frazema ma’nosini ochish uchun avvalo uni turg’un so‘z birikmasi sifatida identifikatsiya qilish va kontekstdan ajrata olish kerak.

2- Qadam: Frazema ma’nosini ochish. Ushbu qadamda til o‘rganuvchi mavjud turg’un so‘z birikmasining ma‘nosini kontekst asosida izohlay olishi kerak. Mashxur frazeolog olim Kühn iboralarning frazeologik ma’nosini ochish borasida rasmlardan foydalanishni ham tavsiya qilgan. Ushbu bosqichdagi frazemalarning ma’nosini turli xil rasmalardan foydalanib aniqlashni frazeodidaktik mashqlar qatoriga qo‘shish mumkin.

3- Qadam: Frazemalarni amalda qo‘llash. Mazkur bosqichda til o‘rganuvchilar barcha o‘zlashtirilgan frazeologik bilimlarni amalda qo‘llashga harakat qiladilar. Bu borada ular muammoli matinni to‘ldirish(Lückentext), mosini topish (Zuordnung), insho yozishda qo‘lash (Aufsatzschreiben) va o‘g’zaki hikoyalarda foydalanish (Nacherzählungen) kabi mashqlar orqali frazeologik ko‘nikmalarni shakillantiradilar[3,3].

Frazeodidaktik mashqlar tipologiyasi

Erishilgan frazeologik bilim va ko‘nikmalar turli xil mashqlar orqali mustahkamlanadi, zero takrorlash va mashq qilish bilimlar onasidir. Quyida frazemalar ishtirokidagi turli mashqlardan ko‘rsatib berishga harakat qilamiz.

1. Identifikatsiyalash mashqlari: Lesen Sie ein Horoskop und suchen Sie das Phrasem darin.

Wassermann:

Liebe/Glück: Nächste Woche werden Sie sich verlieben. Aber passen Sie auf, Ihr Partner wird Ihnen nur goldene Berge versprechen.

Gesundheit: Werfen Sie die Flinte nicht ins Korn! Sie werden gesund, nur einige Tage müssen Sie noch aushalten. Achten Sie darauf, dass Sie gesund sind.

Geld/Karriere: Auf Ihrem Arbeitsscheid finden Sie überall ein Haar in der Suppe. Beruhigen Sie sich. Es lohnt sich nicht, den Teufel an die Wand zu malen. Ihre Kollegen sind schon genervt. Treffen Sie sich lieber mit Freunden und vergessen Sie Ihre

finanzielle Lage, zumindest für ein paar Stunden[4,2].

2. Izohlash mashqi: Interpretieren Sie jedes Phrasem und nennen Sie ihre usbekischen Äquivalenten.

sich einen Affen kaufen	
schlafen wie ein Bär	
dufte Biene	
den Bock melken	

3. Farqlash mashqi: Was gehört zusammen? Kombinieren Sie die Elemente auf der linken Seite mit den Elementen auf der rechten Seite!

1. sich einen Affen kaufen	a) *ein sehr hubsches Mädchen*
2. schlafen wie ein Bär	b) *etw. Vergebliches, Unmögliches zu tun versuchen*
3. dufte Biene	c) *sehr fest schlafen*
4. den Bock melken	d) *sich betrinken (gehen)*

4. Frazemani davom ettirish mashqi: Beenden Sie die Phraseologischen Einheiten sinngemäß!

sich einen Affen …

wie ein Bär …

seinem Affen Zucker …

einen Bienenfleiss entwickeln …

Bundan tashqari quyidagi frazeodidaktik mashqlar variantlarini oliy o‘quv yurtlarining filologik ta’lim yo‘nalishlarining nemis tili darslarida qo‘llash tavsiya etiladi: Frazema tarkibidagi tushirib qoldirilgan bo‘lakni(predlog, artikl, sifat, ravish v.h.) aniqlash, frazemalarning ijobiy yoki salbiy ma’no ifodasini topish, frazema ma’nosini rasmalar orqali aniqlash, frazema ma’nosini berilgan situativ matnlar orqali aniqlash v.h.[1,2]

Frazeodidaktik darslarda ijtimoiy shakl (Sozialform)

1. Frontal dars (Plenum) – bunda o‘qituvchi umumiy guruh bilan savol- javob shaklida ishlaydi, iboralar haqida umumiy ma’lumot beradi.

2. Kichik guruhlarda ishlash – mazkur o‘quv shaklida talabalar tor doirada ma'suliyat bilan ishlaydilar, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakillantiradilar.

3. Juftlikda ishlash – bu shaklda ikki talaba bir xil topshiriq oladi va birgalikda yechim izlaydi.

4. Yolg’iz ishlash – bunda talaba mustaqil ishlaydi, berilgan topshiriq yechimini o‘z bilimiga tayangan holda izlaydi, mustaqil izlanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

5. Bekatlarda o‘rganish – bu borada talaba turli belgilangan joylarda turlicha topshiriqlarni bajaradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, frazeologizmlar so‘z birikmasi va gap shaklida mavjud bo‘lgan, shu bilan birga tilning lug‘at tarkibida tayyor shaklda mavjud bo‘lgan, o‘ziga xos struktura va semantikaga ega bo‘lgan til birliklaridir, shuning uchun ham ularni o‘rganish o‘ziga yarasha qiyinchiliklar

tug‘dirishi tabiiy holdir. Iboralarning didaktik masalasi, ularni ko‘proq amaliy til darslarida qo‘llash va samarali frazeodidaktik mashqlar variantlarini izlab topish sohaning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.АВ Омаджон ЗООФРАЗЕМАЛАРНИ ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ// Ijodkor o'qituvch// 2022/12/16 2,659-664.

2.OB Azamov THE PLACE OF PHRASEOLOGICAL SYSTEM IN EUROPEAN LINGUISTICS AND EARLY PHRASEOLOGICAL STUDIES// Том 3 №1 2022/5/13 Международный журнал “Язык, методика, перевод”

3.Azamov O. ТИЛШУНОСЛИКДА ЗООНИМ КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИ ИЛК ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ// Results of National Scientific Research 2022/3 Volume 1| Issue 6 2022 SJIF- 4.431 ISSN: 2181-363. 1, 145-154

4.AO Burkhanovich COMMON ZOONYMS AND THEIR LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS (EXAMPLE OF UZBEK AND GERMAN LANGUAGES). International Multidisciplinary Journal for Research and Development, 2023/11/2

5.(2023). STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF GERMAN YOUTH SLANG. IN Xudaberdiyevna. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 285–288.

6.COMPARATIVE ANALYSIS OF ISOMORPHIC AND ALLOMORPHIC ASPECTS OF COMPLIMENT CONCEPT IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. НМ Кодирова. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА 4 (2)

7.Jurayev Azuzbek Anvarovich. A BRIEF HISTORY OF GERMAN LITERATURE// INNOVATION IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 2 ISSUE 16,ISSN 2171-381X, SJIF 2023.5.305

Atadjan DJUMASHEV,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi
Djumashev1976@mail.ru

QURILISH ATAMALARINING MAVZUVIY TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada qurilish sohasi bo‘yicha atamalar, so‘z birikmalari, ularning o‘zgarib, rivojlanib borishi, terminlarning qurilish sohasida qo‘llanilishi, mazmuniy guruhlari haqida so‘z boradi. Terminlar tarjimasida tarjima usullarini mos holatda qo‘llash, to‘g‘ri muqobilini tanlash, tushuncha hamda matnning to‘liq mohiyatini ifodalash to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *termin, arxitektor, yuridik atama, agregat, kommunal obyektlar, material, mexanizm, obyekt, shpon, shaharsozlik, asosiy bino, yordamchi bino.*

Annotation: this article talks about terms, phrases, their changes and development, the use of terms in the construction industry, meaningful groups in the field of construction. In the translation of terms, there is talk about the appropriate use of translation methods, choosing the right alternative, expressing the concept and the full essence of the text.

Key words: *term, architect, legal term, aggregate, communal objects, material, mechanism, object, veneer, urban planning, main building, auxiliary building.*

Аннотация: в данной статье говорится о терминах, словосочетаниях, их изменениях и развитии, использовании терминов в строительной отрасли, значимых группах в сфере строительства. При переводе терминов речь идет о правильном использовании методов перевода, выборе правильного варианта, выражающего концепцию и полную суть текста.

Ключевые слова: *термин, архитектор, юридический термин, совокупность, коммунальные объекты, материал, механизм, объект, облицовка, градостроительство, главное здание, вспомогательное здание.*

O‘zbek tilida qurilish bilan bog‘liq ko‘plab atamalar mavjud bo‘lib, ular qurilish materiallari nomlaridan tortib, yuridik atamalargacha bo‘lgan leksik qatlamni qamrab olishi mumkin. Ushbu sohada faoliyat olib boruvchilar uchun umumiy tushunchalarning ta’riflarini bilish ularning o‘z sohasida samarali faoliyat olib borishiga yordam beradi.

Qurilish atamalari ham barcha til hodisalari kabi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, rivojlanib boradi. Qurilishning texnik jihatlari, qurilish shartlari va terminologiyasi deyarli o‘zgarmas, ammo butun dunyo bo‘ylab obyektlarni qamrab oladigan

umumiy qurilish atamalari doimo o‘zgarib turadi.

Terminologiyada atamalarning faoliyatda qo‘llanilishi qulay bo‘lishi uchun tasnif qilib o‘rganish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Shu nuqtayi nazardan qurilish atamalari ham bir nechta mavzuviy guruhlarga tasnif qilinadi:

1. Kasb nomlarini bildiruvchi atamalar. Qadimgi tarixda hunarmandchilik va qurilish sohasi yetarli darajada taraqqiy etmagani bois qurilish terminologiyasiga oid kasb-hunar nomlari juda kam edi. Ammo o‘rta asrlardan to bugungi kunga qadar qurilishga oid yuzlab kasb nomlari vujudga keldi.

Armaturachi – armatura tayyorlovchi yoki o‘rnatuvchi ishchi.

Arxitektor – arxitektura sohasidagi mutaxassis, arxitektor.

Betonchi – beton quyuvchi yoki qoruvchi ishchi. Betonchilar brigadasi. – U kezlarda yosh betonchi edim, fabrikani qurishga qurib bo‘ldik-u, endi uni qo‘riqlash o‘zi bir azob edi. (A.Muxtor, “Asarlar”) Mashina atrofiga betonchilar, tachkachilar, qum elovchilar to‘plangan. (A.Muxtor, “Opa-singillar”)

Bosh pudratchi – qurilishni yakunlash uchun mulk egasi bilan shartnoma tuzadigan qurilish firmasi. Bosh pudratchi tomonidan boshqariladigan boshqa qurilish atamalari asosiy pudratchi, to‘g‘ridan to‘g‘ri pudratchi va bosh pudratchini o‘z ichiga oladi.

Inspektor – qurilish maydonchalaridagi inspektorlar o‘zlarining xavfsizlik va qurilish qoidalari bo‘yicha bilimlariga amal qilinishini nazorat qiladigan shaxs.

Katta qurilish menejeri – qurilish maydoni menejerlari sifatida ham tanilgan ushbu mutaxassislar qurilish guruhini nazorat qiladi va loyihaning o‘z qarashlariga muvofiq rivojlanishini ta’minlash uchun loyiha hamkorlari bilan muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Konstruktor – mashina, mexanizm, inshoot va ularning ayrim qismlari konstruksiyasini, loyihasini tuzuvchi mutaxassis, injener. Samolyot konstruktori. – Paxtakor paxta, bog‘bon meva yetishtiradi, konstruktor mashinalar ixtiro qiladi. (N.Safarov, “Olovli izlar”)

Kranchi – kranda ishlovchi. Kranchi beton bilan qo‘shib meni ham to‘r- tinchi qavatning devoriga qo‘ndirdi. S.Ahmad, Sud. Birdan unda [Anvarda] kranchi bo‘lish orzusi tug‘ildi. S.Ahmad, O‘n sakkiz yoshing.

Loyiha menejeri – qurilish loyihalarini rejalashtirish, jumladan, belgilangan muddatlarga rioya qilish, ishlarni topshirish, resurslarni taqsimlash va byudjet doirasida qolish uchun mas’ul shaxsdir. Loyiha menejerlari loyiha maqsadlariga erishish uchun yetakchilik va muammolarni hal qilishni ta’minlaydi.

Qurilish boshlig‘i – ushbu yetakchi lavozimdagilar qurilish brigadasini tashkil qilish va boshqarishga yordam beradi. Ular quyi malakali jamoa a'zolarini tayyorlashlari va butun jamoa uchun jadvallarni tuzishi mumkin.

Qurilish bo‘yicha yordamchi – shaxslar o‘z guruh rahbarining ko‘rsatmalariga muvofiq qurilish maydonchasida materiallarni boshqarish va tayyorlash kabi loyihalarni bajaradilar.

Qurilish muhandisi – qurilish tizimlarini loyihalash, rejalashtirish va saqlash bo‘yicha mutaxassis.

Reja tuzuvchi – rejasini tuzadilar va qurilish loyihasining vaqtini rejalashtirishga yordam beradi.

Texnik operatorlar – yuk mashinalari va kranlar kabi qurilish vositalarini boshqaradilar.

2. Qurilish atamalarini bildiruvchi atamalar. O‘rta Osiyoda qadimdan loy, qum, kesak, xom g‘isht, qamish, guvala, tosh kabi materiallar qurilish mahsulotlari sifatida ishlatilgan va tabiiyki, bu so‘zlar qurilish mahsulotlari terminologiyasining ilk namunalari sanalgan. Bugungi kunga kelib, qurilish ko‘lamining oshishi natijasida sohaga ko‘plab terminlar kirib kelgan:

Agregat – beton yoki ohak yaratish uchun boshqa yopishtiruvchi moddalar bilan aralashtirish mumkin bo‘lgan qum, shag‘al va boshqa materiallarni o‘z ichiga olgan qurilish materiallari aralashmasi.

Arbolit – yog‘och, qamishning maydalangan chiqitlaridan va organik aralashmalardan tayyorlanadigan yengil beton turi. Agar siz bir yoki ikki qavatli uy qurmoqchi bo‘lsangiz, arbolitning o‘ziga xos xususiyatlari e‘tiborni jalb qiladi. (Gazetadan)

Balka – tom yoki polni qo‘llab-quvvatlash uchun struktura bo‘ylab o‘tadigan yog‘och yoki metall kabi materialning bir qismi.

Beton – qoliplarga quyilgan qurilish materialidir. Beton suv, qum, shag‘al va boshqa materiallardan tayyorlanadi va u plitalar, yo‘llar va ustunlar uchun ishlatilishi mumkin.

Biriktiruvchi qotishma – g‘isht kabi devorlardagi materiallarni bir-biriga bog‘laydigan material, shu jumladan, loy yoki gips.

Fundament [lot. fundamentum – asos, poydevor] 1 Biror bino devori, inshoot, dastgoh va sh.k. ning pastki, mustahkam qismi; poydevor. Uch yil ilgari qurila boshlagan binolarning hali fundamenti ham bitmabdi. (“Mushtum”).

2 ko‘chma Biror narsaning asosi; ishonch li tayanchi, bazasi. Yoshlik – fundament. Uning g‘ishtini to‘g‘ri qo‘y ish kerak. (Mirmuhsin, “Ajrim”)

Gipsokarton – devor va shiftlarni qurish uchun ishlatiladigan panel turi. Gipsokarton, shuningdek, toshli lavha va plastik panell sifatida ham tanilgan.

Linoleum [lot. linum – kanop; qalin mato + oleum – moy] Nam o‘tkazmaydigan, pol va devorga qoplanadigan, rulon holatida tayyorlanadigan polimer material. Yo‘lak chiroqlari yoqib qo‘yilgan, tozalab artib qo‘yilgan linoleum pol yaraqlab turardi. (O‘. Hoshimov, “Nur borki, soya bor”) …ostonaga to‘shalgan shaxmatga o‘xshash sariq katakli linoleum ustidagi tuflisini kiydi… (A.Said, “Ko‘chada qolgan odam”)

Karniz [nem. Karnies < yun. karo- nis – tugallash] 1 Bino devorining ustki qismida yoki eshik, deraza ustida gorizontal holda turtib chiqqan qism. Hozir Olmaliq quruvchilari... karniz va to‘sinlar... va hatto simyog‘ochlarni ham temirbetondan yasamoqdalar.

(Gazetadan)

Keramzit [yun. keramos – loy, gil; tuproq] Loysimon jinslarni o‘tda toblab (pishirib) olinadigan, shag‘al, chaqiq tosh yoki qum ko‘rinishida tayyorlanadigan g‘ovak qurilish materiali.

Kley (yopishtiruvchi) – obyektga yopishib oladigan yoki obyektlarni, shu jumladan, yelim, qatron va epoksiyni bir-biriga yopishtiruvchi modda.

Stropil (to‘sin) – tom ramkalari ostidagi qo‘llab-quvvatlovchi qismlardir. Yog‘och va po‘lat ham keng tarqalgan stropil materiallaridir.

Truboprovod – isitish, ventilyatsiya va havo tizimlari uchun havoni struktura bo‘ylab tashish uchun o‘tish joylari.

Yog‘och-payraxali plita (rasmiy qisqartma – DStP (ruscha: Древесно-стружечная плита ДСтП), norasmiy – DSP – yog‘och zarralarini, asosan, payraxalarni issiq presslash orqali tayyorlangan, agar kerak bo‘lsa, nomineral bo‘lgan bog‘lovchi bilan aralashtirilib, kerak bo‘lsa, maxsus qo‘shimchalar (payraxa massasining 6-18% gacha) bir va ko‘p qavatli davriy presslarda 0,2-5 MPa bosim bilan, 120-190 °C haroratda[5] yoki lentali, gusenitsali yoki ekstruziya agregatlarida ishlab chiqarishdir.

Yog‘och panel – yog‘och ishlab chiqaruvchilarning yupqa qatlamlarini bir-biriga yopishtirish orqali ishlab chiqaradigan yog‘och turi.

Shpon – tashqi ko‘rinishini yaxshilash uchun past sifatli yog‘ochni yashirish mumkin bo‘lgan yupqa yog‘och.

3. Qurilish asbob-uskunalari nomini bildiruvchi atamalar. Mazkur atama turlari xalq hunarmandchiligida azaldan qo‘llanib kelingan asbob-uskunalar bilan bir qatorda bugungi kunda keng qo‘llanayotgan zamonaviy texnika namunalarigacha bo‘lgan atamalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Elektr taqsimlagich – elektr zanjirini himoya qilish uchun ortiqcha elektr tokining oldini oladigan elektr kalitidir.

Lobzik [nem. Laubsäge < Laub – barglar + Säge – arra] Yog‘och yoki yumshoq metalldan bo‘lgan buyumlarni shakldor, jimjimador arralash uchun qo‘llanadigan dastaki asbob va unga qistirib qo‘yiladigan ensiz arracha.

Kanalizatsiya [r. канализация < lot. canalis] Axlatlarni, iflos va yog‘in suvlarini, chiqindilarni aholi yashaydigan joylardan yoki sanoat korxonalari hududidan oqizib chiqarib tashlash uchun yer tagidan o‘tkazilgan quvurlar, sanitariya-texnika inshootlari tizimi. Shahar kanalizatsiyasi. Kanalizatsiya ishlari. – Binolar bitgan-u, ammo kanalizatsiya o‘tkazilmaganligi tufayli, foydalanishga topshirilmay yotibdi. (H. Tojiboyev, “Pish-pish uxlayvering”)

Parma – aylanma harakat qilib, tig‘i bilan narsalarni teshadigan asbob.

Pena – suv va namlikning yoriqlar orqali oqib chiqmasligi uchun ishlatiladigan plomba. Qopqoq quvurlar, derazalar va eshiklar atrofida keng tarqalgan.

Stol arra – ushbu turdagi arra stol ustiga o‘rnatiladi. Stol arralarida dvigatellar mavjud va u aniq kesadi.

O‘yuvchi arra – materiallardagi tartibsiz egri chiziqlarni kesishi mumkin bo‘lgan elektr asbob. Jigsada yuqori tezlikda kesish uchun arra pichog‘i va motor mavjud.

4. Qurilish jarayonlarini bildiruvchi atamalar. Bu turdagi atamalarga qurilish sohasida qo‘llaniladigan, bino poydevori qo‘yilishidan to u qurib bitkazilguncha bo‘lgan jarayonni tasvirlash uchun qo‘llaniladigan atamalar qamrab olinadi.

Arxitektura faoliyati – fuqarolarning (me’morlarning) arxitektura obyektini yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyati va arxitektura loyihasini yaratishning ijodiy jarayoni, qurilish yoki rekonstruksiya qilish uchun loyiha hujjatlarining barcha bo‘limlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, arxitektura obyektining qurilishini nazorat qilish.

Arxitektura loyihasi – qurilish va shaharsozlik hujjatlarini o‘z ichiga olgan hujjatlarning arxitektura qismi, arxitektura yechimlari, obyektlarni qurish uchun hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan darajada obyektga nisbatan ijtimoiy, iqtisodiy, funksional, muhandislik, texnik, yong‘inga qarshi, sanitariya-gigiyena, ekologik, arxitektura-badiiy va boshqa talablarni har tomonlama hisobga oladigan jarayon (loyihalashda me’morning ishtiroki talab qilinadi).

Arxitektura va qurilish nazorati – shaharlar va boshqa aholi punktlarida yerdan foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazorati turi.

Bino ma’lumotlarini modellashtirish (BMM) – binoning tafsilotlarini rejalashtirishga yordam beradigan raqamli 3D modelni yaratadi. BMM modellari ma’lumotlarni saqlashi va qurilish mutaxassislari va loyiha menejerlariga qurilishdan oldin va keyin qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin.

Binoni (inshootlar, jihozlar, kommunikatsiyalar va uy-joy kommunal obyektlarini) avariya holatida saqlash – avariyalar va nosozliklarni zudlik bilan bartaraf etish, iste’molchilarning hayoti va xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni saqlash va tiklash bo‘yicha ustuvor ishlar va chora-tadbirlar majmuyi.

Binoni qisman buzish (rekonstruksiya) – binoning ma’lum qismini buzish; binoning har qanday bo‘laklari yoki detallarini yo‘q qilish yoki o‘zgartirish (masalan, atrofdagi binolarni reabilitatsiya qilishni yaxshilash uchun zamon hamda hudud nuqtayi nazaridan binoni moslashtirish).

Dizayn – yangi obyektning tavsifini yaratish jarayoni bo‘lib, batafsil rejalar asosida ifodalanadi.

Qulatish – ushbu qurilish atamasi inshootni yo‘q qilish yoki yiqitishni anglatadi.

Qazish – ushbu operatsiyada tosh, tuproq va boshqa materiallarni ko‘chirish uchun asboblar va jihozlardan foydalanadi. Yo‘llar yoki poydevor qurish uchun

ko‘pincha qazish kerak.

Ta’mirlash – binoning xavfsizligi yoki estetikasini yaxshilash uchun uni qayta qurish yoki qayta qurishni o‘z ichiga oladi.

Egilish – yog‘ochning suv yoki namlik ta’sirida egilganligi tushuniladi.

5. Binolar va ularning qismlarini bildiruvchi atamalar. O‘zbek tili qurilish terminologiyasining asosiy qismini bino va inshootlar nomlari tashkil etadi. Barcha turdagi binolar odatda bino atamasi deb atalsa-da, ular ham ma’lum turlarga bo‘linadi: turar-joy binolari, fuqarolik binolari, maishiy binolar.

Binolar maqsadiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: a) ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi binolari: ustaxona, molxona, zavod, garaj va boshqalar; b) fuqarolik va maishiy binolar: oshxona, kasalxona, klub, teatr va boshqalar.

Shuningdek, qurilish terminologiyasida asosiy va yordamchi qismlardan tashkil topgan inshootlar qismlari nomini ifodalovchi atamalar ham alohida tasniflanadi.

Asosiy bino qismlari: uy, dahliz, chayla, kulba, o‘tov, ayvon.

Yordamchi binolar nomlari: oshxona, hammom, ombor, somonxona, qo‘yxona, tovuqxona.

6. Bino va materiallarning xossalarini bildiruvchi atamalar. Bu guruhga qurilishda qo‘llaniladigan materiallarning xossalarini bildiruvchi atamalar qamrab olinadi: zilzilabardoshlik, zangbardoshlik, mo‘rtlik, zichlik, yopishqoqlik.

7. Qurilishga oid yuridik atamalar. Bu turkum so‘zlar o‘zbek tilida nisbatan yaqinda, sanoat va fuqarolik qurilishiga qiziquvchi maxsus tashkilotlar tuzilgan paytda paydo bo‘lgan. Bu turkumdagi atamalarga qurilishga oid rasmiy va yuridik atamalar kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qurilish terminologiyasining mavzuviy guruhlarining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular birgalikda o‘zbek tilida qurilish terminologiyasining yagona tizimini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Timirov A. M. English for engineering constructions. Turon nashr, 2021. –B.8,74.
3. Samig‘ov N. A., To‘laganov A. A., Komilov X. X. Bino va inshootlar restavratsiyasi. – Toshkent, 2002.
4. Sharipov Sh. S. Tilga e’tibor – elga e’tibor. Tilni o‘qitish va o‘rganishda XXI asr ko‘nikmalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2020.
5. Варнавская Е.В., Варнавский В.С. Национально-специфические характеристики терминологической лексики строительного дискурса // Crede Experto: транспорт, общество, образование, язык, 2016. № 2. 78 с.
6. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Учебное издание. Москва: Издательский центр «Академия», 2008. 307 с.

N.S.ABDULLAYEV
O‘zbekiston milliy gvardiyasi ta’lim markazi o‘qituvchisi.
Mustaqil tadqiqotchi.

HARBIY TA’LIM TIZIMIDA KURSANTLARNING KASBIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ta’lim, tarbiya jarayonining yaxlitligi, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, kasbiy ahamiyatga ega qobiliyatlarni shakllantirish masalalari, bo‘lajak ofitserlarning va harbiy mutaxassislarning oliy o‘quv yurtidan keyingi faoliyatidagi kasbiy-pedagogik jarayonni to‘g‘ri va zamon talablari darajasida tashkil etish muammolari ushbu maqolada tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak ofitserlar, ta’lim, funksiya, pedagogik-psixologik, harbiy professional, motivatsiya, kompetentlik, harbiy ta’lim, tizimli faollik.*

Аннотация: целостность образовательного процесса, педагогико-психологические особенности овладения знаниями, умениями и навыками, вопросы формирования профессионально важных умений, проблемы правильной организации профессионально-педагогического процесса в послевузовской деятельности будущих офицеров и военных специалистов и на уровне современных требований рассматриваются в данной статье.

Ключевые слова: *будущие офицеры, воспитание, функция, педагогико-психологическая, военный профессионал, мотивация, компетентность, военное образование, системная деятельность.*

Annotation: the integrity of the educational process, the pedagogical and psychological features of mastering knowledge, skills and abilities, the issues of the formation of professionally important skills, the problems of the correct organization of the professional and pedagogical process in the postgraduate activities of future officers and military specialists and at the level of modern requirements are considered in this article.

Key words: *future officers, education, function, pedagogical and psychological, military professional, motivation, competence, military education, systematic activity.*

So‘nggi yillarda mamlakatimiz rahbari tomonidan mamlakatda va Qurolli Kuchlarda ta’lim va tarbiya tizimini sifat jihatidan yuksaltirishga qaratilgan muhim farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Ko‘plab harbiy-o‘quv yurtlari va harbiy qismlarda ilmiy-uslubiy va uslubiy konferensiyalar o‘tkazildi, oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining keyingi faoliyatiga kasbiy-pedagogik tayyorgarligi tajribasi umumlashtirildi. «Yangi odam»ni shakllantirish nuqtayi nazaridan armiya va flotga qo‘yiladigan yuqori amaliyot talablari bo‘lajak ofitserning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini takomillashtirish muammosi bo‘yicha ilmiy ishlarni faollashtirdi. Ta’lim, tarbiya jarayonining yaxlitligi, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari, kasbiy ahamiyatga ega qobiliyatlarni shakllantirish masalalarini ishlab chiqish jarayoni jadallashtirildi. Ushbu qoida bizning tadqiqotimizda prinsipial ahamiyatga ega, chunki u harbiy mutaxassislarning oliy o‘quv yurtidan keyingi davridagi kasbiy-pedagogik faoliyatidagi tashkiliy jihatni batafsil ko‘rib chiqishga yordam beradi.

XX asrning 90-yillari oxirida bo‘lajak mutaxassisning harbiy oliy o‘quv yurtlarida va oliy o‘quv yurtidan keyingi faoliyatining kasbiy-pedagogik asoslarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini takomillashtirish masalasi bo‘yicha ma’lum miqdordagi tadqiqotlar olib borildi. В.И. Байденко o‘z tadqiqotini quruqlikdagi qo‘shinlar oliy maktabida ofitserlar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik asoslarini o‘rganishga bag‘ishladi [1.]. Ushbu ishning asosiy maqsadi kursantlarda kasbiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish tizimining dastlabki ilmiy-amaliy qoidalarini asoslash hamda uning harbiy oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida tutgan roli va o‘rnini aniqlashdan iborat edi. Muallif qo‘mondonlik mutaxassisliklarining bo‘lajak ofitserlarining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishda bu jihatga katta ahamiyat beradi.

Harbiy oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida harbiy kasbiy faoliyatni rag‘batlantirishni rivojlantirish masalalari, shuningdek, harbiy o‘qituvchining pedagogik faoliyati natijalariga ta’siri С.П.Дергачев-нинг ishida ko‘rib chiqilgan [49]. Muallifning harbiy kasbiy faoliyatga bo‘lgan talablar ortib borayotgan sharoitda bo‘lajak ofitserlarni tayyorlash, ularning kasbiy va pedagogik malakasini, kelajakdagi kasbiga ijobiy motivatsiyani, shuningdek, shaxsning kasbiy ahamiyatli xususiyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli va maqsadli ishsiz mumkin emas degan fikriga qo‘shilishimiz mumkin.

Kasbiy-pedagogik kompetensiya kursant shaxsi tarkibida alohida o‘rin tutadi va uning ofitser shaxsining kasbiy ahamiyatli fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Bundan tashqari, u bo‘lajak ofitserlarni kasbiy tayyorlash jarayonida shakllantirib va rivojlantirib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan:

- harbiy-professional motivatsiya, yuksak axloqiy fazilatlar, tegishli ehtiyojlar, maqsadlar, manfaatlar, harbiy xizmatga munosabat;
- harbiy-professional bilim, malaka, malaka va ijobiy odatlar;
- kasbiy faoliyat jarayonida zarur bo‘lgan kasbiy muhim psixologik-pedagogik bilimlar;
- hissiy va kuchli irodali barqarorlik, chidamlilik, intizom, chidamlilik, komandirlar va boshliqlarga so‘zsiz bo‘ysunish qobiliyati;
- yaxshi jismoniy tayyorgarlik.

Harbiy oliy o‘quv yurtlari va qo‘shinlarning haqiqiy holati o‘rtasidagi aloqaning mavjud bo‘lmasligi kursantlarning harbiy oliy o‘quv yurtida psixologik-pedagogik kasbiy bilimlarni olish muhimligini noto‘g‘ri tushunishlariga olib keldi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kursantlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash faqat bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar tizimini, zarur kasbiy ahamiyatga ega va muhim fazilatlarni shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki o‘z oldiga mustaqil, ijodiy hal qilishda doimiy tajriba to‘plash vazifasini, o‘quv faoliyatida, shuningdek o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida kognitiv va tashkiliy mustaqillik darajasini doimiy ravishda takomillashtirish harbiy kasbiy vazifalarni qo‘yadi. Bunda, ofitser faoliyatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri bu kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning barqaror va samarali tizimini rivojlantirish deb e’tirof etilishi kerak.

И.В.Власов, С.П.Дергачев, О.В.Добровольская, Т.А.Кукарцев, В.Е.Лепская, V.S. Muxin, В.К.Тебиев kabi olimlarning ilmiy adabiyotlari tahlil qilinganda, sobiq ittifoq davridan hozirgi davrgacha harbiy ta’lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlarni quyidagicha ajratib ko‘rsatish mumkin:

- harbiy ta’limni rivojlantirishning asosiy yo‘llari va yo‘nalishlari belgilandi;
- harbiy oliy o‘quv yurtlarining istiqbolli tarkibi ishlab chiqildi;
- harbiy oliy o‘quv yurtlarining kadrlar tarkibini rivojlantirish istiqbollari belgilab olindi;
- harbiy ta’lim sohasida insonparvarlashtirish amalga oshirildi;
- o‘quv faoliyati jarayonida o‘qituvchilar va kursantlarning birgalikdagi pedagogik faoliyati kasbiy faoliyat va shaxsiy yondashuvlarning uzviy uyg‘unlashuvida amalga oshirildi;
- harbiy oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadigan tarixiy urush tajribasi tahlil qilindi.

- tadqiqotni tashkil etish jarayonida kasbiy faoliyat jarayonining dinamik o‘zgarishidan iborat bo‘lgan hamda harbiy oliy ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojlar bilan tavsiflangan kasbiy-pedagogik tayyorgarlik fenomenini o‘rganish uchun turli yondashuvlar o‘rganildi.

- Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatining o‘zaro ta’sir tamoyilini aniqlashga qaratilgan kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni tizimli-faollik yondashuvi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish, bu hodisaning mohiyati to‘g‘risidagi bilimlar tizimini rivojlantirishga, uni takomillashtirishga va faoliyatiga yordam beradi. Bizning tadqiqot predmetimizga nisbatan tizimli-faollik yondashuvning o‘rni shundan iboratki, uning tushunchalari, tamoyillari va usullari bizga instruktorlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi jarayonining mohiyatiga chuqurroq kirib borishga, uning yaxlit ko‘rinishini yaratishga va shu asosda instruktor (o‘qituvchi) lavozimiga birinchi marta tayinlangan ofitserlar uchun kurs tayyorgarligi tizimini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Tizimli-faollik yondashuvini amalga oshirish jarayonida zaruriy va yetarli pedagogik shart-sharoitlarni joriy etish va amalga oshirish asosida qo‘shimcha harbiy ta’lim tizimidagi instruktorlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi jarayonining me’yoriy-taxminiy (o‘rganilayotgan jarayonni hujjatlashtirish va tartibga solish); motivatsion-prognostik (ta’lim jarayoni subyektlarining motivlari, ehtiyojlari va manfaatlarini belgilash va aniqlash); mazmunli kasbiy faoliyat (kasbiy-pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari, uni shakllantirish bosqichlari va dasturi); protsessual-shakllantiruvchi (kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish shakllari, vositalari va usullari); samarali baholash (diagnostika va o‘rganilayotgan jarayonga o‘zgartirishlar kiritish) bloklari ajratilgan [81; 154; 160].

Yuqorida tahlil qilingan fikrlarga asoslangan holda, ta’kidlash joizki, dinamik sharoitlarda olingan bilimlarni qo‘llashga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning asosiy kompetensiyasi hayot davomida progressiv o‘z-o‘zini o‘rganish jarayoniga qo‘shilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi:

- mamlakatimizda harbiy ta’lim tizimining elementlari bo‘lib qo‘shimcha kasbiy ta’limning turli tuzilmalari (oliy o‘quv yurti doirasida) hisoblanadi. Bular qatoriga qo‘shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi kasbiy qayta tayyorlash markazlari va professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslari kiradi;

- ushbu jarayonlarda oliy o‘quv yurtidan keyingi davrda qo‘shimcha kasbiy-pedagogik ta’lim tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) harbiy oliy o‘quv yurtining instruktorlari o‘zlarining pedagogik faoliyati uchun qo‘shimcha ta’limning muhimligini, shuningdek, ijtimoiy va kasbiy-pedagogik faoliyat uchun ta’limning mazmuni va ahamiyatini anglash hamda bu ehtiyojni anglab yetishga yordam beradigan uslubiy asos bilan «qurollash» zarurligini shakllantirish;

b) instruktorlarga shaxsiy darajada va ta’lim tashkiloti darajasida o‘z faoliyatining ma’nosi va qadriyatlarini anglab yetishlariga yordam berish;

v) harbiy oliy o‘quv yurti instruktorlarining kasbiy-pedagogik bilimlarini doimiy ravishda rivojlantirib borish zaruriyatini hisobga olgan holda o‘z ta’lim faoliyatini loyihalash va bashorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baydenko V.I. Kompetensii: K osvoyeniyu kompetentnostnogo pod¬xoda: monografiya [Tekst] / V.I. Baydenko. – M.: RGB, 2007. - 138 s.

2. Dergachev S.P. V pomoщ budushhyemu ofitseru v vospitatelnoy rabote s lichnыm sostavom v nestandartnыx situatsiyax [Tekst] / S.P.Dergachev // Metodicheskiy sbornik. - 1997. - № 12. - S. 26-31.

3. Ovsyannikov, I. V. Formirovaniye professionalnыx kompeten¬siy u kursantov voyennыx komandnыx vuzov: avtoref. diss. ... kand. ped. nauk [Tekst] /I.V.Ovsyannikov. - M.: 2011. - 24 s.

Kamola SHADMANBEKOVA,
Tashkent Institute of Finance
Senior teacher of department "Foreign languages"

CONCEPT OF ECONOMIC DISCOURSE

Annotation: economic discourse occupies a special place in linguistics and widely used in science today. At the same time, in our country and around the world, the level of study and research of economic discourse by scientists is growing rapidly. The article is discussed about the role of economic discourse in linguistics and given examples number of scientists opinion about economic discourse.

Keywords: *economy, sphere, economic discourse, process, language,*

Annotasiya: iqtisodiy diskurs tilshunoslik fanida alohida o'rin tutadi va bugungi kunda fanda ko'p qo'llanilmoqda. Ayni vaqtda mamlakatimizda va dunyo olimlari tomonidan iqtisodiy diskursni o'rganish va tadqiq etish darajasi jadal sur'atda o'sib bormoqda. Maqolada iqtisodiy diskursning tilshunoslikda tutgan o'rni haqida so'z boradi va bir qator olimlarning iqtisodiy diskurs haqida fikrlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *iqtisod, soha, iqtisodiy diskurs, jarayon, til*

Аннотация: экономический дискурс занимает особое место в языкознании и сегодня широко используется в науке. В то же время уровень изучения и исследования экономического дискурса учеными в нашей стране и во всем мире стремительно растет. В статье обсуждается о роли экономического дискурса в лингвистике и приводятся примеры мнений ряда ученых об экономическом дискурсе.

Ключевые слова: *экономика, сфера, экономический дискурс, процесс, язык.*

Introduction.

The economic sphere is constantly developing; its forms and contents are changing. These processes also cause a change in the lexical content that serves the speech interaction of economic communicators. In particular, it is related to communication, interest in studying economic sciences and its relevance, the growth of the information space, the expansion of international relations, as well as the globalization of economic relations in general. At the same time, language processes are increasingly stratified, which leads to the formation of a new system of concepts related to a certain communicative direction and topics. Economic discourse means a set of spoken and written texts or fragments of them, speech actions of specialists and non-specialists, reflecting the realities of the economic world in the field of economics. Economic discourse occupies a special place in global processes. It is known that the economy is one of the priority directions in deciding the fate of states and the world as a whole, the existing problems and their solution, the summation of economic concepts are manifested in language phenomena, that is, they are manifested in changes in the system of lexical methods.

Main part.

Economic discourse seems to be a transitional phenomenon that incorporates a number of qualities of other types of discourse, and at the same time has its own characteristics, implemented as a statement of a certain nature. In this type of discourse, the transfer of knowledge about individual economic paradoxes, their properties and qualities is used in practice, which connects it to the scientific and informational subtype with scientific-popular discourse.

According to N.D.Bessarabova, the nature of the language, the economic discourse is close to the type of scientific discourse, it is distinguished by its subjective nature, and it represents a defined professional direction. Nevertheless, a professional theme is presented in a way that will attract the attention of any viewer. E.Yu.Makhnitskaya conducted her research on the attractiveness of the economic discourse, the special position occupied by the economic part of culture, and its special importance in describing modern social processes in the world and the country. According to her opinion, the economy is an important area of public life. Every day, a system of productive forces and financial relations is formed and develops in it, it is regulated by various kinds of financial laws, based on the use of various resources, the creation, exchange, distribution and use of goods with the help of human labor. [2]

Economic discourse, together with pragmatic, socio-cultural, psychological and other conditions, refers to the speech of the mass media, which is carried out as a document described on paper. Economic discourse is formed through mass communication and represents a cognitive process of discourse development that emerges in socio-cultural interaction and reflects the system of understanding of communicants.

K.V.Tomashevskaya says that "Economic discourse means a text/speech product that reflects the conceptualization of economic reality together with pragmatic, extralinguistic, psychological, socio-cultural, cognitive and other factors." [3]. E.G.Petushinskaya, in turn, believes that "Public economic discourse is a process of text creation together with pragmatic, socio-cultural, psychological factors", purposeful social

Men tadqiqot o‘tkazishga qaror qildim, uning maqsadi ona tili darslarida uzluksiz matnlar bilan ishlash o‘quvchilar o‘rtasida yozish va nutq ko‘nikmalarining rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini aniqlash edi. Men boshqa bilim sohalaridagi matnlardan ona tilini integratsiyalashgan dastur talablariga muvofiq foydalandim.

O‘quvchilar bilan ishlashda men bunday matnlarning uchta turidan foydalandim: diagramma matnlari, jadvallar va diagrammalar. Talabalarning vazifasi berilgan jadvaldan (diagramma,) imkon qadar ko‘proq faktik ma’lumotlarni ajratib olish va uni uzluksiz matnga aylantirishdir.

Har bir matn bilan ishlash xususiyatlarini qisqacha taqdim etaman.

O‘quvchilardan ikkita jadvalni solishtirish va yozma savolga javob berish so‘ralgan: “Tinch okeaniga chiqish va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasida bog‘liqlik bormi?” O‘quvchilar jadvallarni ko‘rib chiqib, yalpi ichki mahsuloti yuqori bo‘lgan davlatlar orasida faqat bittasi dengizga chiqish imkoni yo‘q, yalpi ichki mahsuloti past bo‘lgan mamlakatlar orasida esa 4 ta shunday degan xulosaga kelishadi. Va dengizga chiqishga chiqilmaganlik rivojlangan iqtisodiyot uchun belgilovchi ko‘rsatkich emas. Ushbu ish davomida talabalar ushbu ro‘yxatlarni osongina solishtirdilar va mos keladiganlarni topdilar, ammo xulosa chiqarishda qiyinchiliklarga

duch kelishdi. Bu nafaqat uzluksiz matnlarni o‘qiy olmaslik, balki o‘quvchilarining iqtisodiy bilimlari yetarli darajada emasligi haqida ham gapiradi. Uch nafar o‘quvchi uzluksiz matn tuzish zarurligini tushunmay, materialni jadval ustunlari shaklini takrorlab, kichik parchalar shaklida taqdim etdilar. Olti nafar o‘quvchi matn haqida bilimga ega emas: ular undagi kompozitsiya va semantik yaxlitlikning mavjudligini tasavvur qilmaydi. Beshta o‘quvchi matn tuzdi, lekin ma’lumotni izchil taqdim eta olmadi: ular matnni tuzish mantig‘ida xatolarga yo‘l qo‘yishdi. Beshta o‘quvchi vazifani a’lo darajada bajara oldi: ular kerakli ma’lumotlarni ajratib olishdi va uni matn shaklida taqdim etishdi.

Sxema BMTning tuzilishi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Talabalardan “BMTning zamonaviy dunyoga ta'siri” mavzusida izchil matn yozish so‘ralgan.

Matn bilan ishlash jarayonida, birinchi navbatda, talabalarning ko‘pchiligi BMTning tuzilishi va uning tarkibiy bo‘linmalari nima uchun javob berishini umuman tushunmasligi ma’lum bo‘ldi. Matnni yozishdan oldin “veto huquqi, sanksiya, siyosatni ishlab chiqish, maslahatchi, vakillik organi” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosini aniqlash maqsadida lug‘at ishlari olib borildi; qo‘shma so‘zlar: UNESCO, WHO, FAO kabilar. O‘quvchilar matnda bu so‘zlarni to‘g‘ri ishlata olmadilar: ular aniq lug‘aviy ma’noni bilmas edi. Biroq, lug‘at ishidan so‘ng, talabalar o‘zlarining insholarida ushbu atamalardan foydalanishga muvaffaq bo‘lishdi. To‘qqiz nafar o‘quvchi ushbu diagrammalardan BMTning dunyodagi tinchlikparvar operatsiyalardagi roli haqidagi inshoda foydalangan va xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashda BMT bo‘limi – Xavfsizlik Kengashi yetakchi rol o‘ynashini ta’kidlagan. To‘rt o‘quvchi o‘z insholariga jadval ma'lumotlarini kirita olmadi, chunki ular o‘z g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan narsalarni tanlash o‘rniga, BMTning barcha bo‘limlarini ro‘yxatga olishni boshladilar.

Tadqiqot ishimning navbatdagi bosqichining maqsadi o‘quvchilarni mustaqil ravishda matnlar yaratishdir. Buning uchun har bir o‘quvchiga har xil mazmundagi uchta matn berildi. Birinchi matnda “Texnologiya hamma uchun” mavzusidagi zamonaviy texnologiyalar haqida ma'lumot berilgan. Ushbu matndagi ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida bolalar jadval tuzishlari kerak edi. Ikkinchi matnda dunyodagi olmos qazib olish haqida so‘z bordi, bu matnning mazmuni o‘quvchilarini qiziqtirdi. Unga asoslanib, ular diagramma tuzdilar. Oxirgi matn yer osti boyliklari savdosi va savdo bilan shug‘ullanadigan korporatsiyalar haqida ma'lumot berdi. Ushbu diagramma talabalar uchun qiyinchilik tug‘dirdi va hamma ham ma'lumotni matnga aylantira olmadi.

Matnlarni yaratishdagi asosiy qiyinchiliklar material taqdimoti mantig‘ining buzilishi yoki u yoki bu xususiyatga muvofiq tasniflash uchun asosni noto‘g‘ri tanlash bilan bog‘liq.

Matnlar bilan ishlash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, matn yaratishga bo‘lgan munosabat va matnlarning o‘zi barcha o‘quvchilar tomonidan turlicha qabul qilinadi, bu individual shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchilar ishini qayta ishlash va baholashda nafaqat natija, balki u yoki bu ishga sarflangan kuchni ham hisobga olish kerak.

Matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishda hamkorlik texnologiyalari hatto zaif o‘quvchiga ham matnlar bilan ishlashga yordam beradi, uni faollikka undaydi. U boshqa o‘quvchilarning o‘quv shaxsiy faoliyati, lingvistik mavzular bo‘yicha o‘quv aloqalari misollarini ko‘radi. Ushbu usul ona tili darslarida uzluksiz matnlar bilan ishlash til o‘qituvchisi faoliyatidagi istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, o‘quvchining lingvistik shaxsini rivojlantirishga imkon berishini ta’kidlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Демидова Н.И., Богданова Е.С. Метод концептуального анализа текста в обучении текстовой деятельности на уроках русского языка // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. 2019; № 3.

2. Черниговская Т.В., Аллахвердов В.М., Коротков А.Д., Гершкович В.А., Киреев М.В., Прокопеня В.К. Мозг человека и многозначность когнитивной информации: конвергентный подход // Вестник Санкт-Петербургского университета. Философия и конфликтология. 2020. Т. 36. Вып. 4.

Munira KURBANBAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA OT SO‘Z TURKUMINING GRAMMATIK FARQLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va koreys tillarining qisman grammatik farqlari ko‘rib chiqilgan. Koreys va o‘zbek xalqlarining urf-odatlari va hozirgi kunda ular ortasida til o‘rganishga qaratilgan muhim jihatlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *urf-odatlari, o‘zbek tili, koreys tili, intensiv, elchixona, ot so‘z turkumi, grammatika, leksikologiya.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются частичные грамматические различия между узбекским и корейским языком. Показаны обычаи корейских и узбекских народов и современная ориентация среди них на изучение языка.

Annotation: this article examines the partial grammatical differences between Uzbek and Korean. The customs of the Korean and Uzbek peoples and the modern orientation among them towards language learning are shown.

Har bir inson qaysidir tilni o‘rganar ekan o‘sha tilning madaniyati, urf-odatlari va tarixiga qiziqishi tobora kuchaya boshlaydi. Chunki til bu nafaqat muloqot vositasi balki qaysidir xalqning ko‘rgan kechirganlari va o’zlari uchun to‘g‘ri deb tanlagan yo‘lning qanchalar to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydigan yagona o‘chmas tarixdir.

Til o‘rganuvchilar o‘rganayotgan tilining madaniyatiga sinchkovlik bilan o‘rgansa va o‘sha muhitni his qila olsa, o‘sha tilni o‘rganishi oson kechadi. Ya’ni o‘sha o‘rganilayotgan tilning milliy taomlari, kiyimlari va milliy bayramlarining qanday o‘tishini kuzatish o‘rganuvchilarga motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, koreys tilini o‘rganayotgan O‘zbekiston fuqarolari uchun Koreyaning yilda bir marta o‘tkaziladigan bayramlari respublikamizda o‘tkaziladi. Bunday bayramlar ko‘pincha Koreyadan kelgan mehmonlar bilan o‘tkaziladi. Ular o‘z xalqining tarixi, urf-odatlari, milliy taomlari, milliy kiyimlari, milliy raqs va milliy o‘yinlarini ko‘rsatishadi.

O‘zbekiston elchixonasi vakili o‘z chiqishida o‘zbek tilining ko‘hna va boy tarixi hamda mamlakatda ona tilini davlat tili sifatida har tomonlama rivojlantirish va uning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yana-da yuksaltirish masalasiga katta e’tibor qaratilayotgani to‘g‘risida atroflicha to‘xtaldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan o‘zbek tilini jahon hamjamiyatidagi o‘rni va darajasini oshishida juda muhim qarorlar qabul qilmoqda. O‘zbekistonda yashovchi chet el fuqorolarining o‘zbek tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganishi uchun yetarli shart-sharoitlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda xalqaro maydonda obro‘-e’tibori tobora yuksalib borayotgan O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz ham katta hissa qo‘shmoqda.

O‘zbek tili Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o‘rganilmoqda.

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20- oktyabrdagi PF-6084-son Farmonida mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish borasida vazifalar belgilab berilgan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi hamda 2020-yil 20-oktabrida e’lon qilingan “Mamlakatda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonlarining mazmun-mohiyati haqidagi ma’lumotlarga alohida e’tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda jahon miqyosida o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning soni 50 million kishiga yaqinlashib qolgani, bu esa o‘zbek tilining dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Shuni alohida qayd etish joizki, O‘zbekistonning xorijdagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari qoshida “O‘zbek tilining do‘stlari” klublari tashkil qilinayotgani forum ishtirokchilarida alohida qiziqish uyg‘otdi. Forum doirasida Hankuk xorijiy tillar universiteti qoshida tashkil etilgan Maxsus chet tillarini o‘qitish markazi direktori Chong Jin Oga “O‘zbek tili. Xorijliklar uchun” o‘quv qo‘llanmasi taqdim

etildi. O‘zbekiston tomoni ushbu markaz bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlarini yana-da kengaytirishga tayyor ekanligi bildirildi.

O‘z navbatida, markaz direktori taqdim etilgan mazkur o‘quv qo‘llanmasi o‘zbek tilini zamonaviy uslubda intensiv o‘rgatishga xizmat qilajagini qayd etar ekan, O‘zbekiston tomoni bilan faol hamkorlik tobora rivojlanib borayotganidan mamnuniyat izhor etdi.

Ushbu markaz Koreya Respublikasining 2016-yil 3-fevralda qabul qilingan “Maxsus chet tillarini o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi” qonuni ijrosi doirasida tashkil etilgan, – dedi professor Chong Djin O. Ta’lim vazirligi va Xalqaro ta’lim milliy instituti tomonidan milliy taraqqiyot uchun strategik yondashuv talab etiladigan maxsus xorijiy tillar sifatida markazimizda o‘qitish uchun tanlangan dastlabki 11 davlat tillari orasida o‘zbek tilining ham mavjudligi Janubiy Koreya hukumati mamlakatimizda o‘zbek tilini o‘rgatishga katta e’tibor qaratayotganidan dalolatdir.

Ot so‘z turkumi o‘zbek tilida

Narsa-buyum, shaxslarning nomi, atamasi bo‘lgan so‘zlar turkumi ot deyiladi. Otlar kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Otlar egalik, kelishik kabi so‘z o‘zgartirish, turli ma’no va vazifa uchun qo‘llanuvchi vazifadosh shakllarga hamda o‘ziga xos so‘z yasalish tizimiga egaligi bilan ajralib turadi.

Atoqli otlar. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, havonlarning atoqli nomlari, tashkilot va geografik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: Alisher, Ulug‘bek, Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Mars kabi. Bunday atoqli otlar o‘zaro tub va yasamaligi hamda tuzilishiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Masalan, Lola, Go‘zal, Amir, Gavhar, Orol kabi otlar sodda tub, Ilonli, Do‘stlik, Paxtakor kabi atoqli otlar sodda yasama, Ulug‘bek, Alisher, Nurato, Nurobod, Qo‘shrabot, Uchquduq kabi atoqli otlar qo‘shma otlardir.

Asal, Quvonch, Anor kabilar turdosh otdan, O‘lmas, Sotiboldi, Turdi, Tursun kabilar esa fe’ldan, Aziz, Botir, Shirin, Vali kabilar sifatdan, To‘qsonboy, Oltibek kabilar esa sondan, Bultur, Avvalboy kabilar esa ravishdan hosil bo‘lgan atoqli otlardir.

Turdosh otlar bir turdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, inson, daryo, shahar, kitob, daftar. Turdosh otlar quyidagi ma’no guruhlarga mansubligi bilan o‘zaro farqlanadi: Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jonzot anglatadigan otlardir. Aniq otlar bevosita sanash va ko‘rish mumkin bo‘lgan otlar hisoblanadi. Masalan: kitob, talaba, daraxt, qush.

Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin bo‘lgan otlardir. Ular ham ko‘plik affikslari bilan qo‘llanmaydigan otlar bo‘lib, ularga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda turlicha ma’no bo‘yog‘i yuzaga keladi. Masalan: sevgi, sezgi, qayg‘u, alam, qadr, oriyat.

Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o‘zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: kitob, gul, daraxt kabi. Birlik shaklida bo‘lib, bir xil turdagi narsaning to‘dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir: xalq, armiya, ko‘pchilik, poda, jamoa, o‘rmon kabilar.

Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: daraxt, kitob, qalam. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og‘irlik, suyuqlik o‘lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: tuproq, qum, havo, shakar, tuz, yog‘, guruch kabilar.

Yuqoridagi ma’lumotlar abituriyentlar va o‘zbek tilini mustaqil o‘rganuvchilar uchun qo‘shimcha ma’lumot sifatida taqdim etildi.

Ot so‘z turkumi koreys tilida

Koreys tilidagi ot so‘z turkumi serqirra hodisa hisoblanadi. Bu masala xususida koreys va jahon tilshunoslari ko‘plab izlanishlar olib borishgan. Mashhur koreysshunoslar ot so‘z turkumining turli xil jihatlarini o‘rganib chiqishgan. Koreys tilidagi ot so‘z turkumining morfologik jihatlari Y.N.Mazurning 2001-yilda qayta nashr etilgan «Грамматика корейского языка «(Морфология. Словообразование)» (“Koreys tili grammatikasi (Morfologiya. So‘z yasalishi)”), sintaktik jihatlari A.A.Xolodovichning 2006-yilda qayta nashr etilgan «Очерк грамматики корейского языка» (“Koreys tili grammatikasi tavsifi”) lardan, umumiy hossalari esa Li Ik Sopning 2006-yil Seul universiteti nashriyotida qayta nashr etilgan “한국어문법” (“Koreys tili grammatikasi”)sida chuqur o‘rganilgan. Koreys tilida ot so‘z turkumi (명사) – kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob berib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayon va boshqa barcha narsalarni atab keluvchi leksik birlikdir. Ot so‘z turkumi o‘ziga xos morfologik (형태론) paradigmalarga, so‘z yasalish tizimiga xoslangan sintaktik pozitsiyalariga ega. Ot – so‘z turkumlari (품사) orasidagi eng murakkablaridan biri bo‘lib, bajaradigan funksiya va vazifalari juda ham ko‘p. Koreys tilidagi otni leksik (어휘적인의미), grammatik (문법적인의미) va leksik-grammatik (어휘적-문법적분류) jihatdan o‘rganish va tasniflashimiz mumkin. Koreys tilidagi ot so‘z turkumi gap tarkibida eng ko‘p funksiya bajaradi. Buning sababi, unga barcha kelishik qo‘shimchalari (조사) qo‘shilib, gapda hamma gap bo‘laklari sifatida qo‘llanilishi mumkinligidadir.

Shuningdek, biz gapning strukturasi ayni egaga bog‘liq ekanligiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, ega faqat ot so‘z turkumidagi so‘z bo‘lishi kerakligini ham bir sabab sifatida ko‘rishimiz mumkin. Leksik va grammatik ma’nolar bir-biridan farqlansa-da, uzviy aloqadordir. Ularning biri ikkinchisisiz uchramaydi. Leksik jihatdan ularning ma’nosi bir-biridan farq qilishi mumkin, lekin grammatik jihatdan, hamma so‘zga bir xil qo‘shimcha qo‘shilsa, ularning barchasi bir xil ma’noda qoladi, bir xil ma’noni va bir xil vazifani

bajarib keladi. Koreys tilidagi otlarda rod tushunchasi va egalik qo‘shimchalarini qo‘shish degan tushuncha yo‘q. Koreys tilidagi otlar birlik shaklda ishlatilsa-da, u ko‘p hollarda ko‘plik ma’nosini ham beraveradi. Bu jihati ham aynan leksik va grammatik jihatlarning kesishgan nuqtasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbek va Koreys tillarining o‘rtasidagi farq unchalik katta bo‘lmagani sababli koreys tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish til o‘rganuvchilarga muammo tug‘dirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni
2. Корейский язык. Санг. – Т.: ТашГИВ. 1995.
3. Куротченко К.Б. Корейский язык. – Москва, 2008.
4. Burxonov M. Ot so‘z turkumi. 2020-yil, 24-aprel.

INTERNET SAYTLARI:

1. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2021/05/04/1234567890-1633837
2. https://docsplayer.org/35052649-Mundarija-kirish-bob-koreys-tilida-ot-so-z-turkumining-tutgan-o-rni-koreys-tilidagi-ot-so-z-turkumining-o-ziga-xosliklari-korey.html

Adolat QALQONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrasi magistranti

QO‘QON ADABIY MUHITIDA BAYOZNAVISLIK

Annotatsiya: mazkur maqolada bayozchilikning O‘rta Osiyoda keng tarqalishi sabablari, bayozchilik maktablarining vujudga kelishi, Amiriy davrida Qo‘qon adabiy muhiti, Qo‘qon adabiy muhiti rivojida bayozchilikning o‘rni, Amiriy, Muqimiy, Ho‘qandiy, Furqat, Nodim Namangoniy kabi ijodkorlarga mansub bayozlar haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘rta Osiyo, bayozchilik maktablari, Qo‘qon adabiy muhiti, Amiriy, Muqimiy, Ho‘qandiy, Furqat, Nodim Namangoniy, bayoznavislik.*

Аннотация: в данной статье приводятся факты о причинах широкого распространения баязизма в Средней Азии и появлении школ баязизма, литературной среде в Коканде в эпоху Амири, значении баязизма в развитии литературной среды в Коканде, байозах, принадлежавших Амири. , Мукими, Хуканди, Фуркат, Нодим Намангони изложены.

Ключевые слова: *Средняя Азия, школы баязизма, литературная среда в Коканде, Амири, Мукими, Хуканди, Фуркат, Нодим Намангони, баязизм.*

Annotation: this article provides facts about the reasons for the widespread spread of Bayazism in Central Asia and the emergence of Bayazism schools, the literary environment in Kokand during the Amiri era, the importance of Bayazism in the development of the literary environment in Kokand, and Bayozs that belonged to Amiri, Mukimi, Khukandi, Furkat, Nodim Namangoni are outlined.

Key words: *Central Asia, schools of Bayazism, literary environment in Kokand, Amiri, Mukimi, Khukandi, Furkat, Nodim Namangoni, bayazism.*

O‘zbek mumtoz adabiyotining yashirin qirralarini qayta kashf etishda, mumtoz asarlar, ijodkorlar soni va salmog‘ini yanada boyitishda bayozchilik o‘ziga xos o‘ringa ega. O‘tgan asrlar davomida devon, tazkira, kulliyot, majmua kabi janrlar bilan bir qatorda bayoz janri ham O‘rta Osiyo hududida xalq tomonidan sevib o‘qiladigan va ma’naviy ehtiyojlarni qondira oladigan muhim manba sifatida e’tibor qozongan. Bayozlar xalq orasida shu qadar ommalashib ketganki, dastlab estetik zavq uchun yaratilgan va mutolaa qilingan bo‘lsa, keyinchalik o‘zida turli qimmatli ma’lumotlar: diniy, falsafiy, ijtimoiy hayotga oid qonun-qoidalar, podshohlarga yozilgan arznoma namunalaridan tortib xalq og‘zaki ijodiga oid o‘lan, latifa, maqol, matal, qo‘shiqlar matni kabilarni ham jamlagan boy manba sifatida turli madrasalarda qo‘llanma sifatida ham foydalanilgan [9, 398]. Bayozlarni tuzishda boshqa to‘plamlar, jumladan, tazkira, devon, majmua, kulliyot kabilardan farqli o‘laroq qat’iy qonun-qoidalar bo‘lmagan. Ya’ni bayoz tuzuvchi uni o‘z ixtiyori va estetik did va qarashlaridan kelib chiqib sistemalashtirgan. Tarkibiga ham o‘zi xohlagan va ma’qul deb topgan turli

davr va millatga mansub ijodkorlarning turli janrga oid asarlarini kiritgan. Shuningdek, bayozlar ma'lum bir ijtimoiy va siyosiy g'oyalarni targ'ib qilmagan va aynan shu kabi xususiyatlari bayoz tuzish an'anasining keng ommalashishiga va taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.

O'rta Osiyoda bayoznavislikning eng taraqqiy etgan davri uch xonlik davri (XVII – XIX asrlar)ga to'g'ri keladi [7; 63]. Va bu davrda mavzu va hajm jihatdan ancha takomilga yetgan bayozlar vujudga kelgan. Bayozlarning taraqqiy etishi va xalqning bayozlarga nisbatan ehtiyojining ortib borishi keyinchalik bayozchilik maktablarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Toshkent, Xorazm, Farg'ona, Buxoro kabi madaniyat rivoj topgan shaharlarda bayozchilikning o'ziga xos yo'nalishlari vujudga kela boshlagan.

Ayniqsa, Xorazm, Qo'qon, Toshkent adabiy muhitiga mansub bayozlar mavzu va hajm jihatidan ancha rang-baranglikni kasb etadi.

Qo'qon adabiy muhitining eng gullagan va taraqqiy etgan davri esa Amir Umarxon hukmronligi davriga to'g'ri keladi [1; 126]. Amiriy taxallusi bilan ijod etgan va ko'plab ijodkor-u adabiyotga ishtiyoqmand bo'lgan kishilarga rahnamolik qilgan Amir Umarxon xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalishi uchun harakat qilgan. Adabiyot va san'atni rivojlantirishda ko'plab imkoniyatlar va qulayliklar yaratgan. Aynan shunday maqsadda xonlik hududidagi barcha shoir-u yozuvchilarni o'z saroyida jamlab, adabiy kechalar uyushtirgan, ijodiy jarayonni vujudga keltirgan. Bu jarayonda mumtoz adabiyotimizning tengsiz durdonalariga aylangan turli janrdagi bir qator asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Ko'plab shoir-u ijodkorlar o'z iste'dodlarini namoyon qila oldi.

Qo'qon adabiy muhiti durdonalari bo'lmish devon, tazkira, doston, kulliyot-u hajviy asarlar, chistonlar bilan bir qatorda bayozlar ham o'zining salmoqli o'rniga ega. Mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondalari bo'lmish Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Ho'qandiy, Nodira, Amiriy, Maxmur, Muhsiniy kabi ijodkorlarning ijod mahsullari qo'lyozma va toshbosma bayozlar tarkibida bizning zamonamizgacha yetib kelganligi gapimizning yaqqol isbotidir.

Shu jumladan, milliy adabiyotimizda o'zining g'azallari, hajviy asarlari va eng muhimi sayohatnomasi bilan muhim ahamiyat kasb etuvchi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili bo'lsa-da, uning asarlari alohida devon holida nashr etilmagan. Garchi XX asr boshlarida bir necha marta uning she'rlari jamlanib devon holiga keltirilgan bo'lsa-da, bu devonlar devon tuzish qonun-qoidalariga mos kelmagan, she'riy majmua kabi tuzilgan [4; 18]. Ammo Muqimiy asarlari katta qismining bizgacha yetib kelishida, mumtoz adabiyotimiz manbalarini boyitishda va Muqimiyni ijodkor sifatida adabiyot ahliga tanitishda uning o'z dastxati ostida tuzilgan bir necha bayozlar muhim o'rin egallaydi.

Qo'qon adabiyotining yana bir yirik vakili Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham o'z g'azallari, muxammas-u musaddaslari bilan milliy adabiyotimizning durdonalari safidan o'rin olgan. Ammo u o'z davrida o'z asarlarini to'plab devon tuzmaganligi sababli uning ijodini o'rganish, tadqiq va tahlil etish va bu orqali uni shoir sifatida keng kitobxonlar ommasiga tanishtirishda uning hayotlik davrida va vafotidan so'ng tuzilgan bir necha qo'lyozma va toshbosma bayozlar asosiy muhim manba vazifasini bajargan. Uning ijodini o'rgangan adabiyotshunos olim Xolid Rasulov aynan bayozlar tarkibida yetib kelgan asarlari orqali Furqat ijodiyotining ma'lum qismini tadqiq etishga muvaffaq bo'lgan [6; 4-5].

Qo'qonda adabiy jarayonlar rivoj topishi, badiiy ijod gullab-yashnashiga rahnamolik qilgan Qo'qon xoni Umarxon ham o'z hayotlik davrida zamondosh va o'z zamonasigacha bo'lgan ijodkorlarning she'rlarini to'plab bayoz tuzdirgan. Ushbu bayoz ustida ilmiy izlanish olib borgan Z.Shukurovaning qayd etishicha, Amiriy bayozida g'azal, muxammas, musaddas, tarjiband, taxmis, masnaviy, qasida, hikoyat, munojot, bahri ta'vil kabi janrlarga oid she'rlar uchraydi. Bular orasida shoir o'zi sevgan Navoiy, Bedil kabi shoirlarning g'azallariga bitgan muxammaslari ham keltirilgan [8; 11]. Ushbu bayoz xon rahnamoligida va buyrug'iga asosan tuzilganligi bois izlanishlar uchun ishonchli manba bo'la oladi.

Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda o'z she'rlari bilan kattagina o'rin egallagan Haziniy Ho'qandiy g'azal, murabba', muxammas, musaddas janrlarida samarali ijod qilgan. Uning adabiy merosi 4000 misrani tashkil etadi. Va asarlarining katta qismi bayozlar tarkibida yetib kelgan. XX asrning boshlarida ijodkor hayotlik davrida "Bayozi Haziniy" bir necha marta Toshkent toshbosmaxonalarida nashr etilgan. Bu toshbosma nusxalar O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Qo'qon adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lmish Maxmur o'zbek mumtoz adabiyotida o'zining hajviy asarlari bilan katta ahamiyat kasb etishi barchamizga ma'lum. Ijodkorning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar P.Qayyumovning "Maxmur" nomli kitobida keng yoritilgan. Maxmur ijodini tadqiq etishda ikkinchi manba sifatida o'tgan asrlarda yaratilgan bayozlar ham muhim ahamiyatga ega. R.Orzibekovning ta'kidlashicha, Maxmur qalamiga mansub g'azal, muxammaslar shu davrgacha yetib kelgan ko'pgina bayozlar tarkibida uchraydi. Olimning xabar berishicha, Qo'qon adabiy muhitining yorqin vakili Nodira ijodiyoti ham bugungi kunga qadar o'zi tuzgan devon va bayozlar orqali yetib kelgan [2; 217].

Shuningdek, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Xilvatiy, Muhyi, Muhsiniy kabi Qo'qon adabiyotini tashkil etishda asosiy poydevorlar bo'lmish ijodkorlarning ayrim devon, tazkira yoki majmualarga kirmay qolgan

asarlari ham bayozlar tarkibida uchrashi bayoz tuzish an'anasining Qo'qon adabiy muhitida qanchalik taraqqiy etganining isboti bo'la oladi.

Bugungi kunda Qo'qon adabiy muhiti, umuman, butun o'zbek mumtoz adabiyotini yanada rivojlantirish, safini kengaytirish va boyitishda o'tgan asrlarda yaratilgan bayozlar tadqiqotlar markazini egallamoqda. Bayozlar tarkibida bizgacha yetib kelgan nomlari ma'lum va noma'lum ijodkorlarning ijod mahsullari mumtoz adabiy xazinalar kabi ahamiyat kasb etmoqdaki, tadqiq va tahlil etgan sari milliy-badiiy boyligimizning taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan Qo'qon adabiy muhitiga mansub bir necha qo'lyozma va toshbosma bayozlar ham milliy adabiyot rivoji uchun qimmatli va nodir manbalardir. Ular tarkibida keluvchi she'riy va nasriy asarlarni o'rganish va tahlil etish orqali mumtoz adabiyotimizning ochilmagan qirralarini, nafaqat milliy tariximiz, balki qardosh xalqlar tarixi haqida nodir ma'lumotlarni kashf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 270-bet.

2. Oxunjonova F. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, Xayratiylar ijodi misolida). – Farg'ona: FarDU ilmiy xabarlar jurnali, 2-son, 2023. 363-bet. 6-bet.

3. Pardavey Q. Muqimiy dastxatlari. "Filologiyaning umumnazariy masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2-kitob. – Toshkent, 2020. 8-bet.

4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. – Toshkent, 1961. 370-bet.

5. Rasulov X. "Furqat" monografiyasi. – Toshkent, 1959. 45-bet.

6. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent , 2017. 216-bet.

7. Shukurova Z. Bayoz tuzish an'anasi va uning adabiy jarayondagi ahamiyati. – Toshkent: "Til va adabiyot ta'limi" jurnali,7-son, 2022. 2-bet.

8. Shukurova Z., Azizullo O. O'rta Osiyoda bayoz tuzish an'anasining paydo bo'lishi. "Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon, 2023. 469-bet.

9. www.ziyouz.com

Nodira SADULLAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi magistranti

SAYYID POSHSHOXOJANING "GULZOR" ASARI NUSXALARI VA TAVSIFI

Annotatsiya: maqolada mumtoz adabiyot namunalarini asliyat asosida o'rganish, talabalarni qo'lyozma manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash, mumtoz manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, mukammal ilmiy izohlar matnini tayyorlash, tilshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi, yuksak ma'naviy qadriyatlar, farzandlar tabiyasi, vatanga muhabbat, halollik va boshqa insoniy fazilatlar targ'ibi bilan yo'g'rilgan Xojaning "Gulzor" asari, uning qo'lyozma nusxalari, asarning bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma'naviyatini yuksaltirishda dasturilamal bo'lishi, ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda olib borish zaruriyati kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *mumtoz, qo'lyozma manba, nasta'liq, manbashunoslik, matnshunoslik, ilmiy izohlar, transkripsiya, tabdil, transliteratsiya, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, ta'limiy.*

Annotation: in the article, the study of classical literature samples based on the original, informing students about manuscript sources, preparing them as specialists, publishing classical sources based on manuscript copies, preparing the text of excellent scientific annotations, new in the direction of linguistics, source studies and textual studies. that conducting scientific-theoretical research is one of the urgent issues today, Khoja's work "Gulzor", which promotes high moral values, children's nature, love for the country, honesty and other human qualities, and its manuscript copies , issues such as the programmatic nature of the work in raising the education and spirituality of today's young generation, the need to carry out education and upbringing in harmony, have been researched.

Key words: *classics, manuscript sources, source studies, textual studies, scientific interpretations,*

transcription, translation, transliteration, social, political, ethical, educational.

Аннотация: в статье проводится исследование образцов классической литературы на основе оригинала, информирование студентов о рукописных источниках, подготовка их как специалистов, публикация классических источников на основе рукописных копий, подготовка текста прекрасных научных аннотаций, новых в направлении языкознания, источниковедение и текстоведение. О том, что проведение научно-теоретических исследований является одним из актуальных вопросов сегодня, труд Ходжи «Гулзор», пропагандирующий высокие нравственные ценности, детскую природу, любовь к Родине, честность и другие человеческие качества, и его рукопись копий, исследованы такие вопросы, как программный характер работы по повышению образования и духовности современного молодого поколения, необходимость осуществления образования и воспитания в гармонии.

Ключевые слова: *классика, рукописные источники, источниковедение, текстоведение, научные интерпретации, транскрипция, перевод, транслитерация, социальная, политическая, этическая, образовательная.*

Yosh avlodni vatanparvarlik, tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish maqsadida prezidentimiz Sh.Mirziyoyev alohida qaror imzoladi[1]. Qarorda yurtimizda asrlar davomida Markaziy Osiyo bo‘yicha eng boy qo‘lyozma meros jamlangani, uning salmoqli qismi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanishi va ularni o‘rganish muhim ekanligi aytilgan.

Qadimiy qo‘lyozma manbalarimizni o‘rganish, amaliyotga joriy etishning muhimligini his etgan holda XV asrning oxiri XVI asrda ijtimoiy-siyosiy masalalarni o‘zida aks ettirgan, hikoyalari bilan mashhur bo‘lgan Sayyid Poshshoxoja binni Abdulvahhobxojaning hayoti va asarlarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobxoja mutafakkirning to‘liq ismi bo‘lib, Xoja uning taxallusidir.

Xoja 1480-yili Niso shahrida dunyoga kelgan. U dastlab otasi qo‘lida, so‘ngra Niso va Marv madrasalarida mufassal ta’lim olgan. Ijtimoiy faoliyatini temuriyzodalardan Niso viloyati hukmdori Kepak Mirzo hukumatida 1496-yili yozida sadrlik (yer o‘lchovchi) bilan boshlagan. 1508-yili Niso va Obivard viloyatlari Shayboniylar tomonidan zabt etilganda Xoja yetuk shoir va adib sifatida tanilgan edi. Shu yili Shayboniyxon urushdan qaytayotganida Nisoda to‘xtab, Xojani Durun viloyatiga hokim qilib tayinlaydi. Shu orada Nisoga shoir amir Muhammad Solih hokim etib yuborildi. 1510-yili kech kuzida Xoja va Muhammad Solih Marv mudofaasiga keladilar, Shayboniyxon halokatidan keyin esa Xoja mamlakat ichkarisiga – dastlab Samarqand va sal keyin Buxoroga kelib vatan tutadi. 1514-yilgacha Temur Sulton, keyin Ko‘chkunchixon xizmatida bo‘lib, 1515–1516-yillardan e’tiboran Karmana hokimi Jonibek Sulton hukumatida Jumlatulmulk, sadrlik lavozimlarni boshqaradi.

U 1529-yili Buxoro hokimi Ubaydulloxon zamonida qisqa vaqt shayxulislomlik qilgan. 1534-yili Ubaydulloxon Nishopurga kelganda Balx hokimi Kistan Qaro undan Xojani Balxga yuborishini so‘raydi. Shundan so‘ng Xoja Balxda avval sadrlik, ko‘p o‘tmay esa shayxulislomlik vazifasini bajaradi. 1543-yili hokim Kistan Qaro ruhiy kasallikka chalingandan keyin Xoja o‘z vazifasidan ketib ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. Xoja 1547-yili Buxoroda vafot etadi va Bahouddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn qilinadi.

Xojaning bizgacha Temur Sultonga atalgan “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti” 1508–1510 yillar), Kistan Karo Odilga bag‘ishlangan “Gulzor” (1538-yil) falsafiy-axloqiy asarlari va Jonibek Sultonga atalgan “Maqsad ul-atvor” (1514–1520 yillar) axloqiy didaktik masnaviy dostoni hamda bir necha g‘azallari yetib kelgan. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkir al-ahbob” tazkirasida keltirilishicha, Xoja “Layli va Majnun” nomli asar ham yozgan, ammo bu asar haligacha topilgani yo‘q.

Shoirning “Gulzor” asari mazmun va ko‘tarilgan muammolarning dolzarbligi bilan “Miftohul-adl”ga o‘xshab ketadi. Xoja “Gulzor” asarini Balx davlatining shayxulislomi lavozimida turib, xonning din borasidagi maslahatchisi bo‘lgan paytida yozgan. Din homiylari esa u paytlarda katta nufuzga ega bo‘lganlar. Binobarin, Podshoxoja asari ham beklar uchun davlatni boshqarish, xalq bilan qanday munosabatda bo‘lish haqida bitilgan o‘gitlar to‘la asar hisoblanadi.

Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostoni uning dunyoqarashini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xoja o‘z qarashlarida yer yuzidagi barcha insonlar dini, jinsi, irqi, millati, tili qanday bo‘lishidan qat’i nazar Xudo yaratgan bandalar, deb biladi, odamlarni tutgan o‘rni, mavqeyi, martabasi qanaqa – shohmi, gadomi – Haq taolo oldida teng va javobgar ekanligini aytadi. Shu bois inson nafsoniy havaslarga berilib, o‘tkinchi dunyo tashvishlariga mukka ketmasligi, botiniy dunyo g‘amini ham

yoddan chiqarmasligi kerak degan fikrni olg‘a suradi. Unga ruhiy komillik tufayli erishish mumkin. Buning uchun inson rostgo‘y, halol, diyonatli, insofli, mehr-shafqatli, kamtar bo‘lmog‘i, boshqalarga yaxshilik qilib, mehr-oqibat ko‘rsatish fikri bilan yashamog‘i, dilozorlik, o‘g‘rilik, munofiqlik kabi yaramas illatlarni aql-farosat va qanoat bilan yengib o‘tmog‘i kerak.

Inson bu dunyoda nimaiki ish qilmasin, qanday sharoitda yashamasin undan faqat yaxshilik qoladi:

Odam uldirkim jahonda yaxshi so‘zdin pand olur,
Qolmas ushbu odam, ammo olam ichra so‘z qolur.

So‘zki keldi arshdin yer yuzini islom uchun,
Oyati Qur’ondur ulkim, nuridin partav solur.

Qolgan barcha narsalar o‘tkinchi va bu zohiriy dunyo mohiyatinigina aks ettiruvi hodisalardir.

XVI asrning yetuk shoirlaridan Bobur Xojaning bir necha g‘azallari bilan tanishib, unga ijodkor sifatida hurmat bilan qaraydi va o‘zining mulohazalari, maslahatlarini berib turadi. Xojagon tariqatining XVI asrdagi buyuk targ‘ibotchilaridan bo‘lgan mutasavvuf olim Mahdumi A’zam Kosoniy asarlarida Xojani “yuksak parvozli lochin” deb ta’riflaydi.

Doimiy o‘qish va izlanishlarda bo‘lgan Poshshoxoja ilmning turli sohalaridan xabardor bo‘lganligi, she’r ilmini mukammal bilishi, fors va turkiy tillarda g‘azal hamda nasrlar bitganligi haqidagi ma’lumotlarni Xoja Hasan Nisoriyning “Muzakkirul ahbob” tazkirasi [4.6] orqali tanishishimiz mumkin. Hasan Nisoriyning ushbu asari Poshshaxoja, uning avlod-ajdodlari, otasi va farzandlari haqida hech qayerda uchramaydigan qimmatli ma’lumotlarni beradi [2.30].

O‘z oldimizga o‘zida real hayot manzaralarini aks ettira olgan, kichik hikoya va masallardan tarkib topgan “Gulzor” asarini o‘rganish, qo‘lyozma nusxalari bilan tanishishni vazifa qilib qo‘ydik. Sharq an’anasiga ko‘ra, bir asar yozib tugatilgandan so‘ng oxiriga “Kitobning so‘nggi” deb qo‘yiladi. Ammo ko‘pgina qo‘lyozmalarda “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlari bitta kitob holida va bitta muqovada berilgan. “Miftohul adl”dan so‘ng “Gulzor” asari va shu asarning yakunida “Kitobning so‘nggi” berilgan [3.4]. Endi ushbu asarning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 7796, 885, 7731, 7788, 9161, 1791 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari, ularning bir-biridan o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari haqida to‘xtalib o‘tsak.

1. 7796 inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma kitobning o‘lchami 17x11, matn yozilgan qismi esa 14x8. Kitob ikki qismdan iborat. Dastlabki 1-51-sahifalarda adibning “Miftohul adl” asari, so‘ngra “Gulzor” asari va unga qo‘shimcha tarzda Huvaydoning “Ibrohim Adham” masnaviysi ham ko‘chirilgan. Kitob Buxoro qog‘oziga ko‘k tush bilan yozilgan. Ushbu qo‘lyozma nusxaning muqova qismi to‘q yashil bo‘yoq bilan bo‘yalgan qalin karton qog‘ozdan iborat bo‘lib chekkalari charm bilan qoplangan.

“Gulzor” asari tugab Huvaydo masnaviysi boshlanish qismida ۱۲۵۵ raqamlari yozilgan. Bu sana Huvaydo asarining ko‘chirilgan yili hisoblanib, milodiy 1839-40-yillarga, taxminan, Xoja asarining ham ko‘chirilgan vaqtiga to‘g‘ri keladi. Kotib Mulla Ashur Muhammaddur. Bu qo‘lyozma nusxada hech qanday miniatura, unvon yoki bezaklar uchramaydi. Boshqa qo‘lyozma nusxalari ichida eng to‘liq yetib kelgani, savodli ko‘chirilgani va bitilgan yili aniq bo‘lganligi jihatidan ushbu qo‘lyozma eng ishonchli nusxa hisoblanadi.

2. 885 inventar raqamli qo‘lyozma [5.140]. Kitob o‘lchamlari 25x15; matn

o‘lchami 19x9. Ushbu kitobda “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlari har ikkalasi alohida betlanib: 1-51 varaqlarga “Miftohul adl”; 1-45 varaqlarga esa “Gulzor” asari kiritilgan. Kitob sarg‘ish buxoro qog‘oziga, har betiga 15 qatordan matn kiritilgan holda nasta’liq xatida, qora tushda ko‘chirilgan. Muqovasi yashil bo‘yoq bilan bo‘yalgan karton qog‘oz. Ushbu qo‘lyozma nusxaning muallifi va ko‘chirilgan vaqti noma’lumdir. Bu nusxada “Gulzor” asari “Kitobning tasnifi va ta’lifi bob”idan boshlanib ketgan, kirish qismi aks ettirilmagan. Bu nusxada “Gulzor” asari ancha qisqartirilgan. She’riy parchalar deyarli kiritilmagan, so‘nggi bobdagi 10 hikoyatdan 8 tasi keltirilgan.

3. 7731 inventar raqamli qo‘lyozma. Kitob o‘lchamlari 20.5x12. Kitob umumiy 98 varoqdan iborat. 1-18 varaqlariga fors tilida yozilgan “Me’rojnoma” asari, 18-98 varaqlariga esa Xojaning “Gulzor” asari yozilgan. Asar sarg‘ish Buxoro qog‘oziga qora tush bilan ko‘chirilgan. Hikoyat, g‘azal, ruboiy, masnaviy, bayt, nazm kabi janrlar esa kinovar bilan nasta’liq xatida har betiga 15 qatordan yozilgan.

Kitob boshqa qo‘lyozmalarga nisbatan sifatli saqlanib qolgan, kitob muqovasi qora-yashil tusdagi qalin kartondan ishlangan.

Bu asarda ham kotib ismi va ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmagan. Faqat kitob so‘ngida – باتك نى ايا مامت ەنىدآ زور – “Bu kitob juma kuni tugallandi” – degan jumla bor. Ushbu nusxa asar matnining to‘liq ko‘chirilgani bilan ajralib turadi.

4. 7788 inventar raqamli qo‘lyozma. Kitob o‘lchamlari 18x12; matn hajmi 14x9. Ushbu kitobning boshidan 8-10 varag‘i va oxiridan 1 varag‘i yo‘qolgan. Saqlanib qolgan 73 varaqda “ Gulzor” asari ko‘chirilgan.

Kitob sarg‘ish, past sifatli qashg‘ar qog‘oziga qora tush bilan nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Sarlavhalar birinchi qora so‘ng ustidan kinovar bilan

yozilgan she’riy satrlar bir-biridan uch nuqta orqali kinovarda ajratilgan.

Kitob to‘q qizil karton chekkasi charmlangan muqovali. Muqova va matn orasida uch varaq qalin va ko‘k farzas varaqlar yopishtirilgan. Bu keyinchalik restavratsiya vaqtida qilinganligi ma’lum. Kitob nam yerda qolib ketganligi sahifalar chetining titilib ketganligidan ma’lum bo‘ladi. Asarning 21a sahifasi butunlay o‘chib ketgan. Qo‘lyozmaning oxirgi beti saqlanmagani uchun kotib va ko‘chirilgan yili noma’lum.

Ushbu nusxa boshqa nusxalardan qadimiyroqligi bilan ajralib turadi.

1. 9161 inventar raqamli qo‘lyozma.

Kitob o‘lchami 23x18; matn hajmi 16x11. Kitob umumiy 142 varaqdan iborat. Dastlabki 1-72 varaqlariga “Gulzor“, so‘nggi betlariga esa “Me’rojnoma” asarlari ko‘chirilgan kitob so‘ngida kolofon keltirilmagan. Shuning uchun kotibi va ko‘chirilgan yili aniq emas.

Asarning asosiy qismi oddiy rus qog‘oziga qora tush bilan, hikoyatlar, she’riy misralar kinovar bilan xorazmcha yirik nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Kitobning yozuv xususiyatlaridan XIX asr II yarmiga oid deb qaraladi.

2. 1791 inventar raqamli qo‘lyozma. Kitob o‘lchami 33x21.

Qo‘lyozma umumiy 87 varaq: 1-47 varaqlariga “ Miftohul adil “,48-87 varaqlariga “ Gulzor” asarlari ko‘chirilgan.

“Miftohul adl” bir chiziqli oddiy daftarga, “Gulzor “ asari katak daftarga nasta’liq xati bilan ko‘k siyohda yozilgan. Ko‘chirilgan yili va kotib ismi keltirilmagan. Qo‘lyozma Fitratdan sotib olinganligi qayd etilgan. Asar ko‘p jihatdan 885 inventar raqamli qo‘lyozmaga o‘xshash. Shu jihatdan bu kitob shu qo‘lyozma asosida ko‘chirilgan degan fikr mavjud.

Yuqorida keltirilgan qo‘lyozmalarning o‘ziga xos xususiyatlari va har bir kotibning yozish uslubini o‘rganish asosida ayrim kuzatishlar quyidagicha [2.44]:

1. Xoja asarlari xalq og‘zaki ijodi asosida barpo etilgan. Shuning uchun kotiblar bu asarlarga “ijodiy” yondashib o‘zgartirishlar kiritganlar.

2. Matn ichida tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar kotib tomonidan oson so‘z yoki iboralarga almashtirilgan.

3. Ko‘pchilikka tanish bo‘lmagan va xalq orasida turlicha talaffuz etilgan atoqli otlarning yozilishi qiyinchilik tug‘dirgan.

4. Ayrim holatlarda butun bir gap yoki jumla mazmunan teng keladigan boshqa biriga o‘zgartirilgan.

5. Deyarli barcha qo‘lyozmalarda uchraydigan yana bir holat shuki, she’riy parchalar qaysi janrga mansubligidan qat’iy nazar har xil nomlangan “qit’a masnaviy deb, masnaviy qit’a deb…”.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qo‘lyozma matnini badiiy va lingvistik jihatdan tadqiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qo‘lyozmaning xat turi, yaratilgan davr va matn xususiyatlaridan tortib, nashr ko‘rinishigacha bo‘lgan tadqiqotni amalga oshirish lozim. Shuningdek, matniy tafovutlarni tahlil qilish, transliteratsiya va tabdildagi yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nuqsonlarni aniqlash, qo‘lyozma tavsifini amalga oshirish, tekstologik belgilarni aniqlash muhim ishlardan biri hisoblanadi. Xoja hikoyalari sodda va ravon uslubda yozilganligi, o‘ziga xos tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi va til xususiyatlari nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatli manbalardan biri bo‘lib, farzandlar tabiyasi, vatanga muhabbat, halollik va boshqa insoniy fazilatlar targ‘ibiga bag‘ishlagan, uning bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Qadimiy qo‘lyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – T., 2017-yil, 24-may.
2. Mirzaaxmedova M. Xoja. – Toshkent: “Fan”, 1975. 30-b.
3. Poshshoxoja “Miftohul adl” va “Gulzor”dan. O‘z SSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent, 1962. 4-bet.
4. O‘zFA ShI, Qo‘lyozmalar fondi, inv. № 4282, 6a –b.
5. “Собрание восточных рукописей АН УзССР”, под редакцие А.А.Семенова. Изд. АН УзССР, Ташкент, т. V, 1960.

Mohigul FAZLIYEVA,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik 1-kurs magistranti

“KALILA VA DIMNA” MASAL VA HIKOYATLARIDA HIKMATLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada hind xalq eposining nomdor durdonalaridan, o‘zining turli purhikmat masal-u donishona hikoyatlari orqali nom qozongan “Kalila va Dimna” asarida keltirilgan hikmatli so‘zlar hamda ularning insoniy xususiyatlarga ta’siri masalasi yoritilib tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *“Kalila va Dimna”, masal, hikoyat, hikmat, “Shohnoma”, Beydabo, Dobshalim, tarbiya, ilm, Barzuya.*

Аннотация: в данной статье освещены и исследованы мудрые слова из одноименных шедевров индийского народного эпоса, представленные в его произведении “Калила и Димна”, получившем название благодаря различным притчам мудрецов-пурхикматов, а также их влияние на человеческие качества.

Ключевые слова: *“Калила и Димна”, притча, пословица, мудрость, “Шахнаме”, Бейдабо, Добшалим, воспитание, наука, Барзуя.*

Annotation: this article highlights and explores the wise words from the masterpieces of the Indian folk epic of the same name, presented in his work “Kalila and Dimna”, which received its name due to various parables of the wise sages, as well as their influence on human qualities.

Key words: *“Kalila and Dimna”, parable, story, wisdom, “Shahnoma”, Beydabo, Dobshalim, upbringing, science, Barzuya.*



Dunyo adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tarbiyaviy-didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan, chuqur mulohaza yuritishga chaqiradigan, insonlarni yomonlik yo‘lidan qaytarib, ezgulik tomon boshlaydigan adabiyotlar soni talaygina. “Mahobhorat”, “Panchatatra”, “To‘tinoma” singari javohirlar safida peshqadamlik qiluvchi “Kalila va Dimna” asari nafaqat hind va Sharq xalqlari, balki jahon adabiyotida ham o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, zabardast manba sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Ko‘p yillar davomida “Kitoblar kitobi” (“Kalila va Dimna”ni Yaqin Sharqda shunday nomlashgan) “yetti qavat qulf” ichida saqlangan bo‘lib, o‘zining sirliligi bilan jahon shohlarining diqqatini tortgan.

Umummilliy ertaklardan “Sayohatchi qurbaqa”, “Tulki va Turna”, “Sher va ayiqcha” kabilar “Kalila va Dimna”dagi masallar va hikoyatlarning asosiy motivlarini o‘z ichiga oladi[4]. Ushbu masallarni madaniy-tarixiy genezis nuqtayi nazaridan tushunish insoniyat madaniyatining umumiyligi va yagona manbasini yana bir bor ta’kidlaydi. Shuningdek, chuqur falsafiy va axloqiy ma’noga ega bo‘lib, bizda birodarlik birligining eng qadimgi tuyg‘ularini uyg‘otadi.

“Kalila va Dimna”ning o‘zbek ijodkorlari tomonidan qiyosiy o‘rganilib, undagi ba’zi hikoyat va masallardan o‘z asarlarida o‘zgacha ko‘rinishda mohirona foydalanib kelishganining guvohi bo‘lamiz. Xususan, mohir satirik Gulxaniyning “Zarbulmasal”

asarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, muallifning ushbu asarni hurmat bilan o‘rganganligi hamda o‘z kitobiga undan ba’zi hikoyatlarning syujetlarini ham kiritganining guvohi bo‘lamiz[1].

“Kalila va Dimna”dan turli davrlarda kitobxonlar barcha tabaqalar uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarni topishgan. Olimlar ushbu donolikni anglab, kulgili afsonalar va ertaklarning yashirin ma’nosini idrok etishgan bo‘lishsa, omi xalq esa xiyonatkor xotiniga ishongan ahmoq erning baxtsiz hodisalari yoki hiyla-nayranglari haqida o‘qib kulishgan. Ilohiyotshunoslar muqaddas kitobda ko‘rishgan o‘tkinchi dunyoning befoydaligi va har bir imonli va taqvodor inson o‘z hayotini munosib o‘tkazish uchun ega bo‘lishi kerak bo‘lgan fazilatlar haqida hikoya qiluvchi buyuk g‘oyalarni anglashgan.

G‘arbiy Yevropa “Kalila va Dimna”ning alohida elementlarini o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, Sharqda bu kitobning mashhurligi yashin tezligida oshdi. 1144-yilda mashhur yozuvchi Nizomiddin Abul Ma’liy asarni arab tilidan fors tiliga tarjima qilib, matnni o‘sha davrning didiga qarab “bezatib”, mukammallashtiradi[3;8].

Jahon durdonalaridan bo‘lmish “Shohnoma”ni mahorat bilan yozgan Firdavsiy ham o‘z asarida “Kalila va Dimna”ning hind elidan keltirilishini quyidagicha majoziy so‘zlar orqali tasvirlaydi:

“Ман имӯз дар дафтари ҳиндувон,
Ҳамебингаридам ба равшанравон.
Набишта чунин буд, ки дар кӯҳи Ҳинд,
Гиёҳест равшан чу румӣ паринд”[5].

(Mazmuni: Men bugun Hindiston idorasidaman, Men har doim yorug‘likka qaraganman. Nabisha Hind tog‘ida qaror topgan edi, Bu ravshan o‘simlik rumiydek edi.)

Kitobdagi hikoyat va masallarda keltirilgan hikmatli so‘zlar va maslahatlar tahliliga diqqatimizni qaratsak, quyidagilarning guvohi bo‘lamiz:

Faylasuf olim Beydaboning shuhratga cho‘milgan shoh Dobshalimni to‘g‘rilik va insof yo‘liga chaqirish uchun yozgan hikoyatlarining birida “Yomonga qo‘shni bo‘lgan odam, dengiz sayyohiga o‘xshaydi: u g‘arq bo‘lishdan qutulsa ham, qo‘rquvdan qutula olmaydi”, degan hikmatiga duch kelamiz[2;13]. Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, agar odam bilib turib tahlikali va dahshatli bir yerga borsa, uni fahmsiz va idroksiz deb hisoblamoq lozimdir, zotan foydali va zararli narsalarni hatto vahshiy hayvonlar ham farq eta biladilar hamda undan saqlanmoq harakatini qiladilar. Shuningdek, Beydabo hakimning shogirdlariga qarata aytgan gaplariga diqqatimizni qaratsak: “Shohlar o‘z nufuzi jihatidan faylasuflardan ustun bo‘lsalar ham, faylasuflar o‘z bilimlari bilan shohlardan afzaldirlar”[2;16] – ya’ni hukmdorning shuhrati va shoni faylasuf olimlardan doim quyida turgan; yoki “Men aql bilan hayoni eng yaqin va ajralmas do‘st deb bilaman, ulardan biri yo‘qolsa, ikkinchisini ham topib bo‘lmaydi”[2;16] – olim xulosasi shuki, sharm-hayo bilan aql insonlarda doimo ajralmas holda turishi lozim, chunki ularning biri bo‘lmasa, ikkinchisining bo‘lishi ham dargumondir.

“Dunyoning butun sirlaridan voqif etgan to‘rt narsa bordir: hikmat, aql, qanoat va adolat”[2;17]. Ushbu hikmatdan ko‘rinib turibdiki, ilm tahsil qilish, savod chiqarish va hamma narsani tushunib idrok etish – hikmatga; tadbir, sabr, nazokat va marhamat – aqlga; hayo, olijanoblik, o‘zini har qanday vaziyatda ham tuta bilish va haq-huquqini anglash – qanoatga; va’daga vafo, to‘g‘riso‘zlik, ezgu va xosiyatli ishlar qilish – adolatga tegishli. Shu to‘rttasi insonni jami hayvonlardan ustun qilib turadi. Shuningdek, bir inson ushbu fazilatlarga ega bo‘lsa, u buyuk saodat egasi bo‘lishdek baxtga munosibdir. Yuqoridagi hikmatda aytilgan xosiyatlar ko‘p jihatidan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi barchaga mashhur to‘rt qahramonga o‘xshab ketadi.

Beydabo hakim tomonidan so‘zlangan hikoyatda to‘rtta olimning “Tarbiyaning asosi nima?” degan savoliga bergan javoblariga qarasak: “Donishmand odamlarga yarashadigan narsa so‘ramaslikdir”, “Dunyoda eng foydali narsa shuki, inson o‘z aqli bilan maslahatlashmasdan so‘z boshlamasin”, “Inson uchun eng xayrli narsa o‘ylamasdan so‘zlamaslikdir”, “Inson uchun eng tinchi shuki, u o‘zini tole ixtiyoriga topshirsin”[2;18], – deb to‘rt olim shohga javob berishadi. Yuqoridagi gaplardan ko‘rinib turibdiki, barcha olimlar har xil kalimalar bilan turlicha javob berishgan bo‘lishsa-da, ularning umumiy ma’nosi bitta – ko‘p gapirmaslik, fasohat hamda balog‘at bilan qisqa jumlada ko‘p mazmun berib so‘zlash, ya’ni “javome’ ul-kalim” qoidalariga amal qilish.

“Ilm narigi dunyoga olib boriladigan eng katta sovg‘adir”[2;40], degan hikmatdan quyidagi xulosani olamiz: quyoshning nuri yer yuzini yoritgani va hayotga abadiy umr bag‘ishlagani kabi ilm ham qalblarni nur bilan yoritadi. Ilmi bo‘lib, unga amal qilmaganlar, bila turib tahlikali yo‘ldan qaytmagan va yo‘lda qaroqchilarni uchratib bor-yo‘g‘idan ajralgan odamlarga o‘xshaydilar. Xullas, ishining yomon ekanligini bila turib nafsini tiyolmagan odam azob-uqubat oloviga yo‘liqadi. Shuning uchun ilm har bir insonning abadiy dunyoga o‘zi bilan olib ketadigan yagona narsasidir.

Asarning “Barzuya hakim haqidagi bobi”da fors hakimlarining buzrugi Barzuya tilidan shunday hikmat aytiladi: “Tabiblarning eng fozili bemorlarni pulsiz muolaja etuvchilardir, bu yo‘l bilan ular ham

bu dunyoning, ham narigi dunyoning ne'matlaridan bahramand bo‘ladilar"[2;43], deb tabib-u shifokorlarga ta'rif beriladi. Bundan ko‘rinadiki, shifokorlik kasbi dunyodagi eng mas'uliyatli kasb bo‘lib, aynan dardmandlarni mablag‘ hisobiga emas, balki chin yurakdan xolis davolovchi tabiblar hatto boqiy dunyoda ham rohat-farog‘atga erishadilar, deyilmoqda. Bundan tashqari, "Bu dunyoga berilgan odam ipak qurtiga o‘xshaydi"[2;49], ya'ni – ipak qurti qanchalik ko‘p ipak o‘rasa, mol-dunyo og‘ushida bo‘lgan odam ham o‘z qo‘l-oyog‘ini shunchalik qattiq bog‘laydi hamda narigi dunyo savol-javoblaridan o‘tolmay pushaymonda qoladi. Shuningdek, asarda dunyo ne'matlarini kamalakka o‘xshatib, oz umr va qisqa muddatda insonni shaydo qilib, so‘ngra yo‘qolib, kishini ado qilishi ta'kidlangan.

"Kalila va Dimna"da Kalilaning duradgor va maymun haqidagi hikoyatida "Quyonni ovlashga chiqqan sher tog‘ echkisini ko‘rib qolib, quyonni qo‘yib, unga otiladi"[2;57], degan hikmatli gapida insonlardagi eng katta nuqsonlardan biri bo‘lmish qanoatsizlik va ochko‘zlik haqida gap bormoqda. Kishi noshukurlik qilib o‘zida bor ozgina narsaga qanoat qilmasdan, kattarog‘ini xohlaydi, natijada, hatto o‘zida mavjud o‘sha narsadan ham mosuvo bo‘ladi.

Kalilaning hikmatlari orasida "Faqat nodon odamlargina quyidagi uch ishga kirishadilar: biri – shohlarga yaqin bo‘lmoq, ikkinchisi – totib ko‘rish maqsadida zahar ichmoq va uchinchisi xotinga sir aytmoq"[2;60], deb ta'kidlangan ko‘rsatmasida diqqat qiladigan bo‘lsak, ko‘rinib turibdiki, sultonlardan uzoq yurish, ayoliga sirini aytmaslik va har narsaga qiziquvchan bo‘lmaslik odatlari eng nufuzli fazilatlardan hisoblanishi qayd etilgan.

Shuningdek, qator hikoyatlarda quyidagi hikmatlar mahorat bilan tavsiflanadi: "Aqlli odamlar podshohni shunday tog‘ga o‘xshatadilarki, u dur va gavhar, shirin mevalar koni bo‘lishi bilan birga, sher, zaharli ilon va boshqa yirtqichlar makoni hamdir"; "Donishmand odamlar istasalar yolg‘onni chinga, chinni esa yolg‘onga aylantira oladilar"; "Yuksakka chiqmoq juda qiyin, pastga qulash esa juda oson gap"; "Toma-toma ko‘l bo‘lur, hech tommasa cho‘l bo‘lur"; "Oxirida ko‘proq lazzat beradigan ozgina mashaqqat, ko‘proq mashaqqat keltiradigan ozgina lazzatdan afzaldir"; "Dunyoda to‘g‘rilikdan yaxshi do‘st bo‘lmaydi"; "Aqlli odam o‘ziga ravo ko‘rmaganni o‘zgaga ham ravo ko‘rmasligi kerak"; "Do‘stlikning eng ulug‘ sharti sir saqlamoqdir"; "Aql – saxovat eshiklari va saodat xazinalarining kaliti"; "Kema uni idora qiluvchi dengizchilarning kuchi bilangina harakat etishi mumkin"; "Tahlikali ishga kirishishga jasorat etmagan odam orzusiga yeta olmaydi"; "G‘azab har narsadan ko‘ra ko‘proq nafratga loyiqdir"; "Yolg‘on gapirmoq, qo‘pollik bilan tavoze qo‘shni bo‘lolmaydi"; "O‘zing bilgan haqiqatni boshqalarning gumoni uchun qurbon qilish aqlsizlikdir"; "Og‘zingizdan chiqqan har bir so‘z bir odamga hayot bag‘ishlashga va yoki bir insonni yo‘q qilib yuborishga qodir"; "Kim nima eksa, shuni o‘radi"[2;8-130].

Asardagi "Hikmat bitmas-tuganmas xazinadir, xarjlaganing bilan u kamaymaydi" degan hikmatga amal qilgan holda shuni aytish mumkinki, kitobning har bir hikoyati, rivoyati va masal-u she'rlarida turli mavzudagi hikmatli fikrlar va xulosalar mag‘zi chaqilgan yong‘oqdek qilib, biz – kitobxonlar uchun manzur qilib berilgan.

Xulosa qilsak, shu tariqa jahon shohsupalarida muqim o‘rinni egallagan hamda o‘rganilish jihatidan Shekspir yoki Navoiy asarlari darajasidan quyida turmagan bu nodir durdona asar asrlar o‘tsa hamki, o‘zining jozibasini yo‘qotmay, barchani o‘ziga jalb qilib kelmoqda. "Kalila va Dimna"dagi insoniy fazilatlar ulug‘langan, nuqsonlar qattiq tanqid ostiga olingan bir paytda, maslahat va tavsiyalar hikmatlar orqali shunday mahorat bilan namoyon etiladiki, bu holat har qanday kitobxon – muxlisni bee'tibor qoldirmaydi. Bundan tashqari, asarning o‘zida ta'kidlanganidek, ushbu masal va hikoyatlar barchaga – ham xos, ham om ahliga tushunarli holda yetkazilib, o‘zimizga yetarlicha xulosa chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abro‘yeva M. "Kalila va Dimna" va o‘zbek adabiyoti. Philological issues are in the eyes of young researchers 1(1), 2023.
2. Kalila va Dimna. Hind xalq eposi. S.G‘aniyeva tarjimasi. Yangi asr avlodi, 2019.
3. Калила и Димна. Абдуллах ибн ал-Мукаффа. –перевод с арабского Б. Шидфар. Москва, Художественная литература, 1986
4. Кучукова А.Р, Кучукова З.А. "Калила и Димна" как протекст транснациональных сказок. Национальные образы мира в художественной культуре, 2015. Ст 221-225
5. Мухиддинов Т.Ш. Шухрати чахонии «Калила ва Димна». Вестник Педагогическая университета-М:,2014 https://cyberleninka.ru/article/n/mirovaya-slava-kalily-i-dimny-na-tadzh

Aziza XAKIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi 1-kurs magistranti

“MAHBUB UL - QULUB” QO‘LYOZMA NUSXALARINING TASNIFI

Annotatsiya: mazkur maqola qo‘lyozma asarlarning nusxalarini saralash va uning vositasida asar matni asliyati va uning ishonchli matnini tiklash tamoyillari va ahamiyati ochib berildi. Navoiyning “Mahbubul qulub” asarining o‘rganilishi va bu asarning nusxalari va ularning tasnifi haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma nusxalar, asliyat, matn tarixi, xattot, nasta’liq, ishonchli matn, matnshunoslik, adabiy matnshunoslik, “Mahbubul qulub”, yig‘ma-qiyosiy matn, qiyoslash, matn butunligi.*

Annotation: this article discusses the principles and importance of sorting out copies of manuscripts and restoring the authenticity of the text of the work, along with its reliable interpretation. It also explores the study of Navoi’s work “Mahbubul Qulub,” analyzing its features and providing a classification.

Keywords: *manuscript copies, originality, textual history, calligraphy, nastaliq, reliable text, textology, literary source studies, "Mahbubul Qulub", cumulative and comparative text analysis, comparison, textual integrity.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются принципы и важность сортировки копий рукописей и восстановления подлинности текста произведения наряду с его достоверной интерпретацией. Также исследуется произведение Навои “Махбубул кулуб”, анализируются его особенности и дается классификация..

Ключевые слова: *рукописи, оригинальность, история текстов, каллиграфия, настаълик, достоверный текст, понимание текста, литературное исследование текста, “Махбубул кулуб”, сравнительный текст, сопоставление, целостность текста.*

Qadim yozma tariximizning poydevorini tashkil etuvchi ma’naviy merosimizni qo‘lyozma manbalar asosida o‘rganishning ahamiyati bugun har qachongidan dolzarb. Chunki butun dunyo xalqlari madaniyati bemisl darajada globallashayotgan hozirgi zamonda o‘zining monumental tarixi va mustaqil tiliga ega har bir millat o‘zligini saqlab qolish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rnini topish uchun ota-bobolaridan qolgan ma’naviy merosga jiddiy e’tibor qaratishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan qadimiy qo‘lyozma manbalarini saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilinayotgani bejiz emas.

Shu ma’noda ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” asari qo‘lyozmalari haqida to‘xtalamiz. Ma’lumki, Alisher Navoiy asarlarining o‘zbek filologiyasining turli sohalari kesimida juda ko‘p o‘rganilgan. Shunga qaramay, Navoiy dahosining me’rosini to‘la o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj hali yo‘qolganicha yo‘q. Bu Navoiy merosining ma’naviy jihatdan yetuk durdona ekanligidan dalolat beradi. Bunday ehtiyojdan kelib chiqqan tadqiqotlar va kelajakda olib boriladigan barcha ishlarda matnshunoslikning o‘rni ahamiyatli va keraklidir. Sababi shuki, Alisher Navoiy asarlarining manbalarini chuqur o‘rganish va hozirda iste’molda qo‘llaniladigan yozuvga kamchiliklarsiz, asliyatini tiklagan holda ommaga yetkazishdek vazifani o‘z zimmasiga oladi. Aytishimiz mumkinki, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fan sohasi qadimiy qo‘lyozmalarda saqlanib kelinayotgan adabiy durdonalarimiz va hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘prikdir.

Navoiyning ushbu asari hozirgi kunga qadar ko‘pgina olimlar tomonidan tahlil qilinib yetarlicha ishlar amalga oshirilgan. Navoiy asarlari matni tadqiqoti XX asrning 20-yillaridan boshlandi [1;7], bu hodisaning aks-sadosi sifatida “Mahbubul qulub ” ma’rifiy didaktik asari haqida ko‘zga ko‘rinarli ishlar dunyoga keldi. Jumladan, 1939-yil matnshunos Yunus Latif asarning ilmiy-tanqidiy matnini nashrga tayyorlab chiqardi [16]. Filolog olim Sh. A. Hayitov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida bu nashrni qisqartma ekanligi va nashrga asos bo‘lgan qo‘lyozmalar haqida ma’lumot berilmaganligini aytib o‘tgan [8;5]. Oradan 10 yil o‘tib, 1948-yil A.N. Kononovning yig‘ma-qiyosiy matnini nashrdan chiqardi. Bu yig‘ma-qiyosiy matn kamchiliklardan xoli emasligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum. Bu haqida P. Shamsiyev, M. Hamidova, A. Hayitmetovlar o‘zlarining ilmiy izlanishlarida aytib o‘tishgan [15;36, 4;26, 6;53-56]. 60-yillarda “Mahbubul qulub”ning nusxalarining topilishi ommaviy nashrlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. 1966-yil Porso Shamsiyev asarning ommaviy nashrini tayyorlab chiqartirdi. Navoiyshunos va adabiyotshunos olimlar “Mahbubul qulub”ga turli xil yondashuvlar orqali asarning turli jihatlarini o‘rganishdi. Masalan, Suyuma G‘aniyeva “Mahbubul qulub” tarkibi mohiyati, ya’ni fasllar va tanbehlarning badiiyatini o‘zining ilmiy izlanishlari bilan yoritgan. A. Rustamov, A. Hayitmetov, A. Abdug‘ofurovlar asarning g‘oyaviy-axloqiy qimmati va Navoiy mahorati kabi masalalar bo‘yicha o‘zlarining

ilmiy xulosalarini bergan [10, 7, 2]. Bu asar misolida Navoiyning saj qo‘llash uslubi va musajja’ san’ati haqida B.Sarimsoqov tadqiqotlar olib borgan [12]. Asar tilshunoslik nuqtayi nazaridan A. Rustamov, H. Mamadovlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, uning janr xususiyatlarini A. Habibullayev o‘rgangan [11, 9, 3]. Sh. Hayitov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasini “Mahbubul qulub”, Qu’ron va hadislar bilan bog‘liq tahlillarga asoslagan [8].

Mumtoz manbalarni qo‘lyozma nusxalari asosida nashr etish, mukammal ilmiy izohlar, ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan tanqidiy matnni tayyorlash, tilshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Har qanday qo‘lyozma shakldagi mumtoz matnning asliyat va ishonchli matnini tiklash uchun bevosita asarning nusxalariga murojaat qilinadi. Chunki bu nusxalar matn tarixini ko‘rsatib beradi va asliyatni tiklashga yordam beradi. Shu o‘rinda matn tarixi terminining izohini keltirsak, muayyan matnning paydo bo‘lishidan to oxirigi holatigacha davom etgan o‘zgarishlar silsilasiga matn tarixi deyiladi [14;98]. Tabiiyki, bu silsiladagi o‘zgarishlarga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo‘lgan va buning natijasi o‘laroq, hozirgi kungacha asar matnining turli xil shakllari yetib kelgan. Bu matnshunosning oldiga matnning asl variantini ularning orasidan saralash vazifasini qo‘yadi. Bu ishni quyidagi 4 ta tamoyilga asoslanib amalga oshirish mumkin. Bular :

1. Xillash (nusxalarni turlashga ajratish: qo‘lyozma, toshbosma, bosma);
2. Tasniflash (xillangan matn turini sanalar bo‘yicha ajratish: asr, yil, oy);
3. Qiyoslash (qo‘lyozmalarning xati va matn to‘liqligi solishtiriladi: badxat, xushxat; matnning butunligidan tushib qolishlar bor yo‘qligi tekshiriladi);
4. Saralash (qiyos natijasida saralangan nusxalarning “matn butunligi” aniqladi). [14;141]

Bu ishlar nusxalarga ega barcha qo‘lyozma asarlar matnini o‘rganishda amalga oshiriladi. Shu jumladan, Navoiyning “Mahbubul qulub” asari nusxalarini o‘rganish ham shu yo‘sinda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” asari umrining so‘nggi yillarida yozilganligi hech kimga sir emas, bu asarni Navoiy shaxsining hayoti va ijodiy tajribalarining yig‘indisi desak ham bo‘ladi. Biroq asarning qadimgi qo‘lyozma nusxalari kam. Ilm-fanda ma’lum bo‘lgan qo‘lyozma nusxalardan uchtasi XVI asrga, qolganlari esa XVIII–XIX asrlarga mansubdir. “Mahbubul qulub”ning 1565–1566-yillarda ko‘chirilgan nusxasi Parij Milliy kutubxonasida, XVI asrda ko‘chirilgan deb taxmin qilingan mukammal bir nusxasi Sankt-Peterburgda, 1595–1596-yillarda ko‘chirilgan nusxasi ham Sankt-Peterburgda, Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. Navoiyning boshqa asarlari qatorida “Mahbubul qulub”ning nusxalari Germaniya, Fransiya, Rossiya, Turkiya kabi davlatlarning kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. O‘zbekistonda ham bu asarning ko‘p nusxalari davlat va shaxsiy kutubxonalarda saqlanib kelmoqda. Hozirgi kungacha Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma- toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlar fondida “Mahbubul qulub”ning 100 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanishi aniqlandi. Bundan tashqari asarning bitta nusxasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining qo‘lyozma va toshbosma adabiy manbalar fondida 872 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Shuningdek, http://nodir.natlib.uz/uz-Cyrl-UZ sayti orqali qidiruvda O‘zbekiston Milliy kutubxonada Navoiyning ushbu asarining 2 ta nusxasi borligi aniqlandi. Ulardan biri PV-53 tartib raqami ostida saqlanadi va bu qo‘lyozma hijriy 1221-(milodiy 1799/1800) yilda ko‘chirilgan [19]. Ikkinchi nusxa PV-223 raqami ostida saqlanib kelinmoqda [20]. Har ikki nusxa ham nasta’liq xat turida yozilgan. Filologiya fanlari doktori, dotsent Sh.Hayitovning “Alisher Navoiy “Mahbubul qulub” asarining manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili” mavzusidagi dissertatsiyasining asosiy manbasi hisoblangan nusxasi Buxoro san’ati muzeyida 27780-raqami bilan saqlanib kelingan. Ko‘rinadiki, “Mahbubul qulub” asarining hali ko‘rilmagan nusxalari juda ko‘p.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma- toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlar fondida saqlanayotgan nusxalarning tasnifini keltirsak, hamma nusxalar uchun umumiy xususiyat bu barcha qo‘lyozmalar bir xat turi, nasta’liqda yozilgan. Qo‘lyozmalarning 40 ga yaqin nusxaning ko‘chirilgan sanasi noma’lum. Lekin qolgan nusxalarning ko‘chirilgan davri XIX asrga mansub. Ammo ko‘chirilgan sanasi ma’lum qo‘lyozmalar ichida 3 ta nusxa qolganlariga nisbatan qadimiyroq hisoblanadi. Birinchisi hijriy 967-yilda (milodiy 1559-1560) Misrda kitobat qilingan bo‘lib, Mahmud ibn Dovud tomonidan ko‘chirilgan, hozirda №9762/II inventar raqami ostida saqlanmoqda. № 9376/I raqami ostida saqlanayotgan nusxa hijriy 1054-yil ko‘chirilgan bo‘lib, XVII asrning birinchi yarmiga mansubdir. Kim tomonidan ko‘chirilgani aniq emas. Ikkinchi nusxa hijriy 1194-yilda xattot Mullo Pahlavonquli tomonidan ko‘chirilgan. Bu milodiy XVIII asrning oxirlariga mansub. №1209/II raqami ostida saqlanayotgan nusxa Xorazmda kitobat qilingan. Xattotning to‘liq ismi Mullo Pahlavonquli ibn Mullo Rahmonberdi hisoblanib, Xorazm xattotlik maktabining ko‘zga ko‘ringan namoyondasi bo‘lgan. Mullo Pahlavonquli tomonidan Navoiyning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Hayratul abror”, “Layli va Majnun” dostonlarini ko‘chirilgan [5;21] va qo‘lyozma O‘z

FA Qo‘lyozmalar institutida № 3018 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlar fondida saqlanib kelayotgan 100 ta qo‘lyozma nusxalarning deyarli yarmining ko‘chirgan xattotlari ma’lum.

№	Inventar raqam	Xattot	Ko‘chirilgan yil (hijriy/ milodiy)	Ko‘chirilgan joy
1	3592/III	Yormuhammadqaro Shahrisabziy	1237/1822	Shahrisabz
2	3324/II	Ne’matulloh bin Muhammad Ya’qub	1260/1844	Xorazm
3	9762/II	Mahmud bin Dovud	967-/1559	Misr
4	6945	Tohirxo‘ja	1207/1793	Xorazm
5	6776/I	Muhammad Sharif	1314/1897	Xorazm
6	1209/II	Mulla Pahlavonquli	1194/1780	Xorazm
7	149	Muhammad Musoxo‘ja	1228/1813	Buxoro
8	9496/I	Alixo‘ja bin Sayd Ahmadxo‘ja	1268/1852	Marg‘ilon
9	9287/ III	Mirzo Abdulqodir Nasafiy	1267/1850	Buxoro
10	3324/II	Ne’matulloh bin	1260/1844	Xorazm
11	186/III	Rahmonqulibek Miroxur	1270/1854	Buxoro
12	9744	Mirzo Muhammad Nazar	1242/ 1826	Qo‘qon
13	1550	Naqibxo‘ja ibn Mo‘minxo‘ja Shoshiy	1255/1839	Toshkent
14	919	Muhammad Alixo‘ja ibn Nasriddinxo‘ja	1262/1846	Samarqand
15	7560/II	Mullo Abdulshahidbek ibn Mullo Mahmudbek	1272/1855	Buxoro
16	6106/II	Tursun Muhammad	1300/1884	Buxoro
17	7412/III	Rahimquli bin Qodirquli	1238-1822	Buxoro
18	3020	Abdurrasul ibn Qutluqboy So‘fi Vofqandiy	1251-1836	Buxoro
19	163	Mullo Ismoilxo‘ja ibn Muhammad Sharifxo‘ja Urganchiy	1264/66-1848/50	Qo‘qon
20	11391	Muhammad Madad ibn Yakrangso‘fi Ersori	1218-1803	Chorjo‘y

(Jadval M. Hakimov Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar kitobi va Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlar fondining kartateka ma’lumotlariga asoslanib tuzildi).

Yuqorida keltirilgan jadvalda ko‘chirilgan yili va joyi, hamda xattoti ma’lum nusxalarning ro‘yxati berilgan. Bu nusxalarning ko‘pchiligi nasta’liq xat turida aniq, ravon va chiroyli yozilgan. Jadvaldan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Buxoro nusxalari ko‘proq va undan keyingi o‘rinni Xorazmda ko‘chirilgan nusxalar turadi. Nusxalarning ko‘p qismi XIX asrga mansubdir. Muhammad Musoxo‘ja ko‘chirgan nusxa sarlavhali bo‘lib , “Lisonut tayr” va “Devon” bilan bir to‘plamga kirgan. № 9496/I raqami ostidagi Alixo‘ja bin Sayd Ahmadxo‘ja ko‘chirgan nusxa “Xamsa” dostoni bilan birgalikda kitobat qilingan.

Xulosa qilib aytganda, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasida ko‘p nusxalarga ega qadimiy qo‘lyozma asarlarni tasniflab o‘rganish zaruriy bo‘lib, bu matn asliyatini aniqlash hamda davr o‘tishi natijasida asliyatda vujudga kelgan o‘zgarishlarni aniqlash, shu bilan birga ularni keltirib chiqargan sabablarni bilishga va tushunishga olib keladi. Qiyoslash orqali matnning butunlilik, qadimiylik, asos nusxa, arxitep nusxalarni ajratishga ko‘mak beradi. Saralangan nusxalarni puxta o‘rganish asosida matn butunligi tiklanadi. Bu ishonchli matn tuzish natijasiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulxayrov M. Asliyat va tadbil muammolari. – Toshkent, 2023. 204-b.
2. Abdug‘afurov A. Navoiy ijodida satira. – Toshkent: Fan, 1972. 260-b.
3. Habibullayev A. Жанровые особенности произведения Алишера Наваи Махбуб ул-кулуб/ в сравнителном аспекте/. Дис. … канд.филол. наук. –Ташкент, 1986. –174 с.
4. Hamidova M. “Mahbubul qulub” ilmiy-tanqidiy tekstini tuzish uchun jalb qilingan qo‘lyozmalar. Adabiy meros, 1989. №3. 25-27-b.
5. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. – Toshkent: Fan, 1991. 53-b.
6. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O‘qituvchi, 1997. 240-b.
7. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. – Toshkent: O‘z SSR FA nashriyoti, 1959. 197-b.
8. Hayitov Sh. Alisher Navoiy “Mahbubul qulub” asarining manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili. diss. – Buxoro, 1997. 150-b.
9. Mamadov H. Navoiy badiiy prozasining leksik stilistik xususiyatlari: filol.fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent-Leninobod, 1969. 194-b.
10. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. 213-b.
11. Rustamov A. Некоторые грамматические особенности языка “Махбубул-кулуб” Алишера Наваи: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1958. –22 с.
12. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj’. – Toshkent : Fan, 1978. 151-b.
13. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
14. Zohidov. R. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. – Toshkent, 2023. 223-b.
15. Shamsiyev P. Navoiy asarlari matnlarini o‘rganishning ba’zi masalalari.f.f.d. diss. –Toshkent, 1969.
16. http://sayfiddin.oyina.uz/uz/article/1780
17. http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/29562
18. http://nodir.natlib.uz/uz-Cyrl-UZ
19. http://nodir.natlib.uz/Record/Demoview?id=11726&filename=%D9%85%D8%AD%D8%A8%D9%88%D8%A8%20%D8%A7%D9%84%D9%82%D9%84%D9%88%D8%A8.pdf
20. http://nodir.natlib.uz/Record/Demoview?id=14155&filename=2.pdf

Gulchexraxon TURAKULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi 1-bosqich magistranti

MUMTOZ ADABIYOTDA GUL VA BULBUL MAVZUSINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada dunyo adabiyotida keng tarqalgan gul va bulbul obrazlarining kelib chiqish tarixi, taraqqiyoti, forsiy va turkiy adabiyotdagi rivojlanish jarayonlari tadqiq etilgan. Beydabo, Fariduddin Attor, Rumiy, Gulshahriy, Alisher Navoiy, Salohiylarning asarlari misolida gul va bulbul obrazlarining badiiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *gul, bulbul, majoz, masnaviy, doston.*

Аннотация: в статье рассматриваются историческое происхождение и развитие цветочных и соловьиных мотивов, распространенных в мировой литературе, с акцентом на их эволюцию в рамках персидской и турецкой литературных традиций. Литературное значение этих мотивов раскрывается в произведениях Бейдабо, Фаридуддина Аттара, Руми, Гульшахри, Алишера Наваи, Салахи.

Ключевые слова: *цветок, соловей, метафора, маснави, эпос.*

Annotation: this article examines the historical origins and development of the flower and nightingale motifs, prevalent in world literature, with a focus on their evolution within Persian and Turkish literary traditions. The literary significance of these motifs is elucidated through the works of Beydabo, Fariduddin Attar, Rumi, Gulshahri, Alisher Navoi and Salahi.

Keywords: *flower, nightingale, metaphor, masnavi, epic.*

Kirish. Dunyo xalqlari mumtoz adabiyotida umumiy mavzular va bir-biriga o‘xshash motivlar ko‘plab topiladi. Ularning bir xalq adabiyotida paydo bo‘lib, keyinchalik boshqa xalqlar adabiyotlarga ko‘chishi tabiiy jarayon. Bunday holat yuqori saviyadagi, inson ma’naviyati, ichki kechinmalari, axloqiy-diniy yuksalishiga alohida ta’sirini ko‘rsatuvchi badiiy obrazlarda yuz beradi. Shu bilan birga, bir-biriga yashash sharoiti, madaniyati o‘zaro o‘xshash xalqlar orasida u tez fursatlarda yoyiladi. Ana shunday umumadabiy motivlardan biri o‘zida majoziy ma’no tashuvchi gul va bulbul mavzusidir.

Asosiy qism. Gul va bulbul obrazlarining kelib chiqish tarixi, rivojlanishi va boshqa adabiyotlarga, xususan, o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi haqida turli xil qarashlar mavjud. Adabiyot ahliga ma’lumki, gul va bulbul qissalarining manbai Sharq va ayniqsa, hind va fors adabiyoti ekanligi haqidagi fikrlar haqiqatga juda yaqindir.

Hind adabiyotidagi gul va bulbul mavzusiga manba bo‘la oladigan asar – Beydaboning “Kalila va Dimna” nomli asaridir. “Hind adabiyotida Kalila va Dimnadan keyin boshqa xalqlar adabiyotida ham shunday asarlar yaratilgan. Ayniqsa, Eron va Anadoluda yaratilgan va, asosan, qushlarga qaratilgan masnaviylarga Kalila va Dimna ta’siri bo‘lganligi taxmin qilinadi” [1: 8].

Keyingi yillarda bu obrazlar aks etgan asarlar sekin asta ko‘paya boshladi. Xususan, G‘aznaviylar davridagi shoirlaridan biri bo‘lgan Tusiy gul va bulbulni o‘z she’rlarida keng qo‘llagan shoirlarning birinchilaridandir.

Tusiy kabi shirlardan yana biri Hoqoniydir. “Saljuqiylar davrining mashhur qasida shoiri Hoqoniyning (vafoti: H.582) devonida gul va bulbul haqidagi baytlarga ham duch kelamiz” [1: 8].

Aytish mumkinki, gullar va bulbullar mamlakati sanalgan Eronda yetishib chiqqan har bir shoir va yozuvchi gul va bulbul haqida biror narsa yozmay qo‘ymagan. Biroq “fors adabiyotida gul va bulbul mavzusiga oid eng go‘zal baytlar Hofiz (vafoti: 792 h./M.1389-1390)ga tegishli desak, adashmagan bo‘lamiz. Hofizning o‘quvchi va tinglovchiga manzur bo‘lgan lirik g‘azallari ichida gul va bulbul haqidagi misra va baytlar soni kam emas” [1: 9].

Fors adabiyotida gul va bulbul mavzusiga yuksak saviya bergan ilk asarlar sifatida Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va “Bulbulnoma” nomli masnaviylarini aytishimiz mumkin. Attor “Bulbulnoma”sida gul va bulbul mavzusini asar darajasiga ko‘taradi va bu fors adabiyotida ma’lum bo‘lgan ushbu turkumdagi yagona asr sifatida alohida e’tirof etib kelinadi. Bundan tashqari, “Mantiq ut-tayr”da ham gul va bulbul munosabatlari yaxshigina tilga olinadi. Bu ikki asar o‘zidan keyingi ko‘plab shoirlar uchun tayanch hisoblanib, xususan, turkiy adabiyotida ham bir qancha shoir va yozuvchilar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Bu haqida keyinroq batafsil to‘xtalamiz.

Yevropa adabiyotida gul va bulbul mavzusiga oid asarlar kam. “Tarix nuqtayi nazaridan Sharqqa nisbatan yaqinroq davr mahsuli sifatida qaraladigan bu asarlar fransuz adabiyotida Le Roman De La Rose she’rlari va Oskar Uayldning “Ingliz adabiyotida

bulbul va gul” qissasidir. O‘rta asrlardan boshlab ko‘rila boshlagan asarlarning gul va bulbul mavzulari qayerdan kelganligi haqida aniq ma’lumot yo‘q. Biroq bu mavzu Yevropaga 138-hijriy/760-yilda Ispaniyada Andalusiya Umaviylar davlatiga asos solgan arablar orqali yetkazilgan bo‘lishi ehtimoli yuqori” [1: 16].

Ko‘chmanchi cho‘l hayotini aks ettiruvchi johiliyat davri arab she’riyatida gul va bulbul obrazlari uchramaydi. Cho‘l hayotiga xos bo‘lmagan bu ikki obrazning she’rga kiritilmagani tabiiy jarayondir. Lekin aytishimiz mumkinki, islom dini yoyilganidan keyin Eron bilan yaqin munosabatlar fors she’riyatidan gul va bulbul motivining arab she’riyatiga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Geografik jihatdan forslarga yaqin bo‘lgan Abbosiy va Umaviylar davri shoirlari o‘z she’rlarida gul va bulbul obrazlarining uchrashi buni tasdiqlaydi. Xulosa qilish mumkinki, gul va bulbul mavzusi forsiy she’riyatdan Abbosiy va Umaviy shoirlari orqali arab adabiyotiga kirib kelgan.

Sharq xalqlari qatorida turkiy adabiyotga ham gul va bulbul mavzusi fors adabiyotidan yetib kelgan. Gul va bulbul masalasiga birinchi marta to‘xtalgan kishi XIII Asrning buyuk so‘fiyi Mavlono Jaloliddin Rumiyligi haqida ko‘plab ma’lumotlar bor. Mavlononing “Devoni Kabir” va “Masnaviyi ma’naviy” asarlarida gul va bulbul mavzusidagi juftliklar va she’rlar talaygina. Bu esa turkiy adabiyotda gul va bulbul mavzusini birinchi bo‘lib ijodida namoyon qilgan shaxs ekanligidan dalolat beradi. O‘zi yashab o‘tgan davridan to bugungi kungacha ko‘plab yozuvchi va shoirlarga ta’sir ko‘rsatgan Mavlononing “Bulbulnoma” nomli 55 baytdan iborat kichik masnaviyi mavjud bo‘lib, bu uning gul-bulbul mavzusini fors adabiyotidan turk adabiyotiga olib kirganligini yanada tasdiqlaydi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Attorning “Mantiq ut-tayr” va “Bulbulnoma” asarlari ko‘plab shu turkumdagi turkiy asarlar yozilishiga sababchi bo‘ldi. Xususan, Attorga javob tarzida yozilgan ilk turkiy doston turk adibi Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”i hisoblanadi. Doston 1317-yilda yaratilgan bo‘lib, “Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr” dostonida an’anaviy syujet bayon qilinishi bilan birga, bir qator yangi g‘oya va epizodlar ham kiritilganki, bu uning original asarligidan dalolat beradi” [2: 22].

Gul va bulbul obrazlari turk adabiyotida keng tarqalib , keyinchalik Alisher Navoiy ham “Mantiq ut-tayrga javoban “Lison ut-tayr” asarini yozadi. “Bulbul gulga dil izhorini, muhabbatini aytsa, Hudhud gul abadiy emas, sening ishqing chin bo‘lolmaydi” [3: 408]. Navoiyning ushbu asari adabiyot ahli orasida juda mashhur bo‘lib, gul va bulbul mavzusini yanada ommalashuviga o‘zining beqiyos hissani qo‘shdi.

Turkiy adabiyotda gul va bulbul obrazlari juda keng tarqalishi va rivojlanishi natijasida diqqat markazi ushbu obrazlarga qaratilgan dostonlar yozila boshladi. Ana shunday asarlardan biri Salohiddin Salohiyning hijriy 1153, milodiy 1740-yilda yozilgan “Gul va bulul” dostoni hisoblanadi. Bu asar ham sujet ko‘lami va obrazlar ishtirokiga ko‘ra “Mantiq ut-tayr” asariga javob tariqasida yozilgan dostonlardan biri hisoblanadi. Bu haqida doston ichida muallifning o‘zi ham aytib o‘tadi. Shu bilan birga,” Salohiy “Gul va Bulbul”ning kirish qismida o‘z asarini G‘urbatiyning “Gulu Bulbul”i ruhida yozganligini qayd etadi” [4: 35] :

“Aytib G‘urbatiykim bir kitobe,
Qo‘yub otin Gulu Bulbul kitobi” [5: 2].

“Gul va bulbul” dostoni bugungi kunda adabiyotshunoslik, matnshunoslikning dolzarb tadqiqot obyekti bo‘lgan asarlar sirasiga kiradi. Zero, hali hamon to‘liq tabdil qilinib, yaxlit kitob holida adabiyot ahliga taqdim etilmagani uning o‘rganilish zaruriyatini yanada oshiradi. Hozirgi kunda “…asarning toshbosma nusxalari O‘zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 343, 576, 577, 578, 579, 4002, 4248, 4249, 4250, 9143, 9593, 9594, 9595, 11021, 13857, 13858, 13859-raqamli inventarlar bilan toshbosma nusxalari, 3402, 5354-sonli qo‘lyozma kitoblari ham saqlanadi. Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida ham 420 hamda 1295 raqamli toshbosma nusxalari mavjud” [4:36]. Bundan tashqari, ToshDO‘TAU qo‘lyozma va toshbosma adabiy qo‘lyozmalar fondida ham dostonning 1509 raqamli yana bir toshbosma nusxasi saqlanib kelinmoqda.

Ushbu doston sujeti juda qiziqarli. Asar bulbulning qizil gulga oshiq bo‘lishi voqeasi bilan boshlanadi. “Asarda shoir tomonidan ko‘zlangan maqsad – uning “ishqi ilohiyga” bo‘lgan e’tiqodi va Bulbulning shu yo‘lda vafot etgani oydinlashadi” [4: 37]. Asardagi voqealar rivojiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yuqoridagi fikr o‘z tasdig‘ini topadi. Zero, “poemadagi Sabo – pir, Bulbul – murid va Gul “haqiqiy” muhabbat sifatida talqin qilingan” [6: 66], – degan qarashlar olimlar tomonidan bejizga aytilmagan. “Bulbul: “San pirimsan, Mani yo‘l boshlag‘uchi rahbarimsan” [4: 37], – deya saboga qarata aytgan ushbu so‘zlari bunga yorqin misoldir.

Asarda juda ko‘p qushlar ishtirok etadi. Va, albatta, ularning har biri majoziy xarakterga ega. Xususan, “Ziynatga berilgan boy – Tovus, maqtanchoq tabib – To‘ti, o‘ziga bino qo‘ygan hofiz – Kabk (Kaklik), riyokor shayx – Qumri, lof uruvchi oshiq – Foxtak (Qashqarg‘urrak), yolg‘onchi so‘fi – So‘fiyo (So‘fito‘rg‘ay), Hudhud (Popishak) esa tasbih o‘girib o‘tiruvchi xudbinlarning tipik vakili bo‘lgan insonlarni gavdalantiradi” [4: 38].

Doston tamomila irfoniy xarakterga ega bo‘lib, u o‘zida tasavvufiy qarashlarni aks ettiradi. Asardagi gul, bulbul, sabo obrazlari o‘zida juda katta mazmun yuklanganligi bilan alohida ajralib turadi. Dostonda “Bulbulning oxirida qafasga tushib qolib, oh urib o‘lgani esa tamoman so‘fiyona mohiyat kasb qiladi, ya’ni Bulbul – jasad qafasda uning komil muhabbatining nishonasi

– ohi tan – qafasdan qutuladi va o‘z muhabbati bilan qorishib ketadi” [6: 66].

Gul va bulbul mavzusi o‘rganilish tarixi shajaralarini ko‘plab keltirishimiz mumkin. Lekin biz ular orasida eng mashhurlari hamda gul va bulbul mavzusini taraqqiy etishiga o‘z hissasini yuksak darajada qo‘shgan asarlarni sanab o‘tishni lozim topdik. Salohiydan keyingi davrlardagi yana bir qancha shu yo‘nalishdagi asarlarni sanab, ro‘yxatni davom ettirishimiz mumkin edi, lekin biz so‘zimizni shu yerda muxtasar qilamiz.

Xulosa. Gul va bulbul obrazlari asrlar osha sharq xalqlari adabiyotining noyob xazinasi sifatida davom etib kelyapti. Bugungi zamonaviy adabiyotda ham uning ta’sirini kuzatamiz. Xalq og‘zaki ijodi, musiqasi, rassomchilik, me’morchilik, qo‘yingki, san’atning o‘nlab sohalarida uning aksini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa gul va bulbul obrazlarining inson madaniyatiga, ruhiyati, tuyg‘ulariga qanchalik katta ta’siri borligidan dalolatdir. Yuqorida aytilganidek, gul va bulbul obrazi o‘zida shunchaki muhabbatni emas, balki ishqi ilohiyni aks ettirgani bilan ham alohida ahamiyatlidir. Bizning vazifamiz mana shunday adabiy motivlarimizni keyingi avlodlarga ham yanada sayqallagan holda yetkazishdir. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek: “Adabiyot yashasa, millat yashaydi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gencay Zavotçu. Türk edabiyoti’nda Gül va Bülbül mesnevïleri. Erzurim. 1997. 213-b.
2. Hasanova Sh. “To‘tinoma” va “Qush tili” turkumidagi asarlarning qiyosiy-tipologik va tekstologik tadqiqi. Fil.f.d...diss. – T., 2016
3. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021. 408-b.
4. Rahmonova Sh. Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati. – Uzbekistan: Language and Culture, 2022. 38-b.
5. Salohiy. Gul va Bulbul tasviri. O‘zRFASHI, qo‘lyozma inv №3402
6. Valixo‘jayev B. O‘zbek epik poeziyasi tarixidan. – T.: Fan, 1974. 66-b.

Maftuna SODIQOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

XORAZM ADABIY MUHITIDA BAYOZCHILIKNING RIVOJLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlari Xiva adabiy muhiti ravnaq topishi natijasida bayozchilik an’anasining rivojlanishi, bu muhitning homiysi sifatida madaniyat va san’at alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, bayozlar to‘g‘risida ilmiy-nazariy ma’lumotlar, “Bayozi ash’or”, “Bayozi musaddasot”, “Bayozi muxammasot” kabi bayozlar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *bayoz, bayozchilik an’anasi, antologiya, majmua, “Bayozi ash’or”, “Bayozi musaddasot”, “ Bayozi muxammasot”, “Bayozi ruboiyot”.*

Аннотация: в данной статье в результате расцвета литературной среды Хивы в конце XIX - начале XX века отдельно показано развитие традиции байозизма, культуры и искусства как покровителей этой среды. Также научно-теоретические сведения о байозах, сведения о таких байозах, как “Байози аш’ар”, “Байози мусаддасот”, “Байози мухамасот”.

Ключевые слова: *байоз, традиция байозизма, антология, сборник, “Байози аш’ор”, “Байози мусаддасот”, “Байози мухаммасот”, “Байози рубайет”.*

Annotation: in this article, as a result of the flourishing of Khiva's literary environment at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the development of Bayozism tradition, culture and art as patrons of this environment are shown separately. Also, scientific-theoretical information about bayozs, information about such bayozs as “Bayozi ash’or”, “Bayozi musaddasot”, “Bayozi mukhamasot” will be provided.

Key words: *bayaz, the tradition of bayazism, antology, complex, “Bayozi ash’or”, “Bayozi musaddasot”, “Bayozi mukhamasot”, “Bayozi rubaiyot”*

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Xorazm deganda, jahon ilm-fani, madaniyat va san’ati taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, o‘zbek davlatchiligining tamal toshi qo‘yilgan betakror bir o‘lka ko‘z oldimizga keladi” [1;237].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida shunday kuchli zalvorli maktab vujudga keldiki, uning rahnamosi Muhammad Rahimxon Feruz o‘zi atrofida tengsiz va bir-birini takrorlamas qobiliyat egalari bo‘lgan Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ilyos Mulla Muhammad o‘g‘li So‘fi, Mutrib Xonaxarobiy, Muhammad Yusuf Chokar, Avaz O‘tar o‘g‘li kabi buyuk ijod sohiblari jamlangan edi. Xorazm adabiy muhitining Buxoro va Qo‘qon xonliklaridan farqi unda shoir va ijodkorlarning tarqoq holda ijod qilmasdan, balki uyushgan holda ijod qilishida edi. Feruz tashabbusi bilan har dushanba va juma kunlari katta adabiy kechalar uyushtirilib, she’riyat gulshanidan bahramand bo‘lishar edilar. Feruz davrida ko‘plab shoirlar ijodini qamrab olgan tazkira, bayoz tuzish an’anasi rivojlandi. Ayniqsa, uning davrida tuzilgan “Bayozi majmuai ash’or”, “Bayozi ash’or” nomli turli lirik she’rlardan iborat bayozlardan tashqari, “Bayozi musaddasot”, “Bayozi muxammasot”, “Bayozi ruboiyot” kabi birgina ruboiy janri namunalaridan iborat bayozlar yaratildi.

Ma’lumki, bayozlar lirik janrdagi asarlardan tashkil topadi, unga nasriy parchalar ayrim hollardagina kiritiladi. Mavjuda Hamidova o‘zining “Qo‘lyozma bayozlar adabiy manba” nomli kitobida “bayozlar erkin ravishda tuzilib, turli davr shoirlarining rang-barang she’rlarini o‘zida mujassamlashtirgan to‘plam sifatida ular tarkibida ba’zan mashhur shoirlarning devonlarida ham mavjud ayrim she’rlarning uchrashi bayozchilik va tipologik xususiyat bo‘lgani holda, ayrim Xorazm bayozlari tuzuvchi xohishi asosida ko‘pincha Feruz topshirig‘i asosida tuzilgan”[2], – deya ta’kidlaydi.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ham bayoz janri xususiyatlari va vazifalari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Bayoz arab tilidan olingan bo‘lib “oq”, “oqlik” degan ma’nolarni anglatadi. Bayozlar ikki yoki undan ortiq shoirlarning ijod namunalaridan iborat she’riy to‘plam bo‘lib, ba’zan tarkibida nasriy asarlardan namunalar ham uchraydi. Aslida bayozlar o‘tmishda havaskor shoirlar yoki kotiblar tomonidan ko‘chirilgan she’riy to‘plam bo‘lib, bugungi kun adabiyotchilari bu kabi she’riy to‘plamlarga shartli ravishda bayoz nomini berishgan. Bayozlar turli tabaqa vakillari tomonidan tuzilishi mumkin va shunga ko‘ra bayozlar turli xil ko‘rinishlarda uchrashi mumkin [11;22].

Shuningdek, ayrim kataloglarda bayozlar “majmua”, “antologiya” kabi iboralar ostida berilgan. Biroq Y. Is’hoqov o‘zining “Bayoz va bayozchilik” risolasida bu ikki tushunchaning farqli jihatlarini aniq ko‘rsatib o‘tadi. “Bayoz va antologiya o‘rtasidagi

tafovut ularning kompozitsiyasida yaqqol ko‘zga tashlanadi: antologiyada shoirlar muayyan xronologik tartibda beriladi va bir shoir hech qachon ikkinchi marta takrorlanmaydi. Bayozlarda esa shoirlarning she’rlari bir necha o‘rinda berilishi mumkin. Binobarin, bayoz va antologiya mohiyati nuqtai nazaridan bir-biridan katta farq qiladi” [4;78].

Sohiba Madrimova o‘zining “Mutrib Xonaxarob asarlari qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi” nomli maqolasida “Bayozi ash’or”, “Bayozi muxammasot” bayozlari va ularning nusxalarini taqqoslab o‘rganadi. Ushbu bayozlar chuqur ma’lumot berib o‘tadi.

Bayozlar Xorazm adabiy muhitida o‘ziga xos o‘ringa ega. Xorazm mumtoz adabiyotida yaratilgan bayozlar Sharq bayozchilik an’anasining xususiyatlari aks ettirish bilan birga o‘ziga xoslikka ham ega. Biz bu holatni ularning janr ko‘lami va mavzu jihatdan ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Feruz topshirig‘i asosida tuzilgan “Bayozi ash’or”, “Bayozi majmuai ash’or” bayozlari sharq bayozchilik an’anasini davom ettirib turli lirik janrlardan iborat bo‘lsa, “Bayozi muxammasot”, “Bayozi ruboiyot”, “Bayozi musaddasot” kabi bayozlar faqat birgina janrdan iborat bo‘lib, o‘ziga xos uslubni kasb etgan[3;19].

Ushbu davrda yaratilgan bayozlarda o‘z davrining yetuk adabiyot namoyondalarining ijod namunalari kiritilgan. Bayoz tartib beruvchi, ijodkorlarning she’rlarini xohlaganicha kiritishi, shuningdek, turli davrlarda yashab o‘tgan shoirlarning ijod namunalarini ham jamlashi mumkin. Shuningdek, bayozlarga xalq og‘zaki ijodi namunalari: o‘lan, latifa, mutoyiba, maqol, musiqiy asarlar ham kiritilishi mumkin. Bayozlar biror g‘oya yoki dunyoqarashni targ‘ib qilmaydi. Bu kabi she’riy to‘plamlarda davriylik bo‘lmaydi, ya’ni bayoz tuzuvchi turli davrlarga oid, o‘zigacha yashab ijod etgan yoki o‘ziga zamondosh bo‘lgan ijodkorlarning asarlarini kiritishi mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, ba’zi o‘rinlarda bayoz atamasi o‘rnida “majmua” termini ham qo‘llanishi mumkin. Shu o‘rinda “majmua” haqida to‘xtalsak. “Majmua” bayozlarga qaraganda bir muncha murakkabdir. Uni tuzuvchi maxsus tanlangan she’rlar bilan bir qatorda o‘zi uchun tanish bo‘lgan she’riy yoki nasriy parchalarni ham kiritishi mumkin. Ayrim xususiyatlari bilan majmua bayozga yaqin tursa ham ular bir-biridan qat’iy farqlanadi. Antologiya esa faqat bir millatga mansub shoirlar ijodidan iborat bo‘ladi. Shuningdek, bayozlar antologiyalardan farqli ravishda faqat bir milliy adabiyot doirasida tuzilmasdan, balki turli millat vakillarining o‘zbek, fors-tojik, ozar, turk, arab tilidagi ijod namunalarini ham o‘z ichiga oladi. Ular qat’iy bob va bo‘limlarga ajratilmaydi, ijod namunalariga sharhlar yoki ijodkorlar hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar keltirilmaydi va aynan shu jihatlari bilan majmua, antologiya va tazkiralardan farq qiladi.

Xiva xonligida Feruz hukmronligi davrida bayoz tuzish an’anasi rivojlandi. Bayozlarning jamoatchilik tomonidan qiziqib o‘qilishi hamda ularga bo‘lgan talabning ko‘pligi bayozlarning devon va tazkiralarga qaraganda taraqqiy etganini bilish mumkin.

1152-raqamli qo‘lyozma. “Majmuayi ash-shuaroyi payravi Feruzshohiy” — “Basmala” bilan boshlanadi va undan keyin debocha beriladi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Feruz, Sultoniy, Sodiq, Sa’diy, G‘oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Shinosiy, G‘ulomiy, Nozir, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Umidiy, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Habibiy, Chokar, Yusuf, Tabibiy, Xayoliy, Rog‘ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Muznib, Chokar kabi 33ta shoirning 3099 ta g‘azallariga tartiblangan. Har bir shoirning she’ridan oldin o‘sha shoir fazilatlarini yorituvchi masnaviy keltiriladi. Ushbu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1326-yilida Muhammad Ya’qub devon mulaqqabibi Xarrot ibn usto Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan [5;36].

Ushbu manba to‘q yashil rangli qattiq karton bilan muqovalangan. Muqova ustiga 3 ta o‘yma naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she’rlar fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. Bayozga kiritilgan she’rlar nasta’liq xatida, ikki ustun shaklida, har bir betda 17, 21 satr she’r yozilgan. She’rlar qora, sarlavhalari esa qizil siyohda yozilgan bo‘lib, har bir she’r qizil rangli siyoh bilan raqamlangan. O‘lchovi 27,5x17,5. Bayoz 1746-betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 1 ta sahifa bo‘sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu bayozning muqovasi yirtilgan, ammo asar yaxshi saqlangan[6;37].


1172-raqamli qo‘lyozma.“Bayozi ash’or” Sayyid Nosirxon to‘ra Sultoniy, Sa’diy, Sodiq, Oqil, Muhammad Yusufbek, Bayoniy, Shinosiy, Doiy, Xudoybergan Ohund, Ojiz, Haqiriy, Xokiy, Umidiy, Kamoliy, Avaz, Devoni Muhammad Komil, Xayoliy Muhammad Nazar, Murodiy, Mirzo, Devoniy, Yusuf, Rog‘ib kabi 22 ta shoirning she’rlari ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozma bayoz hijriy 1323/1905-yili Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Muhammad Sharif devon Allohbergan devon marhumiy tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma bayozning kolofonida kotib tomonidan quyidagi forsiy va turkiy ma’lumotlar berilgan: “Harki, xovanda duo tama’doram zi onki, man bodai gunahkoram. Shud batavfiqi Xudoi loyanam in kitobat ruzi yakshanba tamom. Zilli as-subhona xoliyfata ar-rahmoni a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir al-haqir Muhammad Sharif devon ibn Allohbergan devon marhumiy muvofiq yilon yili, 1323, mohi zulqa’daning o‘n to‘quzlanji sanasi yakshanba kunida yozib itmomg‘a yetkurdi”[7;41].

Shuningdek, O‘zRFA ShIning asosiy fondida “Bayozi ash’or” bayozining 1182-1184-1190-1192-1195-1196-raqamli turli yillarda, turli kotib va xattotlar tomonidan ko‘chirilgan nusxalari mavjud.

1131-raqamli “Bayozi muxammasot”. Tabibiy,

Oqil, Yusuf, G‘ulomiy, Sultoniy, Rog‘ib, Shinosiy, Xayoliy, Bayoniy, Xokiy, Sodiq, Kamoliy, Avaz, Niyoziy, Xaqiriy, Ojiz, Umidiy, Doiy, Habib, Nadimiy, Xodim, Chokar, Mutribi Xonaxarob, Niyoziy, Sa’diy, Rog‘ib kabi 26 shoirning muxammaslari kiritilgan. Ushbu bayozi muxammasot Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan hijriy 1325/1907-yil Ollohbergan devonning o‘g‘li Muhammad Sharif devon tomonidan ko‘chirilgan. Ushbu manba qattiq qora o‘yma naqshli muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she’rlar yupqa shildiroq Samarqand qog‘oziga ko‘chirilgan. Bayozning birinchi sahifasida ko‘k, yashil, pushti ranglar bilan bezatilgan naqshinkor unvon berilgan. Asar qizil va ko‘k ranglar bilan ramkaga o‘ralgan, keyin tilla rangli zar bilan jadval tushirilib, ichiga qora va qizil siyohlarda nasta’liq xatida she’rlar yozilgan, ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. Har bir betda 20 satrdan she’r joylashtirilgan. Barcha she’rlar sarlavhalangan va raqamlangan. O‘lchovi 26x15,5. Bayoz 332 betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 4 sahifa bo‘sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan [8;43].

1134-raqamli qo‘lyozma. “Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” “Debochayi masnaviyoti muxammasot majmuayi ash-shuaro Feruzshohiy domi mulkahu va davlatahu va zayyada umruhu va shavkatahu...” debochasi bilan boshlanadi. Ushbu asar 1326/1908-yili ko‘chirilgan. An’anaviy tarzda



1-rasm. *O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondidagi №6932 raqamli bayoz.*

avval hamd, na’t keyin 4 ta xalifa madhi beriladi. Ushbu asarda taxmis bog‘langan shoirga bag‘ishlab yozilgan masnaviy keltirilgan. O‘sha davr shoirlari Ogahiyni ustoz bilib, uning sifatlarini masnaviyga solib, keyin esa uning g‘azallariga taxmis bog‘laydilar. Birinchi bo‘lib Feruz Ogahiyni madh etgan masnaviysi, undan keyin Feruzning Ogahiy g‘azaliga bog‘lagan muxammasi berilgan. Ushbu asarda 33 ta shoirning Ogahiy g‘azallariga, keyin Feruz g‘azallariga bog‘lagan taxmis muxammaslari ko‘chirilgan. “Bayozi muxammasot” Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili ko‘chirilgan. Ushbu muxammasotni ko‘chirgan kotib haqida ma’lumot berilmagan. Ammo bayoz oxiridagi masnaviyda qo‘lyozmaning ko‘chirilgan yili haqida ma’lumot bor. Bu masnaviyni Bayoniy ko‘chirganligi haqida ma’lumot mavjud, oxirgi ikki bayt quyidagicha yakunlangan:

Bu xizmat ariza andah etib ihtimom, kamu hash bir yilda etdi tamom,

Bayoniy qilib fikri tarixi bot, dedim, she’rdin qoldi olamda ot.

Ushbu manba o‘yma naqshli qora muqova bilan muqovalangan. Muqova ustiga tushirilgan 3 ta naqshinkor bezakning yuqori va past qismiga “Amali Muhammad Rahim Sahhof — 1326” degan yozuv tushirilgan. Tarkibiga kirgan she’rlar fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan bo‘lib, she’rlar qora va qizil siyohlarda, nasta’liq xatida ikki ustun shaklda ko‘chirilgan, har bir betda 17 satr she’r joylashtirilgan. O‘lchovi 27x17. Bayoz 432 betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 4 sahifa bo‘sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu majmuayi shuaro juda yaxshi saqlangan [9;45].

6932-raqamli qo‘lyozma. Muznib, Sodiq, Mutrib, Yusuf, Devoniy, Xokiy, Kamoliy, Shinosiy, Rog‘ib, Asad, G‘oziy, Mirzo, Oqil, Niyoziy, Chokar, Xodim, Purkomil, Nadimiy, Nozir, Avaz, Inoyat kabi 21 ta shoirning she’rlari kiritilgan. Bayoz to‘q yashil o‘yma naqshli muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she’rlar ko‘k rangli yupqa, shildiroq Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. She’rlar qora va qizil siyohlarda nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, ikki qator bo‘lib qiya holatda ko‘chirilgan. Har bir betda 12 satrda she’rlar joylashtirilgan. Bayozga ko‘chirilgan g‘azallarning sarlavhasi hamda raqamlari qizil siyohda berilgan. O‘lchovi 18x11,5. Bayoz 306 betdan iborat, manbaning boshida ikki, oxirida uch varoq bo‘sh qoldirilgan [10;46].

Yuqoridagi bayozlarda o‘sha davrning mashhur ko‘zga ko‘ringan namoyondalari kiritilgan. Adabiy taraqqiyot jarayonida bayozlar adabiyot namunasi bo‘lib qolmay, haqiqiy san’at asariga ham aylandi. Ayniqsa, Xorazm bayozchilik maktabi Muhammad Rahimxon soniy tashabbusi bilan bayozchilik rivoj topdi. Yuzlab naqshdor bayozlar tuzildi va noyoblaridan nusxalar ko‘chirildi. XIX asrning oxirida vujudga kelgan matbaachilik bu ishlarni yanada yengillashtirdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bayozlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligi adabiy muhitining o‘ziga xos janr sifatida yanada rivojlandi. Uning rivojida Feruz jonbozlik ko‘rsatdi. Uning tashabbusi bilan o‘sha davr muhitining barcha shoirlari asarlari jamlanib, bir qancha bayozlar tuzildi. Kotib va xattotlar tomonidan ulardan ko‘plab nusxalar ko‘chirildi. Ayniqsa, litografiyaning vujudga kelishi bu jarayonni yanada yengillashtirdi. Ko‘plab shoirlar ijodining jamlanmasi xalqning ham qiziqishini orttirdi. Bu esa bayozlarga bo‘lgan talabni oshirdi. Shuningdek, XIX asr va XX asrlarning boshlariga kelib shu davrlarda yashab, ijod etgan Xorazm shoirlari she’rlaridan ko‘plab qo‘lyozma bayozlar tuzila boshladiki, bu hol shu davrlarda Xorazmda bayozchilik maktabining yuzaga kelishiga olib keldi. Mavjud bayozchilik maktablarining tashkil topishida va Xorazmda bayozchilik maktabining yuzaga kelishida va Xorazmda madaniy adabiy hayotning jonlanishida mohir kotiblardan mulla Boltaniyoz Xarrot, mulla Karimbergan devon, ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muxrkonlarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, bu davrdagi adabiyot Xiva saroyida markazlashgan bo‘lib, bevosita xonning o‘zi – Muhammad Rahim II (Feruz) homiylik qilardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Hamidova M. Qo‘lyozma bayozlar – adabiy manba. – Toshkent, 1981.
3. Hasanova X. Bayozchilikning mumtoz adabiyotda tutgan o‘ziga xos o‘rni. – Toshkent, 2023.
4. Is’hoqov Y. Bayoz va bayozchilik tarixi. – Toshkent, 1976.
5. Madirimova S. Mutrib Xonaxarob asarlari qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi. – Toshkent, 2019.
6. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (B harfi). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
8. Shukurova Z. Bayozlarning kelib chiqishi va taraqqiyot omillari. Til va adabiyot ta’limi, 3-son. – Toshkent, 2023.
9. www.googlescholar.uz
10. www.Student.ru

Xolidaxon ODILOVA,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrasi 1-kurs magistranti

QO‘QON ADABIY MUHITIDA AYOLLARNING O‘RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘tgan asrlar davomida Qo‘qon adabiy muhiti, unda ijod qilgan mashhur shoiralar, hali hamon fanga noma’lum bo‘lgan ijodkor, yozuvchilarni o‘rganish, shu bilan birga XIX asrda yashab ijod etgan Saodat Mushtariyning Qo‘qon adabiy muhitidagi faoliyati tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon adabiy muhiti, “Tazkirayi qayyumiy”, xattotlik maktabi, “Majmuai Shoironi Umarxoniy”, “Malikai Dilorom”, “Orzigul”, Mahbuba Qodirova, Qo‘qon adabiyot muzeyi.*

Аннотация: в данной статье рассматривается литературная среда Кокана на протяжении последних столетий, творившие в нем знаменитые поэты, творцы и писатели, до сих пор неизвестные науке, а также литературная среда Саодата Муштари, жившего и созданные в XIX веке, изучаются в литературной среде Кокана, деятельность изучается и исследуется.

Ключевые слова: *литературная среда Кокан, “Тазкирай Каюмий”, школа каллиграфии, “Маджмуай Шойрони Умархани”, “Маликай Дилором”, “Орзигуль”, Махбуба Кадирова, Литературный музей Кокана.*

Annotation: in this article, based on the past centuries, the Kokan literary environment, the famous authors who created in it, the authors and writers still unknown to science, at the same time, the Kokan literature of Saodat Mushtari, who lived and created in the 19th century, will be studied activity in the environment has been studied and researched.

Key words: *Kokan literary environment, “Tazkirai Kayyumiy”, calligraphy school, “Majmuai Shoironi Umarkhani”, “Malikai Dilorom”, “Orzigul”, Mahbuba Kadirova, Kokan Literary Museum.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 24-may kuni “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi[1]. Qarorda keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan.

Tarixdan ma’lumki, XVIII–XIX asr Movarounnahr hududida adabiyot va san’at sohasida juda ko‘plab shoir va shoiralar ijod etganlar hamda o‘ziga xos muhit yaratganlar. Albatta, turkiy tilli hududning madaniy rivojida Qo‘qon adabiy muhitining ahamiyati kattadir. Qo‘qon adabiy muhiti (Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Xaziniy va boshqalar) yirik shoirlar faoliyati, ijodiy ta’sirida yuzaga kelgan. Adabiy muhit boshqa joylardagi adib va shoirlardan o‘ziga xosligi, ijodiy alohidaligi, badiiy fikrlash tarzidagi betakrorligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi[12, 180]. Shu o‘rinda, Qo‘qon adabiy muhitining boshqa adabiy muhitlardan farqiga e’tibor bersak, akademik A.Qayumov Qo‘qon adabiy muhitining mintaqaning boshqa adabiy muhitlaridan farqlovchi xususiyatlari haqida fikr yuritarkan, mazkurlardan biri bu muhitda o‘zbek tilining yetakchi mavqe’da bo‘lganligi ekanligini alohida ta’kidlab shunday deydi: “...aynan Qo‘qon adabiy muhitida mintaqadagi boshqa rasmiy tillar – arab va fors-tojik tillari orasida o‘zbek tili yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Bu yerda juda ko‘p o‘zbek shoirlari kamolga yetishib, ona tillari bo‘lgan o‘zbek tilida devon tuzgan shoirlar yetishib chiqdilarki, ularga haqli ravishda Amiriy va Nodira boshchilik qilishardi”[5, 9]. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining faoliyatini o‘rganish uchun Po‘latjon domla Qayumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” asari ham muhim manba hisoblanadi. Bu tazkirada ko‘plab ijodkorlarning tarjimai holi hamda ijod mahsullarini uchratishimiz mumkin. Qo‘qon xonligi madaniy hayotida adabiyotning o‘rni ham beqiyos bo‘lgan. Bu adabiy muhit bilan bog‘liq adabiy manbalar Po‘latjon Qayyumiyga qadar ham mavjud edi. Ularning eng mashhuri va kattasi “Majmuai Shoironi Umarxoniy” asaridir. Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, Qo‘qon adabiy muhiti haqidagi yaxlit ilmiy farazlar, analitik kuzatishlar, shoirlar va ularning asarlari borasida antologik xarakterdagi materiallar bir yerda jamuljam bo‘lgan birinchi asarni aynan Po‘latjon domla yaratdi. Va bu asar ushbu “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” hamda u asosida yaratilgan “Tazkirai Qayyumiy”dir [7, 54]. Qo‘qon xonligining madaniy hayoti haqida yozilgan kitoblar bilan bir qatorda, maqolalarni ham ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Shunday maqolalardan biri, Z.Qobilova, D.Abdullayevalarning “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining o‘zbek adabiy tili rivojidagi

o‘rni” nomli maqolasida ham Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining faoliyati haqida asosli ma’lumotlar berilgan.

Qo‘qon xonligida XVIII–XIX asrning birinchi yarmida ilm-ma’rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ va mutafakkir shoirlar yetishib chiqadi. Qo‘qon xonligidagi adabiy muhitning rivojlanishida Amiriy va Nodiraning xizmatlari beqiyos ekanligi barchamizga ma’lum. Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1810-1822) “Amiriy” taxallusi bilan ijod qilgan, shu bilan birga ahli ilmlarga homiylik qilgan. Xonlik malikasi Mohlaroyning “Nodira”, “Maknuna”, “Komila” taxalluslarida ijod qilgani hammamizga ma’lum.

Vadud Mahmud Amiriy va Nodira davri adabiyotini chig‘atoy adabiyotining “Ikkinchi oltin asri”, – deb baholagan bo‘lsa, Fitrat “Umarxon zamonida adabiyot yangidan bosh ko‘tardi”, – deydi[2].


Shuningdek, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Saodat Mushtariylar ham aynan ko‘zga ko‘ringan ijodkorlardan bo‘lishgan. Nodiraning eng oliyjanob va e’tiborga loyiq tadbirlaridan biri o‘z atrofiga iqtidorli va ijod egalari bo‘lmish shoir va shoiralarni jamlaganligi va ularga homiylik qilganligidir. Uvaysiy, Mahzuna va Mushtariylar uning eng yaqin maslakdosh va maslahatchilari bo‘lishgan. Shu o‘rinda, Dilshodi Barno va Anbar Otin faoliyatiga ham nazar solishni maqsadga muvofiq deb bildik. Dilshodi Rahimqul so‘fi qizi O‘ratepa shahrida tug‘ilgan. U madaniyatimiz tarixida shoira va ma’rifatparvar ayol sifatida nom qoldirgan. Dastlabki savodni otasidan olgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu ishni takomiliga yetkazib maktabdorlik darajasiga yetgan. U ko‘plab iqtidorli qizlarning kamol topishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Jumladan, keyinchalik mashhur shoira bo‘lib tanilgan Anbar Otin ham uning qo‘lida tahsil olgan. Dilshodi Barno “Tarixi muhojiron” asarida XIX asrdagi Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisa va voqealarning ishonchli tasvirlarini yozib qoldirgan. “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) badiiy-tarixiy asarining o‘zbekcha va tojikcha 3 qo‘lyozma nusxasi (“Tazkirai Barno”, “Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron” – “Inson matonati va muhojirlar tarixi”, “Muntaxab alash’ori Barno” – “Barnoning tanlangan she’rlari”) bizgacha yetib kelgan [10, 12]. Bularda o‘zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti va boshqa ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘z ifodasini topgan. Shoira shunday qiyin vaziyatlarda ham insonlarni sabr-matonatli bo‘lishga, yaxshi kunlar kelishiga ishontira olgan. Shunday xalqparvar shoiralardan biri – bu Anbar Otin. Qo‘qonda tug‘ilib, adabiy muhitning rivoji uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shgan Anbar otin Uvaysiyning jiyani bo‘lgan. Uning onasi Ashurbibi oddiy kosib oilasining farzandi edi. Anbar shoira Dilshodi Barnoning qo‘lida tahsil oladi. Undagi salohiyat va iqtidorni Dilshodi Barno juda erta payqagan va qo‘lidan kelgancha shu qobiliyatini o‘stirishga harakat qilgan edi. Anbar otinning mazmunli faoliyatida Dilshodi Barnoning xizmati katta bo‘lgan. Anbar maktabdorlik bilan shug‘ullanganligi uchun Otin degan nom olgan. Badiiy ijodda esa u ikki tilda o‘zbek va tojik tillarida asarlar yaratgan. Anbar Otinning devonida g‘azal asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, unda muxammas, masnaviy, mustazodning ham yaxshi namunasi mavjud. “Qarolar falsafasi” o‘zbek adabiyotining tarixida ayollar qismatiga bag‘ishlangan alohida asar sifatida e’tiborlidir[3]. U o‘z faoliyatida muhim ijtimoiy masalalarni ko‘targan, insonlarning huquqlari, turmush sharoitining yaxshilanishi uchun harakat qilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, shoiralarning har ikkisi ham maktabdorlik bilan shug‘ullangan. Bu ijodkorlarning faoliyati juda ko‘p o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda.

Adabiyotshunos va matnshunos Mahbuba Qodirova mumtoz o‘zbek shoiralari – Zebunniso, Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Muslihabegim Miskin, Saodat Mushtariy, Anbar otin kabi ijodkorlarning hayoti va ijodiy merosini keng ko‘lamda o‘rganib, ilmiy risolalar, monografiyalar yozgan va ularning she’riy to‘plamlarini nashr qildirgan. “XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri“ asarida (1977) shu davr adabiyoti va xususan, shoiralari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan[11,201]. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida berilgan mazkur ma’lumotlar Saodat Mushtariy haqidagi dastlabki ma’lumotlardan biridir. Bu ma’lumotlar tadqiqotchilar uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Eng asosiy manbalar deb, Saodat Mushtariyning har ikki qo‘lyozmasini ham aytsak bo‘ladi. Boshqa adabiyotlarda uchramagan ma’lumotlar qo‘lyozmadan topilayotgani diqqatga sazovordir. Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalangan holda, nomi va adabiy merosi o‘zbek kitobxoniga u darajada tanish bo‘lmagan ijodkorlardan biri – Saodat Mushtariy haqidagi ayrim ma’lumotlarni e’tiboringizga havola qilamiz.

Shoiraning asl ismi Saodat bo‘lib, Mushtariy taxallusi bilan ijod qilgan. 1810/11-yillarda Qo‘qon shahrida tavallud topgan, lekin vafoti haqidagi ma’lumotlar ma’lum emas. Xudoyorxon (1831-1912) saroyida kotibalik, munshiylik qilgan. She’rlarida kishilarni yaxshilik, kamtarlik, poklik va adolatga chaqirgan. Ijodida dostonchilik, qissanavislik yetakchi o‘rinda turadi. Shoira xalq og‘zaki dostonlarining yozma she’riy namunasini yaratgan. “Malikai Dilorom” dostoni og‘zaki adabiyotdagi “Orzigul” dostoniga yaqin[13]. Mushtariyning “Malikai Dilorom” dostoni va xalq qo‘shiqlari usulida yozilgan g‘azallari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida (inv.N 9922) saqlanadi [8]. Ushbu qo‘lyozma 255 sahifadan iborat bo‘lib, jami 4 qismni o‘z ichiga oladi. 1-qism 1-56-betlarni, 2-qism 57-72- betlarni, 3-qism 73-103-betlarni, va nihoyat,

4-qism 105 dan 255-sahifagacha bo‘lgan qismni qamrab olgan. Bundan tashqari, shoiraning boy mazmunga ega qissa va g‘azallari Qo‘qon shahridagi G‘afur G‘ulom nomli adabiyot muzeyida (inv.N 858) saqlanadi [4]. Ushbu kitobning bizgacha 58 sahifasi yetib kelgan, xolos. Ikkala qo‘lyozmaning qaysi biri arxitep nusxa ekanligi noma’lum. Poygirlar deyarli hamma sahifada bor. Qo‘lyozmalarning birini yozishda Qo‘qon qog‘ozidan foydalanilgan. Saodat Mushtariyning oila a’zolaridan faqatgina otasi haqidagi ma’lumotlar shoiraning qo‘lyozmasi ichidan topilgan. “Saodatning otasi Amirxon davrida Xo‘qand qozisi bo‘lgan. Saroyda 40 yilcha kotiblik qilgan. Barcha asarlarini forschadan o‘zbekchaga tarjima qilgan”[8]. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, Mushtariy ham ota kasb – kotiblik bilan shug‘ullangan. Ziyoli insonning farzandi ekanligiga e’tibor qaratsak, shoirada yoshligidan kitobga, adabiyotga muhabbat uyg‘onganligini bilishimiz mumkin.

Munshiylik bilan shug‘ullanganligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, avval munshiy qanday lavozim ekanligini bilib olishimiz darkor. Munshiy, munshi (arabcha – kotib, ijodkor) – O‘rta Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi, yozuv-chizuv ishlarini olib borgan shaxs [12, 821]. Munshiy lavozimiga, odatda, ma’lumotli va husnixat kishilarigina olingan. Munshiylar olim va fozil kishilar bo‘lganligi uchun oddiy kotiblardan farq qilgan. Ular zimmasiga xon va amirlarning maktub va farmonlarini yozish yuklatilgan. Ta’riflardan bilishimizcha, shoira ham husnixatni bilgan. Shuning uchun ham xonning eng ishonchli kishilaridan biriga aylangan. Tarixdan ma’lumki, xonlikda nozik san’at turi hisoblangan xattotlik va kitobat san’ati ham rivoj topgan edi. Qo‘qon xonligining o‘z xattotchilik maktabi bo‘lib, mamlakatda ko‘plab xattotlar yashab, ijod qilganlar. Xattotlarning aksariyati shoir, tarixchi bo‘lgan yoki miniatura san’ati bilan shug‘ullangan. Ko‘p xattotlar nasx, shikasta, nasta’liq kabi yozuv usullarini puxta egallaganlar. Xattotlik san’ati, asosan, Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Xo‘jand, O‘ratepa kabi shaharlarda yaxshi rivoj topganligi barchamizga sir emas. Endi quyida Mushtariyning ijod mahsullari bilan tanishib chiqamiz. Shoiraning qo‘lyozmalarini o‘qishda kitobxon biroz noqulaylikka uchrasa-da, dostonlar va g‘azallarining mazmuniga qiziqqan inson uchun bu qiyinchiliklar ko‘zga tashlanmaydi. Quyida biz Mushtariyning bir g‘azalidan parchaga e’tiborimizni qaratamiz:



Mazkur g‘azal Saodat Mushtariyning Qo‘qon adabiyot muzeyida 858 inventar raqam ostida saqlanuvchi g‘azalidan parchadir.

Na xushlug‘dur kishi mahbubi bilan hamyaqo bo‘lsa,
Qaro kundur o‘shal soat bir- biridan judo bo‘lsa.
Azal kunda judoliq bo‘ldi bu nahnu qasammanodin

Nadur chora bani odamg‘a taqdiri Xudo bo‘lsa.
G‘animat tut yigitlikni guli, gulzori omadda,
Muhabbat yo‘lida doim chu bulbuldur navo bo‘lsa.

Shoiraning ushbu g‘azalini, aynan, ishqiy mavzudagi g‘azal desak, biroz yanglishamiz. Bu g‘azalda taqdirga rozilik, vaqtning g‘animatligi, yigitlik-yoshlikning o‘tkinchiligi tarannum etilgan. Misralar ma’nosiga nazar soladigan bo‘lsak, kishining yori bilan hamyaqo, ya’ni bir yoqadan bosh chiqarishi, har ishda maslahat bilan, kengash bilan ish ko‘rishi yaxshi holatligi aks ettirilgan. Mahbub va mahbubaning bir-biridan ayrilishi zulmatga, qaro kunga qiyoslangan. Qaysidir ma’noda, suygan insonidan ayrilish inson uchun qaro kun hisoblanadi. Lekin bir kun hammamiz ham, qancha yaqin bo‘lsak ham, bir-birimizdan ayrilamiz. Chunki buni taqdiri azal, deydilar. Ya’ni ayriliq ham insonga taqdir qilingan. Keyingi misralarda vaqtning g‘animatligiga urg‘u berilgan. Yigitlik so‘zi bilan yoshlik davri ta’riflangan. Yoshlikni g‘animat bilib, omadni qo‘ldan boy bermaslik kerakligi aytilgan. Bulbulning navo qilishi, sayrashi muhabbatdan darak berishi nazarda tutilgan. Ushbu g‘azalda tanosub va tazod san’atlaridan unumli foydalanilgan. Mana shunday boy ma’no va mazmunga ega g‘azallarni o‘qish kitobxondan katta mas’uliyat va ziyraklik talab qiladi. Chunki qo‘lyozmani o‘qishda, nafaqat, kitobxonning zukkoligi, qolaversa, qog‘oz va siyohning sifati, xattotning mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi barcha ulkan so‘z san’atkorlari – Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Mahzuna, Anbar otin singari shoiralarning deyarli bir paytda Amiriy adabiy maktabidan yetishib chiqqanligi takrorlanmas hodisadir[5,27]. Qo‘qonning so‘nggi xoni Xudoyorxon davrida ham bir qancha ijodkorlar samarali mehnat qilishgan. Aynan, Saodat Mushtariy ham shu davrda ijod qilgan. Kotibalik, munshiylik qilish bilan birgalikda ijod bilan shug‘ullangan. Mushtariyning Nodira bilan yaqin aloqada bo‘lganligi, malikaning yaqin maslahatgo‘y va maslahatchisi bo‘lganligi ham diqqatga sazovordir. Nodira o‘zi yashagan davrdagi o‘zbek ayollarining og‘ir qismatiga dardkash bir siymo sifatida faryod qilgan. Qolaversa, Nodiraning Umarxon bilan hamfikr bo‘lib, unga Qo‘qon ijodkorlar maktabining shakllanishiga munosib hissa qo‘shganligi ham shoiraning ilm-ma’rifat homiysi ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, temuriylar davridagi madaniyat, san’at, adabiyotga bo‘lgan e’tibor xonliklar davrida davom ettirildi. Madaniy, adabiy hayotdagi bu jonlanish Qo‘qon xonligida ham kuzatilgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti shakllanishida Qo‘qon adabiy muhitining ta’siri katta. Qo‘qon xonligining markazi bo‘lgan shaharda qadimiy maktablar, madrasalarning mavjudligi kelajakda ijodkorlarning yetishib chiqishiga ijobiy ta’sir qilgan, ularning ijodi uchun munosib muhit yaratib bergan. Qo‘qon xonligida madaniy hayotning taraqqiy topishida nafaqat, shoir va yozuvchilar, balki shoiralarning ham o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shunday ekan, ijod mahsullari bilan kitobxonlar e’tiboriga sazovor bo‘lgan ijodkorlar bilan bir qatorda, keng ommaga noma’lum bo‘lgan shoir va yozuvchilarning adabiy merosini o‘rganish hamda tadqiqot olib borish maqsadga muvofiq, deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. –T., 2017-yil 24-may.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild (Ilmiy asarlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. Anbar Otin. She’rlar. Risola. – Toshkent, 1970.
4. Mushtariy (inv. N 858) qo‘lyozma. Qo‘qon. G‘afur G‘ulom nomli adabiyot muzeyi.
5. Qayumov A. Amiriy – Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi // “Amiriy va Qo ‘qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: Tamaddun, 2017.
6. Qobilova Z, Abdullayeva D. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining o‘zbek adabiy tili rivojidagi o‘rni. World of Philology Scientific Journal/ISSN 2181-3630.
7. Qodirova M.S. Tazkirayi Qayyumiy. Qo‘qon adabiy muhitini o‘rganishda muhim manba.
8. Saodat M. (inv.N 9922) O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond.
9. Tanlangan asarlar. – T., 1972.
10. Zebunniso, Dilshod va Anbar Otin she’riyatidan. – T., 1981.
11. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Q harfi. Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent.
12. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
13. Ziyouz. com. https:// www. Ziyouz. com>xarita.

Munisa SHOMURODOVA,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik 1-kurs magistranti

JUNAYDULLO MAXDUMI XIRAVIY IJODINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asrdagi Buxoro amirligining madaniy hayoti, adabiyot namoyondalari xizmatlari bo‘yicha ma’lumot keltirilgan. XIX asrda yashab ijod qilgan Junaydullo Maxdumi Xiraviyning hayoti va ijodi hamda keyinchalik adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, bizgacha yetib kelgan asarlari va ularning mavzusi, jamiyatdagi o‘rni xususida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Mulla Qurbon, doston, nasr, nazm, Sharq adabiyoti, Xiraviyning merosi.*

Annotation: this article provides information on the cultural life of the Bukhara Emirate in the 19th century, and the services of literary figures. Information is given about the life and work of Junaydullah Makhdumi Khiravi, who lived and worked in the 19th century, as well as his later studies by literary scholars. In addition, opinions were expressed about the works that have reached us, their theme, and their place in society.

Key words: *Mulla Qurban, epic, prose, poetry, Eastern literature, the legacy of Khiravi.*

XIX asr adabiyotida Shavqiy taxallusi bilan she’rlar yozgan kattaqo‘rg‘onlik Muhammad Sharif, “Chor darvesh”, “To‘tinoma” kabi asarlar muallifi Mulla Qurbon va boshqalar katta rol o‘ynagan. Shuningdek, bu davrda Ahmad Donish, Ochil Murod Miriy Katta Qo‘rg‘oniylar ham adabiyotga xos bo‘lgan asarlar yaratgan. Bu davrda yaratilgan asarlarning ko‘pchiligi hukmron mang‘itlar sulolasi tarixiga, o‘sha davrdagi ijtimoiy muhitga oid bo‘lgan. Amirlikda yashab o‘tgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratgan.

XIX asrning ko‘zga tashlangan namoyondalaridan biri Xiraviy mashhur shoir va tarjimondir. Asl ismi Mulla Qurbon bo‘lib, Xiraviy (ba’zi manbalarda Xiromiy) taxallusidir. 1810-yilda eski Turkistonning Buxoro xonligiga qarashli Kitob shahrida dunyoga kelgan. Vafoti haqida ma’lumotlar yo‘qdir. Avval tug‘ilgan shaharchasida, keyin Buxorodagi mashhur Mirarab madrasasida ta’lim ko‘rgan. Shu sababli uni “mulla” deb chaqirishgan. U arab va fors tillarini mukammal darajada bilgan, Sharq adabiyoti, tarixi va madaniyati haqida ortig‘i bilan ma’lumot sohibi edi. Tabiiyki, o‘z xalqining ahvolini juda yaxshi anglardi. Bu xususida ijodining ilk davrlarida g‘azal, muxammas, masnaviy yozgan bo‘lsa ham, keyinchalik butun umrini bir ish uchun sarf qiladi. Ya’ni arab, fors, hind tillarida va o‘lkalarida mashhur bo‘lgan nasriy va she’riy asarlarga asos bo‘lgan va Turkistonda og‘izdan og‘izga yoyilgan xalq kitoblari asosida she’riy romanlar yoza boshladi. Bu bilan u, Turkiston turklarining ma’lumotini, bilimini, madaniyatini, ma’naviyatini yuksaltirish va ularga ta’lim berishni maqsad qilgan.

Xiraviydan 30 ming misralik hajmli adabiy meros qolgan. Yuksak san’at bilan bitilgan muhammaslari mashhurdir. Eng asosiy asarlari: “Chor darvesh”, “Ra’no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho” kabi dostonlari bilan Turkiston adabiyotidagi dostonchilik an’anasining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Xiraviyning bizgacha yetib kelgan boy adabiy merosi ham epik, ham kichik hajmdagi she’rlardan iborat. Shoirning “Chor darvesh” (1834), “To‘tinoma” (1854), “Ra’no va Zebo” (1856), “Yusuf va Zulayho” dostonlari hamda 175 baytdan iborat muxammaslari bor. Umuman olganda, Xiraviy merosi 30 000 misradan iborat . Adabiyotshunos T.Qorayev Xiraviyning adabiy merosigagina emas, balki shoirning ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan insoniy xislatlariga ham ko‘p e’tibor qaratganini aytishimiz mumkin. Masalan, shoirning nevarasi Tursunqul Yo‘ldoshev va Anbar Otinning aytishicha, ijodkorning yaqinlari teriga ishlov berish bilan shug‘ullangan. Ana shunday insonlar orasidan chiqqan Mulla Qurbonga shoirlik otasidan o‘tgan deyishadi. U o‘ziga Xiromiy (Xiraviy) taxallusini tanlagan .

“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”da yozilishiga ko‘ra, shoir, bu dostonlarda, “ichki urushlar, jaholat, bid’at va xurofotlarni tanqid qilgan, aziyat chekkan” xalqning huzur ichida yashash istagini bildirgan. Xiraviy dostonlari Sharq adabiyoti an’analariga ko‘ra maydonga kelgan. (Toshkent,1979).

Xiraviyning “Chor darvesh” dostoni 1960-yil Toshkent davlat nashriyotida 90 000 dona chiqarilgan (nashrga tayyorlagan A.Azizovdir). 1962-yilda esa shoirning “Ra’no va Zebo” nomli dostoni nashr etilgan. Shoirning ijodini o‘rgangan adabiyot tadqiqotchisi T.Karayev “Mavlono Xiraviy” (Tashkent, 1975) nomli kitobini e’lon qildi.

Xiraviyning xalq orasida mashhur bo‘lgan asarlardan biri “Chor darvesh”dir. Asar, o‘tgan yuz yillarda, faqatgina Turkistonda emas, balki butun Sharqda ma’lum bo‘lgan asarlardan biri bo‘lgan. “Chor darvesh”, ya’ni to‘rt darvesh bilan aloqador qissani ilk bora kim yozganligi ma’lum emas. Faqat bu mavzuda hind, fors, turk va rus tillarda Hindiston, Turkistonda yozilgan nasriy asarlar mavjud. Xiraviyning ijodini o‘rgangan tadqiqotchilardan M.Mahmudovning yozishiga ko‘ra, bu mavzudagi ilk asar muallifi Hindistonda yashagan, fors tilidagi asarlar yozgan Amir Xusrav Dehlaviydir . M.Mahmudov ta’kidlaganidek, shoir “muhtojlik va

chorasizlikda kun kechirsa ham, zolim amirlarga bag‘ishlab qasidalar yozmadi. Aksincha, dostonlarida zolim va johil hukmdorlarni fosh etib, xaqlchil, odil podshohlarni maqtadi” . “Chor darvesh” dostonidagi asosiy mavzu ham zulm, haqsizlik, mazlumlarning adolat uchun kurashi, xoinlar va zolimlarning jazolanishi, sadoqat va vafoning yuksak baholanishi sabab ham asarning xalq tomonidan sevilib o‘qilishiga sabab bo‘lgan.

Yana bir manbada, Xiraviyning “Ra’no va Zebo” nomli asarining yaratilishiga sabab bo‘lgan Mirzo Barxudor Farohiyning “Mahbub ul-qulub” nomli asari haqida so‘z boradi. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan bu didaktik asarning bir bo‘lagi “Ra’no va Zebo” nomi bilan nasrda bitilgan mustaqil syujetli asar bo‘lgani haqida ma’lumot beriladi. Bu asar XVIII-XIX asrlarda tojik va o‘zbek adabiyotlarida Maseho Boysuniy va Ochildimurod Miriy Kattaqo‘rg‘oniyning “Ra’no va Zebo” dostonlari yozilishiga sabab bo‘lgan.

Xiraviyning hajman eng yirik asari “To‘tinoma” 12 ming misradan iborat. Asarning bosh g‘oyasi – vafo va sadoqat. To‘tining barcha hikoya va qissalari shu g‘oyani asoslash, isbotlashga qaratilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №1795 raqami bilan belgilangan “To‘tinoma”ning qo‘lyozma nusxasi mavjud. Bu qo‘lyozma 1270-1271 (milodiy 1854–1855) yillari yozilgan va 1272 (1856) yili nasta’liq yozuvi bilan Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning hajmi – 199 bet, she’rlar soni – 6000 ta. Shuningdek, Kitob va Shahrisabz shaharlarida “To‘tinoma”ning ikkita qo‘lyozmasi borligi ma’lum. Mulla Qurbon “To‘tinoma” asarining yozilishida o‘zbek zaminida keng tarqalgan ushbu qo‘lyozma nusxalar asos bo‘lgan deyish mumkin. Garchi Xiraviy Ziyovuddin Naxshabiyning “To‘tinoma”siga asosiy e’tiborni qaratgan bo‘lsa-da, unga boshqa nusxalar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Xiraviyning hind hikoyalaridan hikoya ichida mustaqil asar yaratishi, ehtimol, “To‘tinoma” bilan chegaralanib qolmasa kerak. Chunki bunga bog‘liq bir necha asarlar mavjud. Bu borada T. Qorayev kelib chiqishi noma’lum “To‘rt darvesh” (Chor darvesh) dostonining asl vatani Hindiston ekanligini ta’kidlaydi . Dastlab, hoshiyali hikoya tarzida bo‘lgan asar Xiraviyning shu nomdagi asari o‘zagini tashkil etgan. Demak, Sharqda keng tarqalgan hikoyatlar shoir ijodining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Omarov B.J. 2022. “To‘tinoma” va uning o‘zbek adabiyotidagi variantlari”. Oltin bitiklar 2: 4-24.
2. Qorayev T. “Shoir Xiromiy va uning adabiy merosi”. Nomzodlik dissertatsiyasi. Buxoro, 1966.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
4. Azizov A. Xiromiy, “Chor darvesh”. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Davlat Badiiy adabiyoti nashrlari, 1960.
5. https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/hirami-molla-kurban
6. www.ziyo.uz
7. www.Student.ru
8. www.googlescholar.uz

Shahrizoda XOSHIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi 1-kurs magistranti.

“MIRZO HAMDAMNING SIPARI G‘AMI” YOXUD “MAVLAVIY JOMIYNING SARGUZASHTLARI” TARJIMA QISSASI HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqola Mirzo Hamdam tarjima qissasi va uning 1915-yili Sirojiddin Maxtum Sidiqiy tomonidan tarjima qilinib, forsiy va turkiy tilda toshbosma shaklida nashr etilishi, umumiy tabdil qilinish jarayoni va undagi asosiy ilgari surilgan g‘oya haqida.

Kalit so‘zlar: *milliy g‘oya, ma’naviy boylik, ma’naviyat, “Qissai Mirzo Hamdam”, Mavlaviy Jomiy, majoziy ishq, darvesh, qo‘lyozma, tasavvuf ilmi, chag‘atoy tili, sipari g‘am, sarguzasht.*

Annotation: this article deals with the translation history of the book “Mirza Hamdam“, its translation by Sirojiddin Mahtum Sidiki in 1915 and its publication in Persian and Turkish lithographs, the overall transformation process and the main idea presented in it.

Keywords: *national ideology, spiritual wealth, spirituality, “Qissai Mirza Hamdam”, Maulavi Jami, dervish, manuscript, the science of sufism, Chagatai language, the sadness of a flower, adventure.*

Аннотация: в данной статье рассказывается об истории перевода Мирзы Хамдама и его перевода Сироджиддина Махтума Сидики в 1915 году и публикации на персидских и турецких литографиях, процессе общей трансформации и основной идее, изложенной в них.


Ключевые слова: *национальная идеология, духовное богатство, духовность, “Кисса-йи мирза Хамдам“, Маулави Джами, дервиш, рукопись, наука суфизм Чагатайский язык , груст цветка, приключение.*

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” deya bejiz aytmagan yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev [1]. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatdir. Hech ikkilanmay ayta olamizki, biz ma’naviy boyliklar-u, buyuk tarixga ega avlodmiz. Milliy boyliklarimiz, urf-odat qadriyatlarimizni saqlab qolish, va ularni qayta o‘rganib ijtimoiy hayotimizga tatbiq etishga bo‘lgan talab shiddat bilan o‘sib bormoqda. Milliylik va qadriyatlarimizga suyanishimiz lozim bo‘lgan jabhalar ham yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda. Bunga misol qilib ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarimiz asl qo‘lyozma va toshbosmalarni qayta o‘rganish, tiklash, tabdil qilish jarayonlariga bo‘lgan talabni ortib borayotganligini olsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu maqola orqali asl qo‘lyozma nusxasi fors tilida bolgan “Mirzo Hamdam tarjima qissasi” va uning 1915-yili Sirojiddin Maxtum Sidiqiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilinib, forsiy va eski turkiy tillarda chop etilgan nusxasi haqida so‘z yuritiladi. Bu asarni o‘qib o‘rganish, tabdil qilish jarayonida fors tili, majoziy ishq, tasavvuf ilmiga murojaat qilishga tog‘ri keldi. Izlanishlar natijasida hali yetarlicha ma’lumotlar aniqlanmagan bo‘lsada, asarni chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq yanada ortdi. Internet saytlari orqali na muallif va na qissa haqida o‘zbekcha ma’lumotlar topildi. Tabdil qilish va o‘rganish jarayonida ma’lum bo‘lishicha hali asarning ilk asl qo‘lyozma forsiy shakli bizgacha yetib kelmagan yoki noma’lum. Qo‘limizdagi asar Mirzo Hamdam tarjima qissasi, “Mirzo Hamdamning Sipari g‘ami” Mavlono Jomiyning sarguzashtlari nomi ostida bo‘lib, u 1915-yilda toshbosma shaklida Toshkent shahrining G‘ulomiya matbaasida bosib chiqarilgan. Qissai Mirzo Hamdam va Mavlaviy Abdurahmon Jomiy, o‘sha mashhur olim, barchamizga tanish bo‘lgan ulamo, mufassir, murtoza murshayx, faqih, islom ulamolari orasida buyuk hurmatga sazovor bo‘lgan murshidi komil, avliyo zot Abdurahmon Jomiy haqida. Shunday ulug‘ mir Alisher Navoiydek inson ustozi nomini tilga olar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda yetuk komil inson islom olimi gavdalanadi. Islom olimi deyishimizga asos qilib u zotning “Shayxi mullo Jomiy’’ arab tili grammatikasi haqidagi kitobi hozirgi kunda ham chuqur o‘rganib kelinayotgani haqida aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asarning ilk sahifasiga ham “tarjimai qissai Mirzo Hamdam“ va Abdurahmon Jomiyning komillik darajasiga chiqqanligi haqidagi quyidagi 4 misralik bayt tarjimon Sirojiddin Maxtum Sidiqiy tomonidan yoziladi [2].

Ilm elin Jomiy peshvosi erur,
Ishq elin Jomiy muqtadosi erur.
Sheridur zavq elig‘a bol kabi,
Tashna Sidqiyg‘a xud zilol kabi



Asarni o‘qib, tabdil qilishga kirishilganda, insonni hayratlantiradigan va chuqur fikrlashga undaydigan narsa bu Abdurahmon Jomiydek ulug‘ zotning sarguzashtlari va Mirzo Hamdam ismli yigit bilan qanday ishqiy bog‘liqligi bo‘lishidir. Internet saytlari orqali o‘zbekcha ma’lumotlar chiqmagani bois rus, fors, nemis, ingiz ya’ni chet tillarida ma’lumotlar qidirildi. Qidiruvlar natijasida topilgan ushbu sayt www.orientalstudies.ru orqali e’lon qilingan maqolada Mirzo Hamdam tarjima qissasi haqida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “В легенде Кисса-йи мирза Хамдам ва-Маулави Джами, созданной на персидском языке примерно в XVIII столетии в Средней Азии, Джами. заочно влюбляется в юношу по имени мирза Хамдам и, переодевшись дарвишем, посещает Самарканд, где с ним происходят различные приключения на почве платонической любви к этому юноше. Списки данного произведения имеют широкое хождение в Средней Азии, оно неоднократно переводилось на чагатайский язык”. Keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, XVIII asrlarda O‘rta Osiyoda fors tilida yaratilgan “Qissai Mirzo Hamdam va Mavlaviy Jomiy” afsonasida Jomiyning Mirzo Hamdam ismli yigitga nisbatan ishqi haqida gap boradi. Bunda Jomiy Mirzo Hamdam ismli yigitga sirtdan oshiq bo‘ladi va darvesh qiyofasida Samarqandga tashrif buyuradi va majoziy ishqi orqali turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Bu asarning nusxalari O‘rta Osiyoda keng tarqalgan, u bir necha marta chag‘atoy tiliga tarjima qilingan” deya talqin qilinadi maqolada.

Bundan tashqari aynan yuqoridagi maqola orqali berilgan fikrlar quyidagi internet sayti https://oldsufiwebzine.wordpress.com/tag/накшбандия/

orqali ham o‘z aksini topgan. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Mirzo Hamdam tarjima qissasi majoziy ishq tasavvuf ta’limotiga aloqador asarlar jumlasidandur.

Majoziy ishqni talqin etuvchi qissalarda ishqi ilohiyga yetishishdan avval ishqi majozni o‘tamoq lozimligi va buning o‘zi ayni haqiqatga ulashtirishi nazarda tutiladi. Otabek Jo‘raboyev ta’kidlaganidek “Tasavvuf ta’limotida asosiy masala ishqdir”[3]. Bunday qissa va afsonalarga murojaat ko‘plab mumtoz shoirlar ijodida uchrasa-da, lekin aynan Mirzo Hamdam qissasiga munosabatni o‘sha davr adabiyotining faqatgina Xaziniy ijodida uchratamiz. Uning bir to‘qqiz baytli g‘azalining ma’qtida Mirzo Hamdam qissasi yodga olinadi [3;61]:

Ey Haziniy, Mavlaviy Jimiy bila Hamdamni ko‘r,
Ul Husayin Mirzoni tug‘yon ayladi ishqi majoz

Otabek Jo‘raboyevning “Haziniy to‘ra” kitobida qayd etilganidek, qissa o‘tmishda “Qissai Mirzo Hamdam va Mavlono Jomiy”, “Qissai Mirzo Hamdam va Latofatli Jomiy” va “Qissai Mirzo Hamdam” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Qissa asli fors tilida bo‘lib, asarning zamonamizdagi nashri 1916-yilda Sirojiddin Mahdum Sidiqiy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingani aytilsa-da, 1910-yilgacha ko‘chirilgan ba’zi manbalarda uning yana boshqa o‘zbekcha variantlari ham uchrashini ta’kidlash lozim [3;61-62].

Xulosa qilib aytganda, qissaning mazmuni murakkab bo‘lib, izlanishlar natijasida topilgan na ma’lumotlari va na davrlar osha o‘rganilib nashr etilib kelinayotgan nusxalari o‘xshash, bir-birini to‘ldirib kelayotgani haqiqatga yaqin bo‘lsa-da, bir xil deb bo‘lmaydi. Qissa qayta-qayta ishlanishi, tarjima qilinishi natijasida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Qisqa qilib aytganda qissa tasavvuf ta’limoti orqali islom ulamosi Abdurahmon Jomiyning Mirzo Hamdam ismli yigit tasviri o‘laroq Allohga bo‘lgan muhabbati, ishq tasviri qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan, 19.01.2021.
2. Sirojiddin Maxtum Sidiqiy, Mirzo Hamdam tarjima qissasi. – Toshkent: G‘ulomiya, 1915.
3. Jo‘rayev. O., Haziniy To‘ra (hayoti va ijodi). – Toshkent: Fan, 2007.

Saytlar ro‘yxati

1. http://www.orientalstudies.ru/rus/index.php?option=com_publications&Itemid=75&pub=253
2. https://oldsufiwebzine.wordpress.com/tag/накшбандия/
3. https://yuz.uz/uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir

Rayhona SHERALIYEVA
Termez state pedagogical institute, 2nd year student
Hilola IBRAGIMOVA
Termez state pedagogical institute, a teacher

USE OF ELECTRONIC LEARNING MATERIALS FOR THE DEVELOPMENT OF LANGUAGE SKILLS AND SPEECH SKILLS (grammar, vocabulary, pronunciation listening, reading, writing)

Annotation: this article deals with the using ways and the advantages of using electronic learning materials for development of language skills and speech skills . The author analyzes using the electronic materials in teaching grammar and vocabulary in English lessons. In addition, this article analyzes ideas and opinions on how to choose this kind of materials to students or pupils.

Key words: *electronic materials, e-learning , audio and video resources, real life , online language courses , social media , multimedia elements.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются способы и преимущества использования электронных учебных материалов для развития языковых навыков и речевых навыков. Автор анализирует использование электронных материалов при обучении грамматике и лексике на уроках английского языка. Кроме того, в этой статье анализируются идеи и мнения о том, как выбирать такого рода материалы студентам или ученикам.

Ключевые слова: *электронные материалы, электронное обучение, аудио- и видеоресурсы, реальная жизнь, языковые онлайн-курсы, социальные сети, мультимедийные элементы.*

Annotatsiya: ushbu maqolada til va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun elektron o‘quv materiallaridan foydalanish usullari va afzalliklari ko‘rib chiqilgan. Muallif ushbu maqolada ingliz tili darslarida grammatika va lug‘atni o‘rgatishda elektron materiallardan foydalanishni tahlil qiladi. Bundan tashqari, ushbu maqola talabalar yoki o‘quvchilar uchun ushbu turdagi materiallarni qanday tanlash bo'yicha g‘oyalar va fikrlarni beradi.

Kalit so'zlar: *elektron materiallar, elektron ta'lim, audio va video resurslar, real hayot, onlayn til kurslari, ijtimoiy tarmoqlar,multimedia elementlar.*

A learning system based on formalized teaching but with the help of electronic resources is known as E-learning. While teaching can be based in or out of the classrooms, the use of computers and the Internet forms the major component of E-learning. E-learning can also be termed as a network enabled transfer of skills and knowledge, and the delivery of education is made to a large number of recipients at the same or different times. Earlier, it was not accepted wholeheartedly as it was assumed that this system lacked the human element required in learning . However, with the rapid progress in technology and the advancement in learning systems, it is now embraced by the masses. The introduction of computers was the basis of this revolution and with the passage of time, as we get hooked to smartphones, tablets, etc, these devices now have an importance place in the classrooms for learning. Books are gradually getting replaced by electronic educational materials like optical discs or pen drives. Knowledge can also be shared via the Internet, which is accessible 24/7, anywhere, anytime.

To better understand how e-Learning benefits organizations today, it's helpful to look at its past. Elliott Maisie coined the term "e-Learning" in 1999, marking the first time the phrase was used professionally. In the years since, eLearning's reputation has gone from strength to strength. [1] But what factors have facilitated eLearning in becoming the most popular way to deliver training today? Some of these factors include:

Mares said : "Learning styles are defined as the procedures of teaching which an individual prefers in a certain period of his or her development" .[2] An example of the use the learning styles in e-learning is a system of teaching Web, which has been introduced by J. Mares in 2004. Such system was primarily based on the articles of Ross and Schulz , who have proposed to adapt an instructional Web (the predecessor of today's e-learning) to the different learning styles . Electronic learning materials can be characterized as fully electronic, hypertext interactive learning materials, created for the purpose of the implementation of the distance learning through e-learning.[3] They are designed to allow easy orientation in a curriculum, primarily by the use of hyperlink text layout and use of a wide range of multimedia elements, which are intended to stimulate as many components of the student's perception as possible.

Overall, electronic learning materials can be an effective tool for improving grammar skills, offering a combination of interactive, engaging, and accessible resources for learners to develop their language skills. Furthermore, there are some ill and disabled children in our society . They want to know some foreign languages. However , they cannot go to schools or education centers. If some children are at this situation, they can learn via online learning , especially, apps , Telegram , Instagram or You Tube channels . In addition to this, we can find any apps or games related to English grammar easily. For example, Kahoot! This is an online game , also it is useful for teachers and students in English lesson. Teachers can check the students with using this game. This is essential , productive and easy . Also, online learning is useful for improving vocabulary and pronunciation . Using electronic learning materials can be highly effective in developing vocabulary and pronunciation skills in a second language[4]. Language learning software programs often incorporate speech recognition technology to provide feedback on pronunciation. This can be particularly useful for learners to practice and improve their pronunciation skills. Also, Multimedia Resources: E-books, audiobooks, and online articles provide a wealth of vocabulary in context and can help learners improve their pronunciation by listening to the correct pronunciation of words and sentences. By leveraging these electronic learning materials, language learners can access a wide range of resources to enhance their vocabulary and pronunciation skills. These materials often offer interactive and engaging learning experiences, making the process more enjoyable and effective. There are some examples :

1. Rosetta Stone -Rosetta Stone is one of the best software programs for learning a language, especially for beginners. It excels at introducing new words and basic grammar, like conjugation and agreement, in a way that's compelling. When learning is going well, you don't even realize all the work that has gone into creating a program that introduces you to new ideas at the right time, and that's a huge part of what makes Rosetta Stone so good. Rosetta Stone also does an excellent job of getting you to commit to learning and studying for about 30 minutes per day with its wonderfully clear and structured lessons, which are laid out in an order you should follow.

2.Duolingo-There really is no better free language learning app than Duolingo. Having tested dozens of language learning apps, we have no doubt that Duolingo would still be one of the best if you paid for it—which you can do with Duolingo Plus if you prefer to have a slightly improved experience with no ads, a special mode for practicing your mistakes, and other perks. What makes Duolingo so good? The content is strong and the design of the app makes it so that you can pick up and practice for a few minutes per day or sit down for longer study

sessions. We love Duolingo's podcasts and Stories feature for the languages that have it. No matter what other tools you use to learn a language, you should incorporate Duolingo for daily practice.

3.Lingoda-Lingoda offers small group and one-on-one classes via Zoom for very reasonable prices. More importantly, however, the classes are highly structured. You get PDFs of all the materials before the class, and the instructor works their way through the same PDF during the class. What Lingoda offers is completely different from tutoring, where a student often brings to the table topics they want to practice or learn. In Lingoda, however, the class material is set ahead of time, and students work their way through all the classes in a particular level before advancing to the next one[5].

E-learning platforms are increasingly used by ESL and EFL students. Zarei and Amani [6] explored the effects of different online tools (word reference lists, media, and vocabulary games) on reading and vocabulary comprehension. The researchers pointed out that using a single online tool to teach second language learners may not lead to the desired outcome. Different online tools have different effects on language learning. Therefore, teachers have to use a combination of these tools to achieve the desired learning outcome. Similarly, in their qualitative study, Dwiastuty et al. [7]proved that the use of Edutainment (entertaining reading activities) as an e-learning activity improved learners' reading comprehension skill and helped them to enrich their English vocabulary [8].

In conclusion, electronic materials play crucial role in 21st century education and training by providing accessible , flexible and engaging resources that support lifelong learning and professional development . Research shows that on average, students retain between 25-60% more through online learning than they do in traditional classroom settings. Other studies shows that , because it is self -paced, eLearning leads to increased student satisfaction and reduced stress. Also, e-Learning helps to develop reading ,writing , vocabulary and pronunciation degree. This learning materials are vital and flexible .

References

1. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2003). e-learning and the science of instruction. San Francisco: Jossey-Bass.
2. Clark, R. E. (Ed.) (2001). Learning from media. Greenwich, CT: Information Age Publishing.
3. Dwiastuty, N., Susilawati, & Sulhan, M. (2018). The using of readutainment as e-learning to improve students' reading comprehension skill. MATEC Web of Conferences, 154, 03007.
4.Mareš, J. (2004). E-learning a individualní styly učení. Československá psychologie, 48(3), 247-262
5. Ross, J. L., & Schulz, R. A. (1999). Using the World Wide Web to Accommodate Diverse Learning Styles. College Teaching, 47(4), 120- 128.
6. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov X.A. "Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852
7.Vladimirova ,L.P. Internet at foreign language lessons/L,P.Vladimirova//IYaSh, 2018.-No.3--33-41p.
8. Zarei, A. A., & Amani, M. A. (2018). The effect of online learning tools on L2 reading comprehension and vocabulary learning. Teaching English as a Second Language (Formerly Journal of Teaching Language Skills), 37(3), 211-238.
9. Ibragimova, H. B. qizi . . (2022). INGLIZ TILINI O'QITISHDA PODKASTLAR VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALIY JIHATLARI. Results of National Scientific Research International Journal, 1(8), 212–219. Retrieved from https://academics.uz/index.php/rnsr/article/view/1118
10. Ibragimova Hilola Bahodirjon Qizi, & To'lqinova Maftuna Hasan qizi. (2023). DEBATE TECHNOLOGY AS AN INTERACTIVE FORM OF TEARNING IN ENGLISH CLASSES. Journal of Integrated Education and Research, 2(4), 56–59. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/966

Dilobar DAVLATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 1-bosqich magistranti
E-mail: dilobardavlatova130@gmail.com
Ilmiy rahbar: Abdulxayrov Manzar Husanovich

“TAASHSHUQNOMA” GENEZISI VA UNING ADABIY MANBA SIFATIDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Taashshuqnoma asari bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish bilan bir qatorda, asarning tashqi va ichki xususiyatlari ham tadqiq etiladi. Bundan tashqari, noma janri va unga tutash asarlarning bir-biriga aloqadorligi haqida ham fikrlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *noma, g‘azal, talmeh, na’t, aruz, uslub, janr.*

Аннотация: в данной статье, помимо изучения научных исследований по произведению “Таашшукнома”, также изучаются внешние и внутренние характеристики произведения. Кроме того, анализируются мнения о соотношении жанра нома и родственных ему произведений.

Ключевые слова: *нома, газаль, талмех, нат, аруз, стиль, джанр.*

Annatation: in this article, in addition to the study of scientific research on the work “Taashshuqnoma”, the external and internal characteristics of the work are also studied. In addition, opinions about the relationship between the noma genre and related works are also analyzed.

Keywords: *letter, ghazal, talmekh, na't, aruz, style, genre.*

Sharq mumtoz adabiyotida noma janrining paydo bo‘lishi uzoq tarixga ega. “Noma” – forscha “xat”, “maktub” ma’nolarini anglatadi. Professor N.Rahmonov nomaning ilk ko‘rinishlari O‘rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo‘lmasdan ilgari buyumlar vositasida ham ifodalanganligini ta’kidlaydi. Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrisning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlari – kamon o‘qi, baqa, sichqon, qushdan iborat o‘ziga xos “maktub”ini eslash kifoya. Albatta, bu kabi maktublarning ildizi qadim tarixga borib taqaladi. Shuningdek, nomaning ildizlarini xalq og‘zaki ijodida ham ko‘rish mumkin. Bu borada “Alpomish” dostoni Oybarchinning Alpomishga maktubini misol qilib keltirish mumkin. “Taashshuqnoma” asari 846- (1435-36) yili Sayyid Ahmad tomonidan yozilgan. Sayyid Ahmad Amir Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘lidir. “Sayyid Ahmad – salim ta’b va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkey, ham forsiy g‘azal tavrida devoni bor. Va masnaviy tavrida “Latofatnoma” aningdur. Bu turkcha matla’ yaxshi voqe’ bo‘lubturkim,

Sayd etti firoqing meni murg‘I sahariydek,
Qil odamiylik, qilma yuzni nihon pariydek.
Bu forsiy matla’ ham aningdekdurkim:
Maham gar pesh az in pinhon bimonad,
Ajab, gar bediloono jon bimonad.

(Agar oy yuzligim bundan keyin ham pinhon qoladigan bo‘lsa, bedillarning omon qolishi ajablanarlidir” – degan jumla keltiradi Alisher Navoiy o‘zining ‘”Majolis un-nafois” asarining VII majlisida [Rahmonov, 2017: 55].

“Taashshuqnoma”ning muqaddimasida uning yozilish sababi izohlanadi. Muqaddimada Shoxruh Mirzoga madhiya yozilgan. Bu baytda talmeh san’atidan o‘rinli ravishda foydalanilgan. Talmeh san’ati asarda mashhur tarixiy shaxslar, sultonlar, joy nomlari, tarixiy voqealarni qo‘llash san’atidir. Bu san’atni qo‘llash, asar xoh nazm, xoh nasrda bo‘lsin uning badiiy dalillashini oshiradi. Quyidagi baytda ham talmeh san’atiga misollar uchraydi. “Shahanshohi johon Doroyi a’zam, Fardun siyratu Jamshid maqadam. Sulaymon talatu Kayxusrav irshod, Sikandar shavkatu Nushiravon dod”. Doro, Faridun, Jamshid, 2-baytda esa Sulaymon, Kayxusrav, Iskandar, Nushiravon kabi talmehlar ishlatiladi. Mifologik va tarixiy shaxslarga murojaat qilib talmeh yaratish tantanali uslubni yuzaga keltiradi. Shuni aytish joizki, bu uslubni Alisher Navoiy o‘z asarlarida keltirgan va salmoqli tarzda rivojlantirgan. Asar 319 baytdan iborat bo‘lib, Xudo va payg‘ambarga bag‘ishlangan hamd-u sano, na’t, munojat, kitob sababi Shoxruh Sulton madhi, 10 noma, kitob xatmin aytur, iltimosin aytur qismlaridan tashkil topgan. Asar boshqa nomalardan 3 qismdan (noma, g‘azal, so‘zning oxuri) iborat ekanligi, asar tilining sodda va ravonligi va maftunkor badiiy kuchi bilan ajralib turadi. Asar boshdan oyoq o‘zbek tilida bitilgan. Mana uning asosiy kuchi va farqi. Shoir asarda aytadiki, inson yashar ekan, sevgi ham inson bilan yashaydi. Sevgi-muhabbat bu – borliq bilan chambarchas bog‘liqdir. “Xaloyiqlarnikim Xoliq yaratdi, Seni Uzro, meni Vomiq yaratdi”. Shoir e’tiroficha ishqni ham, oshiq va ma’shuqani ham Olloh ilohiylashtirib yaratgan.

Demak, u muqaddas, demak bu tuyg‘uni inkor etib bo‘lmaydi. Ijodkorning bu ta’rifi tahsinga sazovordir. Shoir asar boshida uning qachon, qancha vaqtda yozilganligini qayd etadi: “Taashshuqnoma”ni himmat bo‘lur yor, Tugatdim yetti kunda bemadadkor. Sekiz yuz o‘ttuzu to‘qquzda erdi, Ki, so‘z poyona etmak dast berdir”. Asarda oshiqning kechinmalari so‘zsiz tarzda yetkaziladi. Bu tasvir bilan hayotga muhabbat kuylanadi. Ilohiy ishq madh etiladi. 6-noma: “Ayo, husn-u malohat ichra foxir, Ne bo‘ldukum unuttung bizni oxur Sochingdur laylatulqadr, yuzung oy, Bo‘yung tubou husnung jannnataroy”. [Rahmonov, 2017:94].

Garchi asar bo‘yicha u qadar ko‘p ilmiy izlanishlar qilinmagan bo‘lsa-da, ushbu maqolada “Taashshuqnoma” bo‘yicha qilingan bir qancha tadqiqotlar aks ettiriladi. Yirik turkolog olim Samoylovichning “Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalida e’lon qilingan “Muhabbatnoma” va “Taashshuqnoma” maqolasi tadqiq etiladi. Uning bu maqolasi “Muhabbatnoma”, “Taashshuqnoma” dostonlari haqidagi keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy yangilik bo‘lib hissa qo‘shdi. Samoylovichning “Taashshuqnoma” asari haqidagi fikrlari “Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalining 1927-yil 3-4-sonida chop etildi. Maqolada uning o‘zi ta’kidlaganidek, Navoiy xotirasiga bag‘ishlab nashr qilinayotgan majmuada Ittifoqi anjumani donish tomonidan uning O‘rta Osiyo turklarining muttahid adabiy tili davrlashtirilishi haqidagi maqolasi bosilgan.

Samoylovich Chig‘atoy tili deb O‘rta Osiyo o‘zbek adabiyotining takomilidagi eng uzun umr ko‘rgan 3-davrni (XV-XX asrlar) olgan.London shahridagi “Britaniya” muzeyida saqlanadigan ikki noyob asar qo‘lyozmalari Samoylovich diqqatini tortdi. Ularning biri Qipchoq-o‘g‘uz davriga (XIV asr) qarashli Sirdaryoda yozilgan Xorazmiyning “Muhabbatnoma” (1353), ikkinchisi Chig‘atoy davriga taalluqli Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” asaridir. Xorazmiy boshlab bergan nomachilikni Sayyid Ahmad munosib davom ettirganini Samoylovich alohida e’tirof etadi. [Muradova, 2023: 291–294].

Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” asarida ham avvalgi nomalarda bo‘lgani kabi oshiqning ma’shuqaga bitgan maktublari aks etadi. Maktublarda oshiqning holati, ma’shuqaning tavsifi, oshiqlarning bir-biriga dil izhorlari, sevgi yo‘lidagi his-hayajonlari aks etadi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida har bir nomadan keyin soqiyga murojaat qilingan masnaviylar keltiriladi. Sayyid Ahmadning asarida ham 3–5 baytdan iborat “so‘zning xulosasi” qismi har bir nomaning so‘nggida beriladi. Ko‘rinadiki, “Muhabbatnoma”da har bir masnaviy Saburdin yaxshi yo‘qtur pesha qilsam, Bu yo‘lda sabr yo‘q andesha qilsam bayti bilan yakunlansa, “Taashshuqnoma”dagi har bir “so‘zning xulosasi” Tahammul yaxshi ishdur pesha qilmoq, Taxayyul birla ham andesha qilmoq bayti bilan tugaydi. Bundan ko‘rinadiki, Sayyid Ahmad uchun Xorazmiyning asari andoza bo‘lgan. Biroq, Sayyid Ahmad “Taashshuqnoma”ni uslub, mazmun va shakl jihatidan butunlay yangi asar darajasiga ko‘targan. “Taashshuqnoma”ning avvalgi nomasi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Ayo, zebo/ sanamlar ko‘r/kaboyi,
U– – –/ U— — —/ U— —
Qamuq shahlar/ gadoyingning/ gadoyi.
U— — — / U— — —/ U— —
Bu kun husn o‘r/dasinda po/d(i)shosen,
U— — — / U — — —/ U — —
Zarofat o/laminda mah/liqosen.
U – – –/ U— — —/U — —

Shoir baytda tanosub, tazod, tashbih she’riy san’atlarini bir yerda istifoda etish orqali vaznning ohangdorligini oshirgan. Baytning o‘lchov imkoniyatini saqlash uchun uchinchi misradagi “podshosen” so‘zini imola orqali “pod(i)shosen” kabi talaffuz etish kifoya. Shunda bir cho‘ziq hijo(–)ning o‘rniga o‘ta cho‘ziq hijo (–U) qo‘llaniladi. Shoir “Taashshuqnoma” asarida tajnisli so‘zlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. Balki shuning uchundir, 19 baytdan iborat bo‘lgan ikkinchi noma faqat tajnisli qofiya bilan yaratilgan. Bunda shoir fikrning chiroyli va ma’noli chiqishiga erishgan. U nomada tajnisni qo‘llash orqali oshiqning dil izhorlari ila ma’shuqaning ko‘ngliga yo‘l topmoqchi bo‘ladi: Quyoshdur orazing yo Mushtariydur, Ki jon birla jahoni mushtariydur. Visoling zavqi-n+istab ey dilorom, Ta-n+ichra topmadi miskin dil orom. Dilnavoz Yusupova aruzshunos ustozimiz asar baytlarini juda go‘zal tarzda vaznga solib chiqqanlar va asar qofiya jihatdan ham adabiy san’atlar jihatidan ham mukammal tarzda o‘rganilgan, ochib berilgan.

“Taashshuqnoma” asarida oshiqning dil izhorlarini hazaji musaddasi maqsur vaznida bitilgan baytlar orqali ham ifodalash kuzatiladi. O‘zbek adabiyoti tarixida noma janrida o‘z nomini abadiylashtirgan qalamkashlardan biri Sayyid Ahmad ibn Mironshohdir. Bu shoirning tarjimayi holi va hayot faoliyati haqida keng ma’lumotga ega emasmiz. Sayyid Ahmad turkiy va forsiyda she’rlar yozib turgan, devon tartib qilgan, shuningdek, bizga ko‘proq u haqida ma’lumot beruvchi yagona manba – “Taashshuqnoma”dir. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida (VII majlisida) ham shoir haqida ma’lumot olamiz. Shoir temuriylardan bo‘lgan. Davlatdagi taxt uchun kurashlar, ichki nizolar, davlatdagi mushkul vaziyatni o‘z asarlarida ifodalaydi. Uning ijodiy merosidan bizgacha “Taashshuqnoma” yetib kelgan. Bir narsani aytib o‘tish lozim, ma’lum sabablarga ko‘ra, Alisher Navoiy bu asarni “Latofatnoma” deb ataydi (“Majolis un-nafois”da). [Rahmonov, 2017: 55]

SayyidAhmadning“Taashshuqnoma”asaribo‘yicha e’lon qilingan tadqiqotlardan eng ko‘zga ko‘rinarlisi,

yuqorida keltirib o‘tilgan rus olimi Samoylovichning asar xususida olib borilgan tadqiqoti hisoblanadi. Olim birma-bir bu ikki asardagi o‘xshashliklarini misollar bilan ko‘rsatib beradi: “Muhabbatnoma”da 2-bobining boshida “Taashshuqnoma”ning 3-bobining boshida o‘xshashlik bor: Salomim yetkur ay pok jahongir, Nigorim hasratida qilma Tohir. Salomim ayta ko‘r, tinmay toyinmay, Xudoy uchun yovuq yetkinda yonmay. Samoylovichning bu maqolani yozishdan maqsadi, ikki davr, Qipchoq-o‘g‘uz va Chig‘atoy davriga xos bo‘lgan noma janrdagi dostonlar haqida ilk ma’lumotlarni berish, bu ikki asar tillar orasidagi o‘zaro yaqinliklar va farqlarni ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Samoylovichning bu maqolasi “Muhabbatnoma” va “Taashshuqnoma” dostonlarining keyingi ilmiy o‘rganilishi uchun yo‘nalish bo‘lgan tadqiqotdir. “Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnali o‘z davrida ilmiy fikr rivojiga yordam beruvchi shunday adabiy-tanqidiy, ilmiy maqolalarni e’lon qilib borgan.

Dastlab fors adabiyotida vujudga kelgan noma janri turkiy adabiyotda munosib o‘rin egalladi. Ilk noma janridagi asar Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asarlarni tadqiq etishni izchil davom ettirish ular mohiyatini anglashga imkon beradi. Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” asari o‘rganilishi o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. Asarning tili ravonligi, oshiq va ma’shuqa timsolida vatanni sevish his tuyg‘ularini aks ettirilganligi kishini o‘ziga jalb etmay qolmaydi. [Muhitdinovna, 2022:45]

Xulosa qilib aytganda, maqolda keltirib o‘tilgan izlanishlar, o‘rganishlar natijasi o‘laroq, “Taashshuqnoma” asari va noma janrining o‘ziga xosliklari o‘quvchida ushbu janrga va unda yaratilgan asarlarga qiziqishni yana-da uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyatlar

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2017. 94-bet `.
2. Muhitdinovna Sh.R. Noma janriga mansub dostonlarning vazn xususiyatlari. Doktoranti, PhD International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”.- 2022, No 4 (45) – P.158-177.
3. Muradova A. Samoylovichning «Muhabbatnoma va Taashshuqnoma» maqolasi xususida. ¬¬¬¬– International scientific conferences with higher educational institutions, 1(11.02), 291–294.
4. Kholikova N. Poetic features of uzbek poetry of the national awakening period. Theoretical & Applied Science, (4).- 2020. – P.615-623.
5. Azimova O‘. Noma janrining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni. – Farg‘ona, 2017.
6. А.Н.Самойлович. Таашшуқнома. – М.1927.
7. Jamolova M. O‘zbek adabiyotida noma janri. – T.: Fan, 1992.
8. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 1972.
9. Djokhongirovna K. N. The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6). –P. 2020. 4045-4054.

Nurxon ACHILOVA,
SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA AJDARHO TIMSOLI TALQINLARI

Annotatsiya: Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ajdarho obrazi faqat salbiy ma’no tashuvchi dahshatli maxluq timsolida aks etgan. Chunki “Saddi Iskandariy” dostonidagi ajdarho obrazi majoziy ma’noda odamni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradigan nafsni, shuningdek, ijod qilishdagi eng kata to‘siq – qo‘rquvni bildiradi. Alisher Navoiy “Xamsa” yozishga kirishishda bo‘ladigan qo‘rquv va vahimani qanday yengganini ajdarhoga bo‘lgan kurashida badiiy tarzda ko‘ratadi.

Kalit so‘zlar: *Navoiy, “Saddi Iskandariy”, ilhom, ajdarho.*

Аннотация: образ дракона в саге Алишера Навои “Садди Искандарий” отражен только в образе ужасного существа, несущего негативный смысл. Потому что образ дракона в эпосе “Садди Искандарий” образно передает эго, которое вводит человека в заблуждение, а также величайшее препятствие на пути творчества – страх. Алишер Навои художественно показывает, как он справлялся со страхом и паникой, которые возникали, в образе дракона когда он начинал писать "Хамсу".

Ключевое слово: *Навои, "Садди Искандарий", вдохновение, Дракон.*

Annatation: ethe image of the dragon in Alisher Navoi's saga “Saddi Iskandari” is reflected only in the image of a terrible creature carrying a negative meaning. Because the image of the dragon in the epic “Saddi Iskandari" figuratively conveys the ego, which misleads a person, as well as the greatest obstacle to creativity – fear. Alisher Navoi artistically shows how he coped with the fear and panic that arose in the image of a dragon when he started writing "Hamsa".

Keywords: *Navoi, Saddi Iskandari, inspiration, Dragon.*

Alisher Navoiy “Saddiy Iskandariy” asarining 29 joyida ajdarho (23 marta ajdaho va 6 marta ajdar deb keltirilgan) obraziga murojaat qilgan. Gohida shoir ajdarho nomini tilga olmasa-da, lekin unga sha’ma qilgan joylari bor.

Jumladan osmon sayyoralari haqida so‘z yuritganda Mirrix (Mars) sayyorasini “Bahrom” deb ataydi. Mumtoz adabiyotda “Bahrom falak” yoki Mirrix (Mars) sayyorasi «Osmon ajdarhosi» deb atalgan.

Beshinchiga chun yetkurub gomni,
Qilib bandai amri Bahromni [1,22].

Bu maxluq dastlab “Saddiy Iskandariy” asarining III-bobida «Sayyid-ul-mursalin», ya’ni payg‘ambarlarning ulug‘i nomini olgan Muhammad alayhissa-lom haqidagi na’tda keltirilgan. Alisher Navoiy payg‘ambar haqida so‘z yuritib, uning tuzog‘iga qush bo‘lib tushgan Azozil ham, oyog‘ining ostiga yiqilgan boyo‘g‘li kabi qo‘shlar ham payg‘ambar sharofati bilan bahtiyor bo‘lishini aytib, quyidagi baytlarni keltiradi:

Birovkim erur ganj vayronasi,
Ne g‘am ajdaho bo‘lsa hamxonasi.
Alarkim o‘lumga davo qildilar,
Aso tashlabon ajdaho qildilar.
Ochilg‘och kalomingdin obi hayot,
Ani to‘rt burqa’g‘a soldi uyot.
Chu habli matining ayon qildi zo‘r,
Munung ayladi ajdahosini mo‘r [1,23].

Alisher Navoiy “Xamsa” yozishiga bo‘lgan sabablar va xamsanavis salaflari – Nizomiy Ganjaviy, Husrav Dehlaviy va Nizomiy Ganjaviylar haqida VIII bobda gapira turib, bu ustozlarning Navoiy ijodiga samarali ta’sir o‘tkazganini va shularning yordami bilan ijod yo‘lida oldidan chiqqan ajdarhoga o‘xshash har qanday mushkullar, qiyinchiliklar aslida unga zarar qila olmay, balki Musoning ajdarhosi kabi suyanch bo‘luvchi, madad beruvchi hassaga aylanishini keltiradi:

Yo‘lumda nekim ajdaholiq qilib,
Qo‘lumda madadg‘a asoliq qilib.

Shu asnoda, shoirda «Xamsa» yozish havasi tug‘ildi. U o‘tmishda yozilgan «Xamsa»larni, undagi vodiylarni, tog‘larni, daryolarini bir-bir ko‘zdan kechiradi, ma’lum bo‘ldiki, «Xamsa»ning har bayti ichiga bir jahon yashiringan ekan. Shoir «Xamsa»ning qaysi burchagiga qaramasin, ularda butun bir olam tovlanar edi. U yerdagi tog‘larning har bir toshi nihoyatda o‘tkirligi sabab oyni ham uning tepasidan tez o‘tib ketishga majbur qilardi. G‘orlarida esa o‘z damiga tortib, halok qiluvchi ajdarholar bor edi. Ular odamlarni yutish uchun og‘izlarini ochganlarida atrofga balo o‘tlari sochilar edi. Ajdarholarning tishlari shu alanganing o‘ti edi, og‘zidan chiqqan o‘t alangasi esa tilga aylanib, osmonni yalar edi:

To‘lo g‘orlar ajdahoyi damon,
Dami o‘ylakim ajdahoyi zamon.
Yutarg‘a chu og‘izlari ochilib,
Sharori balo har taraf sochilib.
Ul o‘tqa o‘tun tishlaridin qalab,
Zabona tilidin falakni yalab [1,40].

Alisher Navoiy “Xamsa” dashtida xuddiki Majnun kabi kezadi, “Xamsa” yozish mashaqqati uni ko‘p va turli xayollarga yetaklaydi. Ijod dashtida u ko‘plab ulkan devlarni ko‘radi, ularni yengish mashaqqatini sezadi. “Xamsa” dashtiga boqar ekan, bundagi mehnat-mashaqqatlar jahonga sig‘masligini oshkor-u nihon tushunadi. Biroq bu yerlarda ma’nolar ganj-xazinalari nihoyatda ko‘p ekanini ko‘radi va har bir xazina ustida ularni qo‘riqlab yotuvchi yuzlab ajdarholar ham borligini biladi:

Nazarg‘a kelib ganji beintiho,
Vale har biri uzra yuz ajdaho [1,41].

Biroq shoir “Xamsa” yozishda vahimaga tushmaslikni, agar Haq, ya’ni Allohning o‘zi uni hidoyati bilan inoyat etsa, shoir chumoli kabi ojiz bo‘lsa ham, ulkan ajdarholar uning qoshida zabun, bechora bo‘ladi:

Vale Haqdin o‘lsa inoyat sanga,
Tulu’ etsa mehri hidoyat sanga.
Necha mo‘r esang baxt o‘lub rahnamun,
Sanga ajdaholarni qilg‘ay zabun.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning yoshligidan harbiy ishlarni o‘rganishga bel bog‘lagani haqida so‘z yuritib, uning jang maydonida pahlavonlik ko‘rsatishi va ajdarholarni chirik ip kabi uzib, bo‘lak qilib tashlaganini keltiradi:

Chu maydon aro zo‘r rasmin tuzub,
Churuk ip kabi ajdahoni uzub [1,70].

Alisher Navoiy Iskandarning Hindistondagi safari, uning uchun yangilik bo‘lgan tabiat va

hayvonot dunyosi bilan tanishishini tasvirlar ekan, filning shakli-shamoyili, uning tog‘dek qomati va ajdardek xartumini ta’riflaydi. Uning nazarida bu fillar kema emas, osmonga o‘xshaydi, xartumlari esa ko‘kdagi somon yo‘lini eslatadi, domiga tortuvchi ajdahoga o‘xshashini, salobatda esa ajdardan ham qolishmasligini keltiradi. Fil uzun xartumini o‘z tanasi ustidan aylantirganda toqqa ajdaho chirmashayotgandek tasavvur hosil bo‘ladi:

Ne xartumkim, gurza mori damon,
Salobatda ajdar hamon, ul hamon.
Chu jismig‘a har lahza ul aylanib,
Degil tog‘ aro ajdaho chirmanib [1,234].

Dostonda Alisher Navoiy ajdarho obrazini, asosan, tashbeh, majoz mazmunlarida keltiradi. Gohida uni sehrgarga, zulfga:

Aning qilsa zulfi yilonni fusun,
Fusunum qilur ajdahoni zabun.

gohida esa ulkan gavdali odamlarga o‘xshatadi:

Qayu qavm, Tengri balosi alar,
Jahon ganjining ajdahosi alar.
Bu maxzanki, har toshidur bebaho,
Bo‘lub bu xaloyiq anga ajdaho [1,336].

Alisher Navoiy zarurat bo‘lganda ilon tushunchasini ajdarho tushunchasidan alohida talqin qiladi. Bunday badiiy usul qarshilantirish, qiyoslash va badiiy tasvirni bo‘rttirish uchun qo‘llaniladi:

Yana qolg‘on uch kunchilik yo‘lki bor,
Yilondur hamul dasht aro ulki bor.
Erur kafchau, af’iyu ja’fari,
Bo‘lub har bir ul ganjning ajdari [1,362].

Mazmuni: U ilonlar kofcha, af’i, ja’fariy kabi zaharli ilonlar bo‘lib, har biri u yerdagi xazinalarni poylaydigan ajdaholardir. Ularning soni ming tumandan oshadi, ming tuman qayoqda, balki u ilonlarning son-sanog‘i yo‘q.

Ma’lumki, og‘zaki ijod namunalari yaratilish davri ancha qadimgidir. U vaqtda folklor asarlari sof milliy va qadimgi mahalliy dunyoqarashni o‘zlarida namoyon qilgan. Bu jihatdan olib qaraganda ajdarho, sazag‘an, ilon obrazlari ezgulik timsoli, totemistik mazmunli obrazlar bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Садди искандарий. [Elektron resurs]: https://n.ziyouz.com/books/ alisher_ navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20 Saddi%20Iskandariy%20(nazm). pdf (Murojaat sanasi: 23.04.2022).
2. Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. VIII жилд. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991.-595 б.
3. Алишер Навоий, Фарҳод ва Ширин. MAT, 20 томлик, 8-том. [Elektron resurs]: URL http://navoi.natlib.uz:8101/uzb/xamsa_farhod_va_shirin_sakkizinchi_tom/1 _10/. (Murojaat sanasi: 11.08.2020).

Hamid ERGASHEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakultetining 3-kurs talabasi

JADIDCHILIKNING MAYDONGA KELISHI VA TADRIJIY RIVOJLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada, jadidlar, jadidchilik va ularning g‘oyalari, xalq mustaqilligi uchun olib borgan ishlari haqida fikr yuritiladi. Jadidchilikning rivojlanishi, tarkib topishi, bugungi va kelgusi hayotimizdagi o‘rni, qilgan ezgu ishlari yuzasidan mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, xalq, Turkiston, Buxoro, Xiva, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, jadid adabiyoti.*

Annotation: this article discusses the Jadids, Jadidism, their ideas, and their work for the independence of the people. Comments are made on the development of Jadidism, its composition, its place in today's and future life, and its good deeds.

Key words: *jadidism, enlightenment, education, folk, Turkestan, Bukhara, Khiva, Abdulla Avloni, Cholpan, Jadid literature.*

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish, kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o‘ng tomonga ham, chap tomonga ham og‘masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtayi nazaridan yo‘l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og‘u kabi insonni zaharlaydi, uning ongini,

dunyoqarashini chalg‘itadi. Shunday ekan biz o‘tmish tariximizni yoritishda birlamchi manbalarga murojaat qilishimiz kerak bo‘ladi. XX asrning 20-yillariga oid asosiy manbalardan biri bu – milliy ziyolilarimiz tomonidan nashr qilingan milliy matbuot organlari hisoblanadi. Jamiyatni qisqa fursat ichida o‘zligini toptirish yo‘lida qilingan harakat o‘z aksini topadi: “Tarixdan shu narsa ma’lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o‘taydi. Bu kungi mag‘lubiyat ertangi g‘alabaning amalga oshishida ozmi-ko‘pmi rol o‘ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin”.

Jadidlik, Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o‘zining cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Jadidlik 1917-yilgi to‘ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o‘rnatilgunga qadar o‘z mavqe va yo‘nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba’zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba’zisida harakat deb aytiladi.

“Jadidlik oqim emas, harakat” – deb ta’kidlaydi B.Qosimov. Oqim bilan harakat o‘rtasidagi tafovut anchagina bo‘lsa-da, maqsad jadidchilik doirasini qoralash orqali kamaytirish edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo‘lib izohlaydi:

• Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.

• Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

• Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Endi jadidlarning bu harakatlarni qanday boshlaganlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim-tatarlar o‘rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadidlarning dolzarb g‘oyasi yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish edi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm)lar turar edi.

“Til-aloqa vositasi”, “so‘z” esa, insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozidir. Demak, kishi til vositasida boshqa kishiga, dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zining ma’naviy qiyofasini ko‘rsatadi. Shuning uchun Abdulla Avloniy og‘zaki nutq hamda adabiy til tozaligi masalalariga alohida diqqat-e’tibor bilan qaragan edi.

Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o‘z ketidan ergashtira oladi. Shuningdek, jadidlar, ota-onalarga o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta’kidlaganlar. Yoshlarimiz, maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, rivojlangan davlatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar.

Jadidchilikni shakllantirishda ko‘plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o‘rta asrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi

edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, XIX asr boshlarida mavjud bo‘lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo‘lgan avlodning qarashlari asosan ma’rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma’rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o‘zgartirish yo‘lidan bordilar.

Xalq ichidagi ko‘plab ziyokorlarning yo‘q qilinishi o‘zbek xalqi uchun juda katta yo‘qotish hisoblangan. Bir ziyoli shoir birgina harakati orqali butun jamiyatni erkinlikka boshqa xalqqa qo‘shilib ketmasdan o‘z fikri va ongiga ergashishiga ma’nan ko‘mak bera boshlagan. Vaholanki, Cho‘lpon o‘z she’rlarini vatanida chop ettira olmaydi. Bunga misol qilib uning “Yaproqlar” she’rini keltiramiz:

Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar,
Bilmadim, kimlarning qismati uzilur?
Yaproqqa yopishib, bir changal soldilar,
Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur?

Cho‘lponning ushbu she’rida xalqqa bo‘lgan achinish, dushmanlarga bo‘lgan cheksiz nafrat yaqqol sezilib turadi. Shoir butun umrini o‘z vatani, xalqiga sarfladi. Hozirgi O‘zbekiston yoshlari orasida Cho‘lpondek yoshlar ko‘plab topilishiga ishonchimiz komil. Jadidlarning bunday harakatlari samarasiz ketmadi. Hozirgi kunda ularning xotiralariga bag‘ishlab ko‘plab ishlar amalga oshirildi, kitoblari chop etildi, undan tashqari Jadidlar xiyoboni tashkil etildi. Yurtboshimiz ham jadidlar to‘g‘risida shunday deydilar: Hozirgi davrga kelib, birinchidan, jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etildi, uning xizmatlari tan olindi. Ikkinchidan, jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o‘nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intiqib kutilgan ezgu g‘oyalar amalga oshmoqda. Yurtimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo‘ldi. Jadidchilik tarixiga bugungi kun nazari bilan qaralishi kerak. “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir...” Bugunga kelib, Yangi O‘zbekistonda ana shu tamoyilga qat’iy amal qilinyapti. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi ayrimlar o‘ylaganidek yuqoridagi tamoyilning mavsumiy emasligiga qat’iy ishora bo‘ldi. Ma’naviyat haqida gap borganida millat yetakchisining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida qayd etilgan ushbu mulohazalari yodga tushadi: “Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim-tarbiya tizimining o‘zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi tura olmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisha olmaymiz...” Ha, chindan ham ma’naviyatga doir mulohazalar jadidchilik harakati va millat oydinlari bilan bog‘lanayotgani bejiz emas. Chunki, bugungi yangilanishlar davri xuddi jadidlar zamonidek, xalq tafakkurining ijtimoiy zarurat sifatida yangilanishini talab qilmoqda.

“Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz me’rosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Shunday ekan, Jadidlarning: “Umummilliy tilni saqlamak ila barobar, og‘iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur”, – deb hayqirganligini ma’naviy hayotimizda ijobiy hodisa ekanligini va ayniqsa, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tulak. XX asr adabiyoti. – Andijon, 1993.
2. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – T.: Ma’naviyat, 2002. 61-bet.
3. A.Murodov. “Milliy tiklanish” gazetasining 2024-yil 17-yanvar sonidan olindi.

Internet sahifalari

1. https://www.bukhari.uz/?p=23165&lang=oz
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik

Biz quyida barcha she'riyat ixlosmandlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 3-kurs talabasi Ergashev Hamid O'ktam o'g'lining "Yetmish yosh muborak, ey Buvijonim" she'rini havola qilamiz:

YETMISH YOSH MUBORAK, EY, BUVIJONIM

Erta tong saharda bomdodga turgan,
Allohim qalbiga iymonni solgan.
Yuzi nur, ko'zlari quvonchdan kulgan.
Bugun shodligidan ko'nglimiz to'lgan,
Yetmish yosh muborak, ey, Buvijonim.

Uyingiz hamisha, har on sarishta,
Siz esa biz uchun misli farishta.
Tinmaysiz erta-kech, har kun, har ishda,
Yetmish yosh muborak, ey, Buvijonim.

Farzandlar kamolin, baxt-u iqbolin,
Nabira jamolin, shirin so'z-bolin,
Bugun sizga yozdim dildagi borim,
Yetmish yosh muborak, ey, Mehribonim.

Yuzlarida nur, ko'zlari kulgan
Tabassum doimo hamrohi bo'lgan,
Qo'llari hamisha duoda turgan,
Yetmish yosh muborak, ey, Buvijonim.

Bugun tashvishlardan yiroq bo'ling siz,
Bobomga hamisha hamroh bo'ling siz.
G'amlarni unuting, faqat kuling siz,
Yetmish yosh muborak, ey, Buvijonim.

Sochingizga oqlar tushib, ancha horibsiz,
Mehnat qilib, tinim bilmay, rosa tolibsiz.
Yetti farzand mehrini, siz, birdek beribsiz,
Ajratmabsiz, ayirmabsiz, sen kam, sen ko'p deb,
Seni bo'ying uzun, sen betayin deb.

Barini suyubsiz, birdek ko'ribsiz,
Ko'ngliga muruvvat cho'g'in solibsiz.
Bolam, joning sog'mi? Usting butmi?
Qorning to'q, ko'ngling to'q, g'amlaring yo'qmi?
Sabr qil hamisha olg'a yur, – debsiz.

Bugun yutug'idan quvnar ko'zingiz
G'am kelsa bildirmas hech bir so'zingiz.
Ortga emas, bolam, oldinga, – degan o'zingiz,
Yetmish yosh muborak, ey, Buvijonim.

Bobomning suyanchi, suyukli yori
Qalbimning nurisiz, ko'nglim ardog'i
Gullarga burkansin umringiz bog'i.
Hech eshik qoqmasin, eh, farzand dog'i...
Yetmish bahor muborak, ey, Buvijonim,
Yetmish yosh muborak, ey, Buvijonim.